

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT
INSTITUTI**

SOTSIOLOGIYA FANIDAN

MA'RUZA MATNI

QARSHI – 2016 y

Tuzuvchi:

ass. SH. Elboyeva

Taqrizchilar:

dotsent. A.SHaymanova
dotsent. Yu. Manzarov.

Ushbu ma'ruzalar matni «Ijtimoiy fanlar» kafedrasining «__» _____
2016_ yil, Bayon № ____«__» va Institut Uslubiy Kengashining Bayon № ____
«__» _____ 2016_ yil da muhokama qilinib ko'p nusxada chop etishga ruxsat
etilgan.

Fan bo'yicha ma'ruzalarga ajratilgan vaqt

№	Mavzular nomi	Ajratilgan soat	Eslatma
1	Sotsiologiya fan sifatida.	2	
2	Sotsiologiya strukturasi	2	
3	Jamiyat yaxlit tizim sifatida	2	
4	Sotsial guruhlar va sotsial institutlar	2	
5	Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq atvor	2	
6	Jamiyatning sotsial strukturasi va stratsifikatsion jarayonlar	2	
7	Sotsial munosabatlar	2	
8	Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari	2	
9	Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari	2	

Mazkur ma'ruza matnlari to'plami sotsiologiya fanidan 18 soatga mo'ljallangan bo'lib, barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlariga mo'ljallangan. To'plamda barcha mavzular bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Ma'ruzada sotsiologiyaning tarkib topishi va rivojlanish qonuniyatlari etarlicha bayon etib berilgan. Ma'ruza matni sotsiologiya fani namunaviy va ishchi dastur asosida tuzilgan.

V sbornike tekstov leksii osveshena osnove problem, seli i zadachi predmet sotsiologii, takje vzglyad sovremennx uzbekskoy sotsiologicheskix shkol i metod sotsiologicheskogo issledovaniya. Tekst leksii namerina 18 chasov.

In this collection of lectures were shown wholly the aim and functions of sociology the branches of studying directions history. About modern uzbek sociology shol Besides maky sociologis investigations were also shown.

KIRISH

Sotsiologiya mustaqil fan sifatida Respublikamizda mustaqillik sharofati bilan yuzaga keldi. Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy iqlim shakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zgarishlar kuzatilmogda, sotsial tarkibda o'zgarishlar qayd qilinmogda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Vatanimizda sotsiologiya hech qanday to'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi. Sotsiologik fikrlashning eng muhim jihati jamiyat hayotida inson shaxsini tushunishdan iboratdir. Shaxsga bo'lgan sotsiologik nuqtai nazarning o'ziga hosligi shundan iboratki, bu fan unga ijtimoiy voqeilikni o'zgartiruvchi faol mavjudot sifatida qaraydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Barcha sohalarda amalga oshiralayotgan islohotlar, tarixiy merosimizni chuqur o'rganilishi an'ana va urf –odatlarimizning saqlanishi madaniyat, fan va ta'lim rivoji bilan bog'liq.

Prezidentimiz I. A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarida istiqlolimizning qo'lga kiritgan ilk kunlaridan boshlab, biz milliy g'oyamizning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqishga harakat qildik. Shu maqsadda ijtimoiy fanlar sohasidagi etakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyolilar keng jamoatchiligimiz e'tiborini eng muhim masalaga qaratdik¹.

Shu maqsadda Prezidentimiz Farmoni asosida respublikamizda «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi tashkil etilib, keng miqyosda ish olib bormoqda. Barcha viloyatlarimizda ham markaz bo'limlari tashkil etilgan. Ayni vaqtda Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutimiz «Ma'naviyat va ma'rifat» bo'limi qoshida ham «Ijtimoiy fikr» markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Sotsiologiya fanini o'rganishga kirishgan har bir kishi bu fanning o'ziga xos so'zlari, atamalari bugungi ahvoli haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bu fan nima uchun kerak degan savolga ham javob bera olishi kerak. Ushbu savollarga javob olishda va fanni chuqur o'rganishda ushbu ma'ruzalar to'plami yordam beradi deb hisoblaymiz. Bu fanni mukammal o'rgangan kishi ijtimoiy jarayonlar, ularda yuz berayotgan zohiriy va botiniy o'zgarishlarni, ilmiy amaliyotga nazariy-metodologik jihatdan qurollangan holda kirisha oladi, keng jamoatchilik fikrini shakllantirish va uni mustaqillikni mustahkamlash va istiqlol yo'liga to'la safarbar etish amaliyoti sirlaridan voqif bo'ladi. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va amaliyoti mazmunini o'rganish, jiddiy ilmiy ishga tayyorgarlik ham demakdir.

¹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T. "Ma'naviyat" 2008, 20-bet.

1-MAVZU: SOTSILOGIYA FAN SIFATIDA.

REJA:

- 1.1. Sotsiologiya fanining vujudga kelishi.
- 1.2. Sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti
- 1.3. Sotsiologiyaning fanlar bilan aloqadorligi.
- 1.4. Sotsiologiyaning hozirgi zamon sohaviy tizimlari

Mavzu bo'yicha tayanch atamalar:

Ijtimoiy norma, rol, mavqe, sotsiologiyaning bosh maqsadi, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi, sotsiologiyaning asosiy tarmoqlari, sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi, umumsotsiologik nazariyalar, maxsus nazariyalar, O'zbekistonda sotsiologiyaning ob'yektlari, empirik tadqiqotlar, struktura, pozitiv sotsiologiya, predmet, tadqiqot ob'yekti, tarkibiy tuzilishi, ijtimoiy, nazariy va empirik sotsiologiya, maxsus va tarmoq yo'nalishlar, sotsial psixologiya

1.1. Sotsiologiya jamiyat haqidagi fandır. Sotsiologiya jamiyatning ichki tartikini, uning amal qilish tartibotlari va rivojlanish qonunlarini o'rganadi. Mamlakatimizda sotsiologiya fanining taraqqiy topishida milliy istiqlol g'oyasining mohiyat va mazmuni muhim dastur bo'lib xizmat qiladi. Milliy istiqlol g'oyasi sotsiologiya fanining umuminsoniy va milliy tamoyillar asosida tili va dinidan qat'iy nazar har bir fuqaro qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalari sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'ularinini qaror toptirish yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borishni kun tartibiga qo'ydi².

Sotsiologiya³ – lotincha «sotsiotos» – jamiyat va yunoncha «logos» – ta'limot, tushunchalarining birligidan tashkil topgan bo'lib, jamiyatning rivojlanishi haqidagi, jamiyat tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ular orasidagi ijtimoiy munosabatlar to'g'risidagi fandır⁴.

Sotsiologiya – insoniyatning bir necha yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

XVIII asrda kishilik jamiyati, uning qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida tarix falsafasi shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi. XIX asrgacha sotsiologiya falsafaning tarkibiy qismi bo'lib keldi.

XIX asr boshlaridan u falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo'ldi. Jahon sotsiologiya fanining namoyandalaridan biri Robert King Merton (1910 yilda tug'ilgan) shunday degan edi: «Sotsiologiya – bu o'ta qadimiy predmetni o'rganish to'g'risidagi juda yosh fan». Biz hozir jamiyat deb ataydigan ta'rifga insonlar qadim

² Milliy istiqlol g'oyasi, 43- bet.

³ U. Idivov, A. Xolbekov. Sotsiologiya lo'g'at, T. 1999 y.

⁴ U. Idivov, A. Xolbekov. Sotsiologiya lo'g'at, T. 1999 y.

zamonlardayoq qiziqishgan. 2500 yil mobaynida mutafakkirlar jamiyatni tahlil qilishgan va unga ta'rif berishgan, biroq yig'gan bilimlarini sotsiologiya deb atashmagan. Jamiyat tuzilishi haqidagi dastlabki va ancha to'liq tasavvurni antik davr faylasuflari berishgan

Qadim zamonlardan buyon jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar Sharq va G'arb mutafakkirlari umumfalsafiy g'oyalarining asosiy bo'limi sifatida qaralgan. Jamiyat rivoji, siyosat, ahloq, fan, din va san'at muammolari to'g'risidagi ilmiy qarashlar Qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunon faylasuflari, o'rta Osiyo va Yevropa mutafakkirlari tomonidan aytib o'tilgan. Bugungi kunda ikki xil – akademik sotsiologiya (jamiyat haqidagi umumnazariy tizim) va amaliy sotsiologiya (aniq ijtimoiy voqea va dalillarni o'rganish uchun ilmiy apparat) shakllandi. XX asrning ikkinchi yarmidan mana shu ikki xil sotsiologiya uyg'unlashib, birlashib, ayrim olingan hodisa va jarayonlarning rivojlanishini aniq dalillarni nazariy umum-lashtirish usuli yordamida bayon etish nazariyasi vujudga keldi.

AQShlik sotsiolog J.Smelzer o'zining «Sotsiologiya» darsligida «Sotsiologiya – jamiyat to'g'risidagi fan» ekanligini ta'kidlaydi. O.Kont esa sotsiologiyani «jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan», deb baholaydi. Fransuz mutafakkiri E.Dyurkgeym esa «Sotsiologiyaning predmeti – ijtimoiy faktlardan iborat» deb bilgan⁵.

XVII–XVIII asrlarda sotsiologiya fanining shakllanishida hal qiluvchi rolni o'ynagan «jamiyat», «madaniyat», «sivilizatsiya», «sinflar», «struktura», «funktsiya» va boshqa atamalar ilk bor paydo bo'ladi.

«Sotsiologiya» atamasi faqat XIX asr boshida – 1838-1840 yillar oralig'ida paydo bo'ldi. Uni fransuz olimi Ogyust Kont (1798–1857) yaratdi. Birinchidan, uni eng kuchli va samarali falsafiy yo'nalishlardan biri, ya'ni pozitivizmning asoschisi sanashadi. Ikkinchidan, u qudratli empirik fan – sotsiologiyaning otasi hisoblanadi. O.Kont unga nom berdi, uning predmeti va metodlarini belgiladi. XIX asrda jamiyat to'g'risidagi tajribali, empirik fanning vujudga kelishi tasodif emas, balki muayyan gnoseologik va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga ega edi. O.Kont yangi fanni yaratar ekan, taxminan quyidagicha fikr yuritgan: «jamiyatni uning turli-tuman namoyon bo'lish jihatlarida anglash uchun falsafaning o'zi etarli emas. Jamiyatni boshqa masalalar bilan bir qatorda emas, balki maxsus tarzda faqat unga e'tibor bergan holda o'rganadigan maxsus fan kerak. Jamiyat to'g'risidagi yangi fan mustaqil bilim sifatida shakllanishi uchun u bilishning falsafiy metodini rad etishi va o'zining metodini o'ylab topishi kerak. Ammo hozircha uning o'z metodlari yo'q ekan, sotsiologiya tabiatshunoslikdan kuzatish, eksperiment va solishtirma tahlil kabi usullarni o'zlashtirishi lozim». Fanga sotsiologiya nomini bergan O.Kont o'z ijodida taraqqiyot, siyosiy va iqtisodiy erkinlik ideallariga tayangan holda, u fan va ma'rifat yordamida barcha ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligiga umid qiladi. Nosog'lom jamiyatni qanday davolash mumkin, degan savolga Kont shunday javob beradi: «tabiatshunoslik fani qanday bo'lsa, jamiyat haqida ham xuddi shunday aniq va ob'yektiv fanni yaratish kerak». Sotsiologik g'oya jadal

⁵ Dyurkgeym E. Sotsiologiya metodi. M., Kanon, 1995, 31-bet.

rivojlanayotgan Yevropa jamiyatidagi inqirozga javob bo'ldi. Yangi tafakkurning maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ochiq-oydin qilishi mumkin bo'lgan intellektual vositalarni rivojlantirishdan iborat edi.

O.Kontning vatandoshi Emil Dyurkgeymni amaliy sosiologiyaning kashfiyotchisi deyishadi. U hozirgacha qo'llanib kelinayotgan funksional tahlil metodologiyasini yaratgan, o'z joniga qasd qilish muammosini chuqur tahlil qilgan. Uning bu ishlari bugungi kunda ham sotsiologik tadqiqot qanday bo'lishi kerakligiga mukammal misol bo'lib xizmat qilmoqda. E.Dyurkgeym ayni paytda ham o'zining dolzarblik qiymatini yo'qotmagan anomiya nazariyasi asosini yaratgan. Uning ijtimoiy mehnat taqsimoti, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati, ong va qadriyatlar, din evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti jahon sosiologiyasining oltin fondiga kirgan.

Nafaqat Fransiya, balki Germaniya ham jahonni buyuk sotsiologlari – Maks Veber, Georg Zimmel, Ferdinand Tennes bilan lol qoldirgan. M.Veber hamda uning hamkasblari F.Tennis (1855–1936) va G.Zimmelning (1858–1918) sharofati bilan nemis sotsiologiya maktabi Birinchi jahon urushiga qadar jahon sotsiologiyasida ustunlik qildi. Angliyada jahon sotsiologiyasi faniga ijtimoiy evolyusiya haqidagi nazariyani yaratgan va kishilik jamiyatiga tirik organizm sifatida qaragan Gerbert Spenser (1820–1903) ulkan hissa qo'shgan.

Birinchi bosqichda (XIX asr oxiri – XX asr boshi) uchta mamlakat: Fransiya, Germaniya, Angliya jahon sotsiologiya fanining markazi hisoblangan. Albatta, boshqa mamlakatlarda ham milliy sotsiologiyaning rivoji uchun ko'p ish qilgan ajoyib mutafakkirlar bo'lgan. Rossiyada ular qatoriga N.Kareev, N.Mixaylovskiy, M.Kovalevskiy, V. Xvostovlarni qo'shish mumkin. Biroq ular jahon sotsiologiyasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadilar. Pitirim Sorokin (1889–1968) bundan mustasno. Uni sotsiologik muammoni qamrashida universalligi, jahon sosiologiyasiga qo'shgan nazariy va metodologik ahamiyati jihatidan M.Veber bilan tenglashtirish mumkin. Rossiyada tug'ilib, AQShda vafot etgan aynan shu mutafakkir sotsiologiyaning dong'ini yoydi. Rus sotsiologi P.Sorokin esa ushbu fanning predmeti – «jamiyat yoki ijtimoiy hodisalardan iborat», deb hisoblaydi. V.Yadovning fikricha esa Sotsiologiya jamiyatning bir butun organizm ekanligini, ijtimoiy munosabatlarning bir butunligini o'rganadi. Sotsiolog G.Osipov «Sotsiologiya» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida «Sotsiologiya ijtimoiy tizimlarning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi to'g'risidagi, umumiy va o'ziga xos ijtimoiy qonun hamda qonuniyatlarning shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida vujudga kelish va amal qilish shakllari to'g'risidagi fan», deb ta'riflagan.

Demak, sotsiologiya inson hayot faoliyati yoki ijtimoiy tashkilotlarning hamkorlikdagi shakllarini o'rganuvchi va inson hamjamiyatining rivojlanishi hamda xulq-atvori to'g'risidagi fandır.

Xulosa qilib aytganda, sotsiologiyaning ob'yekti uning nimani o'rganishi kerak, degan savolga javob bersa, predmeti o'sha ob'yektning qay jihatlarini o'rganadi, degan savolga javob beradi. Sotsiologiyani ob'yektini jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalari tashkil etadi.

Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini uch bosqichda o'rganadi:

- 1) aniq-empirik;
- 2) maxsus;
- 3) umumiy.

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umumsotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Sotsiologiyaning *tadqiqot predmeti* tarkibiy tuzilish jihatidan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Umumiy sotsiologiya – turli sotsial tizimlarda uchrab turadigan ijtimoiy hayotga oid me'yorlarni, bu tizimlarning yashash tarzi va taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

2. Maxsus sotsiologiya – ijtimoiy faoliyatning alohida sohalarini ko'p omilli tizim sifatida tadqiq etadi. Maxsus sotsiologiyaning bir qancha tarmoqlari bor: 1) industrial sotsiologiya; 2) shahar sotsiologiyasi; 3) demografik sotsiologiyasi va b.

3. Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar – tadqiq qilinayotgan hodisalar, individlar bilan bevosita aloqa va ularning hayot faoliyatlaridagi faktlar to'plami bo'lib, so'roq, kuzatuv, eksperiment va hujjatlarini o'rganish usullarini tajriba yordamida bilishdir.

XX asrning 20-yillaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan keyingi bosqichda jahon sotsiologiyasi markazi AQShga ko'chadi va bu erda sotsiologiya faniga davlatdan ancha ko'mak va ko'pchilik universitetlarning tezda yordami tegadi. Doktorlik darajasini beruvchi dunyodagi birinchi sosiologiya fakulteti 1892 yili Chikago universitetida paydo bo'ladi. 1910 yilga kelib, Amerika universitetlari va kollejlarning aksariyati talabgorlarga sotsiologiya kurslarini taklif qila boshlaydi.

Emil Dyurkgeym (1858–1917) O.Kontning pozitivizm metodologiyasini chuqurlashtirdi, ko'p hollarda esa uni qayta yo'naltirdi. Dyurkgeym ijtimoiy faktlarga tayanishni va ularning statistik o'rganishni taklif qiladi: u bir ijtimoiy faktlarni (o'z joniga qasd qilish) boshqa ijtimoiy faktlar (integrasiya) yordamida tushuntiradi. Dyurkgeym zamonaviy sotsiologiyaning yangi metodologiyasini beradi. Uning metodologik pozitsiyasiga ikkita xususiyat xos: naturalizm – jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga o'xshashligi asosida tushunish hamda sotsiologizm – ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligi va avtonomligini, uning individlardan ustunligini tasdiqlash. Dyurkgeymning ilmiy ijodida, butun fransuz maktabidagidek singari, ijtimoiy hamjihatlik muammosi markaziy hisoblanadi. Unga ko'ra insonlar jamiyatining rivoji ikki fazadan o'tadi: mexanik hamjihatlik (sanoatlashishdan ilgarigi yoki an'anaviy jamiyat) va organik hamjihatlik (sanoatlashishdan ilgarigi, so'ngra esa sanoatlashgan jamiyat).

Sotsiologiya tabiatiga aynan yangicha nazari tufayli Amerika tez orada ilmiy sotsiologiyani yaratish borasida Yevropadan o'zib ketadi. Ammo sotsiologlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, Amerika dunyoga faqat bitta haqiqiy milliy oqimni – simvolik interaksionizm oqimini va faqat bitta buyuk sotsiologni - Tolkott Parsonsni (1902–1979) bera oldi. Albert Eynshteyn fizikada amalga oshirishga intilgan nazariyasini Parsons sotsiologiyada ham xuddi shunday amalga oshirishga, ya'ni jamiyatning barcha darajalarini va ijtimoiy materiya harakatining barcha shakllarini tushuntirib bera oladigan keng qamrovli sotsiologik nazariyani

yaratishga urindi. U kishilik voqeligining xilma-xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi mavhum tushunchalarning ulkan deduktiv tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. AQSh mana shu xususiy sotsiologik nazariyalar borasida ancha muvaffaqiyat qozondi. Amerika dunyoga buyuk olimlarning eng ko'p sonli guruhini taqdim etdi: E.Shilz, P.Lazarsfeld, R.Merton, P.Blau, Ch.Kuli, J.Mid, R.Park, I.Gofman, J.Aleksander, D.Bell, T.Veblen, A.Gouldner, R.Mills, D.Rismen, U.Samner, A.Smoll, A.Toftler, J.Xomans. Ular zamonaviy sotsiologiyaning ilmiy mazmunini belgilab berishdi.

Agar Yevropada sotsiologik g'oya falsafa bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan bo'lsa, Amerika sotsiologlari orasida sotsial psixologiya keng tarqaldi. Ikkala madaniyat vakillari ham jamiyat evolyusiyasi va faoliyatini tushuntirishga harakat qilishdi va buni turlicha usulda bajarishdi: evropaliklar ko'proq global tarixiy sxemalarga suyanishsa, amerikaliklar konkret modellar va amaliy ishlanmalarga tayanishdi.

Amerikaliklar falsafiy substansiya o'rniga xulq-atvor va harakatga urg'u berishdi. Ularni idrok ichida yashiringan va aniq o'lchab bo'lmaydigan narsa qiziqtirmasdi, aksincha sirtida, ya'ni ochiq xulq-atvorda namoyon bo'ladigan narsa o'ziga tortardi. Shu tarzda XX asrning birinchi yarmida barcha ijtimoiy fanlarni (iqtisodiyot, ruhshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik) o'ziga bo'ysundirgan bixeviorizm (ingliz tilidan behavior – xulq-atvor) vujudga keladi. Endi ularga xulq-atvorga asoslangan, yoki bixevioral fanlar yorlig'i birlashtiriladi. Shu nom bilan, to'g'rirog'i xulq-atvorga asoslangan (XX asr boshida Yevropada bo'lganidek falsafaga asoslanmagan) sotsiologiya hozirgi kunlargacha etib keldi.

1.2. Sotsiologiya fanining predmeti – fundamental tushunchalarning mantiqiy o'zaro bog'langan va qarama-qarshi bo'lmagan tizimi hisoblanib, mazkur fanning tadqiqot usullariga yo'naltirilgan ob'yektiv reallik qismini ifodalaydi. Fan predmeti deb ataladigan tushunchalar majmui alohida faktlarni muntazam, takrorlanadigan hodisalar bo'yicha tartibga soladi va tashkil etadi. Sotsiologni tanholigi yoki noyobligi emas, qonuniyligi yoki tipikligi qiziqtiradi.

Sotsiologiya – bu ijtimoiy tizimlar, ularning vazifalari, ijtimoiy tizim va jamoalarning (dunyo, jamiyat, institut, guruh, tashkilot, oila, shaxs) harakatlanish va rivojlanish (faoliyati va o'zaro ta'siri) qonuniyatlari (qonuniyatlar, tendensiyalar), haqidagi fandi⁶. Sotsiologiya tabiiy va texnik fanlar bilan ko'pgina umumiylikka ega. Mazkur o'zaro munosabatlarning sababi shundaki, sotsiologik bilishning ob'ekti jamiyat hisoblanadi. Biroq «jamiyat» tushunchasini sotsiologiyaning predmeti sifatida dastlabki aniqlash uchun belgilash etarli emas. Jamiyat barcha gumanitar fanlar tadqiqotining ob'ekti hisoblanadi. Tadqiq etuvchining faoliyati yo'naltirilgan barcha narsalar bilish ob'ekti hisoblanadi. Bunga muvofiq ravishda sotsiologiya ob'ekti deganda jamiyatning yaxlit sotsial voqeligi tushuniladi, unda ob'yektiv ijtimoiy hodisalarni ajratishimiz mumkin (ya'ni ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy sub'ektlar).

⁶ Sotsiologiya o'quv qo'llanma 1999 y, 29 bet

Sotsiologiya predmetlariga shaxs, ijtimoiy guruhlar, jamoa va butun jamiyat faoliyati va rivojlanishi qonun va qonuniyatlari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayoti (sotsial sub'yektlarning ijtimoiy mavqelar, rollar, ijtimoiylashuv muammolari bo'yicha o'zaro ta'siri) kiradi. Zamonaviy sotsiologiya predmeti – uzoq vaqt davom etgan tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, ko'plab olimlar avlodlarining mehnatlari mahsulidir, ulardan har biri yangi bilim tamoyillarini qo'shib borgan, yuzaga kelgan vaziyatni ko'rib chiqqan, tanqid qilgan, bahs-munozara olib borgan, yangilik kiritgan, tekshirgan va shu yo'l bilan bugun sotsiologiya predmeti sohasiga kiritilganlarni barchasini elakdan o'tkazgan. Sotsiologiya predmetining bosh sababchisi ikkita tushuncha hisoblanadi - «status» va «rol». Birinchisi jamiyatning statistik, ikkinchisi esa dinamik tasvirini ochib beradi. Insonning guruhdagi yoki jamiyatdagi o'rnini, holati status (mavqe) deb ataladi. To'ldirilmagan mavqelarning majmui bizga jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini beradi. Ijtimoiy mavqelar ijtimoiy munosabatlar bilan, shaxsiy mavqelar esa shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq. Sotsiologiya uchun insonlar qanday shaxsiy munosabatlarga kirishishlari emas, balki ular orasidan qandaydir asosiyroq bo'lgan qarashlar, ya'ni sosial munosabatlar muhimdir.

Jamiyat haqidagi fanlar umumiy tizimida sotsiologiya fani xususiyatiniyatini yuqorida zikr etilgandek tushuntirish, hozirgi zamon sotsiologiyasining predmetini shunday ta'riflashning imkonini beradi: Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Sotsiologiya jamiyatni mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati, ularning harakat tendensiyalari va taraqqiyot qonuniyatlarini sotsial tashkil etilgan tizimda tadqiq etadi. Shuningdek, sotsiologiya asosiy e'tiborni jamiyatni xar xil ijtimoiy va hududiy tuzum bosqichlarida vujudga keladigan keng ma'nodagi insonlararo munosabatlari va jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratuvchi fandır. Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o'tkazadi. Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. Buni tushunish mumkin, chunki O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy iqlim shakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, sotsial tarkibda o'zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Vatanimizda sotsiologiya hech qanday to'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi. Sotsiologik fikrlashning eng muhim jihati jamiyat hayotida inson shaxsini tushunishdan iboratdir. Shaxsga bo'lgan sotsiologik nuqtai nazarining o'ziga xosligi shundan iboratki, bu fan unga ijtimoiy voqeilikni o'zgartiruvchi faol mavjudot sifatida qaraydi. Ijtimoiy institutlar ko'p jixatdan inson ahloqini ifodalaydi, ammo ayni shu vaqtning o'zida ular inson faoliyatining ifodasi va individlarning o'zaro ijtimoiy ta'siri xosilasidir. Jamiyat to'g'risidagi xozirgi bilimlarning o'ziga hos xususiyati shundan iboratki, ular sotsiologik fikrlashning kuchli ta'siri ostidadir. Jamiyatimizda kuzatilayotgan murakkab jarayonlarni sotsiologik tahlilsiz to'g'ri tushunish mumkin emas. Mamlakatimizda sotsiologiyaning keyingi rivojlanishi va takomillashtirilishi

jamiyatni chuqur o'rganish va anglash, jamiyat oldida turgan o'tish davrining murakkab muammolarini ancha samaraliroq echishga imkon beradi

1.3. Ijtimoiy hayot masalalarini o'rganish doirasi kengayib borayotganligi sababli sotsiologiya fani ham, uning o'rganish ob'yekti ham borgan sari kengayib, chuqurlashib bormoqda⁷. Sotsiologiyaning iqtisodiyot, falsafa, xuquq, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida yanada ortib bormoqda. Endi bevosita fanlar bilan aloqadorligi xususida fikr yuritamiz.

Sotsiologiya va falsafa:

- Sotsial falsafa qonun va qonuniyatlar kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va konsepsiyalarni o'z ichiga oladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar uchun esa nazariy va metodologik asos bo'ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi o'z navbatida mazkur davr ijtimoiy fikrini shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologiya tadqiqot empirik ma'lumotlar, eksperimentlar yordamida ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning qanchalik tug'ri, mazkur ijtimoiy davr mazmuniga xos yoki ularning eskirib, ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob beraolmay qolganligini aniqlab berish imkoniyatiga ega. Sotsiologiya fani bir asr oldin falsafiy ajralgan bo'lsada, ularning aloqasi uzviy. Falsafa sotsiologiyaning nazariy – metodologik asosini tashkil etadi. Bu borada ulug' alloma Abu Nasr Forobiy har qanday ilmning va ilm sohibining muayyan qobiq orasida cheklanib qolmasligi lozimligini, balki keng ko'lamli mushohada qila biluvchi, muayyan fanga yaqin bo'lgan ilmlar va nazariyalar tanish bo'lishining jamiyatini ta'kidlagan.

Sotsiologiya va huquq:

Huquqiy davlatni shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, huquqiy munosabatlarni tartibga solish katta ahamiyatga ega. Sir emaski, keyingi vaqtlarda jinoyatchilik ortdi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirda sodir etilayotgan jinoyatlarning ogir va o'ta og'ir turlari anchaga ortgan. Ana shu jinoyatlarni o'rganish va tadqiq etishda sotsiologik tadqiqotlarning o'rni beqiyosdir. Jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish – davlat ahamiyatidagi masala hisoblanadi. Unga qarshi jinoyat sodir etilgandan so'ng emas, balki unga qadar olib borilmog'i lozim. Jinoyatning oldini olish, uning tub mohiyatini, motivi va keltirib chiqaradigan sabablarini o'rganishda sotsiologik tadqiqotlar olib borish ahamiyatga ega. Demak, huquq fanlarining rivojlanishida ham sotsiologiyaning o'rni katta.

Sotsiologiya va iqtisod:

-bu ikkala fan o'rtasidagi aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash iste'mol jarayonlarini o'rganishda nomoyon bo'ladi. Hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabat (fermerlar, tadbirkorlar) shakllanishi jarayonida uning ahamiyati katta. Iqtisodiy nazariyaning

⁷ K. Yunusov. O'quv qo'llanma. Andijon 1997 yil 55 bet

ilmiy g'oyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiya sohalari uchun metodologik asos bo'ladi.

Sotsiologiya va tarix:

-Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil, sistemali tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda tarixchi mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar. Masalan, at-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Xondamir, Xermet Vamberi kabi buyuk olimlar o'zlarining tarixga oid qimmatli asarlarini yaratishda sotsiologiya usullaridan unumli foydalanganlar. Tarixiy kelajagimiz uchun o'tmish sahifalariga aylanadi. Shunday ekan, Prezidentimiz I.Karimovning «O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi yo'q» - degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Sotsiologiya va matematika:

-Sotsiologiyani matematikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Matematik usullarsiz sotsiologiya mavhum bir qarash bo'lib qoladi. Ayniqsa, biron bir tadqiqot o'tkazgandan so'ng uni qayta ishlash, foizlashtirishda uzviy aloqadorligini seziladi.

Sotsiologiya va kibernetika:

-maxsus matematik usullar – daraja ko'rsatkichi, omillik, sababli va sirdan qo'llaniladi. Sotsiologik tadqiqotlarni olib borishda yuksak darajadagi kompyuter, hisoblash texnologiyalaridan keng va unumli foydalaniladi.

Sotsiologiya va texnika fanlari:

-hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida sotsiologiya va texnika fanlar aloqadorligi tabiiydir. Inson yaratgan barcha texnika faqat inson va jamiyatning ijobiy taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. Ammo doimo kutilgan natija bo'lavermaydi. Ularni o'rganishda sotsiologiyaning roli kattadir.

Sotsiologiya va psixologiya:

-yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish sharoitida kishilardagi o'zini ko'zlash, o'z shaxsiy manfaatini jamiyat, millat manfaatidan ustun ko'rishlik hollari kuchaymoqda. Kishilarda behalovatlik, asabiylik ortmoqda. Ushbu muammolarni o'rganish va hal etib borishda sotsiologiya va psixologiya fanlarining hamkorligi zarur deb o'ylaymiz.

Sotsiologiya va pedagogika:

-hozirda Respublikamizda ta'lim tarbiyaga jiddiy e'tibor berilmoqda. Xususan, 1997 yil «Ta'lim to'grisida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning qabul qilinishi ham bevosita ushbu fikrimizni isbotlaydi. Buni pedagog-o'qituvchilar tarkibida ham ko'rishimiz mumkin. Talaba o'qituvchilar ongida ilmdan qaytish, fanlarga e'tiborsizlik, engil mehnat evaziga yaxshi yashash hissiyotlari kuchaygan. Milliy pedagogikamiz hozirda sotsiologik tadqiqotlarga juda muhtoj. Bu tadqiqotlarning natijalari qanchalik beshafqat bo'lmasin, ulardan to'g'ri xulosa chiqarishimiz kerak.

Nomi tilga olib o'tilgan fanlar tarkibida ijtimoiylik yo'nalishi mavjud. Shu jihatdan, o'z navbatida ularning sotsiologik fani rivojlanishidagi ahamiyati kattadir.

1.4. Sotsiologiya ko'plab tadqiqot sohaslariga – sotsiologlarning qiziqish sohaslariga, masalan, o'smirlar orasidagi jinoyatchilikni o'rganishga bo'linishadi.

Sotsiologiyaning sohaviy matritsasi deganda sotsiologiyaning tarmoqli yo'nalishlari, sotsiologik bilimlar differensiasiyasi jarayonida ajralib chiqqan va hozirgi kunda ko'p tarmoqli murakkab tizimdan iborat bo'lgan mavzuga oid sohalar va doiralarning yig'indisi tushuniladi. Masalan, sotsiologiya doirasida XX asrda mehnat sotsiologiyasi va shahar sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi va din sotsiologiyasi kabi tarmoqlar ajralib chiqdi. Yangi sohalarning vujudga kelishini umumiy nazariya boshqarsa yaxshi bo'lardi, ammo sotsiologiyada bunday umumiy qabul qilingan nazariya yo'q. Sohalarni tasniflash borasidagi birinchi urinish O.Kontga tegishli. U sotsiologiyani «ijtimoiy statika» va «ijtimoiy dinamika» ga ajratadi. Ushbu tasnif uzoq vaqt amal qilib keldi. Undan E.Spenser va Lester F. Uord (1883) foydalanishgan.

Ixtisoslashtirish jarayoni bilimning ichki strukturasi murakkablashtirishga olib keldi. Har bir mutaxassislik o'z ichida bir qator kichik mutaxassisliklarga ajraldi.

Ijtimoiy institutlarga ixtisoslashgan yangi sohalar: iqtisodiyot va jamiyat, siyosiy sotsiologiya, sanoat sotsiologiyasi, ta'lim, din, tibbiyot, qonun, bo'sh vaqt va sport, ilm-fan, madaniyat, ommaviy kommunikasiyalar va jamoatchilik fikri sotsiologiyalari paydo bo'ldi. Bugungi kunda madaniyat sotsiologiyasi doirasida kino sotsiologiyasi, teatr sotsiologiyasi, ommaviy madaniyat sotsiologiyasi, mutolaa sotsiologiyasi va boshqa yo'nalishlar mustaqil ravishda mavjud. Iqtisodiy sotsiologiya doirasida mehnat sotsiologiyasini, bandlik va ishsizlik sotsiologiyasini, bozor sotsiologiyasini, banklar sotsiologiyasini, menejment sotsiologiyasini, tashkilotlar sotsiologiyasini va boshqalarni ajratish mumkin.

Empirik tadqiqot – bu ilmiy metod talablariga muvofiq ravishda o'tkazilgan va xususiy nazariyani tasdiqlashga yo'naltirilgan fundamental tadqiqot. Asosiy maqsad ilmiy bilimlarni ko'paytirish, yangi qonuniyatlarni kashf etish va noma'lum ijtimoiy tendensiyalarni aniqlashdan iborat. Empirik tadqiqotni tayyorlashga 3 yildan 10 yilgacha vaqt ketadi. Uni tashkil etishda ko'plab jamoa a'zolari mehnat qiladi. U faqat sotsiologlar tomonidan amalga oshiriladi. Misol: mamlakatlararo, umummilliy, mintaqaviy tadqiqotlar va h.k. Reprezentativ (haqqoniy va ishonchli) axborotni olish empirik tadqiqotning asosi hisoblanadi.

Amaliy tadqiqot – bu vaziyatga ijtimoiy tashxis qo'yish, konkret hodisani (jarayonni) tushuntirish va amaliy tavsiyalarni tayyorlash maqsadida qisqa muddatda bitta ob'yektda (korxonada, bank, qishloq) o'tkazilgan tezkor tadqiqot. Misol: korxonada doimiy xizmatdagi ishchilarni qisqartirish, menejerlarning motivasiyasini oshirish. Bunday vazifani echish uchun sotsiolog qandaydir xususiy nazariyalarni, empirik ma'lumotlarning cheklangan doirasini, samarali texnologiyalar va metodlarni jalb etishi, keyin bularning barchasini konkret ob'yektga tatbiq etishi zarur. Amaliy tadqiqotning mazmuni ana shundan, ya'ni

fundamental fanni amaliy muammolarga tatbiq etishdan iborat. Amaliy tadqiqot yangi bilimlarni oshirishni, yangi nazariyalarni kashf etishni o'z oldiga maqsad qilmaydi, unda namunaviy metodikalar, ya'ni ijtimoiy texnologiyalar ko'rinishida rasmiylashtirilgan ma'lum bilimlar qo'llaniladi.

Metodologiya – bu metod haqidagi nazariyadir, ya'ni ilmiy bilimning tabiati qanday, ilmiy nazariya qanday tuzilgan va qanday rivojlanadi, gipotezalar qanday tuziladi va ularning empirik tasdig'i qanday yuz beradi, tushunchani qay tarzda konseptuallashtirish va operatsionallashtirish kerak, qanday qilib tanlov yig'indisini tuzish, ma'lumotlarning mantiqiy tahlili haqidagi nazariy qoidalarning yig'indisi hisoblanadi.

Metodika va texnika – bu tanlov yig'indisini tuzish, so'rovnomalar, blankalar tuzish, kuzatuvlar yoki intervyu, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish bo'yicha konkret usullar va jarayonlardir. Sohaviy matrisani quyidagicha tushunish lozim. Sotsiologiyaning har bir tarmog'ida, aytaylik, oila sotsiologiyasi yoki mehnat sotsiologiyasida dunyo manzarasidan tortib, to metodika va texnikagacha bo'lgan barcha elementlarni topish mumkin. Yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi kamdan-kam hollarda fanning ehtiyojlari tomonidan buyuriladi. Aksariyat hollarda jamiyat undovchi rag'bat hisoblanib, unda turli davrlarda birinchi o'ringa u yoki bu ijtimoiy muammolar chiqadi.

Sotsiologiya – bu ijtimoiy tizimlar, ularning vazifalari, ijtimoiy tizim va jamoalarning (dunyo, jamiyat, institut, guruh, tashkilot, oila, shaxs) harakatlanish va rivojlanish (faoliyati va o'zaro ta'siri) qonuniyatlari (qonuniyatlar, tendensiyalar), haqidagi fandır. Sotsiologiya tabiiy va texnik fanlar bilan ko'pgina umumiylikka ega. Mazkur o'zaro munosabatlarning sababi shundaki, sotsiologik bilishning ob'ekti jamiyat hisoblanadi. Biroq «jamiyat» tushunchasini sotsiologiyaning predmeti sifatida dastlabki aniqlash uchun belgilash etarli emas. Jamiyat barcha gumanitar fanlar tadqiqotining ob'ekti hisoblanadi. Tadqiq etuvchining faoliyati yo'naltirilgan barcha narsalar bilish ob'yekti hisoblanadi. Bunga muvofiq ravishda sotsiologiya ob'ekti deganda jamiyatning yaxlit sotsial voqeligi tushuniladi, unda ob'ektiv ijtimoiy hodisalarni ajratishimiz mumkin (ya'ni ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy sub'ektlar).

Sotsiologiya predmetlariga shaxs, ijtimoiy guruhlar, jamoa va butun jamiyat faoliyati va rivojlanishi qonun va qonuniyatlari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayoti (sotsial sub'ektlarning ijtimoiy mavqelar, rollar, ijtimoiylashuv muammolari bo'yicha o'zaro ta'siri) kiradi. Zamonaviy sotsiologiya predmeti – uzoq vaqt davom etgan tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, ko'plab olimlar avlodlarining mehnatlari mahsulidir, ulardan har biri yangi bilim tamoyillarini qo'shib borgan, yuzaga kelgan vaziyatni ko'rib chiqqan, tanqid qilgan, bahs-munozara olib borgan, yangilik kiritgan, tekshirgan va shu yo'l bilan bugun sotsiologiya predmeti sohasiga kiritilganlarni barchasini elakdan o'tkazgan. Sotsiologiya predmetining bosh sababchisi ikkita tushuncha hisoblanadi - «status» va «rol». Birinchisi jamiyatning statistik, ikkinchisi esa dinamik tasvirini ochib beradi. Insonning guruhdagi yoki jamiyatdagi o'rni, holati status (mavqe) deb ataladi. To'ldirilmagan mavqelarning majmui bizga jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini

beradi. Ijtimoiy mavqelar ijtimoiy munosabatlar bilan, shaxsiy mavqelar esa shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq. Sotsiologiya uchun insonlar qanday shaxsiy munosabatlarga kirishishlari emas, balki ular orasidan qandaydir asosiyroq bo'lgan qarashlar, ya'ni sotsial munosabatlar muhimdir.

Jamiyat haqidagi fanlar umumiy tizimida sotsiologiya fani xususiyatiniyatini yuqorida zikr etilgandek tushuntirish, hozirgi zamon sotsiologiyasining predmetini shunday ta'riflashning imkonini beradi: Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Sotsiologiya jamiyatni mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati, ularning harakat tendensiyalari va taraqqiyot qonuniyatlarini sotsial tashkil etilgan tizimda tadqiq etadi. Shuningdek, sotsiologiya asosiy e'tiborni jamiyatni xar xil ijtimoiy va hududiy tuzum bosqichlarida vujudga keladigan keng ma'nodagi insonlararo munosabatlari va jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratuvchi fandır. Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o'tkazadi. Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. Buni tushunish mumkin, chunki O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy iqlim shakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, sotsial tarkibda o'zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Vatanimizda sotsiologiya hech qanday to'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi. Sotsiologik fikrlashning eng muhim jihati jamiyat hayotida inson shaxsini tushunishdan iboratdir. Shaxsga bo'lgan sotsiologik nuqtai nazarning o'ziga hosligi shundan iboratki, bu fan unga ijtimoiy voqeilikni o'zgartiruvchi faol mavjudot sifatida qaraydi. Ijtimoiy institutlar ko'p jixatdan inson axloqini ifodalaydi, ammo ayni shu vaqtning o'zida ular inson faoliyatining ifodasi va indvidlarning o'zaro ijtimoiy ta'siri hosilasidir. Jamiyat to'g'risidagi hozirgi bilimlarning o'ziga hos hususiyati shundan iboratki, ular sosiologik fikrlashning kuchli ta'siri ostidadir. Jamiyatimizda kuzatilayotgan murakkab jarayonlarni sotsiologik tahlilsiz to'g'ri tushunish mumkin emas. Mamlakatimizda sotsiologiyaning keyingi rivojlanishi va takomillashtirilishi jamiyatni chuqur o'rganish va anglash, jamiyat oldida turgan o'tish davrining murakkab muammolarini ancha samaraliroq echishga imkon beradi.

Sotsiologiya fani tizimida amaliy tadqiqotlar paydo bo'ldi va rivojlanayapti. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni va maqsadi bilan farq qiladi. Amaliy sotsiologiyaning xususiyati shundan iboratki, u orqali jamiyatning har bir sohasi uchun kerakli bo'lgan nazariy va empirik tadqiqotlarni natijalarini qo'llash uslublari va vositalari joriy etiladi. Amaliy sotsiologiya XX asr boshlarida tashkil topgan empirik tadqiqotlar negizida shakllandi va rivojlandi.

Empirik tadqiqotlarning vazifasi bu kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish va so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar haqida faktlar va empirik ma'lumotlar yig'ishdir. Empirik tadqiqotlar natijalaridan ham amaliy maqsadlarda, ham nazariy bilimlar rivoji uchun foydalanish mumkin.

Amaliy tadqiqotlar tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular amaliy tadqiqotlarni ijtimoiy hayotni turli sohalari faoliyatini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyanomalariga aylantiradi.

Ilmiylik va foydaliylik bir-birlari bilan ziddiyatli munosabatlarga kirishmasliklari uchun M.Veberning fikricha haqiqat uchun intilish kerak, ya'ni boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ilmiy bilimlardan to'g'ri foydalanish uchun iqtisodiy, sotsial-siyosiy va ma'naviy tuzilishlarning ma'lum tizimi mavjud bo'lishi zarur.

Shunday qilib, amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy va metodologik bilimlarni ham shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya ilmiy bilimning amaliy effektivligi masalalarini hal qila turib fundamental tadqiqotlarni rivojiga rag'bat berish uchun yangi muammolarni o'rtaga qo'yadi. Amaliy tadqiqotlar ilmiy faoliyatning alohida bir turi sifatida faqatgina nazariy va metodologik muammolarni hal qilmasdan prosedura va metodik muammolarni ham echishga intiladi.

Amaliy tadqiqotlar tarmoq yo'nalishlarini shakllantiradi. Bu yo'nalishlarning orasida og'ishli xulq-atvor sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyalar ko'proq taraqqiy etgan. Inson o'limi muammosini o'rganadigan - mikrosotsiologiya, sotsialdiagnostikalar tarmoq yo'nalishlari orasida eng yangilari hisoblanadi.

Maxsus nazariyalar sotsiologiyaning ob'yektini muhim tomonlarini o'rganadi. Sotsial struktura nazariyasi, o'zaro ta'sir nazariyasi, institutlar nazariyasi va hokazolar maxsus sohalari sifatida shakllandilar. Maxsus nazariya yoki o'rta daraja nazariyasi tushunchasini fanga R.Merton joriy etgan.

O'rta daraja nazariyasi sotsial tizimlarning umumiy nazariyasini sotsial hatti-harakatning tashkil etilishning umumiylikiga maxsus kuzatilayotgan turlari bilan bog'lashi kerak. Bu nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadilar, lekin ular ko'pincha faktlar bilan bog'liqdirlar va bitirish tadqiqotlar asosida shakllanadilar. Shuningdek, xususiy nazariyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin va ular sotsial jarayonlar haqidagi empirik ma'lumotlar bilan ko'proq bog'langanlar. Bunday nazariyalar deb quyidagilarni aytamiz: referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va boshqalar.

Bu nazariyalar inson fe'l-atvorining mustahkam mexanizmlarini har xil sharoit va holatlarda ko'rinishni aniqlashga harakat qiladilar. Nafaqat axloqli nazariyalar balki faoliyatning turli xil turlari nazariyalari: mehnat munosabatlari, qadriyatli moslashishni shakllantirish, tashkil qilish va boshqarish.

Empirik tadqiqotlar sosiologiyaning muhim komponenti hisoblanadi. Dastlabki empirik tadqiqotlar XVII asrdayoq o'tkazilgan edi, lekin faqatgina XX asrning birinchi choragidan AQSHda ommaviy ravishda o'rin oladi.

Empirik tadqiqotlar tajribali bilishni anglatadi. Ular sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar, muammolarni bevosita o'rganishni o'zining asosiy maqsadi deb hisoblaydilar. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning ob'yekti - bu ijtimoiy hayotning mikrojarayonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlaridir.

Empirik tadqiqotlarning vazifasi sezgilar maydoniga bilimlarni olib chiqishi emas, aksincha bu bilimlarni rivojlantirish, empirik faktlar yig'ish, real jarayonlarni tadqiqot qilishligi bilan muammolarni ko'ndalang qo'yish va hal qilishlikdir. Empirik tadqiqotlar xuddi boshqa fanlar kabi qo'yilayotgan bilishning ma'lum bir vositasi, davri va darajasidir. Empirik sotsiologiyaning ob'yekti mikrojarayonlar bo'lsa, predmet sifatida takomillashishning turli muammolari, munosabatlar uyg'unlashuvi, faoliyatning sermahsulligi, shaxsning sotsial xususiyatlari turli xil institut va tashkilotlar namoyon bo'lishlari mumkin. Empirik sotsiologiyaning ob'yekti va predmetining xususiyati maxsus metodologiya va metodni ishlab chiqishni talab qiladi. Buni anglash esa birdan yuz bermadi. Dastlab empirik metodni ishlab chiqish aniqrog'i sotsial jabhalar uchun tabiiy fanlarning metodlarini qayta ishlab chiqish g'oyasi etarlidir degan fikrlar vujudga keldi va bu qayta ishlangan uslublar bilan empirik tadqiqotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish mumkin degan xulosa paydo bo'ldi. Ammo tez orada ma'lum bo'ldiki, empirik tadqiqotlarni o'tkazish chog'ida ko'plab metodologik xarakterga ega bo'lgan muammolar: sotsial faktning mohiyati, nazariy bilishning empirik ma'lumotlar bilan o'zaro munosabatlari, so'rov, kuzatish va o'tkazilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida sub'yektiv omilning roli kabilar paydo bo'ldi. Sotsiologiyada bilishning sub'yektiv aspekti masalasi metodologik muammolarning eng markaziylaridan xisoblanadi. Empirik sotsiologiyaning tadqiqotida empirik metodlar: so'rov, kuzatish, hujjatlarni o'rganish va eksperiment usullari shakllanib joriy etildi. Bu metodlarning har birini xususiyati jarayonning tomonlarini xuddi shu metod bilan tahlil qilishlik bilan belgilanadi. Masalan, eng ommabop metod - so'rov metodi asosan insonlarning sub'yektiv dunyosini: qarashlari, munosabat bildirishlar, juda tez rivojlanishlik va o'zgaruvchanliklarga yo'naltirilgandir. Bundan tashqari, sotsiolog tomonidan olingan ma'lumotlarga uning munosabat bildirishi, interpretasiya (talqin qilishlik), tushunishi bilan tus beriladi. Shu tufayli esa empirik tadqiqotlar metodologiyasi shunday prinsip va yo'nalishlar ishlab chiqilishi kerakki, u orqali empirik ma'lumotlarining ob'yektivligi va haqqoniyligi ta'minlansin, sotsiolog va respondent o'zaro harakatlarining murakkab aspektlari to'liq majmuasini nazarda tutadigan tadqiqot vositalari, mantiqiy masalalari va davri muammolarni hal qilsin.

Shunday qilib, empirik sotsiologiya bu bilimning yirik bir sohasidir. U o'zining tarkibida empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar ta'minoti va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli empirik tadqiqotlar odatda xar xil mutaxassislikning tadqiqotchilari: psixologlar, metodologlar, matematiklar jamoasining o'zaro hamkorligi ostida o'tkaziladi.

Empirik tadqiqotlar asosan statistik ma'lumotlarga tayangan holda o'tkaziladi. Rivojlangan mamlakatlarda informasion ta'minot empirik tadqiqotning muhim manbasi hisoblanadi. Empirik tadqiqotlarning rivojlanishi uchun asosiy muammo - bu texnik vositalar ta'minoti bilan bog'liqdir, chunki tadqiqotlar natijalari EHMda qayta ishlanishi zarur. Shuningdek, so'rov va kuzatish uchun ham ma'lum texnik vositalar talab qilinadiki, shuning uchun empirik tadqiqotlar anchagina qimmat tadbir hisoblanadi.

Sotsiologiyaning rivojlanish jarayonida sekin-asta maxsus va tarmoq yo'nalishlar vujudga kela boshladilar. Maxsus deb institusional sotsiologiyani, shaxs sotsiologiyasini, guruh, jamiyat, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasini e'tirof etamiz. Bundan tashqari, yana shakllanib bo'lgan deb taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat, sotsial struktura va boshqalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Institusional sotsiologiya o'zaro harakatning mustahkam shakllarini tadqiq qiladi. Taraqqiyot sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining manbasi shakli, yo'nalishlari va uning tarkibiy qismlarini o'rganadi. Sotsial harakat nazariyasi esa insonning sosial faoliyatini sabablari, turlari va ahamiyatini aniqlashga harakat qiladi.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada yana tarmoq yo'nalishlari qo'yidagilar: shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, deviant yoki og'ishma xulq-atvor sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi shakllangan. Keng rivojlangan ushbu yo'nalishlar ijtimoiy hayotni ma'lum bir tomonlari, har xil tizimchalar, tafakkurning ma'lum bir elementii o'rganish natijasida vujudga keldilar. Eng rivojlangan yo'nalishlar bu deviant xulq-atvor sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi. Bu yo'nalishlar ko'hnadirlar, chunki ular XIX asr oxiri, XX asr boshlarida vujudga keldi. Masalan, deviant xulq-atvor sotsiologiyasining asoschisi E.Dyurkgeym hisoblanadi. Ilk bor u deviant xulq-atvorning turi bo'lmish o'z-o'zini o'ldirish muammosini tadqiq qildi, bunda o'z-o'zini o'ldirishni psixologik patologiya emas, balki sotsial hodisa deb e'tirof etdi. Lekin ko'pgina tarmoq yo'nalishlar XX asrning birinchi choragida, Amerikada empirik tadqiqotlar negizida shakllana boshlandi. Bu vaqtda jamoatchilik fikri, sanoat sotsiologiyalarining markazlari vujudga kela boshladi. Tarmoq yo'nalishlar empirik tadqiqotlarning keng qamrovli amaliyotining negizida shakllana boshladi, lekin ular sotsiologiyaning boshqa yo'nalishlari bilan ham bog'liqdirlar.

Shunday qilib, nazariy va amaliy sotsiologiya bir-biridan tadqiqot ob'yekti yoki metodlari bilan emas, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan farq qiladi. Shu bilan birga sotsiologlar o'z fani doirasida makro va mikro sotsiologik darajalarini ajratib ko'rsatadilar. Makrosotsiologiya - (yunoncha-katta) - katta ijtimoiy guruhlar va tizimlardagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan fandır. Makrosotsiologiya asosan yirik ijtimoiy tizimlar, hamda uzoq davom etadigan ijtimoiy tarixiy jarayonlarni o'rganish bilan shug'ulanadi (masalan, sinflar, ijtimoiy tartibotlar, shaharlar, dinlar va hokazo).

Mikrosotsiologiya - (yunoncha kichkina) - nisbatan katta bo'lmagan ijtimoiy siyosiy tizimdagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan yo'nalish. Mikrosotsiologiya darajasida kishilarning o'zaro kundalik shaxslararo munosabatlari tahlil etiladi (masalan, rahbar-xodim, advokat-mulkdor va hokazo).

Sotsiologiya fani olamni anglash jarayonini chuqurroq o'zlashtirish maqsadida tarix, falsafa, psixologiya, etnografiya, san'atshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Zero, har qanday amaliyotga murojaat, har bir ilmiy tahlil natijaviy mo'ljalni nazarda tutmog'i, ob'yektiv voqelik xususidagi bilimlarimizni kengaytirmog'i, ijtimoiy muammolarni hal etishga

ko'maklashmog'i, taraqqiyot istiqbollarini aniqroq belgilashga yordam bermog'i lozimdir.

So'nggi yillarda sotsiologiya fanida konkret sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko'proq tadbiiq etila borishi uning axloq, estetika, tibbiyot va pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv, huquqshunoslik, ruhiyatshunoslik singari fanlar bilan aloqasini yanada mustahkamlamoqda. Sotsiologiya fani ushbu fanlar natijasiga suyanadi. Tadqiqot o'tkazish jarayonlarida esa statistik ma'lumotlardan, to'plangan ma'lumotlarni o'zlashtirishda matematik modellashtirish usullaridan va metodlaridan foydalaniladi.

Qisqacha xulosalar:

Sotsiologiya bosh maqsadi- inson va unga aloqador ijtimoiy tashkilotlarning hatti-harakatlarining oqilona tarzda tushuntirishdir.

Sotsiologiya – sotsial sistema(tizim)larning ham global(umuman jamiyat), ham xususiy sistemalar sifatida rivojlanishi va amal qilishi qonuniyatlari haqidagi fan. Empirik sotsiologiya asrimizning 20-yillaridan boshlab sotsiologiyadagi etakchi maktablardan biriga aylandi.

Empirik sotsiologiyaga bir qator o'ziga xos xususiyatlar tegishli bo'lganligi sababli uni odatda mustaqil oqim sifatida ajratib ko'rsatadilar.

Empirik sotsiologiya bu bilimning yirik bir sohasidir. U o'zining tarkibida empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar ta'minoti va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli empirik tadqiqotlar odatda har hil mutaxassislikning tadqiqotchilari: psixologlar, metodologlar, matematiklar jamoasining o'zaro hamkorligi ostida o'tkaziladi.

Sotsiologiya ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umummetodologik negizini shakllantiradi.

Nazorat savollari:

1. Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar.
2. G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosi.
3. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari.
4. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar.
5. Sotsiologiya so'zining ma'nosi; sotsiologiyaning predmeti.
6. falsafiy ta'limotlari
7. Sotsiologiya fanining ob'ekti va predmeti.
8. Fanda struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Sotsiologiya fanining strukturasi.
9. R.Mertonning o'rta darajali nazariyasi. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar.
10. Sotsiologiyaning ob'ekti va tuzilishi. Sotsiologiya fanining umumiy tasnifi.

11. Sotsiologiya metodi va metodologiyasi.
12. Sotsiologiyaning nazariy yo'nalishlari.
13. Sotsiologiya fanining sohaviy tizimi.
14. Sotsiologiyaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.
15. Sotsiologiya fanining hozirgi zamon tizimi.
16. O'zbekistonda mustaqillik yillarida sotsiologiyaning o'rni va ahamiyati.

2- Mavzu: Sotsiologiya strukturasi.

Reja

- 2.1. Antik dunyo sotsiologiyasi.**
- 2.2. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari.**
- 2.3. G'arbiy Yevropa sotsiologiya maktabi.**
- 2.4. XX asr sotsiologiyasi.**

Tayanch iboralar:

Pozitivizm, tushunuvchan sotsiologiya, omma, elita, ijtimoiy institutlar, so'fiylik, xanafiya, tabaqalashuv, tabaqa,

2.1. Antik davrdagi birinchi sotsiologlarni ijtimoiy faylasuflar deyishadi. Ularning orasida ikkita buyuk mutafakkirni ko'rsatib o'tish mumkin – Aflotun (eramizgacha 427–347 y.) va Arastu (eramizgacha 384–322 y.). Ular hozirgi sotsiologlar kabi an'analarni, urf-odatlarini, insonlarning fe'l-atvorlari va o'zaro munosabatlarini o'rganishgan, faktlarni umumlashtirishgan, jamiyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan tugaydigan konsepsiyalarni tuzishgan. Aflotunning “Davlat” asari “Umumiy sotsiologiya” bo'yicha tarixdagi birinchi risola hisoblanadi. Buyuk mutafakkir ijtimoiy stratifikatsiyaning dunyodagi birinchi nazariyasi asoslarini ishlab chiqadi, unga ko'ra har qanday jamiyat uchta sinfga ajratilgan: davlatni boshqaruvchi donishmandlardan iborat oliy sinf; uni g'alayon va tartibsizliklardan saqlovchi jangchilardan iborat o'rta sinf; hunarmandlar va dehqonlarni o'z ichiga oluvchi past sinf. Antik davrning yana bir qomusiy donishmandi Arastu esa stratifikatsiya nazariyasining o'z variantini taklif qildi.

Arastu o'z davridagi mavjud stratifikasion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo'llab-quvvatlaydi. Arastu komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o'z davlatiga bo'lgan yuksak vatanparvarligini, o'z ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatni shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiyasi esa har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi. Demak, komillik tizimidagi «davlat-fuqaro-inson» tartiboti Arastuning davlat va jamiyatni mukammallashtirishdan iborat sotsiologik konsepsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtai nazarida turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy shaxslar yoki alohida

guruhlar qo'liga topshirib qo'yilmasligi lozim. Arastu davlat va jamiyatning ideal maqsadlari mushtarak, umumiy bo'lganligi sababli ham mazmuniy asosi bir xil bo'lgan tarbiyaviy tizim ishga tushmog'i zarur, deb hisoblaydi. Xullas, Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo'lmish grek sotsiologiya maktabiga mantiqiy yakun yasagan. Uning sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimning sotsiologiya maktabi namoyondalari (Siseron, Lukresiy, Vergiliy, Gorasiy, Ovidiy) ga hayotbaxsh ilhom bag'ishladi, so'ngra esa o'rta asrlar sharqining buyuk mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faqat ikki ming yildan keyingina Yevropa ilm arboblari jahonga jamiyat to'g'risidagi misli ko'rilmagan asarlarni in'om etdi. Bu avvalo, sotsiologiyaning ilmiy bosqichiga bevosita zamin yaratgan N.Makiavelli, J.Lokk va T.Gobbs sa'y-harakatlari tufayli yuz berdi.

O'rta asrlardayoq arab donishmandi Ibn Xaldun (1332–1406), kishilik jamiyatining tuzilishini tuzgan holda, odamlarning yirik ijtimoiy guruhlari xatti-harakatini sinchiklab o'rgangan. XVIII–XIX asrlardagi ko'pgina evropalik mutafakkirlar, jumladan, Volter, Didro, Kant, Gegel, Gobbs, rasmiy tarzda sotsiologiya fani paydo bo'lishidan ancha oldin insonlarning fe'l-atvori, ijtimoiy axloq va an'analari, xalqlarning xarakteri to'g'risida yozishgan.

Qadimgi grek sotsiologiyasi XII asrda yashab ijod etgan Gomer va VI asrgacha amal qilgan Milet maktabi vakillarining qarashlari haqida alohida to'xtalib o'tamiz

FALES – uning fikricha, jamiyat va tabiatning asosini dastlabki tarkibiy modda hisoblangan suv omili tashkil etadi. Barcha o'zgarishlar suv va suyuqliklar tufayli ro'y berishini ta'kidlaydi. Tabiatdagi barcha narsalar suv ishtirokida yuzaga kelganligi sababli ularning hammasida jon bor. Uning ana shu goyasi tabiat va jamiyatga insoniy yondashuvning shakllanishiga xizmat qilgan. Uning ijtimoiy karashlari bevosita Sotsiologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

ANAKSIMEN – u olamni asosini havo tashkil etadi deb hisoblaydi. Uning fikricha havoning tabiatda yigilishi va siqilishi natijasida suv, tuproq, tosh va olovdan iborat zaruriy qismlar yuzaga keladi. Anaksimn nazarida xavo-dunyoni o'rab turgan nafas bo'lib, jamiki narsalarga o'z ta'sirini o'tkazib turadi deb hisoblaydi.

PIFAGOR – uning fikricha, olam abadiy bo'lib, insondagi rux boshqa narsalarga ko'chib yuradi. Ana shu ta'limot uning g'oyasini vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Olamning asosi son va raqamlardan iborat ekanligi ham Pifagorning asosiy falsafiy g'oyalaridan hisoblanadi.

GERAKLIT – uning fikricha, xamma narsalar tabiatda faqat bitta narsadan yaralgan va shu birlamchi narsaga albatta qaytadi. Bu asosni u «olov» deb xisoblaydi. Geraklit «Ko'p bilimlilik kishini aqlli, donishmand qilavermaydi. Agar ko'p bilim olish kishini oqil qilganida Gesiod va Pifagor ham aqlli donishmand bo'lishar edi»,⁸ - deb yozadi.

⁸ Sotsiologiya o'quv qo'llanma .T. 2002 й 27- бет

EMPEDOKL – u barcha narsa va hodisalarni, ilm va ma'rifatning vazifalarini asoslab berdi. u ilm olishdan maqsad, o'zligini tanish, jamiyat va tabiat haqida teran fikr yuritishdir deb ta'kidlaydi.

ANAKSIGOR - insonning ilm-ma'rifatga intilishidan maqsad – atrof muhitni o'rab turgan borliq hamda kosmos mohiyatini anglashdan iborat deb hisoblaydi. Antik dunyoning «oltin davri» da Sokrat, Levkipp, Demokrit, Platon va Aristotellarni kirtish mumkin.

SUQROT – uning qarashlarida qanday qilib yaxshi yashash, kamolotga erishish uchun san'at asarlarini bilish zarurligi o'rin olgan. Inson faoliyati uning yaxshilik, savob, oriyat, insof haqidagi tushunchalari mazmunidan iborat. U juda ko'p nazariya va ta'limotlar yaratgan. Ammo bizgacha ulardan juda kami etib kelgan. Uning asosiy asarlarini uning shogirdlari yozib olishgan.

PLATON - u ko'proq inson va inson mavqei to'g'risida fikr yuritgan. Uning ta'kidlashicha, tugri fikr qilish malakasiga ega bulish deganda biror bir hayotiy voqea taxlili vaqtida masalaning avval yaxshilik tomonida ro'y berganligini tushuntirishga intilishdir. U ko'proq ideal davlat tuzish haqida fikrlar bildirgan. Uning ezgulik asosiga qurilgan ideal davlat tuzumi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Donishmandlik.
2. Jasorat.
3. Har ishda me'yorni saqlash.
4. Adolat.

ARISTOTEL - u jamiyatning ijtimoiy tarkibi masalalarini o'rganish bilan shug'ullangan. U yana komil inson, komil fuqaro haqida o'z qarashlarini ifoda etgan. Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixining eng mazmundor davri bo'lishiga grek maktabiga mantiqiy yakun yasagan. U yaratgan ta'limot xam Prezidentimiz I.A.Karimov ilgari surgan milliy istiqlol g'oyasi konsepsiyasida ta'kidlab o'tilgani kabi «o'zi mansab bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi»⁹. Antik dunyo sotsiologiyasi vakillarining ilk ta'limotlari keyingi davr vakillari uchun asosiy turtki bo'lib xizmat qilgan.

2.2. Movarounnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganish ulug' mutafakkir Al-Forobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insonlik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va hodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mas'ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab beradi. «Fozillar shahrining birinchi boshlig'i, - deb ta'kidlagan Forobiy, shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur». U madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisi ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy jihatdan namunali, har bir odam kasb hunarda ozod, hamma barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki

⁹ Milliy istiqlol g'oyasi: асосий тушунча ва тамойиллар Т. 2000 й. 16-бет

tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosida ozod bo'ladilar – degan fikrlari Forobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi. Forobiy olamni anglashda vorisiylik omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, inson barcha haqiqatlarni o'zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha sir-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o'zidan oldinga ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-xulosalarni boricha shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi, ilm-ma'rifat bobida yetuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy jamiyatning baobro' shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Forobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urg'u beradi. «Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng yaxshi bilimlardur».

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi. Navoiy o'z asarlarida inson qadr-qimmatini, nomus oriyat va insoniy g'urur tushunchalari, inson erki, tafakkur tarzi kabilarga ahamiyat berib o'tadi. Shuningdek, jamiyatdagi ziyolilarga juda ko'p narsalar bog'liq ekanligi, uning «Agar mamlakat harob bo'lsa, shohdan xafa bo'lma, bu ziyolilarning, ilm-ahlining gunohidir».¹⁰ degan fikri ahamiyatlidir. U asarlarida adolat, ijtimoiy adolat prinsiplari haqida to'xtalib adolat mezonlarini Alisher Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo'linganligi umuman olganda ijobiy xodisa ekanligi, bu tasniflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e'tiborga sazovor sosiologik qarashni asoslab beradi. Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o'rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sosiologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo'l ochadi. «Shu jihatdan, - deb yozadi Alisher Navoiy, - hamsuhbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ularda har toifani xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay»¹¹.

Sharq sotsiologiyasida Xitoy mutafakkirlarining qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoyda bizga ma'lumki kuchli imperiyalar tarkib topgan. Diniy mutaasiblik va kosmologiya g'oyalari Xitoy hukmdorlarini azaldan osmoniy hukmdor mavqesiga yuksalish orzulari yulida xizmat qilib kelgan. Kosmologik g'oyalar asta sekinlik bilan imperiyaning har bir jabhasida ma'lum bir ramziy

¹⁰ Sotsiologiya. O'quv qo'llanma . T 2002y . 39 -bet

¹¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983 yil 3-bet

belgilar tarzida ifodalangan. Masalan, tamg'alarda uch gorizontal chiziq, ya'ni osmon, yer va insondan iborat bo'lgan chiziqlardir. Uning asarlarida ko'proq kosmologiya masalalari o'rin olgan. U kishilar o'rtasidagi munosabatlar tizimini besh ko'rinishga ajratadi:

1. Ota va farzand.
2. Er va xotin.
3. Aka – ukalar.
4. Turli oilalar.
5. Hukmdor va fuqarolararo munosabatlar.

Nima xayoliga kelsa shuni qilishga emas, balki jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan, ijtimoiy tabaqa mohiyatidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishga mas'uldir. U juda ko'p davlat boshqaruvi yuzasidan nazariyalar yaratgan. Afsuski, o'sha davrda hech bir hukmdor uning xizmatidan foydalanmagan.

Movarounnahr hududida yashagan mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari ham e'tiborga molikdir. Ayniqsa, Abu Mansur al-Moturidiyning xizmatlari beqiyos. Keyinchalik Moturidiya maktabi asoschisi Abu Mansur al-Moturudiy o'z asarlarida din, jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlar va shaxs haqida ta'limotlar yaratgan. Inson shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi kontseptsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kontsepsiya murosaviy muvozanat kontseptsiyasi deb atalib, unda islomni anglash, ijtimoiy-siyosiy muxit, xalq turmushi, mintalitet va insoniy yondashuvlar sintezi deb baxolashimiz mumkin. U jamoa va jamiyatni moxiyatan asoslab berishga xarakat qiladi. Al Moturidiy axloqiy tanlov, ixtiyor erkinligi haqida fikr yuritib, ularni jamoaga, guruhga qarshi bo'lmasligi va shaxs davlatning va aksincha shaxs oldidagi mas'uliyatni alohida e'tirof etadi. U jamoatchilik fikri bilan jiddiy shug'ullangan. Umumiy fikrga kishilarni ongli ravishda yondashishlarini da'vat etadi. Jamoatchilik fikr yuzasidan fikr bildirib, islomiy e'tiqodi ham, hayotiy – axloqiy sohalarida hyam, mafkuraviy siyosatda ham insonlarning yakdillikka erishishlarida nomoyon bo'lishini ta'kidlaydi. U murosaviy muvozanat kontseptsiyasini ishlab chiqqan. Bu kontseptsiyada asosan jamiyatdagi ijtimoiy fikr barqarorligi ham tazyiq va kuch vositasida emas, balki o'zaro hamjihatlik, hamkorlik negizida amal qilish g'oyasi ilgari surilgan. Ana shu kontsepsiya Al Moturidiyning sunniylik mazhabining Movoraunnahrda keng yoyilishiga hissa qo'shdi.

Abu Rayxon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mineralogiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy hayot masalalari yoritilgan. «Mineralogiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, yerdagi burchi, oliyjanobligi, shuningdek jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan. Beruniy tom ma'noda o'z davri etnosotsiologi ham edi. «Etnosotsiologiya – etnos – millat, logos - ta'limot».¹²

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, arablar, turklar to'g'risida, «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan. Beruniy

¹² K.Yunusov. Sotsiologiya o'quv qo'llanma.. A. 1997 й

hindlarning bayramlari, nikoh masalasini o'rgangan. Beruniy sotsiologiyasidagi muhim soha ijtimoiy tabaqalashuv haqida ham fikr yuritib, «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab bo'lgan odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj to'g'rilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan». Beruniy ilmiy ijodida, jamiyat hayotini o'rganishda ilmiy kuzatish, taqqoslash, tavsiflash kabi Sotsiologiyaning empirik usullaridan keng va oqilona foydalangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham «Boburnoma» asarida o'z davri ijtimoiy hayoti voqeligini, inson shaxsi xususiyatlarini, yaxshi va yomon tomonlarini, Andijon-Hindistonga qadar bo'lgan ulkan hududda yashagan xalqlarning ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yozib qoldirgan.

Forobiyning shogirdi Ibn Sino (980-1037) ham ijtimoiy hayotni o'rganish va tadqiq qilishga harakat qilgan. Uning aksariyat asarlari axloqiy qarashlardan iborat bo'lgan. U o'z asarlarida bir qancha axloqiy fazilatlariga ta'rif beradi. chunonchi, iffat, himmat, adolat, saxiylik, qanoat, sadoqat va boshqalar shular jumlasidandir. Alloma tasavvuf falsafasi va tasavvufiy axloqshunoslikka doir asarlar ham yozgan. U shuning uchun ham «Shayx-ur-Rais» ya'ni shayxlarning raisi degan nom olgani bejiz emas. Ibn Sino tabiat va jamiyat haqida fikr yurita turib, o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi deb ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining erkin yashashlari uchun o'sha jamiyat, davlat va odamlar birgalikda faoliyat ko'rsatishi shartligini asoslaydi. Yanada oddiyroq qilib aytganda, dunyo kamoloti uchun jamiyatdagi yashaydigan odamlar erkin faoliyat qilishlari lozim. Ana shundagina ijtimoiy hayot o'z o'rniga tushishi mumkin. Jamiyat hodisalarini o'rganish, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy guruhlar muammolari ham Ibn Sinoning diqqat markazida turgan. «Ibn Sino dunyoning abadiyligi har bir yuz beruvchi narsaning albatta bir kun kelib yaratilishi mumkinligi bilan izohlanishini, dunyoda g'ayritabiiy narsalarning yo'qligini ham ta'kidlaydi». Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ibn Sino sotsiologiya tegrasida ancha samarali ishlar olib borgan. Buyuk vatandoshimiz savob va jazo masalasida ham mohiyatan tasavvufiy yo'nalishda fikr yuritadi. U yana inson taqdiri masalasi bilan ham qiziqqan.

Musulmon sharqi mintaqasida turkiy tilda ijod qilgan Yusuf Xos Hojib ham inson, inson erki, tafakkuri, yashash tarzi, siyosatga oid ko'plab qimmatli fikrlar bildirgan. «Qo'tadg'u bilig» asarida axloq, siyosatshunoslikka doir ma'lumotlar bor. Bu asarni turkiy xalqlarning axloqiy, ijtimoiy qomusi deb atashimiz mumkin. Kitobda ezgulik va yovuzlik, halollik va haromlik singari tushunchalar obrazli qilib, misralarda, maqollarda ochib berilgan. U jamiyatning ezgu odami haqida fikr bildirdi. «Uning barcha qilmish va yo'riqlari xalqqa foyda va manfaat beradi. Ezgu odam o'z manfaatini ko'zlamaydi, boshqalar manfaatini o'ylaydi».¹³ Haqiqatdan ham ezgu maqsadlarni ko'zlagan insonlar jamiyat, davlat rivojlanishiga ijobiy turtki beradi. Yusuf Xos Hojib til va dil birligini ham talqin etadi. Jamiyat – aql –

¹³ K.Yunusov. Sotsiologiya o'quv qo'llanma. A. 1997 y 125-bet

zakovot orqali rivojlanadi deb ta'kidlaydi. U ham jamiyat va tabiat to'g'risidagi bahslarni kuzatib boradi. U ko'proq jamiyatning rivojlanishi fan, ta'lim sohalariga bog'liq ekanligini bildirib, fan va ta'lim sotsiologiyasini asoslab yaratib beradi. U Sotsiologiyani falsafa fani kabi donishmandlik fani deb e'tirof etadi. U ijtimoiy tabaqalarni xususiyatlarini, mavjud ijtimoiy tuzum, ma'naviy-moddiy hayot jarayonlarini keng tadqiq qiladi. Davlat tuzumi qurilishi haqida ham batafsil ma'lumotlar beradi.

Xulosa qilib aytganimizda «Sharq sotsiologiya maktabi rang-barang ta'limotlar guldastasidan iborat bo'lib, bugungi kunda hayotimizga tobora mustahkam o'rin olayotgan milliy istiqlol g'oyasi uchun falsafiy, diniy va dunyoviy poydevorlar vazifasini o'taydi. Milliy istiqlol g'oyasi uchun ham mazkur ta'limotlar nazariy asos sifatida xizmat qiladi».¹⁴

Sotsiologiyaning vujudga kelishiga doir bosqichlarini o'rganish bizni sotsiologik tafakkur qilish madaniyatiga o'rgatadi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari yaratgan, ming yillar avval qo'llanilgan ijtimoiy hayot jarayonlarini o'rganish usullaridan voqif bo'ldik. Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlaridagi asosiy farq shundaki, yangi davr Ovrupa fani ijtimoiy tadqiqot shakli O'rta asr Sharqi ijtimoiy hayotidan tubdan farq qiluvchi, yangi ijtimoiy munosabatlar mazmuniga, o'ziga xos tomonlariga ega bo'lgan jamiyat tuzumini o'rganishga qaratilgan. Biz endi bevosita G'arbiy Yevropa sotsiologiya maktablari xususida kengroq to'xtalib o'tamiz.

2.3. Ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy yuksalishga erishayotgan G'arbiy Yevropa hayoti ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga, o'rta asr tuyg'unligidan chiqqan olmagan sharq mamlakatlariga nisbatan ilmiy bilimlar rivojlanishiga yangi muhit va qulay sharoit yaratib berdi. Buning oqibatida jamiyat hayotini tobora sistemali, mukammal o'rganishga qaratilgan sotsiologiya fan sifatida shakllandi va yanada rivojlana boshladi. XIX asrda Garbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy ahvol notinch edi. Fransiya, Angliya mamlakatlari ijtimoiy munosabatlarda keskin ziddiyatlar vujudga kelgan edi. Sotsial inqiloblar G'arbiy Yevropani larzaga sola boshladi. Shunday sharoitda O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber, Z.Freydlar kabi sotsiologiya asoschilari jamiyat taraqqiyotini islohotlar asosida olib borish zarurligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surdilar.

Fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798 - 1857). Uning «Pozitiv falsafa kursi» asarining uchinchi tomi bevosita «Sotsiologiya» ga bag'ishlangan. U birinchi bor jamiyat hayotini o'rganish vazifasini bajaradigan «Sotsiologiya» tushunchasini qo'llagan. O. Kont o'z ta'limotini pozitiv, ya'ni ilmiy asoslangan falsafa deb baholadi. Dastlab pozitiv bilim matematika, fizika, astronomiya, ximiya, keyinchalik biologiya sohasida qo'llanildi. Keyinchalik sotsiologiyada qo'llanilishi esa – uning eng yuqori darajaga erishganligini bildiradi. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usullari yordamida to'plagan emperik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi. O.Kont sotsiologiyani ikki qismga ajratib ko'rsatadi: sotsial statistika va sotsial dinamika. Sotsial statistikada ijtimoiy tuzumlarning shart-sharoitlari va funksional qonuniyatlari o'rganilishini

¹⁴ Milliy istiqlol g'oyasi : asosiy tushuncha va tamoyillar. T 2000 й 16-ber

ko'rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar oila, davlat, din kabilar tadqiq etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va aqliy rivoji insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb, qaraydi. Bu tamoyil hozirgi zamon sotsiologiyasi tarkibida ham o'z mazmunini, ilmiy qimmatini saqlab qolgan. O.Kontning sotsiologiya sohasidagi xizmati shundaki, u dasturlar va metodlarni aniqlab olgan. Uning fikricha, sotsiologiyaning predmeti ijtimoiy hodisalarning mohiyatidir». ¹⁵Sotsiologiya fan sifatida tarkib topishida – mehnat taqsimoti va kooperasiya qonunining ochilishi sabab bo'ldi. Aynan shu qonun ham O.Kont tomonidan ilmiy asoslab berildi. Kontning jamiyatni yaxlit organizmi sifatida tushunishi, mehnatning ijtimoiy adolat asosida taqsimlanishi, guruh va qatlamlar manfaatlarini moslashtirishda davlat va shaxslarning o'rni to'g'risidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir.

Klassik sotsiologiyaning yirik nomoyondalaridan biri, fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym (1858-1917). U o'zining «Sotsiologik usul qoidasi» asarida sotsiologiyani sotsial real ma'lumot sifatidagi predmetni ta'riflab beradi. Dyurkgeym fikricha, sotsiologiya sotsial ma'lumotlarni bilishga asoslanmog'i kerak. Uningcha, sotsial ma'lumotlarni ob'yektiv real ravishda e'tirof etmoq sotsiologiya usulini asosiy talabidir. «Sotsiologiya – deb yozadi E.Dyurkgeym, - qanchalik ixtisoslashgan bo'lsa, falsafiy mushohada uchun shunchalik boy, o'ziga xos ma'lumotlar etkazib beradi». Dyurkgeym O.Kontning pozitiv yo'nalishidan farqli o'laroq u sotsializasiya nazariyasi bilan shug'ullanadi. «Dastavval har bir sotsial jarayonni muhim ichki sotsial tuzilishini tashkil etadigan muhitni topish kerak» - deydi u. Sotsiologiya sohasida uning fikricha, o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiladigan faktlar mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Dyurkgeym sotsiologiya fanini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatsada, mohiyat e'tibori bilan pozitivizm chegaralaridan to'liq chiqib keta olmadi. Dyurkgeymning qarashlarini asosini «sotsiologizm» g'oyasi tashkil etadi. U jamiyat evolyusiyasini o'rganib, ijtimoiy aloqalarning ikki asosiy turlarini ajratadi:

1. Mexanik hamjihatlik.
2. Organik hamjihatlik.

Mexanik hamjihatlikda – arxaik jamiyat alohida individlarni o'ziga butunlay bo'ysundirmoqchi bo'ldi. Bunda diniy ishonch, urf-odatlar orqali ijtimoiy onggi singdirildi

Organik hamjihatlikda – ijtimoiy aloqada ijtimoiy individlarning iqtisodiy o'zaro aloqalari va mehnat taqsimoti orqali ta'minladi.

Mana shu ikkita ijtimoiy aloqalar E.Dyurkgeymning «sotsiologizm» g'oyasini ifoda etadi.

Nemis faylasufi M. Veber. (1864-1920). M.Veber qadriyatni hukmlar doim shaxsiy va sub'yektiv xususiyatga ega deb hisoblaydi. Ular axloqiy, siyosiy yoki boshqa qarashlar bilan bog'liqdir. M.Veber sotsial bilishning asosiy quroli «ideal tip» xisoblaydi. Ideal tiplar – bu sotsial tarixiy reallikni taqqoslash orqali bilish to'g'risidagi tushuncha. Uningcha, barcha sotsial ma'lumot sotsial tip bilan tushuntirilmog'i lozim.

¹⁵ Sotsiologiya o'quv qo'llanma. T. 2001 й 47-бет

Veberning sotsiologiyasida – tarix, xuquq nazariyasi, iqtisod va dinning ko'p jihatlari qamrab olgan. Veberning stratifikatsiya mavzusiga yondashuvi asosiy o'rin tutadi. Uningcha, sinflarga bo'linish faqatgina ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish yoki bo'lmaslik emas, balki mulk bilan bevosita bog'liq bo'lmagan iqtisodiy farqlar bilan ham belgilanadi. Bu omillarga birinchi o'rinda, insonning biror ishni bajara olish-olmasligini belgilovchi mahorat va malaka kiradi. Veberning stratifikatsiya haqidagi asarlari shuni ko'rsatadiki, inson hayotiga, sinfiy mansublikdan tashqari, boshqa stratifikatsiya turlari ham katta ta'sir o'tkazadi. Ko'pchilik sotsiologlar bunday yondashuvga qo'shiladilar, chunki Veber sxemasi stratifikatsiya tahlili uchun mos va takomillashgandir. Sotsiologiya M. Veber ta'kidlashicha, ijtimoiy fanlar orasida shunday o'rin tutishi lozimki, uning asosiy vazifasi – insonning ijtimoiy xulqi mohiyati va ahamiyatini tushunish, jamiyat rivojiga sabab bo'ladigan qonunlar echimini ko'rsatib berishdan iborat bo'ladi». M. Veber xulq va ijtimoiy harakatlarni asosiy turlarini ajratib, asoslashga harakat qilgan.

Z. Freyd. (1856-1939). U o'zining sotsiologik qarashlarini, nazariyalarini o'z asarlarida bayon etib kelgan. Uning fikricha, odamning psixologik taraqqiyoti kuchli zo'riqishlar bilan kechadi. Bola o'zining intilishlarini tiyib turishga harakat qiladi, biroq uning ongi ostida ular kuchli motiv sifatida mavjud bo'ladi. Bolaning ilk rivojlanishi bir necha tipik bosqichlaridan o'tadi. U 4-5 yoshga, bolalar kattalarning va ota-onalarning doimiy ishtirokisiz ham kengroq ijtimoiy olamga chiqq boshlaydigan davrga alohida e'tibor qaratadi. Bu davrni Freyd shakllangan bosqichi, deb ataydi.

Z. Freyd psixologiyaning rivojiga juda kuchli ta'sir o'tkazadi. U XX asrning eng yirik mutafakkirlaridan biri edi. U inson xulq-atvorining akademik tadqiqotchisigina bo'lib qolmay, nevrozlarni davolash amaliyoti bilan ham shug'ullanar edi. Psixozanaliz deb ataladigan u kashf etgan terapiya usulining mohiyati-bemorning o'z hayoti, ayniqsa, ilk davrlar haqida erkin so'zlab berishini Freyd, bizning xulq-atvorimizni ongsizlik boshqarishi, katta odam xulq-atvori ko'p jihatdan uning bolaligida paydo bo'lgan istaklar ta'sirida shakllanadi, degan xulosaga keladi. Ilk bolalikdagi tajribaning ko'p qismi ongli xotirasidan uchib ketadi, lekin u insonning o'zini o'zi anglashi uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib, Freyd nazariyasi insonni o'z-o'zini ongli idora qilish, har bir ishda me'yorga qat'iy rioya qilish, har bir ishda me'yorga qat'iy rioya qilish, aql va instinkt bahsida to'g'ri yo'l tanlashga undashga o'rgatish orqali o'zini ahamiyatini yuqotmagan.

Sotsiologiyaning noklassik tili nemis sotsiologi T. Zimmel (1858-1918). «Sotsiologiya, - G. Zimmelning fikricha – xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir». U jamiyatning umumsotsiologik qonunlarini rad etib, shunday fikrlarni yozadi: «Ijtimoiy rivojlanish qonunlari to'g'risida so'z bo'lishi mumkin emas. Albatta, har qanday ijtimoiy unsur harakati tabiiy qonunlarga bo'ysunadi; ammo, umumiy jamiyat qonuni yo'q; bunda, barcha tabiatdagidek, qonunlar ustidan hukmronlik qiladigan qonun yo'q. Shuning uchun, biz har qanday ikki bir xil ijtimoiy sharoitda mutlaqo boshqa-boshqa hodisalarni keltirib chiqaradigan kuchni bila olmaymiz».

2.4. XX asr 20 - yillaridan boshlab jahon sotsiologiyasining markazi G'arbiy Yevropadan AQSH ga ko'chdi. Yevropada sinfiy kurashning kuchayuvi natijasida AQSH da mavjud ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan emperik tadqiqotlarning katta hajmda to'planganligi AQSH da sotsiologiyaning fan sifatida jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. AQSH da sotsiologiya o'zining ilk o'rganishidan boshlab emperik amaliy fan sifatida shakllandi. Emperik sotsiologik tadqiqotlarga ehtiyoj ijtimoiy tarixiy talabdir. Jamiyat hayotini to'g'ri boshqarish eng avvalo ilmiy sotsiologik tadqiqotlarga tayanmogi lozim. 1960 yillarda AQSH nazariy sotsiologiyasi fenomenologik yo'nalishining kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Fenomenologik sotsiologiyaning yo'nalishi A.Shnets nomi bilan bogliq. O'z mohiyatiga ko'ra, fenomenologik sotsiologiya antipozitiv yunalishda bo'ldi. O'tkazilgan emperik sotsiologik tadqiqotlar va ishlab chiqilgan turli xususiy-amaliy sotsiologik nazariyalar muayyan metodologiyaga asoslangan edi. AQSH sotsiologiyasida uzoq vaqt «bixeviorizm metodologiya» sifatida hukmron bo'ldi. Bixeviorizm – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, xulq ma'nosini anglatadi.¹⁶ Bunga ko'ra, sotsiologiya inson xulqi to'g'risidagi fandır. Bixeviorizm asoschilari E.Torndayk, D.Uotson, B.Skinnerlap hisoblanadi. Ularning fikriga ko'ra, inson xulqi ko'p jihatdan boshqariladigan ruhiy jarayondir. Shuning uchun, bixeviorizm namoyondalari sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya kabi fanlarning asosiy vazifasi inson xulqini boshqarishdan iborat bo'lmog'i lozim, deb hisoblaydilar. Bixeviorizm sotsiologiyaning emperik usullariga katta ahamiyat beradi. Bu metodologiya asoschilari sotsiologiyada ayniqsa, kuzatish va eksperiment usullari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Emperik ma'lumotlarni qayta ishlashda esa miqdoriy, matematik va statistik usullar ko'proq ahamiyatli ekanligini ko'rsatdilar. Sotsiologiya fani rivojida bixeviorizm katta ahamiyat kasb etadi. Inson xulqining chuqur ichki yashirin, botiniy dunyosini o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bixeviorizm metodologiyasidan tashqari yana Parsons va Mertonlarning tarkibiy – funksional taxlil maktabi metodologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Sistemali funksional yondashishlar g'oyasini amerikalik olim Parsons o'zining sotsial harakat nazariyasida ishlab chiqqan. U sistema tushunchasini ijtimoiy yaxlitlikning turli darajasidagi harakatning natijasi sifatida ishlab chiqishga intiladi. Shaxsning, madaniyatning va jamiyatning sistemali sifatlari institutsionallashtirish jarayonida nomoyon bo'ladi. Ayni shu institutsionalizatsiya o'zaro harakatning uyushgan modelining ko'rinishi bo'lib, u sotsial strukturani tashkil etadi. Bu metodni yanada takomillashtirib rivojlantirgan olim bu R.Mertondir. U «disfunksiya» tushunchalarini joriy etadi va buning natijasida sotsial tahlili yanada chuqurlashib bordi. Yangi umumiy yondashish yaratish uchun sistema – funksional maktablar sotsiologiyaning barcha yutuqlarini qaytadan tahlil qilib chiqadilar, chunki harakatning umumiy analitik nazariy sistemasini yaratish sotsial voqelikni barcha turli-tumanligini qamrab olishlikni taqazo etadi. Shuningdek, ayni vaqtda, sistemalik va struktur yondashishlar vujudga keldi. T.Parsons va R.Merton va boshqalar sotsial harakatning sub'yekti aspektlarni

¹⁶ E.Giddens Sotsiologiya o'quv qo'llanma. T. 2002 й 183-бет

metodning elementi sifatida talqin qiladilar. Merton funksiyalari va disfunktsiyalarni ajratib ko'rsatadi. Uning ko'rsatishicha, antropologlar tadqiqot doirasiga tushgan kichik madaniyatlar, yirik industrial jamiyatlarga qaraganda birmuncha integratsiyalashgan hisoblanib, sotsiologiyaning asosiy o'rganish ob'yekti hisoblanadi. Merton fikricha, har qanday hodisani sotsiologik jihatdan tushuntirishning ma'lum qismi ijtimoiy institutlar va kishilik faoliyatining yashirin funksiyalarini ochishdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. Antik dunyo sotsiologiyasining ahamiyati nima?
2. Shaxs va jamiyat, ular o'rtasidagi muhim aloqadorlik?
3. Forobiyning vorisiylik ta'limoti asosi nimada?
4. Sotsializatsiya nima?
5. Antik dunyo sotsiologiyasining mashhur 3 ta davri qanday?
6. Ijtimoiy jamoalarga ta'rif bering.
7. XX asr sotsiologiyasining muhim jihatlari nima?
8. Qanday sotsiologik maktablarni bilasiz?
9. Realistik oqimning mohiyati nimada?
10. Bixeviorizm metodologiyasi asosi nimada?

3– MAVZU: JAMIYAT YAXLIT TIZIM SIFATIDA

REJA:

- 3.1. Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi.**
- 3.2. Sharq va g'arb sotsiologlarining jamiyat haqidagi qarashlari.**
- 3.3. Zamonaviy jamiyatning turlari.**
- 3.4. XX va XXI asr madaniy tarixiy va siyosiy tizimlarni tavsiflash.**

Mavzu bo'yicha tayanch atamalar:

Jamiyat, farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati, iste'mol qilish jamiyati, ochiq va yopiq jamiyat, industrial (sanoat) jamiyati, totalitar jamiyat, avtoritar jamiyat, demokratik jamiyat, ijtimoiy tuzilma.

3.1. Jamiyat - kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Jamiyatimiz sotsial tizimining muayyan konkret shakli sifatida, uning funktsional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarning o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rgaib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Sotsiologiya tarixida jamiyat – o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim ijtimoiy birlikgina emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi ta'limot bo'lib, ijtimoiy tizimlar rivojlanishi va funktsional qonuniyatlar, harakatlantiruvchi kuchlarni o'rganuvchi fan hamdir.

U turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni, shuningdek, shaxs, kishilarning ijtimoiy xulqi, uning elementlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Zamonaviy sotsiologiyaning diqqat markazida jamiyat tushunchasi turadi. U mamlakatning ijtimoiy tashkil etilishini xarakterlaydi. Sotsiolog N. Smelzer jamiyat haqida shunday deydi: «Muayyan geografik chegara, umumiy qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy-madaniy) tenglikka ega bo'lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi».

Sotsiologiyada jamiyat an'anaviy va zamonaviy jamiyatga ajratib o'rganiladi.

An'anaviy jamiyat quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) mehnat tabiiy taqsimlanadi va ixtisoslashadi (asosan, yosh va jins belgilariga ko'ra);
- 2) shaxslararo munosabat bevosita individlar orqali namoyon bo'ladi;
- 3) o'zaro aloqalar norasmiy ravishda tartibga solinadi (din va axloq qonunlari yordamida);
- 4) jamiyat a'zolari qarindoshchilik aloqalari bilan bog'liq bo'ladi;
- 5) hamjamiyat oddiy boshqaruv tizimiga ega (hokimiyatning meros bo'lib qolishi, oqsoqollar boshqaruvi).

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy jamiyatda insonning yaratuvchilik qobiliyati ancha cheklangan edi. Chunki an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimlanishi va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning tabaqalashuvi, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikr yuritishini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etardi.

An'anaviy jamiyat kabi zamonaviy jamiyat ham bir qator xususiyatlarga egadir:

- 1) o'zaro ta'sir rasmiy xarakterga ega (kishilarning xulq-atvori va intilishlari ijtimoiy maqom va individlarning ijtimoiy funksiyalari bilan bel-gilanadi);
- 2) mehnat taqsimoti chuqur amalga oshadi (ta'lim va ish tajribasi bilan bog'liq kasb-malaka asosida);
- 3) munosabatlar rasmiy tizimda tartibga solinadi (qonun, tartib, bitim-lar asosida);
- 4) ijtimoiy boshqaruv murakkab tizimga ega (boshqaruv instituti, boshqarishning maxsus organlari);
- 5) din boshqaruv tizimidan ajralgan;
- 6) ko'plab ijtimoiy institutlar mavjud.

Demak, hozirgi paytda jamiyat kishilararo munosabatlarning rasmiylashuviga olib keluvchi ijtimoiy aloqalar tizimining murakkablashuvi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning zamonaviy shaklidir. Umuman ol-ganda, shaxslararo munosabat va his-tuyg'ularning bog'lanishi jamiyatni ifodalaydi.

«Jamiyat hayotining industrlashuvi ob'yektiv ravishda, qaysi ijtimoiy tizimlar bo'lishidan qat'i nazar, ijtimoiy iyerarxiyaning bir xil (yagona) tipiga olib boradi» - degan amerika sotsiologlarining fikri tarixiy rivojlanish amaliyotida tasdiqlanmoqda.

Ijtimoiy tizim - o'zaro bog'langan individlar, ijtimoiy guruhlar va institutlarni o'z ichiga oluvchi, murakkab tashkil bo'lgan va tartiblangan ijtimoiy yaxlitlik. Alohida shaxs ham uning tashqi dunyo bilan munosabatlarining serqirraligi va o'z-o'zini tashkil qilishining yaxlitligi nuqtai nazaridan ijtimoiy tizim hisoblanishi mumkin.

Ijtimoiy tizim - murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, bir butun, o'ziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil qiladi. Har qanday ijtimoiy tizim tarkibiy tizimlar, masalan, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy turmush, fan va shu kabi sohalarda to'ralohida olingan insongacha bo'lgan ijtimoiy tizimlar shular jumlasidandir.

Avvallo biz jamiyatni sotsiologik nuqtai nazardan quyidagicha o'rganamiz:

1. Jamiyat tuzilishi va tarkibi o'rganiladi (Jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansub?).

2. Jamiyatda yashayotgan kishilarning xatti-harakatlari nimalardan iborat. (ularning o'zaro munosabatlaridagi xarakterlari)?

3. Jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Dunyodagi barcha hodisalar vaqtlar o'tish bilan o'zgaradi.

Jamiyatni to'liq tushinish uchun faqat uning tuzilishi va rivojlanishinigina emas, balki o'tmishini, tarixini ham sinchiklab o'rganish bu jamiyatning qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilishga, jamiyatni to'liq tushunishga imkon yaratadi.

Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Jamiyat elementlari:

- ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusiga ega;
- o'zida ijtimoiy me'yori va qadriyatlarni aks ettiradi;
- individual sifatlar (shaxs ijtimoiy belgisi, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi, shaxs motivlari)dir.

Jamiyatning har bir sohasi ishlab chiqarish taraqqiyotida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi:

- iqtisodiy munosabatlar - moddiy ishlab chiqarish funksiyasi;
- ijtimoiy munosabatlar – ijtimoiylashuvni – sotsializasiya;
- siyosiy munosabatlar - ijtimoiy boshqaruvni (elementar nazorati);
- mafkuraviy munosabatlar - ma'naviy ishlab chiqarish funksiyasi va boshqalardir.

Ijtimoiy struktura - jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar 2 xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sotsietal munosabatlar;

2. Ijtimoiy munosabatlar.

– 1. Sotsietal munosabatlar sistemasiga jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sotsietal sistemasida iyerarxik qaramlik mavjud. Ya'ni, bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak, sotsietal munosabatlar sistemasi tuzilishi:

– iqtisodiy: (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va

boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);

– ijtimoiy: a) ijtimoiy munosabatlarning asosiy elementini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi kishilar (jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.

– siyosiy;

– mafkuraviy.

2. Ijtimoiy munosabatlar: («ijtimoiy» sistema elementi –kishilar).

Ijtimoiy munosabatlar - kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlardir. Ular turli jamoalar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kishilar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, ularni bir butun sotsial organizm bog'laydi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyotida chorvachilik paydo bo'lishi, dehqonchilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfikrlilik, kooperasiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatiga ko'ra jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etadi.

Ijobiy munosabatlar ta'siri: hamfikrlilik, kooperasiya, kurash.

Salbiy ta'sirli munosabatlar: befarqlik, kamsitish, konfliktlar, begonalashuv, krizis, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar 2 turga bo'linadi:

1. Moddiy munosabatlar.

2. Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar.

Moddiy munosabatlar - inson hayotining moddiy taraqqiyotidagi munosabatlar: inson yashashi, bor bo'lishi uchun, avvalo u moddiy ehtiyojini ta'minlashi kerak. U oziq-ovqat, kiyim, turar-joy bilan ta'minlanishi lozim. Ana shu ehtiyojini qondirish uchun u jamiyatda boshqa insonlar, guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Shuningdek, oila ham, guruhlar ham, holi davlat ham nihoyat butun jamiyat hisoblanadi.

Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar - siyosiy, huquqiy, axloqiy va diniy munosabatlar. Uning asosiy o'zagini moddiy munosabatlar tashkil etadi. Demak, moddiy munosabatlar bazis, ideologik munosabatlar ustqurma hisoblanadi.

Madaniy munosabatlar ham mavjud.

Ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik:

1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;

2) turli ijtimoiy guruh, qatlam, toifalar o'rtasidagi hayotiy bog'liqlik;

3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bog'liqligi mavjud.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy institutlar;

2) siyosiy institutlar;

3) nikoh, oila va qon-qarindoshlik;

4) tarbiya institutlari;

5) madaniyat sohasi institutlari.

Jamiyat taraqqiyotning ma'lum bosqichida paydo bo'lgan, o'zining ishlab chiqarish munosabatlariga asoslangan, tili, hududi, madaniyati bilan farqlanadigan, kishilar o'rtasida bevosita yoki bilvosita ijtimoiy munosabatlarga amal qiladigan uyushmadir. Jamiyat insonlar o'rtasida sotsial aloqalar, o'zaro ta'sir va munosabat tashkil etishning universal usulidir. Ushbu munosabatlar, o'zaro aloqalar «ehtiyotlar», »motivlar», «qadriyatlar» asosida shakllanadi.

M.Veber fikricha, jamiyat-sotsial, ya'ni boshqa insonlarga yo'naltirilgan harakatlar mahsuli bo'lgan insonlar munosabatidir. T.Parsons fikricha esa, jamiyat qadriyatlar va me'yorlar orqali tuziladigan munosabatlar tizimi. Ingliz olimi G.Spenser jamiyatni tirik biologik organizmga analogiya qiladi. Uning fikricha, o'xshashliklar quyidagilardan iborat:

1)jamiyat tirik biologik organizm singari o'z mavjudligi jarayonida o'sadi va rivojlanadi;

2)biologik evolyutsiya jarayonida tirik organizm strukturasi rivojlangani singari jamiyat ham vaqt mobaynida strukturaviy o'zgarishlarga yuz tutadi;

3)biologik organizm kabi sotsial organizmda har bir a'zo o'z funksiyasini bajaradi;

4)biologik organizmning biror a'zosi o'z funksiyasini bajara olmasligi butun organizmga ta'sir qilganidek, jamiyatning biror bo'g'ini faoliyatini olib bormasa, butun jamiyat krizisga uchrashi mumkin.

Ba'zan davlat va jamiyat tushunchalari bir ma'noda ishlatiladi. Lekin ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jamiyat davlatga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Davlat taraqqiyotning mehnat taqsimoti davrida vujudga kelgan, jamiyat hayotini tartibga solish maqsadida paydo bo'lgan, ma'lum kishilardan tashkil topgan katta sotsial guruhdir. Mamlakat davlat suverenitetidan foydalanuvchi va hududiy chegaralarga ega bo'lgan dunyoning bir qismi yoki hududi.

Davlat - ma'lum mamlakatning aniq siyosiy rejimga asoslangan, boshqaruv bo'g'inlari va hukumat strukturasi ega hokimiyat.

Davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1.Iqtisodiy funktsiya.

2.Mudofaa funktsiyasi.

3.Boshqaruv yoki siyosiy funktsiya.

Jamiyatlar asosan 2 sistemaga bo'linadi:

1.ochiq sistema.

2.yopiq sistema.

Yopiq sistemada kishi o'z sotsial holatini o'zgartira olmaydi, o'zgartirsa ham qiyinchilik bilan o'zgartiradi. Bunday sistemalarda belgilanadigan statuslar hukmronlik qiladi. Informasion filtr kuchli bo'ladi.

Ochiq sistemalarda kishi o'z mehnati, harakati, qobiliyati orqali o'z sotsial statusini o'zgartira oladi va ularda demokratiya tamoyillari amal qiladi.

3.2. Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. **Abu Nasr Forobiy** (873-950) – musulmon Sharqida Arastudan keyin «ikkinchi ustoz» unvoniga muyassar bo'lgan yirik

mutafakkir va alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo'lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarining dolzarb masalalarini tahlil qilishga baqishlangan. Mutafakkir olamni ikki ko'rinishda: «Vujudu vojib» (olloh) va «vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar «vujudi vojib» tufayli yashash huquqiga ega bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan sababiy tarzda boqlanadi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo'lmaydi, deydi Forobiy.

Abu Rayhon Beruniy (973 — 1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Yer qa'rida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, Yer qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, xilma — xil olamlar to'qrisida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishloida tuilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy me'ros taxminan 280 nomdan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantig, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshga sohalariga baqishlangan. Olimning «Shifo kitobi» «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujudu vojib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudu mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo'lganligi uchun yaratilgan «vujudu mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari e'tiborga molikdir. Unga ko'ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chigaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o'zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil guvvatlar bilan bolangan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard magsadi) sabablardan iboratdir.

Mutafakkir o'z asarlarida ilm va axlog-odob uygunligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, hukmdorning burchi to'risida gizigarli oyalarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo'lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim. Barchaning boy va mansabdor bo'lishi yoki hammaning qashshoq bo'lishi jamiyatning tanazzuli va ingirozidir. Lekin inson o'zgalarga mehr-ogibatli, amxo'r bo'lmoi, kerak vaqtda saxovat va muruvvat qo'lini nochorlarga uzatishi zarurdir.

Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, barikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Faroniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy oylar, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, fandagi yangi yo'nalishlar birinchi galda musulmon Shargi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga hayotbaxsh ta'sir o'tkazib keldi.

Afsuski, bu madaniy uyonish mo'ul bosqini tufayli tanazzulga yuz tutdi. Amir va sultonlar o'rtasidagi o'zaro ixtiloflar, noahillik Chingizxon bosginiga qo'l keldi. Ko'rkam shahar va qishloqlar vayronaga aylandi, iqtisodiyot tanazzulga yuz tutdi. Ilm-fan, madaniyat, jumladan falsafa ilmi ham inqirozga uchradi.

Chingiziyalar bosgini Vatanimiz madaniy taraqqiyotini bir necha asrlar orqaga surib yubordi. O'sha davrda bosqinchilarga qarshi kurashning eng atoqli vakili Jaloliddin Manguberdi esa millatimiz o'z ozodligi uchun olib borgan kurashning timsoli sifatida tariximiz sahifalarida abadiy qoldi. Bu milliy qahramonimizning tavallud kuni 1999 yilda keng nishonlangani uning ruhini shod gilish va Jaloliddin Manguberdini kurashga otlantirgan ezgu oyalar bizning kunlarimizda amalga oshganligining ramzidir.

Taraqqiyotning o'zbek modeli – jamiyatning tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi. Ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo'ldan — inqilobiy va tadrijiy yo'ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evolyusion) taraqqiyoti barqaror — tabiiy rivojlanish yo'li ekanini ko'rsatdi. o'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini shunday izoxlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashlarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchilik bilan — bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir»¹⁷.

3.3. Jamiyatlarning zamonaviy ko'rinishlari:

- 1) agrar jamiyatlar
- 2) industrial jamiyatlar
- 3) postindustrial jamiyatlar

Agrar jamiyatlarda iqtisodiyot qishloq xo'jaligiga asoslanadi, asosiy sosial institutlari armiya va cherkovlar (maschitlar) hisoblangan.

Industrial jamiyatlarda iqtisodiyot sanoat va ishlab chiqarishga asoslanadi, asosiy tashkilotlar korporasiya va firmalar bo'lib, insonlar intiladigan qadriyat pul hisoblanadi. Jamiyatni mulkdorlar boshqaradi.

Postindustrial jamiyatlarda barcha sohalarda etakchi kompyuter texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalaniladi, asosiy tashkilotlari universitetlar bo'lib, asosiy qadriyat va insonlar intiladigan narsa bilim va malaka hisoblanadi. Jamiyatni ziyoli va yuqori intellektual salohiyatga ega insonlar boshqaradi

Jamiyatlar siyosiy jihatdan avtoritar, totalitar va demokratik turlarga bo'linadi.

Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

¹⁷Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. 41 - bet.

1. Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati: – (Ko'proq G'arbda; Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin).

2. Iste'mol qilish jamiyati (AQSHda XX asr 40–50-yillarda yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi).

3. Ochiq va yopiq jamiyat. Ochiq jamiyat - demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat. Yopiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrlil (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi.

4 Industrial (sanoat) jamiyati. (XX asr 50-60 -yillarida yuzaga keldi. Bu konsepsiya o'z mohiyatiga ko'ra, markscha ijtimoiy-iqtisodiy formasiya to'g'risidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

Industrial jamiyat ta'limotiga ko'ra, jamiyat turi texnikaviy, industrial-rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat tipini sinfiy strukturadan ajratib olib qaraydi. Industrial jamiyat 2 bosqichda kechadi:

1) Industrial sanoat jamiyati;

2) An'anaviy jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tib boradi.

5. Postindustrial jamiyat. U 3 bosqichda yuzaga keladi:

1) industrial jamiyatgacha bo'lgan davr;

2) industrial sanoat jamiyati davri;

3) postindustrial jamiyat davri.

Postindustrial jamiyati ta'limotiga ko'ra davlat monopolistik kapitalizm o'rnini bosadi. Xizmat ko'rsatish sohasida fan va maorifga e'tibor beradi. Olim, mutaxassis roliga yuksak baho ko'rsatiladi. Sinflarga munosabati, uning ishlab chiqarishga egaligini inkor qiladi. Jamiyatni boshqarish olimlar va mutaxassislar qo'lga o'tishi tarafdori. Sotsial tengsizlik saqlanib qolishini e'tirof etadi.

Jamiyatning tuzilishi quyidagicha:

1. Totalitar jamiyat (lot. umumiy, butun, jamiki) - avtoritar shakllaridan biri. Jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan yalpi nazorat o'rnatiladi.

2. Avtoritar jamiyat (lot. boshlovchi, asoschi, ijodkor, muallif) -demokratik bo'lmagan siyosiy rejimga asoslangan yoki siyosiy ongning avtoritar shakli. Bu siyosiy hukmronlik qilishning o'ta reaksion davlat tizimi. Shaxsning diktatorlik elementlari bilan uyg'unlashib ketadi.

3. Demokratik jamiyat (yunon. xalq hokimiyati) - xalqning hokimiyat manbai ekanligi, davlat ishlarini hal qilishda qatnashishini bildiradi. Ijtimoiy tuzilma - jamiyatning ijtimoiy asosini tashkil qiladi.

Hozirgi sotsiologlar va iqtisodchilar jamiyatning quyidagi ko'rinishlarini tatqiq etmoqdalar:

1. An'anaviy jamiyat.

2. Industrial jamiyat.

3. Postindustrial jamiyat.

1. An'anaviy jamiyatda erga bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Boylik tashqi manbalar asosiga qurilib, tabiat manbaalarini egallash, o'zlashtirish kuchayadi.

2. Industrial jamiyatda mulkning barcha ko'rinishlariga bo'lgan munosabat shakllanadi. Yirik mashina ishlab chiqarishi qo'l mehnati o'rniga kelib, yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarishni izohlaydi. Avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish belgiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ular mutaxassislashadilar. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Mahsulot bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat deb atash ham mumkin. Chunki real borliq iqtisodga qaratilgan bo'ladi. Natijada erkin xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakat davlatlari qatoriga qo'shila boradi. Urbanizatsiyalashuv ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni, ommaviy madaniyatni vujudga keltira boradi.

3. Postindustrial jamiyatda intellektual mulk, insonning aql-zakovati, bilimi asosiy o'ringa chiqib qoldi. XX asr o'rtalaridan qator G'arb davlatlari jamiyatning uchinchi bosqichi – postindustrial jamiyatga o'ta boshladi. Sotsiologiyada bu jamiyat nomi har xil, jumladan, «informasion» jamiyat bo'lib, u inson bilimi va informatsiya zahiralariga ko'ra jamiyatning asosiy manbai bo'lib qoladi. Zamonaviy mikroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanmoqda. Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi va qayta ishlab chiqaradi. Kommunikatsiya tizimida xo'jalik tizimi tubdan o'zgaradi. Tabiat manbalaridan, ishlab chiqarish, metallurgiya, qishloq xo'jaligi qisqaradi, mashina ko'lami kengayadi, aholining deyarli 50 foizi shu sohani band etadi. Postindustrial jamiyat - maishiy xizmat qilish jamiyati, deb ham yuritiladi. Ishlab chiqarish (moliyaviy, bank, sug'urta, savdo, ilmiy maslahat, dastur) va noishlab chiqarish sohalarida xizmatlar (fan, ta'lim va boshqa) o'sib boradi. Bunda urbanizatsiya jarayoni industrial jamiyatga nisbatan teskari ravishda yuz beradi. Qishloqqa sanoat kirib boradi. Shuning uchun mamlakatimizda joriy etilgan ta'limning yangi modeli- kadrlar tayorlash milliy dasturi jamiyatimizda tub o'zgarishlarni vujudga keltirish asosidir. “biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday kadrlar tayorlashimizga bog'liq”¹⁸ – deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz I. Karimov.

Teylor fikriga ko'ra, intellektual omil birinchi o'ringa chiqadi. Inson yuksak kapital emas, balki o'z mohiyatini, bilim va iqtidorini, qadriyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, an'anaviy jamiyatda iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qiligan bo'lsa, industrial jamiyatda inson tomonidan yaratilgan sun'iy ishlab chiqarish vositalari iqtisodning asosini tashkil etadi. Shu boisdan ham bu jamiyat iqtisodiy jamiyatdir. U iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi, hozirgi iqtisodiyot ijtimoiylashib bormoqda. Intellektual salohiyat asosiy o'ringa chiqa boradi.

¹⁸ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. “O'zbekiston”, 1999, 18 bet.

Pareto jamiyatga qismlarning o'zaro bog'liqligidan tashkil topgan sistema sifatida qaradi. Jamiyatni sistemali taxlil qilish uning sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyati va muhim yutig'idir. Sotsiologiya tarixida bunday yo'nalish jamiyatning ikki modeli (jamiyat organik birlik, jamiyat mexanik birlik) ta'sirida shakllangan bo'lib, Pareto Dyurkgeymdan farqli ravishda jamiyat mexanizm sifatida qaradi.

Pareto muayyan zamon va makondagi sotsial sistemaning xolatini quyidagi omillari bilan belgiladi:

- 1) tashqi tabiiy shart-sharoitlar (tuproq, iqlim, flora va fauna);
- 2) notabiiy xarakterga ega bo'lgan omillar boshqa jamiyatlarning mazkur jamiyatga ta'siri;
- 3) sistemaning ichki elementlari: hissiyot, manfaatlar, intilishlar, kuzatish, mulohaza yuritish qobiliyati va h.o.

Pareto sotsial sistema barcha elementlarning uzviy bog'liqligini muttasil ravishda ta'kidladi. U sotsial sistema elementlari o'rtasida bir yoqlama sabab-oqibat aloqalari o'rnatishga bo'lgan intilishlarni keskin qoraladi. Pareto monistik qarashlarga qarshi qo'pollik g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha bir element boshqa elementga nisbatan kanday rol uynashi aniklanganidan keyingina sotsial sistemaning xar bir elementining tushunish mumkin. Jamiyatdagi ta'sir va aks ta'sir jarayonlari bir-birini neytrallashtiradi. Shuning uchun ham jamiyat muozanat holatida bo'ladi. Jamiyat muttasil ravishda revolyusion o'zgarishlarni kechirib turar ekan, jamiyat muvozanati dinamik xarakter kasb etadi. Muvozanatni qo'llab-quvvatlashda his-tuyg'u, muhim ahamiyatga egadir. Pareto sotsial rivojlanishning progressiv xarakterini rad etdi, «progress nazariyasi»ni keskin tanqid qildi.

Pareto o'zining sotsial rivojlanish siklli xarakterga egadir, degan g'oyasini Elita nazariyasida asoslashga harakat qildi.

Bunday qarash Dyurkgeym qarashlariga butunlay zid edi. U sotsiologiyaning vazifasi ideallarning asoslash, ilmiy zamanga qo'yishdir deb hisoblagan va sotsial ideallar sotsial voqelikda mujasamlashganligini isbotlashga harakat qilgan edi. Agar Dyurkgeym barcha dinlar o'z o'rnida yaxshi ekanligi ta'kidlangan bo'lsa, Pareto barcha dinlar yolg'on ekanligini isbotlashga harakat qildi. Dyurkgeym fan o'z ob'yektini buzmasligi kerak, desa, Pareto aksincha fan o'z ob'yektini buzishi va o'zgarishi kerak deb hisobladi. Pareto ham Dyurkgeym singari ideallarni real harakatchan kuch deb hisobladi. Biroq bu ideallar, nazariyalarning birontasiga ishonmadi. Bu ideallar yo yaqinlik maxsuli yoki hukmron Elita qo'lidagi keng ommani aldash vositasidir, deb hisobladi. Pareto insonning aqliy mavjudot ekanligiga shubha bilan qaradi. Bu jihatdan unga Makiavveli qarashlari ancha yaqin edi.

Paretoning antropologik falsafasi insonning reasionalistik konsepsiyasiga qarshi qaratilgan edi. Pareto inson o'z hatti-harakatlarni avvalo yaxshi o'ylab ko'radi va keyin shunga muvofiq hatti harakat qiladi, degan qarashga keskin qarshi chiqdi. Uning fikricha, inson dastavval hatti-harakatni amalga oshiradi, keyin uni izohlashga tushuntirishga, oqlashga, rasionallashtirishga o'rinadi.

Jamiyat va tizim tushunchasi. Jamiyat va taraqqiyot to'g'risida rivojlanish nazariyalari. Zamonaviy sosiologiyaning diqqat markazida jamiyat tushunchasi turadi. U mamlakatning ijtimoiy tashkil etilishini xarakterlaydi. Sosiolog N.

Smelzer jamiyat haqida shunday deydi: «Muayyan geografik chegara, umumiy qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy-madaniy) tenglikka ega bo'lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi».

Sosiologiyada jamiyat an'anaviy va zamonaviy jamiyatga ajratib o'rganishadi.

An'anaviy jamiyat quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) mehnat tabiiy taqsimlanadi va ixtisoslashadi (asosan, yosh va jins belgilariga ko'ra);
- 2) shaxslararo munosabat bevosita individlar orqali namoyon bo'ladi;
- 3) o'zaro aloqalar norasmiy ravishda tartibga solinadi, (din va axloq qonunlari yordamida);
- 4) jamiyat a'zolari qarindoshchilik aloqalari bilan bog'liq bo'ladi;
- 5) hamjamiyat oddiy boshqaruv tizimiga ega (hokimiyatning meros bo'lib qolishi, oqsoqollar boshqaruvi).

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy jamiyatda insonning yaratuvchilik, moddiy qobiliyati ancha cheklangan edi. Chunki an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimlanishi va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning tabaqalashuvi, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni norasmiy muvofiqiashtirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikr yuritishini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etardi.

An'anaviy jamiyat kabi zamonaviy jamiyat ham bir qator xususiyatlarga egadir

- 1) o'zaro ta'sir rasmiy xarakterga ega (kishilarning xulq-atvori va intilishlari ijtimoiy maqom va individlarning ijtimoiy funksiyalari bilan belgilanadi);
- 2) mehnat taqsimoti chuqur amalga oshadi (ta'lim va ish tajribasi bilan bog'liq kasb-malaka asosida);
- 3) munosabatlar rasmiy tizimda tartibga solinadi (qonun, tartib, bitimlar asosida);
- 4) ijtimoiy boshqaruv murakkab tizimga ega (boshqaruv instituti, boshqarishning maxsus organlari);
- 5) din boshqaruv tizimidan ajralgan;
- 6) ko'plab ijtimoiy institutlar mavjud.

Demak, hozirgi paytda jamiyat kishilararo munosabatlarning rasmiylashuviga olib keluvchi ijtimoiy aloqalar tizimining murakkablashuvi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning zamonaviy shaklidir. Umuman olganda, shaxslararo munosabat va his-tuyg'ularning bog'lanishi jamiyatni ifodalaydi.

O'zbek jamiyati zamonaviy jamiyat bo'lsa ham, unda ko'plab an'analar saqlangan. Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan jamoa bo'lib, uyushib yashashga odatlangan, to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda bir-biriga ko'maklashishgan. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amho'rlik ko'rsatish, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrihohlik, o'zgalarga yordam tuyg'usi o'zbek xalqiga tarixan xosdir. Shuning uchun ham IA.Karimov 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida «Istiqlol yo'llari va

muammolari» mavzuida nutq so'zlar ekan, «...biz ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o'z yo'limiz bor, deb e'lon qildik...Bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz» deydi va tub islohotlarni amalga oshirish borasida dastlabki tamoyilini belgilab berdi.

Jamiyat tushunchasiga atroflicha yondashuv «jamo» va «hamjamiyat» (ijtimoiy guruh) tushunchalariga to'xtalishni taqozo etadi.

O'zbekiston, albatta, zamonaviy jamiyat. Shu bilan birga, bizda an'anaviy jamiyating ko'plab elementlari mavjud.

«Jamiyat» tushunchasini (E.Shilzga ko'ra) agar u quyidagi talablarga javob bersa, kishilar birlashmasiga nisbatan qo'llash mumkin:

- 1) birlashma katta bir tizim (jamiyat)ning bir qismi bo'lmasa;
- 2) nikoh ushbu birlashma namoyandalari orasida tuzilsa;
- 3) birlashma bolalar tug'ilishi bilan to'ldirib borilsa;
- 4) shaxsiy hisoblangan hududga egalik qilinganda;
- 5) o'z nomi va tarixiga ega bo'lish;
- 6) o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lish;

7) birlashma qadriyatlarining umumiy tizimi (urf-odat, an'ana me'yorlar, qonun-qoidalar) madaniyat asosida tashkil topadi.

Sotsiologiya jamiyatni tizim sifatida uning strukturasi, funksiyalari va tizimi elementlarini o'rganadi. Jamiyatga nisbatan tizimli munosabatning mohiyatini aniqlash uchun, avvalo, tizim nima ekanligiga to'xtalishimiz kerak.

Tizim - o'zaro bir-biri bilan bog'liq va funktsional munosabatlar hamda aloqalarda bo'lgan elementlarning bir butun majmuidir. Ijtimoiy tizim o'z ichiga ayrim individlar, guruhlar, tashkilotlar, institutlar, hamjamiyatlarning ijtimoiy aloqa va munosabatlarda birlashgan, tartibga solingan bir butunlikdir.

Tizimlarning umumiy nazariyasida (L. fon. Bertalanfiga ko'ra) jamiyat murakkab, bir butun tashkil etilgan tizim sifatida talqin qilinadi.

Sotsiologiyada, odatda, ijtimoiy tizim 4 aspektda o'rganiladi:

- 1) individlarning o'zaro ta'siri;
- 2) guruhlarining o'zaro ta'siri;
- 3) ijtimoiy maqomlar ierarxiyasi;

4) individlar xulq-atvorini belgilaydigan ijtimoiy me'yor va qadriyatlarining majmui.

Jamiyatlarning turlari. Jamiyatni tasniflash undagi hukmron dinlar (masalan, islom jamiyati), yoki tiliga ko'ra (ingliz tilida yoki fransuz tilida so'zlashuvchi jamiyat) amalga oshirilishi mumkin.

1970 yil G.Lenski va Dj.Lenskilar jamiyatni yashash uchun zarur vosita olish usuliga ko'ra tasnif qiladi:

a) ovchilik va yigish bilan shug'ullanuvchi jamiyat. Bunday jamiyatlarda (asosan, Afrika qabilalari, Avstraliya aborijenlari) ijtimoiy hayot qarindoshchilik aloqalariga asoslanadi. Ularda siyosiy struktura deyarli yo'q, jamoaga oqsoqol, yo'lboshchi bosh bo'ladi. Mehnat qurollari toshbolta, pichoqlar.

b) bog'bonchilik bilan shug'ullanuvchi jamiyatlar, dastlab, Yaqin Sharqda vujudga keldi, keyin Xitoydan Yevropagacha yoyildi. Mehnat qurollari omoch,

oddiy buyumlar. Siyosiy struktura ikki, ba'zan to'rt ijtimoiy qatlamdan iborat. Urug'chilik aloqalari ijtimoiy strukturaning asosini tashkil etadi. Urug' jamoasi o'ziga xos qoida asosida nikoh munosabatlarini tartibga soladi.

v) agrar jamiyatlar dastavval Misrda tashkil topdi, ular omoch va hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanishni yo'lga qo'ydilar. Ularning ishlab chiqarishdagi mahsuldorligi ham yuqori bo'lgan. Agrar jamiyatda qo'shimcha mahsulotning to'planishi natijasida davlat vujudga keldi, ma'muriy apparat va armiya tashkil topdi, yozuv kashf qilindi, pul tizimi shakllandi, savdo kengaydi. Nisbatan murakkab siyosiy tashkilotlar tarkib topdi, urug' aloqalari jamiyat ijtimoiy strukturasi asosi bo'lmay qoldi. Shunday bo'lsa, urug'chilik munosabatlari siyosiy hayotda muhim rol o'ynadi: fuqarolik va harbiy amallar otadan meros bo'lib qoldi.

g) sanoat (industrial) jamiyatlari. XVIII asr oxirlaridagina Buyuk Britaniyada industriallashtirishning vujudga kelishi natijasida barpo bo'ldi. Eng zamonaviy sanoat jamiyatlari Shimoliy Amerika, Yevropa, Sharqiy Osiyoda tashkil topdi. Texnologiyaning takomillashuvchi, energiyani yangi manbalaridan foydalanish sanoat jamiyatlari rivojlanishida asosiy rol o'ynadi. Sanoat ishlab chiqarishi ushbu jarayonni boshqarish uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlarning qo'llanilishi bilan bog'liq; inson va hayvonning ish kuchi o'rniga issiqlik energiyasidan (avval tosh ko'mirni yoqish orqali), keyinchalik elektr va atom energiyasidan foydalaniladi.

d) postindustrial jamiyat. Amerikalik sotsiolog D.Bell tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya bo'lib, unga ko'ra nazariy bilimlar sanoat va ishlab chiqarishning bir joyga to'planib qolishida asosiy rol o'ynaydi. Industrial jamiyatda asosiy nizo mehnat va kapital orasida bo'lsa, postindustrial jamiyatda asosiy nizo bilim va chuqur bilimga ega emaslik o'rtasida boradi. Chet mamlakatlarga tayyor mahsulotga qaraganda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari ko'proq eksport qilinadi.

3.4.XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshlandi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar tarixiga to'xtash maqsadga muvofiq. Fuqarolar jamiyati to'g'risidagi g'oyalar diyorimizda ilk bor eramizdan oldingi VII asrlarda siyosiy voqelik maqsadini himmat va johillik kabi qarama-qarshi kuchlarning kurashi orqali hal etgan zardushtiylikdir. Himmat johillikka qarshi faol kurashishini inson hayotining mazmuni tarzida siyosiy omilga aylantirildi. O'sha zamonlardayoq jamiyatga bir oila tarzida qarash, ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi siyosiy omil axloq qoidalari negizida hal etish ma'naviy qadriyat hisoblanar edi. Prezidentimiz I.Karimov fuqarolik jamiyatini mamlakatimiz siyosiy va davlat qurilishining asosiy xususiyatlari sifatida ta'kidlab «Mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari vazifalarini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqich-bosqich o'tkazib berish, nodavlat va jamoat tuzilmalari huquqi va mavqeiini oshirishni ko'zda tutadigan «Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari» konsepsiyasi amalga oshirish» dan iborat deb ta'kidlaydi.¹⁹

¹⁹ I.Karimov. Milliy istiqloq iqtisod, siyosat, mafkura. T.O'zbekiston. 1993y 84bet.

«Fuqarolar jamiyati» degan iborani ishlatgan zot Tomas Gobbs (1588-1679) bo'ldi. Jon Lokk (1632-1704) esa fuqarolar jamiyatining davlatdan imtiyozli ekanligini ta'kidlagan. Lui de Monteskye (1689-1755) fuqarolik jamiyati zo'rlik va hukmronlikdan qutulish garovi ekanligini ochdi. Immanuil Kant (1724-1804) fuqarolar jamiyatida har bir kishining erkinligi boshqalar erkinligiga monand kelishi bilan ifodalanishini uqtirib, quyidagi prinsiplarni ilgari suradi: 1) Inson sifatida jamiyat a'zolari erkinligi; 2) Fuqaro sifatida ularning tengligi; 3) Fuqaro sifatida har bir jamiyat a'zolarishgag mustaqilligi. Gegel (1770-1831) fuqarolar jamiyatini davlat ichida emas, davlat qatorida talqin etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi.

Fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqilligi bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi.

Ijtimoiy tizim dinamikasi. Tizimning tinch holatini bayon qilish u haqda to'la ma'lumot bermaydi. Tizim dinamikasi unga yo'nalishi, xususiyatlarining o'zgarish sur'ati, shuningdek, rivojlanish tendensiyalarini o'rganishni taqozo qiladi. Tizimlarning turli-tumanligi, to'g'ri chiziqli va to'g'ri chiziqli bo'lmagan dinamik tizimlar, rivojlanish manbai hamda harakatlantiruvchi kuchlari tizimli dinamikaning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Demak, ijtimoiy tizim dinamikasi tushunchasi ijtimoiy voqelikni o'rganishdagi turli munosabatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy tizim dinamikasi voqelik o'zgarishidagi jarayonlarni, ularning bog'liqligi, yo'nalishi va oqibatlarini o'rganadi. Uning doirasida bu o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi omillar, ijtimoiy munosabatlarga individlarning moslashish qonuniyatlari kiradi.

Tabiatshunoslikda dinamik tizim deganda, tizimning holatini aniqlash mumkin bo'lgan har qanday ob'ekt yoki jarayon tushuniladi.

Dinamik tizimlar to'g'ri chiziqli yoki siklli bo'ladi.

To'g'ri chiziqli dinamik tizim hatti-harakati bir joyda turadigan narsa atrofida (masalan, mayatnikning tebranishi) bo'ladi, u vaqtga bog'liq emas.

To'g'ri chiziqli bo'lmagan tizim barqaror va beqaror stasionar holatga ega. Barqaror stasionar holat tizimning o'ziga xos, beqaror stasionar holat tizimdagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

To'g'ri chiziqli bo'lmagan tizim tushunchasi ko'p variantlilikni, taraqqiyotni va orqaga qaytmaslikni o'z ichiga oladi.

Jamiyat rivojining asosiy manbai kishilarning hatti-harakatida mujassamlangan energiyadir. U jamiyatning institusional va madaniy tizimida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu o'zgarishlar ichki o'z-o'zini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi yordamida amalga oshiriladi.

Murakkab tizimlarda evolyusiya va involyusiya, integrasiya va dezintegrasiya namoyon bo'ladi. Masalan, qadimgi sivilizasiyalar asrlar davomida gullab yashnadi va halokatga uchradi. A.Toynbi so'nggi 3000 yil ichida bo'lgan 21 sivilizasiyani o'rganib, o'rtacha progressiv taraqqiyot o'rtacha regressiv taraqqiyotga o'tishni ko'rsatadi. Sivilizasiyalar, ularning rivojlanishi, inqirozi to'xtovsiz va to'planib boradigan tarzda namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamiyat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilinadi. Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'z vazifalari ham bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi.

Qisqacha xulosalar:

Sotsiologiya tarixida jamiyat – o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim ijtimoiy birlikgina emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

An'anaviy jamiyatda iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qilingan bo'lsa, industrial jamiyatda inson tomonidan yaratilgan sun'iy ishlab chiqarish vositalari iqtisodning asosini tashkil etadi. Shu boisdan ham bu jamiyat iqtisodiy jamiyatdir. U iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi. Hozirgi iqtisodiyot ijtimoiylashib bormoqda. Intellektual salohiyat asosiy o'ringa chiqib bormoqda.

Fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Fransuz faylasufi O. Kontning sotsiologik fikrlar rivojida o'rni qanday?
2. Spenserning «bir maromdagi» evolyusionizm g'oyasi haqida nimalar bilasiz?
- 3.E. Dyurkgeym va uning «sotsiologizm» g'oyasi.
- 4.M. Veberning sotsiologik qarashlari.
5. Georg Zimmelning sotsiologik qarashlari.
6. Al-Moturidiy va uning ideal jamiyat to'g'risidagi qarashlari.
7. Al-Forobiy va uning ideal jamiyat to'g'risidagi qarashlari.
- 8.Al-Beruniy va uning sotsiologik qarashlari.
9. Ibn Sino va uning sotsiologik qarashlari
- 10.Yusuf Hos Hojib va va uning jamiyat to'g'risidagi qarashlari.

4-MAVZU: SOTSIAL GURUHLAR VA SOTSIAL INSTITUTLAR

REJA:

4.1.Sotsial guruh tushunchasi

4.1.Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi va sotsial institutlar turlari.

4.3.Oila va nikoh.

4.4.Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik

4.5.Din sotsiomadaniy institut sifatida.

Mavzu bo'yicha tayanch atamalar:

Sotsial guruh tushunchasi, sotsial guruh turlari: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, inguruh va autguruh, referent guruhlar, qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat, oila, madaniy sotsial institutlar, din, san'at, adabiyot, ta'lim tizimi, aqidaparastlik, fuqarolik dinlari, islom ma'naviyati.

4.1. Sotsial birliklarning asosiy shakli sotsial guruhlar hisoblanadi. Jamiyat hayotiy voqelikda ko'plab sotsial guruhlarining majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Inson hayoti tug'ilganidan to o'limiga qadar sotsial guruh a'zosi sifatida o'tadi: oila, maktab, ishlab chiqarish, sport komandasi, do'stlar davrasi va h.k. Sotsial guruh jamiyat va inson o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Ushbu muhitda sotsial jarayonlar paydo bo'ladi va rivojlanadi. Inson ma'lum bir guruh a'zosi sifatida jamiyat hayotida ishtirok etadi va shu jamiyat a'zosi ekanligini anglaydi. Insonning turli guruhlariga a'zoliigi uning jamiyatdagi maqomi va avtoritetini belgilab beradi.

Kishilar o'z hayot faoliyatlari davomida birlashadigan guruhlar masalasi nafaqat sotsial psixologiya fanining, balki sosiologiyaning ham muhim masalasi hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar, asosan sosial guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Kishilik jamiyatida nihoyatda ko'p turli-tuman jamoalar, uyushmalar, birliklar, tashkilotlar mavjud. Inson butun hayoti davomida goh ehtiyojdan, goh manfaat yuzasidan, gaho majburiylikdan, ba'zan o'zi xohlamagan holatda yuqorida ta'kidlangan guruhlariga a'zo bo'ladi va ularning vakili bo'lib qoladi²⁰. Mana shu kishilik jamoalarini qandaydir mezon (belgi, xususiyat) bilan nisbatan ma'lum guruhlariga ajratish – sosiologik tahlilning g'oyat muhim va jiddiy masalasidir. Oldindan shuni qayd qilib o'tish lozimki, garchi «sotsial guruh» atamasi sosial tadqiqotlarda keng ko'lamda qo'llanilsa ham, lekin sosiologik tushunchalar kategoriyasiga muvofiq keladigan maqomiga va nazariy asosiga ega emas. Bu tushuncha ijtimoiy fanlar doirasida yaqqol kategoriyali xususiyatga ega va ijtimoiy munosabatlardagi o'ziga xos sub'yektni aniqlash uchun ishlatiladi. «Guruh» tushunchasi ijtimoiy fanlar orasida ikkita ma'noga ega. Bir tomondan, u biror umumiy belgiga qarab kishilarni ma'lum toifalarga ajratilganda qo'llaniladi (ko'pincha statistikada, demografiyada). Ba'zan bu ma'noda «guruh» atamasi psixologiya fanida ham ishlatiladi. Masalan, test sinovlari natijalariga qarab, kishilarni u yoki bu guruhlariga ajratish mumkin.

Ikkinchi tomondan, hamma ijtimoiy fanlar doirasida guruh deganda, real mavjud kishilar birligi tushuniladi. Bu holatda odamlar umumiy belgilar, faoliyatlarining xilma-xilligi yoki biror shart, holatlar bilan birlashadilar va ma'lum

²⁰ Falsafa. T. "Sharq", 1999, 299-301 betlar.

ma'noda o'zlarini mavjud birlik vakili ekanliklarini his qiladilar. Masalan, talaba o'zini talabalar guruhining a'zosi sifatida his qiladi.

Ilmiy adabiyot bilan tanishish «sotsial guruh» atamasini, birinchidan, juda keng qo'llanilayotganligini, ikkinchidan turli hodisalarga nisbatan ishlatilayotganligini ko'rsatayapti, qaysi nuqtai nazar qarashlaridan qat'iy nazar, konkret ijtimoiy fan vakillari guruhlarni sotsial-iqtisodiy, sotsial-demografik, sotsial-psixologik va boshqa guruhlarga ajratadilar.

Guruh – bu, xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo'lgan, boshqa birliklardan o'z xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog'langan kishilar yig'indisidan iborat bo'lgan sotsial birlikdir²¹.

Guruhga xos xarakterli xususiyatlar quyidagilar: guruh soni; ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari; faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari.

Guruh soni deyilganda, mavjud birlikni hajm jihatdan tashkil etadigan a'zolar yig'indisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a'zolar soni qancha bo'lishi kerakligi haqida aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. Bu to'g'risida guruh turlari haqida so'z ketganda gapirib o'tiladi.

Guruh o'z soni va a'zolari sonini chegaralashi yoki chegaramasligi mumkin. Mana shu asosga ko'ra, guruhlarni «berk» guruhlar, yani yangi a'zolarni qabul qilishda aniq mezon qo'yadigan guruhlar; chegaralangan guruhlar, ya'ni guruh a'zoliciga qabul qilish mezoni kam talabchanlik bilan qabul qilinadigan guruhlar. Shuningdek, nihoyat hohlagan kishi kirishi mumkin bo'lgan ochiq guruhlar va bu guruhlarda a'zolarga nisbatan aniq talablar qo'yilmaydi, ko'pincha guruhlar a'zo qabul qilish va a'zolarining guruhdan chiqishi uchun aniq talab qo'yadi. Buning natijasida guruhning bir xilligi va uning ta'sir doirasi taminlanadi.

Guruhning paydo bo'lishi uchun ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari, faoliyat namunalari bo'lishi kerak. Shuning uchun ham o'z shaxsiy tashkilotiga ega bo'lmagan, faqatgina kontaktlar (aloqalarga) asoslangan erkin sotsial birliklar guruh deb atalmaydi.

Guruh o'zining shaxsiy norma va qadriyatlariga, ya'ni birlashish markaziga ega bo'lishi kerak. Bularga g'oyalar, ramzlar, shiorlar, maqsadlar, moddiy predmetlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bular guruhda kishilarni guruhga mansublik va birlashish hissini uyg'otish va rivojlantirish uchun zarur.

Bu qadriyatlar asosida guruhda «biz» so'zi bilan ifodalanadigan birlik hissi paydo bo'ladi. Bu his kishilarni birlashtiradigan psixik (ruhiy) aloqa hisoblanadi.

Nihoyat, guruh o'zining shaxsiy farq qiladigan xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Bular yordamida guruh boshqa sotsial birliklardan farq qiladi. Bunday xususiyatlar avvalo, bir hududda yashash, alohida ritual harakatlar, til, mafkura va boshqalar hisoblanadi.

Bu 4 shart juda ko'p guruhlarni ta'riflash uchun qo'l keladi. Bu haqda guruhlarni tasniflash (klassifikasiya qilish) jarayonida to'xtalib o'tamiz. Chunki bu

²¹ Bekmurodov. M.B.Sotsiologiya asoslari.- T.: "Fan", 1994.

shartlar nisbiy xarakterga ega. Bular ko'pgina guruhlarini qanoatlantirsa ham, ba'zi guruhlarini tahlil qilish vaqtida to'g'ri kelmasligi mumkin.

Guruhlar eng avvalo miqdor jihatdan katta va kichik guruhlariga bo'linadi. Sotsiologiya va «Sotsial psixologiya» fanlari katta sotsial guruhlar o'zining aniq ta'rifi ega emas. Umuman, katta sotsial guruh deganda, a'zolar soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlarini tushuniladi. Katta sotsial guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-a'zolar sonining ko'pligi;

-yagona hududning mavjud emasligi;

-a'zolar o'rtasidagi aloqalarning asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;

-guruh tuzilishining murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyushgan va uyushmagan guruhlarini o'z ichiga oladi.

Katta guruhlar ikki turga bo'linadi.

1. Tasodifiy, stixiyali paydo bo'ladigan va qisqa vaqt mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olomon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.

2. Tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan va jamiyat ijtimoiy munosabatlari tizimida ma'lum o'ringa ega bo'lgan birliklar. Bu turdagi guruhlariga sosial sinflar, turli etnik guruhlar (ellat, xalq, millat), kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Katta sotsial guruhlarida kichik guruhlarida yo'q bo'lgan hatti-harakatni boshqarib turadigan o'ziga xos kuch mavjud. Bu huquqlar, urf-odatlar va an'analardir.

Katta guruh bilan kichik guruh o'rtasida o'rta guruh ham bor. Ammo guruh muammosi bilan shug'ullanayotgan sosiologlar fikricha, o'rta guruhlar, ularning strukturasi, aloqasi, unda bo'ladigan hodisa va jarayonlar mohiyat jihatdan kattaroq guruhlariga xosdir. Kichik va katta guruhlar o'rtasidagi farqni kichik guruhning yiriklashuvi va uning katta guruhga aylanishi jarayonida ko'rish mumkin. Masalan, bir yoki bir nechta taniqli kishilar atrofida birlashgan 40-45 kishidan iborat partiya kichik guruhdir, chunki bu guruh vakillarining shaxsan bir-birlarini tanishlari (bilishlari) kichik guruhga xos bo'lgan xususiyatni beradi.

Kichik guruhlar deganda, ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zolardan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi. Bu guruhlar ko'pincha samimiy do'stona munosabatlarda bo'ladi, guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita o'zaro aloqalar ustun turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar norasmiy institutlar yordamida tartibga solinadi. Bundan tashqari, maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallagan, yuqori darajada shakllagan kichik maqsadli guruhlar ham mavjud. Bu guruhlarida a'zolar o'rtasidagi munosabatlar maxsus xizmat ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Yashirin ishlayotgan partiya yacheykasi bunga misol bo'la oladi. Kichik guruhlariga oilani, do'stlarni, qo'shnilarni, ishlab chiqarish brigadasini va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Kichik sotsial guruhlarining turlari juda ko'p. Ular turli mezonlarga qarab turlarga ajratiladi. Guruh munosabatlari tuzilmasiga qarab kichik sotsial guruhlar

rasmiy va norasmiy guruhlarga, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligiga qarab esa birlamchi va ikkilamchi guruhlar, guruhga a'zo bo'lish va bo'lmasligiga qarab a'zoli va referent guruhlar bo'linadi. Sanab o'tilgan guruhlar birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar guruhlarini bunday tarzda turlarga bo'lish birinchi bo'lib amerikalik sosiolog E. Meyo tomonidan taklif qilingan edi, guruhlarini rasmiy va norasmiy guruhlar ajratish asosida guruh munosabatlarining tuzilmasi yotadi.

Rasmiy guruhlar – bu, huquqiy statusga ega bo'lgan sotsial institut, tashkilot qismi hisoblanadigan mavjud institut, tashkilotdagi mehnat doirasida aniq maqsadga ega bo'lgan sotsial guruhlardir.

Rasmiy guruhlar quyidagi belgilar xos: aniq va izchil maqsad, ierarxiyaga asoslangan aniq funksiyalar, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan huquq va burchlar, a'zolar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, guruh faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjud bo'lishi va boshqalar.

Rasmiy guruhlar guruh maqsadlari, funksiyalari xatti-harakat qoidalari, hatto a'zolik shartlari maxsus hujjatlarda (dastur, yo'riqnoma, qonun va boshqalar) qayd etilgan bo'ladi.

Rasmiy guruhlar siyosiy partiyalar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar kiradi. Shuningdek, ishlab chiqarish jamoasi, maktab sinfi, sport jamoasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Rasmiy guruh – bu, aniq sotsial guruh, jamiyat sotsial tuzilmasining elementidir. U ob'yektiv holda mavjud. Uning strukturasi va hatti-harakat shakllari keng miqyosdagi guruh yoki jamiyat tomonidan belgilanadi. Indivud rasmiy guruhga a'zo bo'lar ekan, o'zining shaxsiy sifatlarini yo'qotadi va rasmiy guruh tashkiloti doirasidagi u yoki bu rollarni bajaruvchi kishiga aylanadi.

Rasmiy guruhlar ham rasmiy (korxonalar, brigada kasaba uyushmasi, jamoat va davlat tashkiloti), ham rasmiy struktura tomonidan tan olinmagan, ya'ni norasmiy (yashirin tashkilot, norasmiy guruh va hokazo) bo'lishi mumkin.

Norasmiy guruhlar, ko'pincha bunday guruhlar «psixologik guruhlar» yoki «sotsial psixologik guruhlar» deb ataladi. Chunki bu guruhlar tashkil topish zaminida guruh a'zolari o'rtasidagi psixologik, hissiy munosabatlar yotadi. Norasmiy guruhlar paydo bo'lishida vaziyat va umumiy manfaatlar majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlar ba'zan, manfaat yuzasidan tuzilgan guruhlar ham deb atashadi. Odamlar ehtiyojlari turli-tuman bo'lganligi sababli norasmiy guruhlar mavjud.

Norasmiy guruh rasmiy guruhga qaraganda boshqacha tuzilishga ega. Agar rasmiy guruhda guruh sotsial strukturaning yuqori organlari va hatto jamiyat tomonidan tuzilsa, norasmiy guruhlar esa shaxsiy asosda, ya'ni uni tashkil etadigan individlar tashabbusi bilan tuziladi. Tashabbuskor kishilar bu guruhda faol rol o'ynaydilar va o'z-o'zidan guruhda a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat beradigan hatti-harakat tizimi rivojlanadi.

Referent va a'zoli guruhlar. Kichik guruhlarini o'rganishning jihatlaridan biri bo'lib, «referent guruh» atamasi amerikalik sotsial psixolog Mustafu Sherif tomonidan kiritilgan. «Referent guruh» atamasi (inglizcha so'z, «mansub bo'lish»

degan ma'noni anglatadi) individ ongli ravishda kiradigan sotsial guruhlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kasbiy) nisbatan ishlatiladi.

Shaxsning «guruh normalariga» munosabati belgilariga muvofiq guruhlar referent guruhlar yoki «etalonli» (o'lchovli) guruhlarga bo'linadi. Referent guruhlar kichik guruhlar hamda katta guruhlar - sinf yoki ijtimoiy tabaqa bo'lishi mumkin.

«Referent guruh» atamasi to'rt xil ma'noda qo'llaniladi:

-Individ xatti-harakati uchun namuna, etalon yoki mezon bo'lib xizmat qiladigan guruh.

-Individ o'z harakatlarini shu guruhga yo'naltiradigan guruh.

-Individ a'zo bo'lishiga intilayotgan guruh.

-A'zolarining qadriyat va fikrlari bevosita shu guruh a'zosi bo'lmagan kishi uchun o'ziga xos taqqoslash o'lchovi, sotsial «o'lchov doirasi» sifatida xizmat qiladigan guruh.

Real hayotda «referent guruh» nazariyasi shaxsning turli sotsial muhitlarga moslashuv jarayonida, sotsial harakatlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Referent guruhlar real va ideal guruhlarga bo'linadi. Real referent guruhning shaxsga qulay sotsial norma va qadriyatlarni egallashi uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan alohida kishilar yoki kishilar birligidir.

Ideal referent guruh – bu, ma'lum bir guruh qadriyatli va normativ yo'l-yo'riqlarining inson ongida aks etishidir. Shaxs bu guruhga o'z tasavvurlari va harakatlari bilan moslashishga harakat qiladi.

Masalan, muhandis o'zini real hayotda muhandislar guruhiga mansub deyish bilan birga o'zini guruh sifatida mavjud bo'lmagan «ma'naviy elita» ga ham mansub deb hisoblaydi.

Sotsial guruh masalasi nafaqat sosial psixologiyaning, balki sotsiologiyaning ham muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Inson goh tabiiy, goh ixtiyoriy ravishda, goh majburiylikdan, goh o'zi hohlamagan holda muayyan bir guruhning a'zosi bo'lib hisoblanadi. Kundalik hayotda insonlarning har qanday to'plamni sotsial guruh deb hisoblashadi.

Sotsial guruh-umumiy sotsial xususiyatga ega va ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida zarur bo'lgan ijtimoiy funksiyalarni bajaradigan insonlar majmuasidir. Sotsial guruh-bu ma'lum kishilardan tashkil topgan,shu guruh a'zolari o'rtasida o'zaro aloqa,xarakat yoki ta'sir bo'ladigan,a'zolar hatti-harakati muayyan institut tomonidan tartibga solinadigan kishilar to'plamidir.

Sotsial guruh bo'lishi uchun guruhda quyidagi belgilar bo'lishi lozim:

1.A'zolar soni.

2.A'zolar o'rtasida o'zaro aloqa, harakat yoki ta'sirning mavjud bo'lishi.

3.A'zolar hatti-harakatini ma'lum sotsial institut toionidan boshqarilishi yoki tartibga solinishi.

4.Guruh o'zining ayrim belgi va ramzlariga ega bo'lishi kerak.Aynan shu ramz va belgilar ularni boshqa guruhlardan ajratadi.

Sotsial guruhlar miqdor jihatdan 2 turga bo'linadi: katta va kichik sotsial guruhlar. Katta sotsial guruhlarining xususiyatlari:

-a'zolar sonining ko'pligi;

-yagona hududning mavjud emasligi;

-a'zolar o'rtasidagi aloqa, ta'sir bilvosita bo'ladi;

-a'zolar o'rtasidagi hatti-harakat rasman boshqariladi va tartibga solinadi.

Katta sotsial guruhlariga partiya, yirik korxonalar, konsernlar, firmalar, hatto davlat ham misol bo'la oladi.

Kichik sotsial guruhlariga xos bo'lgan xususiyatlar:

-a'zolar sonining kamligi;

-yagona xududning mavjudligi;

- a'zolar o'rtasidagi aloqa, ta'sir bevosita, yuzma-yuz bo'ladi;

-a'zolarning hatta-harakatlari ko'proq norasmiy tarzda boshqariladi va tartibga solinadi.

Kichik sotsial guruhlariga oila, psixologiya bo'limi talabalari, kichik korxonalar, kichik qishloqlar, do'stlar guruhini misol qilish mumkin.

A'zolar o'rtasidagi munosabatlarning xarakteriga ko'ra sotsial guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo'linadi. Sotsial guruhlarini bu turlarga ajratish birinchi bo'lib Ch.Kuli tomonidan amalga oshirilgan. Birlamchi guruhlar deganda munosabatning yaqinligiga qarab, ya'ni qon-qarindoshlik, sevgi, simpatiya asosida tuzilgan sotsial guruhlar nazarda tutiladi. Bunday guruhlariga oila, do'stlar, qorindosh-urug'lar, sinfdoshlar misol bo'la oladi. Birlamchi guruhlarda kishilarning dastlabki sotsializatsiyasi amalga oshadi. Mana shu jihatdan birlamchi sotsial guruhlar inson uchun muhim ahamiyatga ega.

Ikkilamchi sotsial guruh deyilganda manfaat yuzasidan tuziladigan guruh nazarda tutiladi. Bularga muayyan bir tashkilot, korxonalar, partiya idorasi misol bo'la oladi.

Sotsial guruhlarining tasnifida rasmiy va norasmiy sotsial guruhlarini, inguruh, autguruh, kvazi guruh, referent guruh kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ijtimoiy amaliyot kishilik jamiyati uchun ijtimoiy munosabatlarning ba'zi turlarini mustahkamlash hayotiy zarurat ekanini, ularni muayyan jamiyat yoki muayyan ijtimoiy guruh a'zolari uchun majburiy qilish kerakligini ko'rsatmoqda. Bu, avvalo, shunday ijtimoiy munosabatlarga taalluqligi, ularga kirishgan ijtimoiy guruh a'zolari ushbu guruhning yaxlit ijtimoiy birlik sifatidagi muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'ladigan eng muhim ehtiyojlarini qondiradi. Xususan, moddiy boyliklarni takror ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyoj odamlarni ishlab chiqarish munosabatlarini mustahkamlash va saqlab turishga majbur qiladi; o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiylashtirish va yoshlarni guruh madaniyati namunalari asosida tarbiyalash ehtiyoji oilaviy munosabatlarni, yoshlarga ta'lim berish munosabatlarini mustahkamlash va saqlab turishga majbur etadi.

Eng muhim ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan munosabatlarni mustahkamlash amaliyoti individlarga ijtimoiy munosabatlarda hatti-harakatlar qoidalarini ko'rsatib beruvchi rollar va mavqelarning qat'iy mustahkamlangan tizimini yaratish hamda ushbu axloq qoidalarini so'zsiz bajarishga erishish uchun ko'rsatmalar tizimini belgilashdan iborat.

Rollar, mavqelar va ko'rsatmalar tizimlari sotsial institutlar ko'rinishida yaratilib, jamiyat uchun ijtimoiy aloqalarning eng murakkab va muhim ko'rinishlari hisoblanadi. Aynan sotsial institutlar tashkilotlardagi hamkorlikdagi

faoliyatni qo'llab turadi, barqaror xulq namunalari, g'oyalari va rag'batlarini belgilaydi.

4.2. “Institut” tushunchasi – sotsiologiya fanidagi markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi, shuning uchun institusional aloqalarni o'rganish sotsiologlar oldida turgan asosiy ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sotsial institutlarning yig'indisi jamiyatning ijtimoiy tizimi deyiladi. U nafaqat institutlar bilan, balki ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy o'zaro aloqa, ijtimoiy rollar bilan ham bog'langan. Bir so'z bilan aytganda, nima harakatlansa, ishlasa, harakat qilsa shular bilan bog'langan.

Sotsial institut me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi muassasalar yig'indisidan iborat. Uni boshqacha ta'riflansa ham bo'ladi: muayyan ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan rollar va mavqelarning yig'indisi institut deyiladi.

Ko'rib turganimizday, institut – bu ijtimoiy sinf degani emas. Masalan, boylar sinfi yoki ijtimoiy guruh, aytaylik barcha nafaqaxo'rlar. Ular ham, bular ham – insonlar yig'indisi.

Sotsial institut²² – bu inson faoliyatining turli sohalarini tartibga soluvchi va ularni rollar va mavqelar tizimiga kirituvchi rasmiy va norasmiy qoidalar, me'yorlar tamoyillari, yo'l-yo'riqlarning turg'un majmuidir. Shunday qilib, biz sotsial institutni ikkita usul yordamida ifodalashimiz mumkin: bir tomondan me'yorlar yig'indisi, ikkinchi tomondan – rollar va mavqelar yig'indisi. Yuqorida qayd etilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu ikkita ta'rif bir-biriga zid emas, aksincha, ular bir-birini to'ldiradi va bitta hodisaning turli tomonlariga urg'u beradi. Sotsial institut butun jamiyat nomidan harakat qiladi. Institusional aloqalar bir paytning o'zida me'yoriy ham hisoblanadi, chunki ular jamiyat tomonidan o'z a'zolarining u yoki bu ehtiyojlarini qondirish uchun o'rnatiladi. Sotsial institutning mazmuniy va rasmiy tomonlarini ajratish mumkin. Mazmuniy tomondan sotsial institut u yoki bu ijtimoiy mavqe egalari xulq-atvoriining andozalari tizimi hisoblanadi. Rasmiy tomondan sotsial institut aniq ijtimoiy vazifani bajarish uchun moddiy vositalarga ega bo'lgan shaxslarning yig'indisi sifatida qaralishi mumkin. Sotsial institutga quyidagi belgilar xos:

1) u xulq-atvorning to'g'ri turlarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar va yo'l-yo'riqlarning to'plami sifatida mavjud bo'ladi;

2) u jamiyat mafkurasi va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq;

3) harakatlarning institusional turlari jamiyat tomonidan nazorat qilinadi, institutning o'zi esa individlarning xulq-atvorini nazorat qiladi;

4) sotsial institut zarur moddiy vositalar va zahiralarga ega bo'lib, ular tufayli institut asosida yotuvchi me'yorlar va yo'l-yo'riqlar u yoki bu darajada muvaffaqiyatli bajariladi.

Har bir sotsial institut:

1) o'z faoliyatining ma'lum darajada aniq shakllangan maqsadlariga;

2) individlarga belgilangan ijtimoiy mavqe va rollarning to'plamiga;

3) individlarning xulq-atvorini nazorat qiladigan sanksiyalar tizimiga;

²² Aliqoriyev N.S.va b. Umumiy sotsiologiya.- T.- Universitet, 1999. 74 bet.

4) ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan konkret xususiy vazifalarga ega (istalgan sosial institut bulardan tashqari doim yana bir vazifaga ega bo'ladi – bu harakat qilayotgan individlar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlash).

Sotsiologiya birinchi navbatda:

1) jamiyatning asosini tashkil etuvchi ehtiyojlarni amalga oshirish (oilalar va ta'lim institutlari);

2) moddiy hayot faoliyatini ta'minlash (iqtisodiyot institutlari);

3) ijtimoiy guruhlar va jamoalarning integratsiyasi (siyosiy va huquqiy-davlat institutlari);

4) ma'naviy qadriyatlarni quvvatlash va saqlash (madaniyat institutlari) hamda boshqalar bilan bog'liq bosh sotsial institutlarning faoliyati bilan qiziqadi.

Ijtimoiy hodisalarning tizimli-tuzilmaviy tahlilida «sotsial institut» tushunchasiga markaziy o'rin beriladi, u ijtimoiy tizimning asosiy maqsadlari va ehtiyojlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali odamlarning turli-tuman harakatlaridan mavhumlashgan faoliyatning eng muhim turlari va ijtimoiy munosabatlarini umumlashtirish imkoniyatini ko'zda tutadi²³. Shu ma'noda sotsial institut ijtimoiy hayotning alohida sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi jamiyat ijtimoiy tuzilmasining yetakchi tarkibiy qismi sifatida ifodalanishi mumkin.

Institutlashtirish va sotsial institutlarning rivojlanishi. Sosial institutlar o'zaro ijtimoiy ta'sirining muhim shakli hisoblanadi. Sosial institutlar kategoriyasi B.Malinovskiy va A.Radkliff-Braun tomonidan batafsil ishlab chiqilgan: odamlarning faoliyati muayyan guruhlar tomonidan amalga oshiriladi hamda muayyan axloqiy va huquqiy qoidalar bo'yicha bajariladi. Ushbu «moslashish» institut deyiladi. Ijtimoiy hayotda institutlashtirishning o'rni va roli sosial institutlarning o'rni va roli bilan belgilanadi. Jamiyatda institutlashtirish – bu shaxsning hayotdagi ijtimoiylashuvining o'zidir. Ularni jamiyat hayotining yo'llari tartibga solinishi, to'g'rilanishi kerakligi birlashtirib turadi. Sotsiolog S.S.Frolovning fikricha, institutlashtirish – bu o'z-o'zidan yuzaga keladigan xulq-atvorning o'rniga kelishi kerak bo'lgan, jamiyatda muayyan ijtimoiy me'yorlarni o'rnatish, ushbu jamiyat a'zolarining mavqe va rollarini belgilash orqali boshqarilishi va kerakli yo'lga yo'naltirilishi lozim bo'lgan, oldindan bashorat qilinadigan xulq-atvordir²⁴. U institutlashtirish bosqichlarini belgilab berdi:

1) yuzaga kelgan ehtiyojni qondirish uchun tashkillashtirilgan harakatlar zarur;

2) barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadlar shakllantiriladi;

3) o'zaro ijtimoiy munosabatlar jarayonida muayyan me'yor va qoidalar vujudga keladi;

4) shu qoida va me'yorlar bilan bog'liq protseduralar yuzaga keladi;

5) topilgan me'yor va qoidalar tasdiqlanadi, ular real hayotda qo'llaniladi, ya'ni institutlashtirish jarayonining o'zi sodir bo'ladi;

6) belgilangan me'yorlar bajarilmagan taqdirda sanksiyalar belgilanadi;

²³ Umumiy sotsiologiya, T., ToshDU, 78 bet.

²⁴ Falsafa. T. «Sharq», 1999, 308-312 betlar

7) jamiyatda institutning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan mavqe va rollar paydo bo'ladi.

S.S.Frolov, institutlashtirish jarayoni yakunlanishi bilan o'z qoida va me'yorlariga ega mavqeli-rolli tuzilma o'rnatiladi, u ko'pchilikning ehtiyojini qondiradi, - deydi. Bir qator shartlar mavjud bo'lib, ularni bajarishda ijtimoiy institutlarning to'g'ri va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini ko'rish mumkin:

- 1) har bir institut uchun vazifalar va maqsadlar aniq belgilanishi shart;
- 2) institut faoliyati institutlashtirish vazifalarini bajaruvchi kishilarning shaxsiy manfaatlariga bog'liq bo'lmasligi kerak (xolis bo'lishi lozim);
- 3) har qanday institut guruh oldida o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga va ko'tarishga harakat qilishi lozim;
- 4) barcha sotsial institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish juda muhim.

Ushbu shartlarning bajarilishi katta ahamiyatga egadir, chunki sotsial institutlar qanday faoliyat yuritishi butun ijtimoiy hayotda aks etadi. Agar institutga misol bo'ladigan oilani ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu qadimiy institutlardan biri ekanini bilamiz, ammo u ba'zida inqirozlarni ham boshidan kechirgan bo'lsa-da, hozir ham dolzarb hisoblanadi. Oilani institutlashtirish ayni paytda uning asosini davlat tomonidan ruxsat berilgan nikoh ittifoqi tashkil etishi bilan belgilanadi.

Institutlashtirish – bu shunday jarayonki, unda biror bir ijtimoiy ehtiyoj xususiy emas, balki umumijtimoiy sifatida anglana boshlanadi va uni amalga oshirish uchun jamiyatda alohida axloqiy me'yorlar o'rnatiladi, kadrlar tayyorlanadi, zahiralar ajratiladi.

Institutlashtirishning samaradorligi qabul qilingan hamda institutlar, individlar faoliyatining ijtimoiy-madaniy konteksti hisoblangan qadriyat-me'yorlar tizimi o'zaro uyg'un ishlash-ishlamasligi bilan belgilanadi.

Sotsial institutlar tizimi. Institutlarning xilma-xilligi:

► Norasmiy ijtimoiy institutlar. Misol: do'stlik

- etarli darajada aniq belgilangan
- nazorat va sanksiyaning alohida shakllari (ranjish, janjal, ajralish va hokazo),

«NR» – qonun va ma'muriy qoidalar ko'rinishida mustahkamlanmaganlik.

- zahiralar - sarmoyalar (ishonch, yoqtirish, tanishuvning davomiyligi va hokazo)

• aniq chegaralash – avtonomiya (muhabbat, kasbiy munosabatlar, oilaviy munosabatlar va hokazolardan), «NR» — sheriklarning mavqei, huquq va majburiyatlari aniq ravishda professional mustahkamlanmaganligi.

2) Rasmiy ijtimoiy institutlar.

- rasmiy tarzda shartlashilgan qoidalar, qonunlar, reglamentlar, nizomlar (+ «yozilmagan me'yorlar») asosida o'zaro aloqa qilish.

Ijtimoiy institutlarni funksiyalari bo'yicha tasniflash (+ virtualizasiya nazariyasi nuqtai nazaridan ijtimoiy institutlarning funkcionalligini tanqid qilish *)

*Virtualizasiya nazariyasi (postmodernizm)

- Virtualizasiya – bu real voqelikni simulyasiya obraz bilan almashtirishdir – u kompyuter texnikasi yordamida bajarilishi shart bo'lmasa-da, biroq albatta virtual

voqelik mantig'ini qo'llagan holda bajariladi (masalan: virtual iqtisodiyot – fond birjasidagi spekulyasiyalar moddiy ishlab chiqarishdan ustun turadi). (Qarang: Falsafada borliq tushunchasi)

• Ijtimoiy fenomenlarni «virtuallik» tushunchasi yordamida ifodalash obrazlar raqobati institusional ifodalangan harakatlarning o'rnini bosganidagina o'rinlidir.

• Ushbu nazariya doirasida yangi tendensiyalarni tushuntirish jamiyatning institutlar tizimi emas, balki qadriyatlarni amalga oshirish jarayoni, ijtimoiy institutlarning real voqelikdagi shakllanishi va inqirozga uchrashi kabi tarixiy daqiqalardan iborat jarayonlar sifatidagi tasavvuri kelib chiqadi.

► Iqtisodiy institutlar. Boyliklar (farovonlik)ni yaratish, taqsimlash va foydalanish muammolarini qo'yish va hal qilish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): bozor; tovar – buyum, ularning ob'ektiv xususiyatlari boylik hisoblanadi; taklif; talab; mehnat – muayyan vaqtda, muayyan joyda tashkil etilgan sermahsul faoliyat; raqobat; innovasiya va boshq.

postmodern davrida virtuallashtirish:

- qiymatni virtuallashtirish

- innovasiyalarni stimulyatsiya qilish

- mehnatni virtuallashtirish («ish vaqti iqtisodiy mazmunga emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega»)

Ishlab chiqarishdan iqtisodiyotga.

► Siyosat institutlari. Hokimiyatga ega bo'lish muammolarini qo'yish va hal etish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): harakatlar dasturi; (mafkura); islohot; tashkilot (partiya); jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi

postmodern davrida virtuallashtirish:

- hozir siyosiy hokimiyat uchun kurash – bu harakatlar dasturining raqobati emas, balki siyosiy imijlarning kurashidir;

- siyosatchining real shaxsi va faoliyati faqat “axborot sababi” sifatida kerak xolos;

- ommaviy demokratiya institutlarining virtuallashtirilishi – saylovlar, davlat, partiyalar.

Boshqaruvdan siyosatga.

► Ilm-fan institutlari. Haqiqatni ochish va malaka oshirish muammolarining hal etilishini ta'minlovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): fakt – sezgi organlari tomonidan qayd etiladigan narsalarning holati; kashfiyot – narsalarning yangicha holatini aniqlash; tadqiqot – faktlarni yig'ish va ularni bir tizimga solish jarayoni; bilimga asoslanganlik – faktlar«zahirasi»ga ega bo'lish.

postmodern davrida virtuallashtirish:

- ilm-fan bugungi kunda – bu haqiqatni izlash emas, balki til bilan bog'liq o'yinlar turi, modellarni manipulyasiya qilishdir;

- moddiy eksperiment ko'p hollarda real voqelikda referentga ega bo'lmagan modellarda tajriba o'tkazishga almashilyapti;

- farovonlikka murojaatni moliyaviy samaradorlikka murojaat bilan almashtirish;

- ilmiylikning haqiqiylikdan ajralishi;

- kompetensiyani simulyasiya qilish.

“Bilimlarni oshirishdan” “ilmiylikka”

► San'at institutlari. Badiiy qadriyatlarini yaratish va saqlash muammolarini qo'yish hamda hal etish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): asar – buyum bo'lib, uning hissiy idroki ezgulikdir; ijod – o'ziga xos asarni yaratish; did – ijod 'idrok etish qobiliyatiga ega bo'lish; badiiy yo'nalish; taqdimot (ko'rgazma, spektakl) va boshqalar.

postmodern davrida virtuallashtirish:

- “go'zallikni” turlicha tushunish

- sitata keltirish san'at tamoyili sifatida

- asar yaratish PR–aksiyalar majmuiga aylanadi

Ijoddan “san'at bilan shug'ullanishga”.

Ijtimoiy institutlarning turlari va funksiyalari. Har bir institut o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy vazifani bajaradi. Ushbu ijtimoiy vazifalarning yig'indisidan ijtimoiy tizimning muayyan ko'rinishi sifatidagi ijtimoiy institutlarning umumiy ijtimoiy vazifalari yig'ilib boradi. Mazkur vazifalar turli-tumandir. Turli yo'nalishda faoliyat yurituvchi sotsiologlar ularni tasniflashga, ularni tartibga solingan muayyan tizim sifatida tasavvur qilishga urinib ko'rishgan. «Institutsional maktab» uning eng to'liq va qiziqarli tasnifini taqdim etadi. Sotsiologiya fanining institutlashtirish maktabi vakillari (S.Lipset; D.Landberg va boshq.) sotsial institutlarning to'rtta asosiy vazifasini ajratadi:

1) Jamiyat a'zolarini ko'paytirish. Oila ushbu vazifani bajaruvchi asosiy institut hisoblanadi, ammo unga davlat kabi boshqa institutlarning ham aloqasi bor.

2) Ijtimoiylashuv – individlarga ushbu jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor va faoliyat usullarining namunalarini berish – oila, ta'lim, din va boshqa institutlar.

3) Ishlab chiqarish va taqsimlash. Boshqaruv va nazorat kabi iqtisodiy-ijtimoiy institutlar tomonidan ta'minlanadi – hokimiyat organlari.

4) Boshqaruv va nazorat vazifasi xulq-atvorning tegishli turlarini amalga oshiruvchi ijtimoiy me'yorlar va ko'rsatmalar tizimi orqali amalga oshiriladi: axloqiy va huquqiy me'yorlar, urf-odatlar, ma'muriy qarorlar va hokazo. Sosial institutlar individning xulq-atvorini rag'batlar va sanksiyalar tizimi orqali boshqaradi.

Sotsial institutlar bir-biridan o'zining funksional sifatlari bilan farq qiladi:

1) Iqtisodiy-ijtimoiy institutlar – mulk, ayirboshlash, pullar, banklar, turli tipdagi xo'jalik birlashmalari – iqtisodiy hayotni ijtimoiy hayotning boshqa sohaları bilan birlashtirgan holda ijtimoiy boylikni ishlab chiqarish va taqsimlashning butun yig'indisini ta'minlaydi.

2) Siyosiy institutlar – davlat, partiyalar, kasaba uyushmalari va siyosiy hokimiyatning muayyan shaklini o'rnatish va saqlab turishga yo'naltirilgan siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa turdagi jamoat tashkilotlari. Ularning yig'indisi ushbu jamiyatning siyosiy tizimini tashkil etadi. Siyosiy institutlar mafkuraviy

qadriyatlarni takror ishlab chiqarishni va turg'un saqlanishini ta'minlaydi, jamiyatdagi etakchi ijtimoiy-sinfiy tuzilmalarni barqarorlashtiradi.

3) Ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy institutlar o'zlariga madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ularni aks ettirishni, individlarni muayyan submadaniyatga kiritishni, xulq-atvorning turg'un ijtimoiy-madaniy andozalari orqali individlarni ijtimoiylashtirishni va nihoyat, muayyan qadriyatlar va me'yorlarni himoya qilishni maqsad qilishadi.

4) Me'yoriy-yo'naltiruvchi institutlar – individlarni axloqiy-etik yo'naltirish va ularning xulqini boshqarish mexanizmlari. Ularning maqsadi xulq-atvor va motivasiyaga ma'naviy dalilni, etik asosni berishdan iborat. Ushbu institutlar hamjamiyatda imperativ umuminsoniy qadriyatlarni, maxsus kodekslar va xulq etikasini tasdiqlaydi.

5) Me'yoriy-tasdiqlovchi institutlar – yuridik va ma'muriy hujjatlarda birlashtirilgan me'yorlar, qoidalar va ko'rsatmalar asosida xulq-atvorni ijtimoiy jihatdan tartibga solishdir. Me'yorlarning majburiyligi davlatning majburiy kuchi va tegishli sanksiyalari tizimi bilan ta'minlanadi.

6) Tantanali-ramziy va vaziyatli-konvensional institutlar. Ushbu institutlar konvensional (shartnoma bo'yicha) me'yorlarni u yoki bu darajada uzoq qabul qilishga, ularning rasmiy va norasmiy mustahkamlanganligiga asoslangan. Ushbu me'yorlar kundalik o'zaro aloqalarni, guruhli va guruhlararo turli tuman xulq-atvor aktlarini tartibga soladi. Ular bir-birining xulq-atvor tartibi va usulini aniqlaydi, axborot berish va almashish, salomlashish, murojaat qilish usullari va h.k.ni, yig'ilishlar, majlislar reglamenti, biror bir birlashmalar faoliyatini aniq qat'iy belgilaydi.

Jamiyat yoki hamjamiyat sifatida chiqadigan ijtimoiy muhit bilan o'zaro me'yoriy aloqaning buzilishi ijtimoiy institut disfunktsiyasi deyiladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, u yoki bu ijtimoiy ehtiyojni qondirish konkret sosial institutning shakllanish va faoliyat yuritish asosi hisoblanadi. Ijtimoiy jarayonlarning jadal kechishi, ijtimoiy o'zgarishlar sur'atining tezlashishi sharoitlarida, o'zgargan ijtimoiy ehtiyojlar tegishli sosial institutlar tuzilmasi va funksiyalarida mos tarzda aks etmaydigan vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Ularning faoliyati natijasida disfunktsiya vujudga kelishi ehtimoli bor. Mazmun nuqtai-nazaridan disfunktsiya institut faoliyati maqsadining ravshan emasligida, funksiyalarning noaniqligida, uning ijtimoiy nufuzi va obro'sining tushib ketishida, uning alohida funksiyalarining «ramziy», marosimiy faoliyatgacha, ya'ni oqilona maqsadga erishishga yo'naltirilmagan faoliyatda ifodalanadi.

Sotsial institut faoliyatining shaxsiylashuvi uning disfunktsiyasining yaqqol ifodasidan biri hisoblanadi. Ma'lumki, sotsial institut o'zining ob'yektiv harakat qiluvchi mexanizmlari bo'yicha faoliyat ko'rsatadi. Bunda har bir kishi me'yor va xulq-atvor namunalari asosida o'z mavqeiga mos ravishda muayyan rolni o'ynaydi. Ijtimoiy institutni shaxsiylashtirish alohida shaxslarning manfaati, ularning shaxsiy sifatlari va fazilatlariga qarab o'z funksiyalarini o'zgartirgan holda ob'yektiv ehtiyojlar va ob'yektiv ravishda belgilangan maqsadlarga muvofiq tarzda harakat qilishdan to'xtaydi. Qondirilmagan ijtimoiy ehtiyoj institut disfunktsiyasini to'ldirishga intiluvchi me'yoriy tarzda tartibga solinmagan faoliyat turlarining

stixiyali paydo bo'lishini mavjud me'yor va qoidalarni buzish hisobiga yuzaga keltirishi mumkin. Bunday turdagi keskin shakllarga ega bo'lgan faollik huquqqa zid faoliyatda ifodalanishi mumkin.

4.3. Oila sotsiologiyasi – umumiy sotsiologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib, u oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o‘rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida vazifalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

– jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi hamda mavjudlik qonuniyatlarini o‘rganish;

– oilaning mohiyati va faoliyati o‘zgarib borishini aniqlash;

– nikoh va oila turlari evolutsiyasini o‘rganish;

– oila tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarning o‘zaro ta’sirini aniqlash;

– oila tarbiyasi;

– oilaning rekreativ faoliyatini va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish;

– mehnat taqsimotida oilaning o‘rnini o‘rganish.

Oila sotsiologiyasi oilaning jamiyat bilan o‘zaro bog‘liqligiga ham e’tibor qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida, uning davomiyligini ta’minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Oilaning asosini erkak bilan ayol o‘rtasidagi nikoh birligi va nasl tashkil etadi.

Oila taraqqiyoti to‘g‘risida qator nazariyalar mavjud. Quyida biz AQSHlik etnograf L.Morganning oila taraqqiyoti bosqichlari to‘g‘risidagi fikrini keltiramiz:

– Promiskuitet – yovvoyilikning quyi bosqichiga xos bo‘lib, bunda ayrim oilalar bo‘lmagan, oilaviy hayot ijtimoiy hayotga teng bo‘lgan.

– Qon-qarindoshlikka asoslangan oilada nikoh qabila va urug‘ a’zolari orasida bo‘ladi. Bunday oila endogam birlikni tashkil qiladi (guruhiy nikoh).

– Punalual oila va ona avlodi bo‘yicha yaqin qarindoshlar bilan ni-koh man qilinadi.

- Monogam oila bir erkak va bir ayol orasida bo‘lib, u otalikni tan olish va oila mulkiga egalik qilishga asoslanadi. Monogam oila eski urug‘chilik tuzumining yemirilib, yangi kishilik hamjamiyatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq.

Oilaning vazifasi uning strukturasi bilan uzviy bog‘langan. Oila funksiyasi sotsiolog M.S.Matskovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiritilgan:

1) reproduktiv (nasl qoldirish) funksiya;

2) tarbiya funksiyasi;

3) xo‘jalik-maishiy funksiya;

4) iqtisodiy funksiya;

5) birlamchi ijtimoiy nazorat funksiyasi;

6) ma’naviy munosabat va aloqalar funksiyasi;

7) ijtimoiy maqomiy funksiya;

8) hordiq chiqarish funksiyasi;

9) emotsional funksiya.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oilaning jamiyat taraqqiyotidaga, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashdagi katta ahamiyatini hisobga olib, oilaga daxldor boy hamda chuqur mazmunli

milliy an'analarni asrash maqsadida 1998-yil 2-fev-ralda «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi.

Markaz O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Toshkent Davlat universiteti va Toshkent Davlat pedagogika univer-sitetining oila muammolarini o'rganish bo'yicha laboratoriyalari negi-zida tuzilgan.

Oila ham muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Uning faoliyati huquqiy va boshqa ijtimoiy me'yorlar bilan belgilanadi. Ushbu institutlar bilan bir qatorda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniy-tarbiyaviy muassasalar va h.k. tizimi kabi ijtimoiy-madaniy institutlar ham sezilarli ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatda din instituti ham ko'zga tashlanadigan rolni o'ynashda davom etmoqda.

Oila va boshqa ijtimoiy institutlarning o'zaro aloqasi farzand tug'ilgan paytdan boshlab namoyon bo'ladi, ushbu aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bolaning to'laqonli shaxsga aylanish bosqichlarini bosib o'tishi shunchalik oson bo'ladi. Ijtimoiy muhit jamiyatdagi ijtimoiy me'yornlarni va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi, bunda oila tayanch asos hisoblanadi, shaxsiyatning poydevori qo'yiladi, keyingi «bunyodkorlik ishlari»ni esa maktab, so'ngra navbatdagi o'quv yurti, keyin ishxonadagi jamoa amalga oshiradi.

Bola o'zining ijtimoiylashuvini oilada boshlaydi, ammo oila o'z navbatida kasalxonalar, maktablar, bolalar muassasalari, maktablar, ish jamoasi, sport seksiyalari, madaniyat muassasalari, davlat idoralari, norasmiy birlashmalar, diniy idoralar, do'stlar va boshqa ko'plab tashkilotlar bilan muloqot qilish zaruratiga to'qnash keladi. Aynan ushbu barcha tashkilot va muassasalarning o'zaro aloqasi jarayonida yosh shaxs shakllanib boradi. Oilaning ushbu tashkilotlar bilan o'zaro munosabati qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shunchalik ijtimoiylashgan, omadli shaxs balog'atga etadi.

A.G.Xarchev oilani kishilarning nikoh va qon-qarindoshligiga asoslangan, turmushning umumiyliigi va o'zaro mas'uliyat bilan bog'langan institut sifatida ta'riflaydi. Oilaviy munosabatlarning birlamchi asosini nikoh tashkil etadi. Nikoh – bu ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning tarixan o'zgarib turadigan ijtimoiy shakli bo'lib, uning yordamida jamiyat odamlarning jinsiy hayotini tartibga soladi va sanksiyalaydi, ularning er-xotinlik va qarindoshlik huquq va majburiyatlarini o'rnatadi. Ammo oila, odatda nikohga qaraganda munosabatlarning murakkabroq tizimi hisoblanadi, chunki u nafaqat er-xotinlarni, balki farzandlar va boshqa qarindoshlarni ham birlashtirishi mumkin. Shu bois oilaga shunchaki nikoh guruhi sifatida emas, balki ijtimoiy institut, ya'ni ijobiy va salbiy sanksiyalar tizimi orqali keng ijtimoiy nazoratga duchor bo'ladigan muayyan qadriyatlar va me'yorlar asosida o'zaro aloqa va munosabatlarning barcha aloqalarini tartibga soluvchi hamda inson naslini ko'paytirish funksiyasini bajaruvchi individlarning o'zaro aloqa va munosabatlar tizimi sifatida qarash kerak. Oila ijtimoiy institut sifatida bir qator bosqichlardan o'tadi, ularning ketma-ketligi oilaviy sikl yoki oilaning hayotiy siklini tashkil etadi. Tadqiqotchilar ushbu siklning turli miqdordagi fazalarini ajratadi, ularning orasida quyidagilari asosiy hisoblanadi:

- 1) ilk nikohni qurish – oilaning paydo bo'lishi;
- 2) bola tug'ilishining boshlanishi – birinchi farzandning dunyoga kelishi;

3) bola tug'ilishining yakunlanishi – oxirgi farzandning dunyoga kelishi;

4) «bo'sh qolgan uya» – oxirgi farzandning nikoh qurishi va oiladan ajralib chiqishi;

5) oilaning tugashi – er-xotinlardan birining o'limi. Har bir bosqichda oila o'ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy xarakteristikaga ega bo'ladi.

Oila sotsiologiyasida oila tashkiloti turlarini ajratishning shunday umumiy tamoyillari qabul qilingan. Nikoh shakliga qarab, bir nikohli(monogam) va ko'p nikohli(poligam) oila ajratiladi. Bir nikohli oila nikoh juftligi, ya'ni er va xotinning bo'lishini ko'zda tutadi, ko'p nikohli oilada esa, odatda er bir nechta xotinli bo'lish huquqiga ega bo'ladi. Qarindoshlik aloqalarining tuzilishiga qarab oddiy, nuklear yoki murakkab, kengaytirilgan oila turlari ajratiladi. Nuklear oila nikohda turmagan, ammo farzandli er-xotin juftligidan iborat bo'ladi. Agar oiladagi farzandlarning ba'zilari nikohda bo'lsa, o'z ichiga ikki yoki undan ziyod avlodni oluvchi kengaytirilgan yoki murakkab oila hosil bo'ladi.

Oila sotsial institut sifatida jamiyat shakllanishi bilan birga yuzaga keldi. Oilaning shakllanish va faoliyat yuritish jarayoni qadriyatli-me'yoriy boshqaruvchilarga bog'langan. Ularga, masalan, sevgilisining ko'nglini olish, nikoh juftini tanlash, er va xotin, ota-onalar, bolalar va h. amal qiladigan xulq-atvorning seksual andozalari, me'yorlari hamda ularni bajarmaganlik uchun sanksiyalar kiradi. Ushbu qadriyatlar, me'yorlar va sanksiyalar mazkur jamiyatda qabul qilingan er va xotin o'rtasidagi tarixan o'zgarib turadigan munosabatlar shaklidan iborat bo'lib, uning yordamida er-xotin o'zlarining jinsiy hayotini tartibga soladi va tasdiqlaydi, er-xotinlik, ota-onalik va o'zga qarindoshchilik huquq va majburiyatlarini o'rnatadi. Jamiyat rivojlanishining boshlang'ich bosqichlarida erkak va ayol, katta va yosh avlod orasidagi munosabatlar qabila va urug' urf-odatlar bilan tartibga solingan. Ular diniy va ma'naviy tasavvurlarga asoslangan xulq-atvorning sinkretik me'yorlari va namunalaridan iborat bo'lgan. Davlat paydo bo'lishi bilan oilaviy hayotni tartibga solish huquqiy xarakter kasb etdi. Nikohni yuridik rasmiylashtirish nafaqat er-xotinga, balki ularning ittifoqini tasdiqlovchi davlatga ham muayyan majburiyatlarni yukladi. Endilikda ijtimoiy nazorat va sanksiyani nafaqat jamoatchilik fikri, balki davlat organlari ham amalga oshira boshladi. A.G.Xarchevning ta'rifidan kelib chiqiladigan bo'lsa, reproduktivlik oilaning asosiy, birlamchi funksiyasi hisoblanadi, ya'ni jamiyat uchun aholini biologik ko'paytirish hamda shaxsan o'zi uchun bolalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish. Ushbu asosiy funktsiya bilan birga oila bir qator boshqa muhim ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi:

a) tarbiyaviy – yosh avlodni ijtimoiylashtirish, jamiyatni madaniy takror ishlab chiqarishni saqlab turish;

b) xo'jalik-turmush – jamiyat a'zolarining jismoniy salomatligini saqlash, farzandlar va oiladagi qariyalarni parvarish qilish;

v) iqtisodiy – oila a'zolarining boshqalar uchun moddiy mablag'larni olishi, jamiyatning voyaga etmagan va mehnatga layoqatsiz a'zolarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

g) birlamchi ijtimoiy nazorat sohasi – oila a'zolarining xulq-atvorlarini axloqiy jihatdan qat'iy belgilash, shuningdek er-xotinlar, ota-onalar va bolalar,

katta va o'rta avlod vakillari o'rtasidagi munosabatlarda javobgarlik va majburiyatlarni qat'iy belgilash;

d) ma'naviy muloqot – oila a'zolarini shaxs sifatida rivojlantirish, o'zaro ma'naviy boyitish;

e) ijtimoiy-mavqe – oila a'zolariga muayyan ijtimoiy mavqeni taqdim etish, ijtimoiy tuzilmani takror yaratish;

j) bo'sh vaqt – bo'sh vaqtni oqilona tashkil etish, manfaatlarni o'zaro boyitish;

z) emosional – ruhiy himoya, emosional madadni olish, individlarning emosional barqarorlashuvi va ularning ruhiy terapiyasi.

Oilani ijtimoiy institut sifatida tushunish uchun oiladagi rollar munosabatini tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Oilaviy rol – bu kishining jamiyatdagi ijtimoiy rollari turlaridan biridir. Oilaviy rollar individning oila guruhidagi o'rnini va funksiyalari hamda birinchi navbatda er-xotin, ota-ona, farzand (o'g'il, qiz, aka-uka, opa-singil), avlodlararo va avlodlar ichidagi a'zolarga (bobo, buvi, katta, kichik) bo'linishi bilan belgilanadi. Oiladagi rolning ijro etish bir qator shartlarni bajarishga, birinchi navbatda, rol obrazini to'g'ri shakllantirishga bog'liq. Individ er yoki xotin, oilada katta yoki kichik bo'lish qandayligini, undan qanday xulq-atvorni kutishlarini, unga u yoki bu xulq-atvoriga ega bo'lishini qaysi qoidalar, me'yorlar buyurishini aniq tasavvur qilishi kerak. O'z xulq-atvori tarzini ifodalab berish uchun individ o'zining va boshqalarning oilaviy rollar tuzilmasidagi o'rnini aniq belgilashi lozim. Masalan, umuman olganda u oila boshlig'ining, yoki xususan, oilaning moddiy boyligini idora qiluvchi rolini bajara oladimi? Shu nuqtai-nazardan u yoki bu rolning bajaruvchisining shaxsiyati bilan mos kelishi sezilarli ahamiyatga ega. Oilada yoshi katta yoki rol mavqeyi bo'yicha katta (masalan, er) bo'lsa ham, irodasi zaif kishi zamonaviy sharoitlarda oila boshlig'i roliga to'g'ri kelmaydi. Oilani muvaffaqiyatli shakllantirish uchun oilaviy rolning vaziyatli talablariga ta'sirchanlik va u bilan bog'liq bo'lgan hamda vaziyat talab etishi bilan bir roldan darhol ikkinchisiga qiyinchiliksiz kirishish qobiliyatida namoyon bo'ladigan rolli xulq-atvorning moslashuvchanligi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, oilaning u yoki bu badavlat a'zosi boshqa a'zolarga moddiy yordam beradigan homiy rolini o'ynaydi, ammo uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi oiladagi rolning ham o'zgarishini talab etadi.

Zamonaviy jamiyatda oilaning sotsial institut sifatida zaiflashuvi jarayoni, uning ijtimoiy funksiyalari, rolga asoslanmagan oilaviy munosabatlari o'zgarishi kuzatilmoqda. Oila individlarni ijtimoiylashtirish, bo'sh vaqtni tashkil qilish va boshqa muhim funksiyalar bo'yicha o'zining etakchilik pozitsiyasini yo'qotayotir. An'anaviy rollar, ya'ni ayol uy xo'jaligini yuritib, bola tarbiyalaydigan, er esa xo'jayin bo'lib, ko'p hollarda mol-mulkning yagona mulkdori bo'lgan rollar o'rnini, xristian va buddizm madaniyatlari rivojlangan mamlakatlarda ko'pgina ayollar ishlab chiqarish, siyosiy faoliyat, oilani iqtisodiy ta'minlashda qatnashadigan hamda oilaviy qarorlarni qabul qilishda teng, ba'zida esa etakchilikni qo'lga olgan rollar egallamoqda. Bu oila faoliyatining xarakterini tubdan o'zgartirdi va jamiyat uchun bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi. Bir tomondan, u ayolning o'zligini anglashiga, er-xotinlik munosabatlarida tenglikka erishishiga yordam bergan bo'lsa, boshqa tomondan, nizoli vaziyatni chuqurlashtirdi,

tug'ilishning kamayishiga va o'lim darajasining oshishiga olib kelgan holda demografik vaziyatga ta'sir ko'rsatdi.

Ta'lim sotsial institut sifatida – bu ulkan tizim bo'lib, xodimlar, boshqaruv apparati va alohida jarayonlarga suyanadigan mavqe va rollar, ijtimoiy me'yorlar va mavqelar, ijtimoiy tashkilotlarning (muassasa, korxonalar, universitet, akademiya, firma va boshqalar) jamuljamligini qamrab oladi. Ta'lim tizimi institut sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ta'limni boshqarish tashkilotlari va ularga qarashli muassasa va tashkilotlar;

ta'lim muassasalari tarmog'i (maktablar, kollejlari, litseylar, institut, universitetlar, akademiya va boshqalar), shuningdek malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari.

ijodiy uyushmalar, professional assosiasiyalar, jamiyatlar, ilmiy va uslubiy kengashlar va boshqa birlashmalar;

fan va ta'lim infratuzilmasiga qarashli muassasalar: loyihalash, ishlab chiqarish, klinik, tibbiy-profilaktik, farmasevtik, madaniy-ma'rifiy muassasalar, bosmaxonalar va boshqalar;

ta'lim dasturlari va turli daraja va yo'nalishdagi davlat ta'lim standartlari;

o'quvchi-talabalar va o'qituvchilar uchun darsliklar hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar;

ilmiy tafakkurning eng so'nggi yutuqlarini o'zida namoyon qiluvchi vaqtli nashrlar (bular sirasiga jurnallar va yillik nashrlar kiradi)

Ta'lim borasida insonlarning o'zaro munosabatini belgilab beruvchi va tashkillashtiruvchi me'yorlar majmui ta'limning ijtimoiy institut ekanini ko'rsatmoqda. Fan va ta'limga birgalikda «ijtimoiy makroinstitut» sifatida qaraladi (shu jumladan davlat, huquq, oila, iqtisod, sog'liqni saqlash va shu singari makroinstitusional ta'limlar) hamda u ikkita asosiy funksional o'zaro bog'langan guruhdan, ya'ni ilmiy hamjamiyat va ilmiy rasmiyatchilikdan iborat. Ushbu guruhlar tuzilishi jihatidan ma'lum mavqe va o'rniga ega. Ta'lim vazifasiga quyidagilar kiradi:

1. bilimni avloddan-avlodga etkazib berish (translyatsiya qilish) hamda madaniyatni tarqatish;

2. jamiyat madaniyatini vujudga keltirish va asrab-avaylash;

3. shaxsning ijtimoiylashuvi, ayniqsa yoshlarga e'tibor va ularning jamiyatga kirib borishini nazorat qilish;

4. shaxsning mavqeini belgilash;

5. ijtimoiy saralash (seleksiya), jamiyat a'zolarini, birinchi navbatda, yoshlarni tabaqalash, buning natijasida, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini o'zgartirish va qayta ishlab chiqarish amalga oshadi, individual mobillik ta'minlanadi;

6. yoshlarning kasbiy saralanishini va kasbiy yo'naltirilishini ta'minlash;

7. navbatdagi uzluksiz ta'lim uchun bilim bazasini yaratish (lisey-kollej, oliy o'quv yurtlari, aspirantura, turli o'quv kurslari va boshqalar);

8. ijtimoiy madaniy innovasiyalar, yangi g'oya va nazariyalar, yangilik va ixtirolarni ishlab chiqish hamda yaratish;

9. ijtimoiy nazorat.

Ta'lim darajasi bevosita mehnat zahiralari tayyorlash sifatiga, shu jumladan, to'laligicha iqtisodiyot holatiga bog'liq. Yaponiya aynan ta'lim tizimini modernizatsiya qilgan ekan, iqtisodiy muhitda sifatli ilgarilashga muvaffaq bo'ldi.

Sifatli ta'lim nafaqat alohida bir inson uchun, balki umuman jamiyat uchun foydalidir. Uning sharofati bilan har bir shaxs biznesda yaxshi faoliyat olib borish, siyosiy va madaniy sohada ancha yaxshi mavqeni egallashi uchun umid qilishi mumkin. Ta'lim tizimi tufayli mamlakat yuqori malakali ishchi-xizmatchilarga ega bo'ladi. Bu esa o'z o'rnida mehnat unumdorligini oshirishga, yangi texnologiyalarni jalb qilishga, ijtimoiy taraqqiyotda oldingi marralarni egallashga olib keladi.

Jahon hamjamiyati barcha davlatlar byudjetida ta'lim yuqori o'rinda turishi kerak degan qarorga keldi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ta'lim taraqqiyoti uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag' salmoqli o'rinni egallaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu mablag' o'n barobar kamroqni tashkil etadi, o'rtadagi nomuvofiqlik esa yildan-yilga ortib borayotir. Ta'lim sharofati bilan rivojlangan mamlakatlar yalpi milliy mahsulotning 40% ortishiga erishmoqda. Aslini olganda, ekspertlarning tan olishlaricha, ta'lim taraqqiyoti uchun ajratiladigan salmoqli sarmoyalar o'zini oqlay oladigan sohaga pul sarflashni anglatishini ta'kidlash joiz. AQSH prezidentlaridan biri bu borada shunday degan edi: «Amerikada kuchli institutlarning mavjudligi Amerikaning badavlat ekanligini anglatmaydi, balki Amerika unda kuchli universitetlar mavjudligi tufayli boyligini bildiradi». Oq uydagi ilm-fan bo'yicha Kengash ma'ruzasida ta'kidlanishicha, «Amerika jamiyatining farovonligi universitetlardagi ahvolga bevosita bog'liqdir».

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, aynan yoshlarga qaratilgan ta'lim tizimiga sarmoya ajratish har doim o'zini oqlaydi. Shuningdek, ta'lim masalasiga erkaklarga qaraganda ko'proq yosh ayollar jalb etilishi zarur hisoblanadi. Ushbu fikr birinchi galda uncha haqqoniy emasdek tuyuladi. Ammo gap shundaki, agar ayollar uy bekasi bo'lib, hech qachon mehnat bozoriga chiqmagan taqdirda ham erkaklar emas, aynan ayollar bola tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynaydi, bu esa mamlakat rivojlanishining asosiy poydevori hisoblanadi.

O'qish ma'lum bir mutaxassislikni egallashga olib keladi, ta'lim esa metakvalifikatsiyaga, ya'ni yangi ilmlarni izlash va o'zlashtirishni engillashtiradigan bilimlar tizimini yaratishga izn beradi. Amerika fermerlari o'rta ma'lumot hamda fermada ishlash tajribasini bergan nafaqat yuqori malaka egasi bo'lishsa-da, balki metakvalifikatsiyaga ham ega kishilar hisoblanadi, bu ularga kimga va qachon, masalan, yuristga, veterinarga, ta'minot bo'yicha mahalliy agentga, universitetning o'simliklar patologiyasi fakulteti xizmatchisiga, ulgurji xaridorga, meteorologga, mexanikka maslahat bilan murojaat qilishlari borasidagi etarli bilimlarni bera oladi. Ko'rinib turibdiki, metakvalifikatsiya garchi o'zining shaxsiy tajribasidan yiroqda bo'lsa-da, shaxsning kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi va tatbiq etishi uchun imkoniyatlarni ochib berar ekan.

Ta'lim sotsial institut sifatida barcha darajalarda, jumladan, maktab va oliy o'quv yurti sharoitida o'zini murakkab ko'p tarmoqli tizim – ijtimoiy tashkilot sifatida namoyon qiladi. O'rta ta'lim darajasida u ta'lim vazirligi, joylardagi hududiy va shahar bo'limlari, minglab maktablar, kollej va oliy o'quv yurtlari,

millionlab o'quvchilar, talabalar, o'qituvchilar va ular bilan bog'liq xizmat ko'rsatish mutaxassislarini o'z ichiga oladi.

4.4. Iqtisodiy institutlar. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik.

Ijtimoiy hayot – bu, turli guruh odamlarining harakati, faoliyati, o'zlarini yaqqol namoyon qiladigan, o'ziga xos voqealar majmuidan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar majmui butun jamiyat, hudud yoki qishloqlar, xo'jalik tarmoqlari, tashkilotlar ko'lamida ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishni tashkil etadi. Umumiylikdan guruhlarni ajratish va taqsimlash – bu, ijtimoiy stratifikasiyadir. Iqtisodiy hayotda mehnat va mehnat munosabatlari asosiy tarkibiy qism bo'lgani sababli, ijtimoiy-iqtisodiy stratifikasiyaning eng muhim ob'ektiv asoslari quyidagilar bo'lishi mumkin:

bandlik, uning o'lchovi va ko'rinishi;

ijtimoiy mehnat taqsimotida tutgan o'rni, ya'ni boshqaruv yoki ijrochi, agrar va industrial, aqliy va jismoniy mehnat bilan bandlik;

mehnat xususiyatlarining mashaqqatda, qiyinchilikda, xavfda, aqliy va jismoniy holatlarda tutgan o'rni;

kasb yoki mehnat, ya'ni ish haqiga yollanadigan va yuqori malakani talab etadigan yoki erkin daromadli mustaqil ish, ma'lumot qanday bo'lishidan qat'i nazar;

ishlab chiqarish vositalarining mulkchilikka bo'lgan munosabati, mulkning mavjudligi yoki yo'qligi, undan tashqari o'lchovi, shakli va ko'rinishi;

ishlab chiqarish, mehnatni tashkil etish, boshqa munosabatlar, uning darajasi, iqtisodiy va huquqiy asoslar, rasmiy va norasmiy xarakter;

daromad, uning o'lchovi va manbalari, axloqiylik, barqarorlik va berqarorlik xarakteri;

ma'lumot va malaka, ularning daraja va ixtisosi.

Ko'rsatib o'tilgan asoslarni hisobga olgan holda guruhlar bir necha bo'lakka ajratilishi mumkin. Ilmiy va ishga aloqador variantlarga juda ko'p e'tirozlar bildiriladi, ba'zan ular bir-biriga to'g'ri kelmaydilar ham. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy tizim hodisasi ijtimoiy fikrga murakkab ta'sir ko'rsatishini belgilaydi.

Ob'yektiv ijtimoiy-iqtisodiy stratifikasiyaning asoslari bilan bir qatorda sub'ektivlari ham mavjud. Bu erda guruhlar mehnat va mehnat munosabatlari uchun katta ahamiyatga ega qandaydir insoniy sifatlar nuqtai nazardan farqlanadi. Ularga:

-bir xil mehnat turlaridagi faoliyat va xulq uslubi;

-passivlik va faollik;

-etakchilik;

-qonunga bo'ysunish;

-mehnat va ish haqiga munosabat;

-mehnat va birgalikda ishlaydigan ishga moyillik kabilar kiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim o'rganilganda «ob'ektiv» guruhlarining sub'ektiv rejasi va «sub'yektiv» guruhlarining ob'ektiv rejasi ko'rib chiqiladi.

Ob'yektiv asoslangan guruhlar iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi. Ular ixtisoslashgan mehnat taqsimotida o'z ruhiy holatining yordami bilan eng yaxshi yoki yomon ob'ektiv mulk holatiga erishadilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy stratifikatsiya qiyinchilik va qarama-qarshiliklarga ega. Ayrim hollarda ijtimoiy-iqtisodiy tizim ortiqcha murakkablashtiriladi, asosiy ijtimoiy guruhlar va farqlar «so'ndirib qo'yiladi», ayrimlarida esa asosiy detallar qoldirilib yoki ortiqcha soddalashtiriladi.

Aktual bo'lmasligidan butun sinflar hisobga olinmasligi mumkin. Ishchi tashkilot bilan tanishib chiqayotganda, ma'mur mutaxassis, tajriba va fikrlash darajasiga ega bo'lgan odamlarning turli kategoriya va turlarini ko'rish mumkin.

Guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy farqlari ahamiyatga tobe bo'lganligi uchun, ular ozmi-ko'pmi «muhim» bo'ladi. Bir xil farqlarning ahamiyati har xil vaziyatlarda bir xil emas, ya'ni nisbiy bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy farqlarning nisbiyligi jihatidan aniq shakllari mavjud:

1. Texnika taraqqiyoti natijasida kasb va mashg'ulotlarda, ish joylarining keskin etishmasligi sharoitida juda ko'p farqlar «o'chirilib» yuboriladi; odamlarning moddiy rag'batlantirilgan orientatsiyasi kuchli bo'lsa, bu farqlarga kam ahamiyat beriladi.

2. Hammada (o'rtacha) daromad yuqori bo'lsa yoki ularni realizatsiya qilish imkoni bo'lmasa yoki jamiyat, mavjud individlar va guruhlar ma'naviy qadriyatlarga qaratilgan bo'lsa, daromaddagi farqlar unchalik muhim bo'lmaydi.

3. Ishsizlik vaqtinchalik bo'lsa yoki ishlovchilar, o'rtacha olganda, past ish haqi olishsa yoki ishsizlik nafaqalari etarli darajada yuqori bo'lsa, bandlik yoki ishsizlik odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini yaqqol bildirmaydi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish mehnat xarakterining faqat kasbiylik va ish bilan hayotning kichkinagina namunasi bo'lishi, odamning ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolini aniqlovchi, o'ziga xos kapital rolini bajarishi mumkin. Ayrim holatlarda ma'lumot bandlikni kafolatlovchi, ishsizlikka imkon beradigan yoki bu munosabatda hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan omil hisoblanadi.

5. Mulkchilik odamlar uchun bir xil bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatni kasb etadi. Mulkchilik – bu, individ va g'pyh uchun shaxsiy ishlab chiqarish vositalarining yiriklashuvi va rivoji, daromadlar va erkin mehnatning barqarorligidir.

6. Odamlarning o'ziga xos fazilatlarini nisbiylik prinsipiga bo'ysunadi. Agar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, vaziyatlar, hodisalarda qandaydir axloqiy va ma'naviy xususiyatlar ahamiyatsiz bo'lsa (na muammolarni, na muvafaqqiyatlarni «barpo» etmaydilar), boshqalarda esa ular individ va guruhlarning mezoni, yutuqlarini belgilaydi.

«Nima uchun iqtisodiy hayotda qandaydir ijtimoiy guruhlarni ajratish kerak?», «Qaysi vaziyatda makro va mikroiqtsodchi, ishlab chiqarishning tashkilotchisi, menejeri, mutaxassisi bunday guruhlarning omiliga yoki fenomeniga o'z e'tiborini qaratadi?» - degan savollar tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili asosiy yo'nalishlarini ta'riflash lozim:

1. Mehnat taqsimotining iqtisodiy va sotsiologik nazariyalari ma'lum. Birinchisiga binoan ob'yektiv qonunlar va xo'jalikning rivojlanish ehtiyojlarini har xil tarmoq, jarayon, mehnat va bandlik turlarida rivojlantirish uchun dastlabki asos yaratib, o'ziga odamlarni jalb qiladi, ish kuchining munosib kategoriyalarini

shakllantiradi. Shunday qilib, sof iqtisodiy prinsipga asosan ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar vujudga keladi.

Sotsiologik nazariya tarafdorlari bu masala bo'yicha teskari fikrlaydilar.

Birinchiidan, iqtisodiy differensiasiyaga nisbatan ijtimoiy differensiasiya boshlang'ich deb hisoblanadi. Dastlab ijtimoiy guruhlar paydo bo'lib, ularning mavjudligi mehnat taqsimotiga sabab bo'ladi. Bandlik va mehnat odamlarni guruhlarga bo'ladi va aksi, odam guruhlari o'zaro mehnat va bandlikka bo'linadi.

Ikkinchiidan, iqtisodiy nuqtai nazardan xo'jalikning bitta tizimi talab qilinadi, lekin ma'lum guruh va guruhlarga munosabatlar psixologiyasi kasbiy-mehnat yo'nalishi va ta'limda, kadrlarning mobillik va barqarorligida, bandlik prinsipi va jarayonlarida zid, qarama-qarshi g'oyalarni vujudga keltiradi.

Uchinchiidan, ijtimoiy guruhlarda o'ziga xos inersiya mavjud. Iqtisodiyotning tuzilishini tubdan o'zgartirishga harakat qilganlar «insoniylik» qiyinchiliklariga duch keladilar – bir qator odamlar guruhi odatdagi hayot tarzini, ijtimoiy aloqalarni, o'z-o'zini anglashini o'zgartirishni, bandlikda va ishda «yangi rollarni yodlashni», o'zlarini urintirishni xohlamaydilar.

2. Ishlab chiqarishda va iste'molda band bo'lgan paytda odamlar hap doim bir nimalarni o'zaro taqqoslaydi, taqsimlaydi, ya'ni rahbarlik organlari orqali o'zlarining munosabatlarini tartibga solib turishadi.

Shunday qilib, ijtimoiy guruhning mavjudligi – bir vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi mezonlar va asboblarning vujudga kelishidir (mezon - predmetni, asbob - ta'sir o'tkazish usulini ko'rsatadi).

3. Ijtimoiy guruh – iqtisodiy hayotning asosiy sub'ekti. Unga odamlar ishlab chiqarish va daromadda manfaatlarini himoya qilish, o'zlarining maqsadlariga etishish uchun har xil tashkilotlarga, assosiasiyalarga, korporasiyalarga birlashadi. Bularning hammasida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xulq mavjud.

4. Ayrim guruhlarda ijtimoiy-iqtisodiy tizim va holatni ta'riflovchi omillar bo'ladi. Ular o'zlarining xulqi bilan qandaydir muammolarni tug'diradilar yoki ularning qiziqishi butun iqtisodiyotning rivojlanishini ko'zda tutadi yoki qobiliyatlarini iqtisodiy tadbirlarda va tendensiyalarda rahbarlik rolini bajarishga imkon beradi.

5. Ayrim guruhlar ijtimoiy-iqtisodiy tizim va holatning indikatorlari bo'lishi mumkin. Aynan shu guruhlarning fikr-mulohazalari va ruhiy holatlari – muammolar, xatolar, strategiya va siyosat rivojlanishida o'zgarishlar zarurligining ishonchli ko'rsatkichi hisoblanadi.

6. Iqtisodiy hayotning har xil sub'ektlari xulqi – bu, ko'pincha ijtimoiy xulq. Iqtisodiyotda har xil muammolarning egalari quyidagicha harakat qilishini doimo hisobga olish muhim:

- guruh shaklda, guruh sifatida;
- qandaydir guruhga nisbatan, uning mavjudligi va xarakterini hisobga olgan holda;
- guruh sharoitida va uning ta'sirida;
- guruhning vakillari sifatida.

7. Amaldor va menejerlar tashkilot va boshqaruvda ijtimoiy guruh omilini beixtiyor hisobga oladilar. Aynan har xil ijtimoiy-guruhiy holat (bir xil turdagi -

har xil turdagi, to'qnashuvlik – jipslik, qo'llab-quvvatlash va qarama-qarshilik kuchlari nisbati, biron narsaga qiziquvchanlik - qiziqmaslik) xulqni va boshqaruv organi tomonidan masalalarni qabul qilishni belgilaydi, boshqaruv va tashkil etishni murakkablashtiradi yoki engillashtiradi.

Iqtisodiyotning ijtimoiy tahlili masalalari, muammolari va bosh yo'nalishlari mavjud. Hamma odamlarda atrofdagilarni farqlash va toifalarga bo'lish xususiyati bor. Bu – sezish, idrok qonuni. Ijtimoiy-iqtisodiy stratifikasiyada u ko'p, aniq va foydali maqsadlarga yo'naltirilgan. Bu maqsadlar ijtimoiy guruhlarini tushunish, ularning muammolarini echish, ichki munosabatlarni tartibga solish, ijtimoiy fikrni hisobga olish zaruriyati bilan bog'liq.

4.5. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir o'tkazuvchi omil - din doimo uning diqqat markazida bo'lgan. Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo'lar ekan, asosiy mezonlardan biri sifatida dinga murojaat qiladi. Uning fikricha, insoniyat o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tadi. Bular quyidagilar: teologik, metofizik va ilmiy bosqichlar. Har uch bosqichda ham din muayyan rol o'ynaydi. Din quyidagi o'ziga xos belgilarga ega:

1. Muayyan e'tiqod va ta'limotning mavjudligi. Har bir din dunyoni o'z nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqod shakllantiradi;

2. Marosim va rasm-rusumlar. Har bir din o'ziga xos marosim va rasm rusumlarga ega;

3. Diniy marosim va rasm-rusumlarning muayyan qismi faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan, yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi sinagogda va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan o'qiladigan namoz asosan jom'e masjidlarida o'qiladi. Din sehrarlikdan avvalo mana shu belgi bilan, ya'ni muayyan marosimlarni muayyan davrlarda bajarish bilan farqlanadi. Sehrar va shomonlar g'ayritabiiy harakatlarni individual holatda bajarsalar, dindorlar diniy marosim va ibodatlarni asosiy qismini jamoa bo'lib bajaradilar. Sanab o'tilgan belgilarning uchtasi ham dunyoviy dinlarning barchasida mavjud. Bu dinlar quyidagilar: iudaizm, xristianlik, islom.

Iudaizm ular ichida eng qadimiysi bo'lib, miloddan taxminan ming yil oldin shakllangan. Bu din o'sha davrdagi dinlardan farqli o'laroq, yakka xudoni tan olardi.

Milodning dastlabki asrlarida yahudiylar dunyoning ko'p mamlakatlariga tarqalib ketdilar, lekin biror mamlakatda iudaizm rasmiy din sifatida tan olinmadi. Ko'p mamlakatlarda bu din vakillari ta'qib ostiga olindi. Ikkinchi jahon urushi yillarida nasistlar tomonidan ko'plab yahudiylar qirib yuborildi. Urush tugagach, Isroil davlati tashkil topdi va unda iudaizm rasmiy din sifatida e'tirof etildi.

Xristianlik dastavval sekta sifatida iudaizm tarkibida vujudga keldi va Kichik Osiyo, Yunoniston, Rimda tarqala boshladi. Imperator Konstantin davrida bu din Rim imperiyasining rasmiy dini deb e'lon qilindi. Xristianlikning provaslavie, katolisizm, protestantlik kabi bir necha tarmoq va oqimlari mavjud.

Islom dini eramizning VII asrida shakllandi, Bu dinning asosini 5 rukn tashkil qiladi. 1) Iymon; 2) Namoz; 3) Ro'za; 4) Zakot; 5) Haj.

Islomda sunniylik va shia yo'nalishlari bo'lib, ular ham o'z navbatida bir qator mazhablarga bo'linadi. Musulmon dini dunyoning 5 qit'asida va deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Saudiya Arabistoni, Liviya, BAA, Iordaniya, Jazoir, Pokiston, Eron kabi qator mamlakatlarda islom rasmiy din deb e'lon qilingan. Islom dinida ham mo'tadil va aqidaparast oqimlar mavjud. Uch olamiy dindan tashqari buddaviylik, induizm, kunfuchilik kabi dinlar ham ko'p millionlik tarafdorlariga ega. Induizm eramizdan oldingi 4 ming yilliklarda shakllangan. Bu din tarafdorlari asosan Hindistonda yashaydilar. Bu din odamlarning kastalarga bo'linishini ilohiy sabab bilan izohlaydi. Buddaviylik, kunfuchilik va daosizm dinlari uchun umumiy xususiyat shundaki, ularning tarafdorlari xudoni e'tirof etmaydilar.

Buddaviylik er.avv. VI asrlarda Nepalda yashagan Sidxart Gautama ta'limotidan boshlanadi. Bu din Tailand, Birma, Nepal, Shri-Lanka, Xitoy, Yaponiya, Koreya singari mamlakatlarda tarqalgan.

Kunfuchilik eramizdan oldingi VI asrda yashagan Kun-Fu-Chi ta'limotiga asoslangandi. U Buddha bilan bir vaqtda yashagan bo'lib, insonning tabiat bilan uyg'unlashish yo'llarini axtargan. G'arb va Sharq olimlari din va jamiyat muammosi ustida ko'p asrlardan buyon bosh qotirib kelmoqdalar. Bu masalaga Markaziy Osiyodan etishib chiqqan ulkan allomalar Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi yuzlab olimlar chuqur fikr bildirganlar. Bu olimlar dinning jamiyatda tutgan o'rnini tahlil qilishda kuzatish, qiyoslash, tarixiylik usullaridan keng foydalandilar. Ular bir dinni madh etib, boshqasini tanqid qilish yo'lidan bormadilar.

Xususan, Beruniy o'zining «Hindiston» kitobida turli qabilalar, elatlar va xalqlar hayotida dinlar qanday rol o'ynaganini chuqur tahlil qilib berdi. Lekin din sosiologiyasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllanib, bu M. Veber nomi va ilmiy faoliyati bilan bog'liq. M. Veber ijodida dinni sotsilogik tahlil qilish markaziy o'rinni egallaydi. M. Veberning eng katta xizmatlaridan biri, uning xristian dinidagi protestantlik mazhabining iqtisodiy hayotga o'tkazgan ta'sirini kashf etishida bo'ldi. Boylik orttirishga qarshi bo'lgan xristian dini mazhablari iqtisodiy taraqqiyotga ma'lum darajada to'siqlik qilganlar. Protestantlik esa boylikni xudoning ne'mati, unga intilish bandalarning burchi, deb iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga turtki berdi.

Islom dinidagi oqimlar, mazhablar, yo'nalishlar turlicha bo'lib, ularning barchasi ham faqatgina o'zlari mansub bo'lgan mazhab yoki yo'nalish haqiqiy islom dini ekani, boshqalar esa yo'ldan adashganlar, deb da'vo qilishadi. Boshqa dinlar singari islomda ham aqidaparastlik (fundamentalistik) va mo'tadil oqimlar o'rtasida kurash borgan. Aqidaparast oqimlarning vakillari dinni ilk paydo bo'lish davridagi holatga qaytarmoqchi bo'ladilar. Bu ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini orqaga burish uchun urinish ifodasidir.

Markaziy Osiyoda aqidaparastlarning keskin xurujlaridan biri XX asr boshlarida yuz berdi. Hijozdan kirib kelgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyoda ijtimoiy tanglikni keltirib chiqardilar. Bid'atga qarshi kurash niqobida ular

ijtimoiy hayotda yuz bergan barcha yangiliklarni yo'q qilish uchun kurash boshladilar.

Aqidaparastlarni ijtimoiy taraqqiyotni ortga qaytarish uchun qilgan harakatlariga qarshi taraqqiyparvar ma'rifatchilar harakati keldi. Tarixda jadidchilik nomini olgan bu harakat namoyondalari xalqni ilm-ma'rifatli qilish, diniy e'tiqodda mutaassiblikdan mo'tadillik tomon yuz tutish g'oyalari bilan chiqdilar.

XX asr boshlarida diniy aqidaparastlik atamasi muomalada deyarli bo'lmagan. Uning o'rnida «qadimchilar» atamasi keng qo'llanilgan. Qadimchilar dinni "asl" holatiga qaytarish, yangiliklardan himoya qilish uchun harakat qilganlar. Usuli jadidiya tarafdorlari, ya'ni ma'rifatchilar me'yorlarni belgilashda jamiyatda yuz bergan va berayotgan o'zgarishlarni hisobga olish, yangiliklarni qo'llash tarafdorlari edi. Bu ikki yo'nalish o'rtasida tortishuvlar avvalo bahs, munozara, keyinroq to'qnashuv va qon to'kishlar shaklida yuz berdi. Qadimchilar kuch ishlatish yo'li bilan engishga harakat kilganlar. Bu usul diniy aqidaparastlikka xos bo'lgan ekstremistik usuldir. Aqidaparastlar nazariy va mafkuraviy bahslarni xunrezlikka aylantirishga uringanlar.

Ma'rifatchilar harakati qadimchilar yo'li millat uchun xatarli yo'l ekanini xalqqa tushuntirish maqsadida yo'lga chiqdilar. Shu maqsad yo'lida ular ma'rifat va mafkura sohasini ham nazariy ham amaliy faoliyat olib bordilar. Qadimchilar jim turmadilar. Avvaliga ular ma'rifatchilarni nazariy jihatdan engmoqchi bo'ldilar. Lekin nazariy jihatdan eng olmasliklariga ko'zlari etdi. Dunyoda ko'p marta takrorlangan hodisa, aqidaparastlikning diniy, nazariy tortishuvlarida engilishi va zo'ravonlikka o'tishi Turkistonda ham qaytarildi. Aqidaparastlar endi qarshi terror yo'lga o'tdilar. Oktyabr to'ntarilishi arafasida, undan keyingi dastlabki yillar aqidaparastlarning ma'rifatchilarga qarshi xunrezliklari eng avjiga mingan davri edi. 1918 yil fevralida Buxoro qozisi ma'rifatchilarni kofir deb e'lon qiladi. Ularni ko'rgan joyda o'ldirish to'g'risida fatvo chiqardi. Ma'rifatchilar dindor bo'lib, hech qachon islom diniga qarshi faoliyat olib bormaganlar. Buxoro qozisi fatvosi bilan yangilik tarafdorlarinini kaltaklash, o'ldirish boshlandi. Bundan foydalangan ko'p qadimchilar o'z raqiblaridan o'ch oldilar, ko'p yangilik tarafdorlari yo'qotilib yuborildi. 1918 yil martda amir farmon chiqardi. Unga ko'ra, jadidchilikda gumon qilinganlar Arkka olib kelinishi kerak edi. Bir necha kun ichida Arkka mahbuslar to'lib ketdi. Jallodlar qo'li-qo'lga tegmasdi. Natijada yangi jallodlar tayinlandi, shogirdlar ham ishga solindi, boshqa xonliklarda keng ko'lamda xunrezliklar bo'lmasada, qadimchi aqidaparastlar ta'sirida sodir etilgandir.

Ma'rifatchilarning etakchilari jon saqlash uchun amirlikdan tashqariga chiqib ketishga majbur bo'ldi. M.Behbudiy qadimchi aqidaparastlar qurboni bo'ldi. 20-30 yillarda tirik qolgan jadidlarni kommunistik aqidaparastlar qirib bitirdilar. Shunday qilib, jadidlar ikki aqidaparast terroristik kuchlar - diniy aqidaparastlar va kommunistik aqidaparastlar tomonidan ta'qib va qirg'in qilindilar.

XX asr so'nggida ham diniy aqidaparastlar ijtimoiy tanglikni keltirib chiqarishga urindilar. Sho'rolar tizimining oxirgi yillarida hokimiyatning bo'shashgan va kishilar ongida mafkuraviy bo'shliq vujudga kelganidan foydalanib, aqidaparastlar o'zlarining mavqelarini mustahkamlab olishga harakat qildilar.

Ularning bu harakati O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillardan ham davom etdi. O'zlarini etarli kuchga ega, deb hisoblagan aqidaparastlar O'zbekistondagi Konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik yo'li bilan ag'darishga urindilar. 1999 yil 16 fevralda Toshkentdagi portlashlar, Farg'ona va boshqa viloyatlardagi salbiy hodisalar, 2005yil 12-13 may kunlari Andijonda sodir etilgan terroristik harakatlar shundan guvohlik beradi.

Shunday qilib, din sotsiologiyasi ijtimoiy fikrlar din atamasi bilan bog'liq barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy xulqni o'rganadi.

Qisqacha xulosalar:

Prezident I.Karimov izchil tatbiq qilayotgan konsepsiyaga muvofiq yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi qo'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi vorisligini ta'minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda. oila va nikoh munosabatlari nafaqat er-xotin o'rtasidagi shaxsiy, balki ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga ham egadir. Oila sotsiologiyasi mohiyat e'tibori bilan shu umumbashariy ahamiyatga molik muammoni hal etib borishdek, buyuk vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Ta'lim sosiologiyasining hozirgi sharoitidagi asosiy vazifalaridan biri ham, yuqorida ko'rsatilgan muammolarni empirik jihatdan tadqiq qilib, ilmiy-amaliy va nazariy xulosalar chiqarishdan iborat. Ko'rinib turibdiki, o'zining mohiyat-e'tibori bilan ushbu masala favqulotda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir. Mehnat va mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan guruhlar o'rtasidagi farqlar qanday bo'lishiga qarab, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning strategik modelini ajratib o'rganish mumkin.

Mustaqil O'zbekistonda dinga milliy qadriyat sifatida qaralishi xalq ongida ushbu hodisaga nisbatan to'g'ri, holis munosabatning shakllanishiga zamin bo'ldi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari aytib bering.
2. Rasmiy va norasmiy guruhlarining ko'rinishlarini izohlang.
3. G'arb sosiologiyasidagi kichik guruhlar nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Sotsiometriya nima?
5. Institutsional sosiologiyaga ta'rif bering.
6. Sotsial institutlarning qanday turlarini bilasiz?
7. Sotsial institutlarning vazifalari nimalardan iborat?
8. Sotsial institutlarning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
9. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga baho bering.
10. Oila tushunchasiga izohlab bering.
11. Oila jamiyatining bir bo'g'ini sifatida qanday vazifani bajaradi?
12. Oilani mustahkamlash va rivojlantirish borasidagi tadbirlarni aytib bering.
13. Dunyo dinlari haqida nimalar bilasiz?

5- MAVZU: SHAXS SOTSILOGIYASI VA DEVIANT XULQ-ATVOR

REJA:

5.1. Shaxs tushunchasining mazmun-mohiyati

5.2. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi.

5.3. Sotsial nazorat elementlari

5.4. Sotsial me'yor turlari.

Mavzu bo'yicha tayanch atamalar:

Ijtimoiy me'yor, jinoyatchilik, anomiya, ahloq, me'yorlar, qonun, ijtimoiy muhit, hatti-harakat, ijtimoiy hodisa, deviant xulq-atvor, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy og'ishlar, muammoli vaziyat, anomiya.

5.1. Shaxsning jamiyatdagi o'rni va mohiyati sotsiologiya fanining muhim va bahstlab sohalaridan biri bo'lib keldi. Inson mohiyatini dastlab o'rgan-gan olimlar Xitoydagi Konfutsiy va uning izdoshlari edi. Miloddan avvalgi 298-238-yillarda yashagan olim Sen-Tszi shunday deb yozgan edi: "Tug'ma xususiyatlar – bu samoviy munosabatlar hosili bo'lib, ularga ta'lim yoki ularni odamning o'zi yaratishi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shun-ga olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon ber-maydilar. Shuning uchun ham, tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ta'lim berib, ularni adolatlikka va mas'uliyatlikka o'rgatish lozim".¹

Insonning muhim xususiyatlaridan biri – uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo'la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydi va urning aholi yashaydi qismiga o'r-nashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi."²

Shu bilan birga, inson fikrlovchi mavjudotdir. U ko'rgan va eshitgan-larini yodda saqlaydi, o'z fikrlari, tasavvurlash qobiliyati vositasida bilim-larni, ma'lumot va axborotlarni tahlil qiladi. Insondagi bu xususiyatlarni Ibn Sino shunday talqin etadi: «Inson umumiy qarash-larga nuqtayi nazar bildirish va alohida narsalar to'g'risida fikrlash qobili-yatiga ega u foydali yoki zararli ishni qilish va qilmaslik, go'zallik va

¹ Антология мировой философии. В 4-х т. Москва, 1969 Т. 1, с.230-231.

² O'sha asar. 186-bet.

xu-nuklikni farqlash, yaxshi va yomonni ajratish qobiliyatlariga ega. Ular qiyoslash va tafakkurlash vositasida shakllanadi... Shunday qilib, inson ruhi-ning birinchi kuchi aqliy mushohadaga taalluqli bo‘lib, u aqliy tafakkur deb ataladi. Ikkinchi kuch esa tajribaga taalluqli va tajribaviy fikrlash, deb ataladi. Ular haqiqat yoki yolg‘onni, shuningdek, xususiy narsalarga nisbatan yaxshi va yomonni aniqlash uchun xizmat qiladi.²⁵

Hozirgi davr sotsiologiyasi “inson” deganda Yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapiens) vakilini ifodalovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman, inson zotining yig‘iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Sotsial o‘zaro ta‘sir va munosabatlarning birlamchi agenti bo‘lib shaxs hisoblanadi. Shaxsning kim ekanligini bilish uchun “inson”, “individ”, “shaxs” tushunchalarining chegaralarini aniqlab olish kerak bo‘ladi. “Inson” tushunchasi hamma kishilarga xos bo‘lgan umumiy sifat va qobiliyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu tushuncha dunyoda inson zoti deb atalmish shunday o‘ziga xos tarixiy jamoa mavjudligini anglatadi. Bu insoniyat qolgan hamma moddiy sistemalardan o‘ziga xos hayotiy faoliyat usuli bilan farq qiladi. Insoniyat o‘ziga xos moddiy reallik sifatida mavjud bo‘ladi. Ammo insoniyat bu kabi yashay olmaydi. Konkret odamlar yashaydi va harakat qo‘yadi. Insoniyatning konkret vakillarining bo‘lishi individ tushunchasi orqali ifodalanadi.

Individ²⁶ – bu insoniyatning hamma sotsial va psixologik xususiyatlari: aql, idrok, ehtiyojlar va boshqalarning konkret tashuvchisi, insoniyat urug‘ining yagona vakilidir. Bu holatda individ tushunchasi “konkret kishi” ma‘nosida ishlatiladi.

Shaxs²⁷ – insonning nisbatan ijtimoiy-tarixiy va ontogenetik rivojlanishining mahsuli, maxsus insoniy tuzilma. Insonning biologik tabiati uning sotsial dunyosining rivojlanish bazasidir. Insonning ongi ham, insonning ehtiyojlari ham ijtimoiy munosabatlar orqali yaratiladi, bu individning to‘g‘ilganidan boshlanib va to o‘limigacha davom etadi. Shaxsning jamiyatdagi o‘rni va mohiyati sotsiologiya fanining muhim va bahstlab sohalaridan biri bo‘lib keldi. Inson mohiyatini dastlab o‘rgangan olimlar Xitoydagi Konfutsiy va uning izdoshlari edi. Miloddan avvalgi 298-238-yillarda yashagan olim Sen-Tszi shunday deb yozgan edi: “Tug‘ma xususiyatlar – bu samoviy munosabatlar hosili bo‘lib, ularga ta‘lim yoki ularni odamning o‘zi yaratishi vositasida erishib bo‘lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug‘ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o‘zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. Shuning uchun ham, tarbiya yo‘li bilan inson tabiatini o‘zgar-tirish, yaratilgan qoidalar asosida ta‘lim berib, ularni adolatlilikka va mas‘uliyatlilikka o‘rgatish lozim”.¹

Individning jamiyatga qo‘shilishi turli sotsial jamoalar orqali amalga oshiriladi. Har bir alohida kishi sotsial guruhlar, sotsial muassasalar, sotsial institutlar, jamiyatda hukmron norma va qadriyatlar ya‘ni madaniyatlar orqali

²⁵ Ибн Сино (Авиценна). Избранные философские произведения. Москва, 1980, с. 472-473.

²⁶ Xolbekov A., Idivov U., Sotsiologiya. Lug‘at. T.: Ibn Sino, 1999.

²⁷ Xolbekov A., Idivov U., Sotsiologiya. Lug‘at. T.: Ibn Sino, 1999.

¹ Антология мировой философии. В 4-х т. Москва, 1969 Т. 1, с.230-231.

shakllana boshlaydi. Buning natijasida individ ko'p miqdordagi turli darajadagi sosial tizimlarga qo'shiladi, ularning har biri oila, do'stlar davrasi, ijtimoiy muassasalar, ishchilar guruhi, milliy jamoalar va hokazolar unga ta'sir o'tkazadi. Shunday qilib inson mazkur sistema strukturalarining qismiga, ularning elementlariga aylanadi.

Hamma psixologik fanlar ijtimoiy sababiylikdan va shaxs faolligi prinsipidan kelib chiqadilar. Mana shu yerda ijtimoiy psixologiya nuqta qo'yadi, keyin esa o'zining sotsial-psixologik muammolarini echishga kirishadi. Sotsial psixologiya esa umumiy psixologiya tomonidan ishlab chiqilgan shaxs ta'rifidan foydalanib, shaxs qaysi konkret guruhlarda, birinchidan, sotsial ta'sirini (uning qaysi faoliyat tizimi orqali) o'zlashtirishini, ikkinchidan, o'zining sotsial mohiyatini (o'zaro faoliyatning qaysi konkret turi orqali) amalga oshirishini tushuntiradi. Bu yondashuv aynan sotsiologik yondashuvdan farq qiladi. Sotsiologik yondashuv qanday qilib sotsial-tipik xususiyatlari shakllanadi, nima uchun shaxs hayot faoliyatining bir xil sharoitlarida ular katta hajmda ifodalanadi, nima uchun boshqa sharoitlarida qandaydir boshqa sotsial-tipik xususiyatlar insonning mazkur sosial guruhga, sosial muhitga tegishliligidan qat'iy nazar paydo bo'lishini ko'rsatib beradi. Shunga muvofiq sotsiologiyada asosiy e'tibor shaxsning sotsial tiplarini (faoliyat tiplarini) sotsial sifatlarini aniqlashga qaratiladi. Aynan sotsiologik o'rganadigan alohida individlar faoliyati va ong strukturasida sotsial tizim, jamoa, guruhlarning umumiy va o'ziga xos sifatlari namoyon bo'ladi.

Bundan kelib chiqib, shaxsni individning boshqa kishilar bilan bevosita va bilvosita o'zaro ta'siri jarayonida jamlanadigan va o'z navbatida uni mehnatning, anglashning va muloqotning sub'ektiga aylantiradigan individning sosial xususiyati, unda yaxlitlangan sotsial ahamiyatli xususiyatlarning majmuidir, deb ta'riflash mumkin.

Shaxsni tushunishdagi bunday yondashuv maqsadga muvofiqdir. Chunki, u insonni o'zida turli sosial-tipik belgilarni mujassamlashtirgan ma'lum jamiyatning, sosial jamoaning, guruhlarning vakili sifatida namoyon bo'ladigan sosiologik xususiyatni ifodalaydi.

Shaxsning sosiologik konsepsiyasi bir qancha turli nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ularning hammasi shaxsni u yoki bu sosial omillarning ta'siri ostida shakllangan o'ziga xos tuzilma ekanligini tan olishadi. Muammoni bu kabi qo'yish shaxsni faqat sotsiologiya nuqtai nazaridan tahlil etishga olib boradi. Bu yondashuvning ildizlari sotsial falsafa ildizlariga borib taqaladi.

Shaxsning sotsiologik konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmi -XX asrning boshlarida rivojlana boshladi. Umumiy shaxsning sotsiologik nazariyasiga bo'lgan ehtiyoj doimiy o'zaro munosabatni, boshqacha aytganda, sotsial makrostrukturada sodir bo'layotgan jarayonlarni belgilaydigan doimiy o'lchamni topish kerakligini tushunishdan kelib chiqadi. Individlar va jamiyat o'zaro ta'siridagi bu jarayonlarni tushuntirayotib, biz har doim bu individning xususiyatlarining qandaydir tashkiliy butunligini topamiz, u jamoalardan kelib chiqadigan ta'sir va stimullarni "boshqacha tushunadi" va muhitga insonning reaksiyasini qat'iy ravishda aniqlaydi.

XIX asrning 30-yillarida sotsiologiyada ilmiy yo'nalish strukturaviy yo'nalish (yoki oddiy aytganda funksionalizm) paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning asoschilari bo'lib, E.Dyurkgeym, A.R.Redkliff-Braun (1881-1995) va boshqa tadqiqotchilar bo'lishgan. Bu ilmiy maktab turli holatlarda kishi o'zini qanday tutishi to'g'risidagi normalarni tadqiq qilishni boshladi. Funksionalizm rol deb ataladigan institusional normalar muammosiga asosiy e'tiborni qaratdi. Funksionalistlar fikricha, sotsiologiyada sotsial taxlilning birligi harakat qilayotgan individ emas, balki roldir. Turli guruhlardagi har bir kishi qandaydir ma'lum maqomga ega bo'ladi. Bu maqomlarda hatti-harakat namunalari ko'rsatilgan bo'ladi. Bunda individ a'zo bo'lgan guruh individdan ushbu namunalarga mos keladigan xatti-harakatni kutadi. Shu asosda biz otaning, onaning, do'stning roli to'g'risida gapirishimiz mumkin.

Shunday qilib, sotsial rolni guruh o'z a'zolaridan kutayotgan qat'iy ko'rsatilgan namunalarga muvofiq chiqadigan, hatti-harakatlarning nisbatan doimiy va ichki aloqali tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Agar biz mazkur tushunishdan kelib chiqadigan bo'lsak, individning hatti-harakat rolini insonning turli sotsial birliklarda bajarayotgan funksiyasidan kelib chiqib tahlil qilish mumkin. Shuning uchun amerikalik olimlar Jan Moreno (1892-1974) va Robert Merton (1910) shaxsni individ jamiyatda bajaradigan sotsial rollar majmuining funktsiyasi sifatida ta'rifladilar²⁸.

Rollarni amalga oshirish jarayoni ko'pgina omillarga bog'liq:

-insonning biopsixologik imkoniyatlari. Ular u yoki bu sotsial rollarni bajarishga imkon berishi yoki imkon bermasligi mumkin.

-ideal xususiyatlar kompleksini belgilaydigan shaxs o'rnaklari. Individ bu o'rnaklarni rollarni bajarish chog'ida, hamda individdan guruh kutayotgan hatti-harakatning ideal usullarni namoyon etishi kerak.

-guruh tomonidan qabul qilingan rollar va sotsial nazorat xarakteri.

-guruh strukturasi, uning mustahkamligi va individning o'sha guruh bilan mos kelish darajasi.

Garchi sotsial rol sotsiologik tahlilning yagona birligi deb hisoblanmasada, (chunki u individdarning o'zaro harakatidan kelib chiqadi) lekin rol jamiyatdagi institusional munosabatlarni o'rganishda juda foydali hisoblanadi.

Shaxs konsepsiyasidan interaksionistik yondoshuv metodologik prinsiplarga asoslanadi. Bunga binoan na shaxs omillari, na tashqi muhit, agar ularni alohida qaraladigan bo'lsa, inson xatti-xarakatini to'la darajada tushuntirib bera oladi. Inson xatti-harakatining asosiy determinantlari (belgilovchilari) sifatida bu omillar o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir namoyon bo'ladi. O'zaro harakat jarayoni olimlar tomonidan har doim bir xil tushunilmaganligidan, interaksionizm doirasida cheklangan qo'llash nazariyasi deb ataladigan bir nechta turli yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Nemis-amerika psixologi K.Levin (1890-1947) 1936 yilda shaxsning muhit bilan o'zaro harakati prinsipga muvofiq u muhitni fizik (tabiiy) va psixik muhitlarga bo'ladi. Levin fikricha, xatti-harakat na o'tmishga, na kelajakka bog'liq, u hozirgi muhitga bog'liq bo'ladi. Levinning aytishicha, tabiiy va sotsial muhit

²⁸ Мертон Р.К. Социальная структура и аномия //Социс.1992,N-7-8-9.

sub'ekt uchun psixologik fenomenlar ko'rinishida real namoyon bo'ladi. Shuning uchun har xil individlar uchun ob'yektiv muhit uning shaxsiy muhimligidan qat'iy nazar turli tuman bo'ladi. Bu erda psixologik reallik shaxsning muhit bilan o'zaro harakatida ko'proq ahamiyatga ega.

Amerikalik sotsiolog Ye.Merreyning shaxs konsepsiyasida individning muhit bilan o'zaro ta'sir muammosi tahlil qilinadi

Merrey muhitning xossasini "bosim, tazyiq" tushunchasi bilan belgilaydi. Shaxsning muhit bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilishda asosiy birliklar bo'lib, ehtiyojlarning turli birikuvlari va sotsial muhitning ta'siri hisoblanadi.

Interaksionalizm g'oyasi shaxsning bixeviorizm va psixoanalitik nazariyalarida har xil namoyon bo'ladi. Bixevioristik maktabda interaksionizm g'oyalari amerikalik psixolog E.Tolmenning shaxs konsepsiyasida bayon qilingan. Bixeviorizmning ortodoksol tizimida "anglash (yoki pognetiv) kartalari" tushunchasi kiritilgan. Uning mohiyati shunga asoslanadiki, har bir shaxs muhitdan kelib chiqadigan stimullarga nafaqat mexanik ravishda javob qaytaradi, hamda ularni "karta maydoni" tajriba asosidagi shakllangan ongdagi stereotiplar bilan solishtiradi. Shunga muvofiq, inson muhit bilan o'zaro ta'sirda faollik va hatti-harakatning shaxsiy elementini yuzaga keltiradi.

Tolmenning fikrlari "haqiqiy" bixeviorizmning kognetiv psixologiya bilan ajralishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning psixoanalitik kontsepsiyasi Z.Freyd fikrlarida yaqqolroq ifodalangan. Z.Freyd individ va jamiyat o'zaro ta'siri jarayonini sosio sosiopsixologik konflikt sifatida, shaxsni esa irrasional, g'ayriixtiyoriy mayllarining ansambli (uyg'un birlik) sifatida qaraydi²⁹. Freyd fikricha, sivilizatsiya o'zining taqiqlari va sanksiyalari bilan, bir tomondan, katta manfaat va zaruriyatdir, aks holda insoniyat instinktlarga bo'ysunib, yashay olmagan bo'lardi.

Umuman shuni aytish mumkinki, shaxs konsepsiyasining zamonaviy interaksionizmi shakllanish pallasida turibdi, turli konsepsiya va nazariyalarning ta'sirini boshdan kechirmoqda.

Shaxs termini turli mualliflar tomonidan har xil tahlil etiladi. Shaxsga berilgan hamma ta'riflar 2 ta bir-biriga qarama-qarshi nuqtai nazarlar bilan u yoki bu darajada asoslanadi. Bir nuqtai nazar bo'yicha, har bir shaxs o'zining tug'ma sifatleri va qobiliyatlariga muvofiq shakllanadi va rivojlanadi. Sotsial muhit bu holatda juda ham kam rol o'ynaydi. Boshqa nuqtai nazar vakillari shaxsning ichki xususiyatlari va qobiliyatlarini to'laligicha inkor etishadi. Ularning fikricha, shaxs bu sotsial tajriba davomida to'laligicha shakllanadigan qandaydir mahsuldir. Ko'rinib turibdiki, shaxsning shakllanish jarayonidagi bu fikrlar unchalik absolyut to'g'ri emas. Fikrimizcha, shaxsni tahlil qilishda, ham tug'ma biologik xususiyatlarni, ham sotsial tajribani hisobga olish kerak. Shu bilan birga amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, shaxs shakllanishida sotsial omillar ko'proq ahamiyatga ega. V.Yadov fikricha, "Shaxs - bu inson sotsial xususiyatlarining butunligi, ijtimoiy rivojlanish mahsuli va individni aktiv faoliyati va muloqoti

²⁹ Фрейд З. Психология бессознательного. (перевод) М. Просвещение, 1990, 447-448.

vositada sosial munosabatlar tizimiga qo'shilishidir»³⁰. Bu qarashga muvofiq, shaxs biologik organizmdan faqatgina sotsial va madaniy tajriba tufayli rivojlanadi. Bunda shaxs xususiyatlarining shakllanish jarayoniga sezilarli ta'sir etadiki, shaxsdagi tug'ma qobiliyatlar, temperament va mayllar inkor etilmaydi.

Shaxs xususiyatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini tahlil etish uchun shaxsning shakllanishiga ta'sir etadigan omillarni quyidagi tiplarga bo'lamiz:

- 1) biologik irsiyat
- 2) tabiiy muhit
- 3) madaniyat
- 4) guruh tajribasi
- 5) ulkan individual tajriba

Bu omillarning shaxsga ta'sirini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Biologik irsiyat; G'ishtli uyni toshdan qurish mumkin emas, ammo ko'p g'ishtlardan uyni, buning ustiga turli ko'rinishda qurish mumkin. Har qanday kishining biologik irsiyati xom-ashyo materiallarini etkazib beradi, ular keyinchalik har xil usullar bilan inson zoti, individ, shaxsga aylanadilar.

Hayvonlarning ko'pgina turlaridan farqli ravishda inson mavjudoti yilning hamma vaqtida jinsiylikni namoyon etadi, bu esa ko'proq yoki ozroq darajada bolalar tug'ilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bola tug'ilganda yordamga muhtoj bo'ladi va hayotining dastlabki yillarid shunday holda qoladi. Bu kabi biologik faktlar insonlar sotsial hayotiga asos soladi. Biologik irsiyat xususiyatlari havo, suv, ovqat, uyqu, xavfsizlik singari ehtiyojlarni o'z ichiga oladigan insonning tug'ma ehtiyojlari bilan to'ldiriladi. Agar sotsial tajriba asosan inson ega bo'lgan o'xshash umumiy xususiyatlarni tushuntirib bersa, biologik irsiyat ko'pincha shaxsning individualligini, uning boshqa jamiyat a'zolaridan dastlabki farqini tushuntirib beradi. Shu bilan birga, guruhiy farqlanishni endi biologik irsiyat tushuntirishi mumkin emas.

Shu asosda biologik irsiyat shaxsni to'laligicha yarata olmaydi, chunki na madaniyat, na sotsial tajriba genlar orqali o'tadi. Ammo biologik omilni hisobga olish lozim. Chunki u birinchidan, sotsial jamoalar uchun cheklashlar (yordamga muhtoj go'dak, suv ostida uzoq tura olmaslik, biologik ehtiyojlar majmui va hokazo) yaratadi, ikkinchidan, biologik omil yordamida temperament, xarakter, qobiliyatlarining cheksiz turli ko'rinishlari paydo bo'ladi, ular har qanday kishi shaxsida individuallik, ya'ni takrorlanmas ulkan siymo vujudga keltiradi.

Tabiiy muhit; Ko'pgina olimlar shaxsning rivojlanishida tabiiy muhitga asosiy e'tibor qaratadilar. Mashhur sotsiolog P.Sorokin 1928 yilda chop etilgan asarlarida ko'pgina olimlarning – Konfutsiy, Aristotel, Gippokratdan tortib o'ziga zamondosh bo'lgan geograf Elmiot Xantingtonlarning nazariyalarini boyitdi. Bu olimlarning fikri bo'yicha, shaxslar xulqidagi guruhiy farqlar asosan iqlimdagi farqlar, jug'rofiy xususiyatlar va tabiiy resurslar bilan belgilanadi. Bu toifa olimlar qatorida faylasuf Plexanov va tarixchi A.N.Gumelyovlarni kiritish mumkin. Bu tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariya etnomarkaziy, milliy ongni oqlash uchun yaxshi asos hisoblanadi. Lekin tabiiy omilning shaxs rivojlanishidagi asosiy

³⁰ Социология.Словар справочник. М. 1990. Т 2. с-71

ta'sirini oqlab ololmaydi. Haqiqatdan ham bir-biriga o'xshash tabiiy va jug'rofiy sharoitlarda shaxsning turli tiplari shakllanadi va aksincha ko'p hollarda o'xshash guruhiy xususiyatga ega shaxslar turli tabiiy muhit sharoitlarida rivojlanadi.

Bunga bog'liq ravishda tabiiy muhit sosial guruhning madaniy xususiyatlariga ta'sir etishi mumkin, lekin uning alohida shaxs shakllanishdagi ta'siri unchalik emas va shaxsga guruh madaniyatining, guruhiy yoki individual jarayonning ta'siri bilan solishtirib bo'lmaydi.

Madaniyat; Sotsial muhit; Insonni o'rab turgan guruh, insonlar, madaniyat, urf-odat, din, iqtisodiy holat va b. nazarda tutiladi. Eng avvalo shuni aytish lozimki, ma'lum madaniy tajriba butun insoniyat uchun umumiy hisoblanadi va u yoki bu jamiyatning rivojlanishining qay darajasida turganligiga bog'liq emas. Masalan, har bir bola yoshi bo'yicha o'zidan katta kishilardan ovqat oladi, til orqali muloqot qilishga o'rganadi, jazo va mukofot qo'llash tufayli tajribaga ega bo'ladi va hamda bir qancha boshqa umumiyroq madaniyat namunalarini o'zlashtiradi. Shu bilan birga har bir jamiyat amalda o'zining hamma a'zolariga ma'lum o'ziga xos tajriba, boshqa jamiyat bera olmaydigan muhim madaniyat namunalarini hadya etadi. Mazkur jamiyatning hamma a'zolari uchun bir xil sosial tajribadan o'sha jamiyatning ko'p a'zolari uchun xos bo'lgan shaxs qiyofasi paydo bo'ladi. Masalan, musulmon madaniyati sharoitlarida shakllangan shaxs xristian davlatida tarbiyalangan shaxsga nisbatan boshqa xususiyatlarga ega bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchi K.Dyuboyshaxsni mavjud jamiyat uchun umumiy xususiyatga ega modallik deb atadi. ("moda" statistika terminidan olingan uzunlikni bildiradi, u ob'ekt parametrlari qatorida ko'p uchraydi). Modal shaxs deganda Dyuboysh butun jamiyat madaniyatiga xos bir qancha fazilatlariga ega bo'lgan ko'p uchraydigan shaxs tipini tushunadi. Shunday qilib, har bir jamiyatda o'rtacha rasm bo'lib qolgan xususiyatga ega shaxslarni topish mumkin. Modal shaxs o'zida madaniy tajriba davomida jamiyat o'zining a'zolariga singdirgan hamma umummadaniy qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Bu qadriyatlar ko'proq yoki ozroq darajada mazkur jamiyatning har bir shaxsida mavjud bo'ladi.

Guruhiy tajriba; Insonning biror guruh a'zosi sifatida oladigan tajribasi tushuniladi.

Individual tajriba deyilganda kishining o'z hohish irodasi, intilishi qiziqishi orqali egallaydigan hayotiy tajribasi nazarda tutiladi.

Sotsializatsiya so'zi ijtimoiylashuv ma'nosini anglatadi. Sotsializatsiya jarayoni insonning jamiyatga qo'shilishi uchun jamiyatda mavjud bo'lgan va shakllangan hatti-xarakterlar, me'yorlar, qadriyatlar, madaniyat, din, tarbiya, bilim va malakalarni, urf-odatlarini o'ziga singdirib borishi va o'zlashtirishiga aytiladi. Sotsializatsiya murakkab jarayon hisoblanadi va insonning butun umri davomida sodir bo'ladi. Bu jarayon 2 davrga bo'linadi:

1. Adaptatsiya – shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan voqelikka ko'nikishi yoki moslashishi;

2. Interiorizatsiya – shaxsning o'z hoxishi, intilishi va irodasi orqali jamiyatga qo'shilishi.

Sotsiologiyada sotsializatsiya davrlariga yana 2 yondoshuv mavjud.

1-yondoshuv. Sotsializatsiya jarayoni 3 davrga bo'linadi:

1. mehnatgacha bo'lgan davr
2. mehnat davri
3. mehnatdan keyingi davr.
- 2-yondoshuv. Sotsializatsiya jarayoni quyidagi davrlarga bo'linadi:
 - 1-davr – go'daklik davri (1 yoshdan 4 yoshgacha)
 - 2-davr – bolalik davri (4 yoshdan 10 yoshgacha)
 - 3-davr – o'spirinlik davri (10 yoshdan 13 yoshgacha)
 - 4-davr – o'smirlilik davri (13 yoshdan 18 yoshgacha)
 - 5-davr – mehnat davri
 - 6-davr – mehnatdan keyingi-nafaqa davri

Sotsiologiyada shaxs haqida turli nazariyalar mavjud. Ulardan:

-Ch.Kulining “Ko'zgidagi “Men”” nazariyasi. Ushbu nazariya 3 tamoyilga asoslanadi:

1. Shaxs ma'lum hatti-harakatni amalga oshiradi.
2. O'sha xatti-harakatga kishilar reaksiya bildiradi.
3. Shaxs shu reaksiyaga ma'qul keladigan hatti-harakatlarni amalga oshiradi.

5.2. Deviant so'zi - lotincha “deviatio” so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi³¹. Deviant xulq-atvor - mavjud jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy xodisadir. Deviant xulq-atvor - jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichqilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Deviant xulq deganda, quyidagilar nazarda tutiladi:

a) jinoyatchilik. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

b) ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud: 1) Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish. 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish - spirtli ichimliklarni muntazam, ya'ni xaftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p miqdorda (200 ml. dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm - spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

v) giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga doimiy ro'ju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvoriga quyidagicha ta'rif beradi: “Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir”.

³¹ Xolbekov A., Idivov U., Sotsiologiya. Lug'at. – T. Ibn Sino, 1999.

Deviant xulq-atvor yozilgan va yozilmagan me'yorlarga mos kelmaydigan har qanday xatti-harakat va faoliyatni nazarda tutadi. Ayrim jamiyatlarda an'analardan chetga chiqish jiddiy xato, nojo'ya ish kabi keskin qoralangan. Masalan, ayrim jamiyatlarda inson sochining uzunligi ham, ko'rinishi ham, xulq-atvori ham nazorat ostida bo'ladi.

Deviatsiyaga qarshi kurash aksariyat holda his-tuyg'ular, fikr va hatti-harakatlar turli-tumanligiga qarshi kurashga aylangan. Odatda, bu narsa hech qanday natija bermagan, ya'ni deviatsiya yanada yorqinroq ifodalanishi mumkin. Masalan, 80-yillarda yoshlar G'arb modellariga taqlid qilgan, jamiyat bunga qarshi hech narsa qila olmagan.

Ko'p jamiyatlarda deviant xulq-atvor nosimmetrik bo'ladi: yomon tomonga og'ish qoralanadi, yaxshi tomonga og'ish qo'llab-quvvatlanadi. Jamiyatda odamlarning aksariyat qismi deviant bo'lishi mumkin (bunga o'g'rilar ham, aldanganlar ham, ishga kechikkan, avtobusda bilet olmagan, mumkin bo'lmagan yerda sigaret chekkanlar ham kiradi). Bunday sharoitda me'yordan chetga chiqish miqdori yoki shakliga e'tibor berish kerak. Deviant xulq-atvor turlari ko'p bo'lib, ularga oddiy, elementar tartib buzishdan tortib katta jinoyatlargacha kiradi.

Ma'lumki, zamonaviy G'arb sosiologiyasida deviant xulq-atvorga turlicha qarashlar mavjud. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan va jamiyatda yaqqol namoyon bo'lish turi jinoyatchilik bo'lib, ijtimoiy me'yorning buzilishi sifatida ushbu xodisa fanda juda qadimdan o'rganilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib pozitivistik maktab shakllanishi bilan, jinoyatchilikni ham sababiylikda o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. Jumladan, italiyalik psixiatr Ch. Lombrozo Italiya qamoqxonalariidagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, "jinoyatchilar tug'ma bo'lishadi" degan xulosaga kelishadi. Uning shogirdi E.Ferri jinoyatchilik sosiologiyasi asarida ushbu omilga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Keyinchalik ushbu ta'limotlar turli tanqidlarga uchragan bo'lsada, hozirgi kungacha ham G'arb sosiologiyasining ba'zi namoyondalari ushbu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda.

Ushbu ta'limotlarga qarama-qarshi o'laroq, sotsiologiyada ijtimoiy me'yor buzish jarayonlarini to'la ijtimoiylikda tushuntiruvchi dastlabki ta'limot E.Dyurkgeymning anomiya³² g'oyasi edi. Bunga ko'ra eski me'yorlar va qadriyatlar mavjud munosabatlarga mos kelmay qolishi va yangiliklarining o'rnatilmaganligi natijasida individlar xulq-atvorini tartibga soluvchi qat'iy axloqning mavjud emasligi tushuniladi.

Deviatsiyaning sabablari nimada? Zamonaviy sotsiologiyada jamiyatning maqsadlari va shu maqsadlarni amalga oshirishning ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan vositalari o'rtasidagi uzilish deviatsiyaga olib keladi, deb hisoblanadi. Amerikalik sotsiolog R.Merton bunga muvofiq; ravishda jamiyatga moslashish deb hisoblangan hatti-harakat turini ajratib ko'rsatadi³³.

³² Дюркгейм Э. Самоубийство. Социологический этюд. СПб. 1994.

³³ Мертон Р.К. Социальная структура и аномия. // Социс .1992, 2-3-4 с

Merton buni amerikaliklarning boylikka ega bo'lishi maqsadlari muammosini tahlil qilish orqali tushuntiradi. Uning fikricha, hatti-harakatning quyidagi turlari mavjud:

1) konformlik – madaniy maqsadlar va vositalarga muvofiqlik, ya'ni boylikka ega bo'lish uchun ishlash, o'qish, biznes qilish yoki me'ros olish kerak;

2) innovatsiya – maqsadlarni tan oladi, lekin shu maqsadga erishishning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadigan vositalarini inkor etadi (reket, narkotik sotish, o'g'rilik kabilar);

3) ritualizm – maqsadni inkor etib, shu maqsadga erishishning jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan vositalarini ma'qullaydi (byurokratizm, rasmiylikni mutlaqlashtirish);

4) isyon – hukmron maqsad va vositalardan begonalashuv hamda yangi maqsad va vositalarning shakllanishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy me'yorlarning buzilishi jiddiy, nojiddiy, ongli yoki anglanmagan holda bo'lishi mumkin. Qonunga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakat toifasiga kiruvchi ongli yoki anglab etilmagan barcha jiddiy hatti-harakatlar *delinkvent* deyiladi.

Deviant va delinkvent hatti-harakat quyidagicha farqlanadi: deviant hatti-harakat nisbiy, delinkvent hatti-harakat mutlaq bo'ladi. Jinoyatlarga o'g'rilik, firibgarlik, vandalizm, sanoat josusligi, qimor o'ynash, o't qo'yish, qalbaki hujjatlar tayyorlash, poraxo'rlik kabilar kiradi. Delinkvent xatti-harakat mamlakatdagi qonunlarga nisbatan mutlaq bo'ladi.

E.Saterlendning differensial, katta o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvorga, shu jumladan me'yor buzuvchi xulq-atvorga ham u ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor me'yorlari boshqalarga o'rgatiladi.

5.3. Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarni paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular: 1) Irsiy omillar; 2) Psixofiziologik omillar; 3) Shaxsning bilim darajasi.

Shuningdek, ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iyatli yoki qat'iysizligi, prinsipiiallik yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, biron bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijoz ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy buzilishlarni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub'yektdan echimini talab qiladi, uning echimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsada, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shaxslar yoki guruhlarning manfaatlari bir-birlariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda

ta'kidlab o'tish joizki, o'z joniga qasd qilishlarning 40%i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarni yuzaga kelishida ba'zan shaxs xususiyatlari sababchi bo'lsa, ba'zan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi a'zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sababchi bo'ladi.

Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning to'rtta asosiy holati ko'zga tashlanadi: 1) hech qanaqa muammo yo'q holat, bunday holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi; 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsada, uning echimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat; 3) mavjud muammoni sub'yekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat; 4) muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi.

Muammoli holatning mazmuni sub'yektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo'lgan vositalari orasidagi; faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo'shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek ijtimoiy me'yor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko'pincha o'ylab chiqarilgan) paydo bo'lishidan iboratdir.

Me'yor buzilishlar tizimida ijtimoiy ta'sir jihatlaridan farqlanuvchi qadriyatlarni ajratib tahlil etish o'rinlidir. Ijtimoiy ma'naviy zarar darajalarini pastligi va yuqoriligiga ko'ra deviant holatlarning tavsiflanishi ijtimoiy-huquqiy ahamiyatiga ko'ra qonunlar tizimi hamda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillar orqali amalga oshiriladi. Ushbu tavsiflanish bir necha faktorlarga: deviant xulq-atvoriga munosabat bildirayotgan kishiga, qonunbuzuvchining shaxsiga, me'yor buzilish yuz bergan konkret holatga, qonun buzilish va boshqa sharoitlarning o'ziga xosligiga hamda ahamiyatiga bog'liq bo'ladi.

Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvoriga nisbatan ijtimoiy fol munosabatlarini tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'рни va roli kattadir. «Ba'zilarga mumkin - boshqalarga mumkin emas», «hozir yaxshi - ertaga yomon» va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda havflidir. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vaqillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichqilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolar - bularning barchasi sub'yekt ruhiyatini

jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi.

Bularning ikkinchi farqli jihati yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib bo'lsada, to'g'ri echimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'yekt «qurbon» bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'yekt «o'rinbosuvchi» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunaqa holatlarning keyingi farqi shundaki, ko'pincha sub'yekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda, bundan «qutulishning» noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi faktorga olib keladi.

Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatning va atrofdagi odamlarning qat'iy nazorati ostida amalga oshadi. Insonlar bolalarni faqat o'rgatibgina qolmasdan, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili (agenti) vazifasini bajarishadi.

Agar nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi va agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu - oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Inson hatti-harakati, xulq-atvori va faoliyatini ta'lim muassasalari, maxalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa, qonunni muhofaza qilish organlari (sud, prokuratura, militsiya) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi.

Keyingi yillarda yurtimizda oila haqida sog'lom avlod haqida o'ylash, oilani mustahkamlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, yurtboshimiz tomonidan 1998 yilni "Oila yili" deb e'lon qilinishi fikrimizning isbotidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" asarida shunday fikrlar yuritadi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng

muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi³⁴.

5.4. Ijtimoiy me'yorlar – jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga mos-lashtiruvchi qoidalar majmuyidir. Me'yorlar xulq-atvorning chegarasi, shart-sharoiti, shaklini munosabatlar xarakteri va unga erishish maqsad hamda usullarini belgilaydi. Me'yorlar xulq-atvorning umumiy tamoyillari va uning konkret parametrlarini belgilagani uchun ham boshqa qadri-yatlarga qaraganda keraklilik, darkorlikning to'la modeli, o'lchovini berishi mumkin.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari bo'yicha O'zbekistonda ko'plab ishlar qilingan. Deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarini respublikamiz olimlari o'z tadqiqot obyekti doirasida o'rganganlar. Respublikamiz faylasuflaridan X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ta'siri masalalari), sotsiolog M.B. Bekmurodov (ijtimoiy me'yorlarga jamoatchilik fikrining ta'siri ja-rayonlari), huquqshunoslardan A.Qulahmetov, Y.Karakterov, M.Usmonali-yev (jinoyatchilikning umumiy jihatlari va o'smirlar jinoyatchiligi masalalari), psixolog olimlar G'.V.Shoumarov, N.A.Soshnov, S.A.Axunjonova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M.Umarov (o'z joniga qasd qilish va jino-yatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari), pedagog-olimlardan O.Musurmonova, D.J.Sharipovlarning (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin.

Me'yorning buzilishi ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan aniq salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham, me'yorlar deviatsiyaga qarshi kurash vositasi, tartib o'rnatish hamda ijtimoiy barqarorlik vositasi bo'ladi.

Me'yorlar muayyan xulq-atvoriga bo'lgan talab oqibatida vujudga ke-ladi. Ijtimoiy reallik va talablarning turli-tumanligi me'yorlar turli-tuman-ligini keltirib chiqaradi. Me'yorlarni turli asoslarga tayanib tasnif qilish mumkin. Sotsiologiya uchun me'yorlarni subyektga, shu me'yorni tashuv-chilarga ko'ra ajratish katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, umu-minsoniy me'yorlar, jamiyat, guruh va jamoa me'yorlarini ajratib ko'rsa-tishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ushbu me'yorlar uzviy bog'liq va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sotsiologiya ijtimoiy me'yorlarni quyidagicha tasniflaydi:

Obyektga yoki faoliyat sohasiga ko'ra munosabatlarning muayyan turida amal qiluvchi me'yorlarni ajratish mumkin. Bular – siyosiy, iqtisodiy, estetik, diniy va boshqalardir.

Mazmuniga ko'ra mulkiylik munosabatlarini tartibga soluvchi, shaxs-ning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, muassasalar faoliyati hamda davlatlararo o'zaro munosabatlarni muayyan tartib-qoidalarga bo'ysun-diruvchi me'yorlar bo'lishi mumkin.

Me'yoriy – qadriyatlar iyerarxiyasidagi o'rniga ko'ra asosiy va ikkin-chi darajali, umumiy va konkret me'yorlar.

Tashkil bo'lish va qayd etish shakliga ko'ra qat'iy belgilangan, qat'iy qayd

³⁴ Karimov I.A.Barkamol avlod orzusi.T.,”Sharq” nashriyot –matbaa kontserni 1999, 8-bet

etilgan va o'zgaruvchan, egiluvchan me'yorlar.

Qo'llanish ko'lamiga ko'ra me'yorlar umumiy va mahalliy me'yorlarga bo'linadi.

Ta'minlanish usuliga ko'ra ichki ishonch, jamoatchilik fikri yoki majburlash, davlat apparati kuchiga tayanuvchi me'yorlar.

Funksiyasiga ko'ra baholovchi, yo'naltiruvchi, nazorat qiluvchi, jazolovchi, rag'batlantiruvchi me'yorlar.

Barqarorlik darajasiga ko'ra ijtimoiy ko'nikmalar, urf-odatlar, an'analarga tayanuvchi va aksincha, shunday asosga ega bo'lmagan me'yorlar.

Aksariyat hollarda ijtimoiy me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy sanksiyalar yordamida tartibga solinadi. Me'yordan chetga chiqishning epizodik shakllari kishilar orasidagi o'zaro ta'sir tartibining buzilishi bilan bog'liq va jamoatchilik fikri tomonidan qayd etiladi va o'zaro ta'sir ishtirokchilari tomonidan tahrir qilinadi. Ijtimoiy me'yordan chetga chiqishga qarshi kurash usuli va vositalari ijtimoiy ong va hukmron elita tomonidan chetga og'ish qay darajada xavfli ekanligiga qarab, belgilanadi.

Ko'pincha, ijtimoiy me'yordan kuchli chetga og'ish tizimning rivojlanish vositasi bo'ladi va u konservativ va reaksiyon xulq-atvor standartlaridan voz kechishga yordam beradi, ya'ni pozitiv o'rin tutadi.

Deviant xulq-atvor nazariyasida ijtimoiy me'yor markaziy o'rin tutar ekan, avvalo ijtimoiy me'yorning o'zi nima va uning qanday turlari mavjudligini shuningdek, deviant xulq-atvorning eng ko'p uchraydigan va yaqqol namoyon bo'ladigan turlari; jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik nima ekanligini aniqlab olishimiz kerak.

Ijtimoiy me'yor - jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum shart-sharoitlarda shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorining moslashishi vositalaridan biri va ularning xulq-atvorlarini jamiyat tomonidan nazorat qilish vositasidir.

Ijtimoiy me'yorning bir qancha turlari mavjud;

1. Huquq. Individda nisbatan ob'yektiv, tashqi uning xulq-atvorini boshqaruvchi qoidalar tizimi. Har qanday jamiyatda huquq xukmron tabaqa demokratik ko'pchilik yoki butun xalqning yagona irodasini namoyon etuvchi va shu sababli hech qanaqa o'xshatmasi yoki muqobili bo'lmagan yagona me'yorlar majmuidir.

2. Axloq. Etika mutaxassislarining fikricha, umumiy va xususiy manfaatlarining moddiy determinatsiyalashgan qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Insonning o'zini takomillashtirish va o'z imkoniyatlarini rivojlantirish qobiliyatlarini anglatadi. Huquqdan farq qilib, axloq birinchidan, baholash vazifasini bajaradi (yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz), ikkinchidan, uning me'yorlari birinchi navbatda nomus, burch, vijdon, adolat va shu kabi tushunchalarni mujassamlashtirgan ichki ruhiy kechinmalar orqali faoliyat yurgizadi.

3. Urf-odatlar. Ushbu me'yoriy tizim xulq-atvorning erkin moslashuvchi, shu sababli odatga aylangan tarixiy shakllangan namunalari, asosan kishilarning

birga yashash qonuniyatlarini ifodalaydi. Axloqiy me'yorlardan farq qilib, urf-odatlar aniq va bir xil, ba'zan to'la shakllangan ko'rinishga ega bo'ladilar.

4. Diniy me'yorlar. Ushbu tizim juda qadimiy bo'lib, diniy ta'limot tavsifiga ko'ra diniy me'yorlar ham turlicha bo'ladi. Shuningdek, mazmuniga ko'ra diniy me'yorlar turli, huquqiy, axloqiy, urf-odat, estetik va tashkiliy me'yorlarni o'z ichiga oladi va shu sababli ko'pincha yuqoridagi me'yoriy tizimlarning har birining boshqaruv xususiyatlarini qamrab olishi mumkin. Diniy me'yorlar ichki ta'qiqlar bilan birga tashqi ta'qiqlar orqali ham ta'sir qiladi. Tarixiy tajribada, hamda hozirgi jarayonlar, ayniqsa islom davlatlarida aksariyat diniy me'yorlar dindorlar uchun kuchli ta'sir vositalari hisoblanib, ularni turli jinoyatlar, fohishabozlik va ichkilikbozlik kabi illatlardan saqlab turuvchi vosita ekanligini ko'rsatmoqda.

Deviant xulq-atvorni fanda turlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda ushbu jarayonlarni turlicha tasniflash mavjud bo'lib, shulardan biri ularning ham ob'ektiv ham sub'ektiv tomonlari bilan bog'liq bo'lgan tasniflashdir. Bunga ko'ra deviant xulq-atvor turlari 2 guruhga bo'linadi;

a) tashqi muhitga yo'naltirilgan xulq-atvor (ekstravertiv (masalan, jinoyatchilik));

b) shaxsning o'ziga yo'naltirilgan xulq-atvor (intravertiv (masalan, ichkilikbozlik)).

Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muxitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlari ham mavjud bo'lib, sosiologiyada bu narsa «deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq-atvorni «deviant xulq-atvor» deb nomlanadi.

Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning og'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir.

Ma'lumki, ijtimoiy me'yorlar va ulardan chekinishlar haqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaktida paydo bulgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Ushbu «qonunlar»da barcha huquqlar insonga xudolar tomonidan beriladi va qonun buzuvchilarni xudolar jazolaydi, deb hisoblangan. Bunday qarashlar dastlab yunon va Rim faylasuflari asarlarida o'z ifodasini topdi.

O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada xukmronlik qilgan bo'lsa, sharq dunyosida axlokiy-huquqiy me'yorlar va ular xaqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi.

XVII-XVIII asrlarga kelib, Yevropada jamiyat rivojining kuchayishi, axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh.L. Monteskye, J.J. Russo, Ch. Bekkaria, K. Gelvesiy, D. Didro, P. Golbax, Morelli va Sh. Furyelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intildilar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sosiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot, E.Dyurkgeymning «anomiya» g'oyasi edi. E. Dyurkgeym fanga o'zi kiritgan «anomiya» atamasi orqali qonunchilikni, qonunlarni tan olinmasligi va ularga amal qilinmaslikni tushunadi. Bu g'oyani zamonaviy ilm-fanda P.Solis, M.Klaynerd va boshqalar rivojlantirib kelishmoqda.

Qisqacha xulosalar:

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" asarida shunday fikrlar yuritadi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, his etadi.

Inson hatti-harakati, xulq atvori va faoliyatini ta'lim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa, huquqni muhofaza etuvchi organlar (sud, prokuratura, milisiya) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Shaxs tushunchasi turli fanlarda qanday tadqin qilingan?
2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aytib bering?
3. Shaxs to'g'risidagi asosiy sosiologik nazariyalar ayting?
4. Jamiyatda korrupsiya muammosini izohlang.
5. Ijtimoiy me'yorlar nimalar?
6. Deviant xulq-atvor nima?
7. Deviant xulq-atvorning turlari qaysilar?
8. «Anomiya» atamasini izohlang.
9. Shaxs xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
10. Muammoli vaziyatni tushuntirib bering.

11. Oilaning ijtimoiy nazoratdagi o'rni.
12. Ijtimoiy nazoratda mahallaning roli qanday?

6– MAVZU: JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKASION JARAYONLAR

REJA:

- 6.1. Sotsial struktura tushunchasi**
- 6.2. Sotsial stratifikasiya va sotsial harakatchanlik..**
- 6.3. Sotsial harakatchanlik (sotsial mobillik)to'g'risidagi mutafakkirlarning qarashlari**
- 6.4. Migratsiya va uning tarixiy shakllari.**

Tayanch iboralar

Ijtimoiy strata, jamiyat a'zolarining mulki, kasb, irq, millat, jins, hudud, mayl, maqsadlar, didlar asosida bo'lingan alohida uyushmasi, konsensus, murosa, olamiy uyg'unlik, yaxlit bir butunlik, sotsial mobillik, strukturaviy sosial mobillik, emigrasiya va migrasiya, gorizontal sotsial mobillik, individual mobillik, mehnat va iqtisodiy migratsiya, tabaqalashuv.

6.1. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz har bir siyosiy tarixiy davrda aholini tabaqalarga bo'lish orqali boshqarish, jamiyat tarkibida sinflar, strata, ijtimoiy guruhlarning bo'lishi kabi ijtimoiy hodisalariga duch kelamiz. Qadimiy Misr va Vavilonda aholi zodagonlar va qullarga, Afina va Rimda fuqarolar va plebeylarga, Hindistonda braxmanlar va xizmatkorlarga ajratilgan. Qadimgi Turon mamlakatida asosan aholini:

- a) Urug' qabilaviy kelib chiqishidan;
- b) Kasbiy mansubligidan;
- v) diniy e'tiqodiy qarashlaridan;
- g) shajaraviy sulolaviy kelib chiqqan holda tasnif etib kelingan.

Turon tarixidan ma'lumki, jamiyatni ana shunday tasnif etish har bir ijtimoiy guruh, strataning ijtimoiy o'rni va rolini ob'ektiv baholash, ulardan samarali foydalanish, umumdavlat miqyosida ularning murosaviy konsensusini ta'minlash, siyosiy boshqarish imkonini bergan.

Jamiyatni o'rganish tamoyillari, ijtimoiy iqtisodiy vokelikka yondashuv xususiyatlari doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib boradi. Totalitar tuzum davrida ijtimoiy taraqqiyotning bosh sababi sinflararo kurash deb qaralganligi sababli jamiyatdagi muammolarga umumiy yondashib, bir sinf vakillari bilan ikkinchi sinf vakillari qarashlaridagi tafovutni aniqlash barcha ijtimoiy fanlar xususan sosiologiyaning ham asosiy ilmiy tadqiqot tamoyillaridan hisoblanib kelingan.

Jamiyatning tinchlik sharoitida mo'tadil va odatiy holatlardan barcha ijtimoiy ziddiyatlarni asosan muayyan sinflar, urug' va tabaqalar ichidagi qarama-qarshiliklar tarzida namoyon bo'lib keladi.

Bunday yondashuv aholini ma'naviy zabun qilar, o'z haq-huquqlari uchun kurash, o'zlikni muhofaza etish, o'zgalarga kerakli bo'lishdan ijobiy fazilatlar rivojiga yo'l bermasdan, surbetlik, boqimandalik, yalqovlik, ijtimoiy mulkka nisbatan yulg'ichlik xususiyatlarini tarkib toptirar edi.

Ikkinchi katta ijtimoiy qusur bu ijtimoiy vokelikni idrok etishda induktiv yondashuvni mutloqlashtirishdan iborat edi. Induktiv metod, ya'ni xususda umumning to'la nomoyon bo'lishi g'oyasi har qanday holatda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan kat'iy nazar amal qilishi mukarrar, deb qarashdan kelib tan olmaslik oqibatida tabiat va jamiyatga o'nqlab bo'lmas darajadagi katta zararlar etkazildi.

Induktiv metodni mutloqlashtirishning ma'naviy o'z-o'zini anglash borasida juda zararli ekanligi Sharq va G'arb mutafakkirlari Zardo'sht, Lao Szin, Konfusiy, Platon, Aristotel, Sitseron, Imom Buxoriy, al-Moturidiy, Forobiy, Beruniy va boshqalar o'z asarlarida asoslab berganlar.

Totalitar tuzum davrida tabiatning noyob iste'dodlari oyoq osti qilinganligi, hammani barobarlashtirish shiori ostida qarab kelinganligi kishilarni "jamiyatning vintiklari" va ularni istagan paytda birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin deb yondoshish uslubi keng ko'lamda amalda bo'lib keldi.

Ijtimoiy adolatni qaror topshirish tarixi insoniyat tomonidan o'z-o'zini anglash jarayonlari boshlanishi bilan bog'liq. Dunyoni ilk kitoblaridan sanalmish "Avesto"da aholining barcha qatlamlari, qavmlari va guruhlari uchun umumiy turmush tarzi qoidalari tavsif etiladi. Antik dunyo qonunshunosi Solon tomonidan yaratilgan ilk qoidalar majmui ham turli xil ijtimoiy guruhlar o'rta asrda totuvlik va murosas me'yorlaridan iboratdir. Stratifikatsion tasniflarni o'rganganda, olamni yaxlit bir butunlik tarzida tasavvur etish, ya'ni "Olamiy uyg'unlik" nazariyasiga monandlik jihatlarini ham e'tiborga olishimiz kerak bo'ladi. Bu nazariya tarafdorlaridan biri Platon olamiy jon olamni ruhlantirib, o'zi sonli nisbatlarga, gormonik tartibga bo'ysunadi deb qaraydi³⁵. Platondan farqli, Aristotel tartibsizliklardan vujudga keladigan olamiy uyg'unlikka bir muncha o'ziga xos yondashadi va uni jondagi manba emas balki faqat narsalar tabiatidagi manba deb cheklanadi.

Insoniyatning 5 ming yillik o'tmishi kishilarning havf umumiy bo'lganda birlashuvlari tarixidan iboratdir. Keng xalq ommasining nechog'lik ko'p miqdori birlashuvi uning havfga qarshilik salmogini shunchalik oshirib turgan. Ammo xavf tazyiqi susayishi bilan birlashuvlari ham emirilib borgan.

Insoniyat tarixida stratalar xalqning madaniy takomillashganlik belgilari sifatida ham baholanib kelingan. Xususan, gilamdo'zlar, do'ppido'zlar, temirchilar, bog'bonlar va boshqa kasbiy stratalar muayyan mehnat faoliyati orqali nafaqat o'ziga xos iqtisodiy-ijtimoiy hayot yo'rig'ini amalga oshirganlar, balki o'z qavmlari siru-sinoatlarining o'zgalar mulkiga aylanmasligi erishilgan

³⁵ Платон, Диалогі. М. "Мисл" 1986, с-4

komillik qadriyatiga putur etmasligi xususida ham qayg'urganlar.

Xalqimiz o'z stratalarini himoya qilib kelgan, zero, bu himoya nafaqat qavmlar, shakllangan kasb va ijtimoiy guruhlar mavqeini muhofaza etish shakllarida, balki axloqiy yondashuvlar tizimini turmush tarzi yaxlitligini, xalq urf-odatlarini va an'alarini saqlash uchun kurash lavhalarida ham namoyon bo'lib kelgan.

O'zbek xalqi stratalarining tarkibi va tizimi tahlili etnoregional xususiyatlarini ham hisobga oladi. Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixan shakllangan 92 urug'-etnoelement mahsulidir. Bu etno-tasnif tarkibidagi har bir urug' alohida stratifikasion tadqiqot talab etuvchi etnik birliklardir.

Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy jarayonlar tarkibi va tizimini xarakterlovchi 12 ta stratifikasion tizimlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular quyidagilar.

- 1) Ijtimoiy kasbiy tasnifga ko'ra tiplar.
- 2) Qavm-sulolaviy asoslarga ko'ra tiplar.
- 3) Madaniy-estetik darajalarga ko'ra tiplar.
- 4) Yosh davrlariga ko'ra tiplar.
- 5) Etno-hududiy tiplar.
- 6) Diniy-konfessional tiplar.
- 7) Partiyaviy-e'tiqodiy farqlarga ko'ra tiplar.
- 8) Urug'-qabilaviy tiplar.
- 9) Muayyan manfaatlar doirasida uyushgan korporativ tiplar.
- 10) Jinsiy tasnifga ko'ra tiplar.
- 11) Huquqbuzarlikka moyillikka ko'ra tiplar.
- 12) Madaniy-ramziy intilishlarga, qiziqishlariga ko'ra aholi tiplari.

O'zbekistondagi ijtimoiy stratifikasiya jarayonlarini o'rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlari, xususan, anketa, intervyu test, hujjatlarni o'rganish usullariga real holatlar taqozosi asosida yondashiladi va ular orqali olingan birlamchi ma'lumotlar kontent analiz usulida qayta ishlanadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni o'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

-Tadqiqot davomida ijtimoiy stratalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularning ijtimoiy tarkib va tuzumdagi o'rni va mavqeini hurmat qilish;

-Stratalar ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholashda tizimiy va yaxlit yondashish;

-O'zbekistondagi ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, regional-hududiy xususiyatlarini alohida e'tiborga olish;

-Ijtimoiy stratalar tarkib topishiga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi siyosiy - iqtisodiy, ijtimoiy, diniy-konfessional, mafkuraviy omillarni o'rganish;

-Ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda siyosiy tahlil usullaridan foydalanish.

Iqtisodiy rivojning zamonaviy, eng ilg'or turiga o'tishga intilayotgan har bir mamlakat ham texnika, ham biznes sohalarida yuksak professional tayyorgalikka ega ijtimoiy qatlamga tayanishi shart. Mazkur ijtimoiy qatlam vakillari o'z professional - malaka tayyorgarlik saviyalariga mutanosib ijtimoiy o'rin egallashga intilishlari shart. Tarixiy taraqqiyot shunday shakllandiki, ilmiy

bilimlar va ishbilarmonlik o'zlashmalari asosan g'arbiy davlatlar va Yaponiyada mujassamlashdi. Ularda band aholi tarkibidagi oliy kategoriyali professional ijtimoiy qatlam vakillarining hajmi o'rta va past kategoriya vakillarining ulushidan sezilarli darajada yuqoridir. Bu jarayon o'z yo'nalishda yanada rivojlanib, mazkur davlatlarning eng boy va zamonaviy ishlab chiqarish hamda ilmiy-texnik tarqiyotning old qatoridagi xalqaro iqtisodiy o'rnini saqlab turishga zamin yaratmoqda.

Asosan xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishda ixtisoslashgan va iqtisodiy xom ashyo etkazib berishga qaratilgan mamlakatlarda esa ijtimoiy qatlamlashuv tarkibi, asosan, professional ijtimoiy qatlamlarning o'rta va past kategoriya vakillaridan iboratdir. Buning sababi - mazkur davlatlar o'z taraqqiy etgan texnologiyasini yaratishga ko'makdosh firmalar yoki hukumat darajasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga ko'makdosh iqtisodiy rag'batlarni ta'minlash uchun manbalarga ega emas.

Mazkur o'rnashib qolgan tartibni buzib va rivojlanayotgan davlatlarda jamiyat ijtimoiy tarkibida ijobiy o'zgarishga erishibgina emas, balki yuqori va o'rta kategoriyali ijtimoiy qatlamlarni shakllantirib, shart-sharoit yaratishga qaratilgan davlat siyosati hisobiga erishish mumkin. Rivojlanayotgan davlatlar mehnat faoliyatining murakkab, ilmiy, ijodiy turlarini rivojlantirish uchun kuchli homiylik siyosatini o'tkazishlari kerak. Faqat shunday yondashuv natijasidagina jamiyat ijtimoiy tarkibida progressiv o'zgarishga erishish va ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda mahalliy ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishda g'arb davlatlari bilan tenglik ta'minlanishi mumkin.

Dunyoning ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlaridan farqli o'laroq O'zbekistonda bunday ijtimoiy qatlam mavjud. U ilgari yirik ilmiy muassasalar va boshqaruv organlarida ishlagan hamda o'sha davrning ijtimoiy pog'analarida etarli darajada yuqori o'rin egallagan yuksak malakali mutaxassislardan tarkib topgan.

Hozirgi payitda mazkur ijtimoiy qatlam vakillarining sezilarli qismi kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanadi, texnologik zamini ularning professional malakasiga mutanosib bo'lmagan kichik korxonalar va kooperatlar negizida faoliyat yuritadi.

Mazkur ijtimoiy qatlam, iqtisodda ularning ijtimoiy maqomini qayta tiklashga qodir yangi soha yuzaga chiqishi bilan o'zi jamuljam etgan professional - malaka salohiyatini maksimal darajada ishlatishga tayyor turadi.

6.2. Stratifikatsiya (lot stratum - qatlam va fatsio – bajaraman) - jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir. Ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish uchun sotsiologiyada ijtimoiy stratifikatsiya atamasi ishlatiladi. Stratifikatsiya so'zi geologiya sohasidan olingan bo'lib, «qatlam» ma'nosini anglatadi. Ushbu atamani fanga amerikalik sotsiolog Pitirim Sorokin kiritgan.

Ijtimoiy stratifikatsiya ijtimoiy qatlamni tartibga solishni va muayyan bir mezon (hokimiyat, boylik, kasbiy, sulolaviy va h.) ga ko'ra tabaqalash, tasniflashni anglatadi.

Sotsial stratifikatsiya - sotsiologik tushuncha bo'lib, jamiyat va uning ayrim qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini

ifodalaydi. Ijtimoiy stratifikatsiya masalasini tahlil qilishni ayrim olingan bir shaxsni boshqa kishilar davrasidagi o'rnini o'rganmasdan boshlash kerak. Har qanday odam jamiyatda ko'plab mavqelarga ega bo'lishi mumkin. Misol tariqasida talabani olib ko'ramiz: talaba, yosh yigit, o'g'il, sportchi. Bu mavqelarning har biri odamning o'zi uchun qandaydir bir ahamiyatga ega. Atrofdagilar ham ularni aniq individga nisbatan turlicha baholashlari mumkin. Yaxshi sportchini ijtimoiy jihatdan atrofdagilar xuddi shu mavqeyiga ko'ra baholaydilar. Uning talaba va kimningdir o'g'li ekanligi va boshqalar, atrofdagilar uchun ahamiyatli emas.

Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy guruhlar harakteriga va o'zaro aloqadorligiga bog'liq. Uning harakteriga: oila, maktab, davlat partiyalar, iqtisodiyot, fan, madaniyat, matbuot, sog'liqni saqlash kabi sohalarning rivojlanishi o'zaro mos ravishda bo'ladi. Ana shu guruh munosabatlarida qaysilari peshqadam rol o'ynaydi? Qaysilari asosiy rol, bo'ysunuvchi harakterga ega «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi», deb Konstitusiyada ko'rsatilgan.

Nima uchun jamiyatda ba'zi guruhlar boshqalarga qaraganda ko'proq boylik va hokimiyatga egalar? Zamonaviy jamiyat hayotida tengsizlik muammosi qanchalik muhim? Qo'yi ijtimoiy tabaqa vakillarining iqtisodiy zinaning yuqori pogonalariga chiqish imkoniyati qanchalik? Ana shu muammolarni sotsiologiyada stratifikatsiya sohasi o'rganadi va tadqiq etadi.

Ijtimoiy jamiyatning barcha turlarida tengsizlik mavjuddir. Hatto, insonlar o'rtasida iqtisodiy farqlanish deyarli yo'q bo'lgan ibtidoiy jamiyatlarda ham shaxslar o'rtasida erkak va ayolllar, yoshlar va keksalar o'rtasida tengsizlik mavjud bo'lgan.

Stratifikatsiya guruhlar o'rtasidagi strukturaviy farqlar deya ta'riflash mumkin. Zamonaviy jamiyatlarda stratifikatsiya nazariyalari bo'yicha M.Veber, Erik Olin Rayt, Frenk Parxinlar keng shug'ulanishgan. M.Veber nazariyasiga to'xtalib o'tamiz.

M.Veber (1867-1920) ni oddiygina «sotsiolog» deb atash qiyin, chunki uning qiziqishlari va g'oyalari ko'pgina fanlarni qamrab oladi.

Veber nazariyasiga ko'ra jamiyatdagi sinflar, guruhlar, qatlamlarning shakllanishiga ko'p omillar ta'sir qiladi. Veber fikricha, sinflarga bo'linish faqatgina ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish yoki bo'lmaslik emas, balki mulk bilan bevosita bog'liq bo'lmagan iqtisodiy

farqlar bilan ham belgilanadi. Bu omillarga birinchi o'rinda insonning biror ishni bajara olish – olmasligini belgilovchi mahorat va malaka kiradi. Professional va boshqaruvchilar toifasiga kiruvchi shaxslar ham ishga darajalar, unvonlar, diplomlar ularga mehnat bozorida bunday diplomlarga ega bo'lmaganlar oldida katta ustunlik beradi.

Veber stratifikatsiyasining yana ikki muhim jihatini ajratadi. Biriga u status (mavqe) deb ikkinchisida – partiya deb nom beradi. (nemis tilida har ikki tushuncha ham bir so'z stand yordamida ifodalanadi).

Xush status (mavqe) nima?

Veber fikricha status tushunchasi turli ijtimoiy guruhlarining jamiyatda turli darajada obro'ga ega bo'lishi bilan bog'liq. Muayyan mavqeni boshqalardan ajratib turadigan xususiyatlari sinfiy bo'linishiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarib turishi mumkin. Ijtimoiy obro' ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

Ijobiy imtiyozlarga ega mavqe guruhlariga mazkur ijtimoiy tizim ichida obro'ga ega bo'lgan odamlar kiradi. Masalan, inglizlar jamiyatida vrachlar va doktorlar katta obro'ga egalilar. Salbiy imtiyozlangan mavqe guruhlariga parist guruhlar kiradi. Pariy – guruhlar – jamiyatning boshqa a'zolari ularga «yuqoridan pastga» past nazar bilan, bee'tibor qaralgan kishilar guruhi. Yevropa tarixidagi uzoq davr mobaynida yahudiylar pariylar bo'lgan edi».1

Yahudiylarga ba'zi faoliyat turlari bilan shug'ullanish va jumladan, davlat amallarini egallash man qilinardi. Boylikka ega bo'lish, odatda, obro'ga bog'liq, lekin bunda ko'plab istisnolar mavjud. Masalan, «oliyjanob kambag'allar» ning mavjudligi bunga misol bo'la oladi. Sifga mansublik ob'yektiv ko'rchatkich bo'lsa, mavqe, aksincha sub'yektiv baholashga bog'liq.

Veberning stratifikatsiya haqidagi fikrlari shuni ko'rsatadiki, inson hayotida, sinfiy mansublikdan tashqari, boshqa stratifikatsiya turlari va katta ta'sir o'tkazadi. Stratifikatsiyani o'rganar ekanmiz, biz nafaqat iqtisodiy va professional holatlar farqini, balki bu xolatlarni

egallab turgan shaxslar bilan nimalar sodir bo'lishini ham hisobga olishimiz kerak. Ijtimoiy harakatchanlik atamasi – ma'lum shaxs yoki guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati o'zgarishini bildiradi.

Vertikal harakatchanlik ijtimoiy-iqtisodiy shkala bo'yicha yuqoriga yoki pastga siljishini ifoda etadi. Biror shaxsning daromadi ko'payib, yangi mulk sotib olsa, statusi (mavqei) ko'tarilsa, unga ijtimoiy yuksalish, yuqoriga siljish holati, bunga teskari yunalishda o'zgarayotganlarga pastga siljish holati yuz beradi.

Ijtimoiy harakatchanlikni qanday imkoniyatlari mavjud? Hokimiyat va boylikka ega bo'lganlar ularni o'z qo'llarida saqlab qolib, o'z avlodlariga qoldirish imkoniyatiga egadirlar. Ular o'z farzandlariga yaxshi ishga yo'l ochadigan yaxshi ta'lim beradilar. Boylar, mulk va meros soliqlariga qaramay, o'z mulkini topmoqdalar. Eng yuksak chuqqilarga erishganlarning ko'pchiligi boshlanishidayoq imtiyozlarga ega bo'lganlar: yo boy oilalardan, yoki malakali mutaxassislar muhitidan kelib chiqqanlar. Boyib ketgan odamlar borasidgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ulardan deyarli hech biri o'z faoliyatini hech narsasiz boshlagan. Ularning aksariyati meros qolgan boylikdan foydalangan, yoki kichik bo'lsa-da, boshlang'ich kapitalga ega bo'lganlar va so'ng uni ko'paytirishni uddalaganlar. Hozirda O'zbekistonda ham tadbirkorlar, ishbilarmonlar, fermerlar hayotida ham yuqoridagi keltirilgan fikrlar ham tegishlidir. Sabab hozirda fermerlar, tadbirkorlar avvalo iqtisodiy tomondan etarli darajada ta'minlangan bo'lishlari (traktor, ish kuchi) talab etilayapti.

Har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shaxs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega. Shaxs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, mutaxassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi – ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat. Oldingi zamonlarda ham jamiyat turli guruhlardan tashkil topgan. Masalan, Hindistonda jamiyat:

- a) yuqori tabaqa – braxmanlar;
- b) o'rta tabaqa - kshatriylar (jangchi toifasi)
- v) shudralar (qora xalq)dan iborat guruhlarga ajratilgan. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun (er.avval 4-asr) jamiyat a'zolarini 3 guruhga ajratgan:

- a) faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchi sinf);
- b) harbiy jangchilar;
- v) qullar – qo'yi tabaqa;

G'arb sotsiologiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya tushunchasi asosida o'rganiladi. Demak stratifikatsiya G'arb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlariga ajratilganini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifoda qiladi.

Shaxs misolida go'dak bola, o'smir, yoshlik, o'rta yoshlik, qarilik. Ma'lumot, oladi, hunar o'rganadi, kasb egallaydi. Uning jamiyatda tutgan o'rnini o'zgarib boradi. O'quvchi edi, ishchi bo'ldi, yo student bo'ldi, nafaqaxo'r va boshqa.

Jamiyat misolida. Jamiyat asosini tashkil etgan insonlar hayotida ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayoni sodir bo'ladi.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi yoki sotsial mobillik tushunchasi bilan bog'liq. Kishilarning ijtimoiy pog'onalaridan 2 yo'nalishi bo'yicha harakat qilishidir:

1) Vertikal (yo'nalish) ijtimoiy o'zgaruvchanlik. Bu bir ijtimoiy tizimda tutgan o'rnini, o'zgarishdir. Masalan, shaxs misolida: o'quvchi, ishchi, xizmatchi, olim, kolxozchi, pensioner va hokazo (Yuqori va past darajaga qarab o'zgarib boradi).

2) Gorizontalar (yo'nalish) ijtimoiy o'zgaruvchanlik. Bir ijtimoiy guruq doirasidagi o'zgarishlar yoki ijtimoiy darajadagi o'zgarishlar. Masalan, ishchi 1-5 razryad, aspirant, kandidat, fan doktori, akademik.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlikning turlari:

1. Reproduktiv. Ishlab chiqarish, tuzilishi, ekologik o'zgarishlar.
2. Statusli - xizmat pog'onasiga ko'tarilish, hayot darajasi va boshqa.
3. Territorial - qishloqdan shaharga ko'chish, ishlab chiqarishni ko'chirish, bir davlatdan ikkinchisiga ko'chish va h.k.
4. Ma'naviy - manfaatlar, qadriyatlar, fikr, tushunchalar, his-tuyg'ular.
5. Siyosiy (sinfiy struktura), hukmronlik shakli.
6. Ilmiy-texnikaviy va hokazo.

Stratifikatsiya kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, tug'ilishi bilan yuzaga keladi. Jamiyatning moddiy ishlab chiqarish jarayoni sotsiologiyada ijtimoiy tizim sifatida olib qarab o'rganiladi. Moddiy ishlab chiqarish tizimi ijtimoiy hayot sohasi bo'lib, kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq.

Har qanday ijtimoiy jarayonlar inson faoliyati bilan uyg'unlashadi. Muayyan ijtimoiy birlik sifatida uyushgan kishilarning katta-katta guruhlari, sinflar, millatlar milliy-etnik, ijtimoiy-demografik, nisbatan kichik tizimlar: o'quv-tarbiyaviy, oila-turmush va boshqa guruhlari, ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar, ittifoqlar–jamiyatning ijtimoiy tarkibini tashkil qiladi. Ular tarixiy rivojlanish bosqichlarida turli ijtimoiy asoslarda shakllanadilar. Yashash sharoitiga, rivojlanish xususiyatlariga, ijtimoiy ehtiyojga, manfaatlarga va muayyan maqsadga ega bo'ladi. Ijtimoiy tizimlar zanjirida turli o'ziga xos xalqaga ega bo'ladilar. Ichki tashkiliy tuzilishi, karakteri, funksional va rivojlanish darajasi,

turmush tarzi, faoliyat shakli va usullari bilan qadriyatlar tizimi, norma, g'oyalari, qarashlari va boshqa jihatlari bilan o'zaro farq qiladilar.

Bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlarni yuqorida ko'rsatilgan uch metodologik bosqich bo'yicha sotsiologik tadqiq qilish - asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Azaldan jamiyatda jamiyat a'zolarini, insonlarni turli toifali tabaqalarga ajratilib, bo'lingan holda taxlil qilinib kelingan. Jumladan, yaqin Sharqda, Misr va Vaviloniyada zodagon va qullarga Afina va Rimda fuqaro va plebey, patriseylarga, Hindistonda esa braxman va xizmatkorlarga (4-ta tabaqaga) ajratilib kelingan va amalda qo'llanilib o'rganilgan, amal qilinganligi fanda ma'lum.

Turoni zaminda esa aholini toifa, tabaqalarga bo'linishi qadimdan ma'lum bo'lib, ular quyidagicha amal qilingan.

- 1) el-elat, urug'-qabilaviy etnik kelib chiqishidan;
- 2) kasbiy mansubligi, hunar-hunarmandchilik holatiga muvofiqligi;
- 3) diniy-e'tiqodiy qarashlari va qaysi dinga mansubligiga muvofiqliligiga;
- 4) shajaraviy – avlod – ajdodlariga mansublik kabi sulolaviy kelib chiqishiga qarab, e'tiborga olinib guruh, toifa va tabaqalarga bo'linib kelinganligiga kabi holatlarga e'tibor berilgan.

Ma'naviy mavqeiga qarab aholi o'rtasida – said, eshon, xo'ja, imom, mulla, maqsim va domla kabi guruhlarga ajratilgan holda munosabatda bo'lingan.

Jamiyat taraqqiyotining bu xilda sharqona boshqarilishini tarix tajribasi, uning ob'yektiv holatda mavjudligini ko'rsatmoqdaki, insonlarni (shaxslarni) bu tartibda guruhlash, ijtimoiy qatlam tabaqa va toifa sifatida sotsial guruh-guruhlarga – stratalarga ajratib ijtimoiy-siyosiy mavqei, o'rnini to'g'ri qilib belgilash, shu asosda bu sotsial guruh stratalarga munosabatda bo'lish holati jamiyatni sotsial-siyosiy jihatdan samarali boshqarish imkonini bergan va asrlar osha ana shu sotsial tartib Turoni zaminda mavjud bo'lib kelgan, umumdavlat miqyosida ular bilan ana shu tizimda sotsial-siyosiy murasaviy konseptsiyasini takomillashtirilib, sotsial ziddiyatlarning oldi olinib, keskin sotsial-siyosiy muammolar hal qilinib kelingan.

Sotsial stratifikasiya deb o'rganiladigan jamiyatning stratifikasion sotsial yo'nalishlarini sotsiologiya fanida – ikkita katta sotsial yo'nalish asosida o'rganiladi.

Birinchi – moddiy yo'nalish, bunda jamiyatda moddiy noz-ne'matlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak mahsulotlari, umuman inson uchun, inson yashashi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan iqtisodiy talablar amalga oshirilib, ishlab chiqarish, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari asosiy rol o'ynab, unda mehnat, mehnat taqsimotlari jarayonlari asosini tashkil etib sotsial muammoviy yo'nalishlarni tashkil etadi.

Ikkinchidan esa – jamiyatning sotsial ma'naviy yo'nalishini tashkil etadi. Unda jamiyat ahlining aql zakovati, ong, tafakkuri, ma'naviy madaniyati shakllanadi, ma'naviy mehnat va uning natijalari, inson bilimi, ilmi, tarbiyalanganligi, ta'limi, moddiy turmushi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Moddiy sotsial yo'nalishining ob'yekti bu ishlab chiqarish korxonalar, muassasalar, qishloq xo'jaligi uning turli xil sohalari, sanoat ishlab chiqarishi uning turli xil tarmoqlari asosiy ob'yekt hisoblanib, bu yo'nalishda ham insonlar (shaxslar) mavqei, o'rni, roli, tabaqa, toifa kabi, ya'ni boy, badavlat, mansabdor, kambag'al, yo'qsil, qashshoq va o'g'ri, zo'rovon, tilanchi, firibgar va h.k. kabi sotsial guruhlar – stratalari mavjuddir. Ma'naviy-madaniy sotsial yo'nalishda ham uning ob'yekti-ta'lim-tarbiya tizimi, ilmu-fan, madaniy maskanlari hisoblanib, bu yo'nalishda ham turli xil aholi qatlamlari-tabaqa, toifalari – boy, kambag'al, mansabdor, mansabga intilish, ma'naviy boy ziyoli, ma'naviyatsiz ziyoli, salohiyatli intelligent, savodli, savodsiz, ma'naviy qashshoq, manqurt shaxs kabi sotsial guruhlar – stratalar mavjudligi tabiiydir.

Odatda ijtimoiy adolatlilikni qaror toptirish tarixi insoniyat tomonidan o'z-o'zini anglash, bilish jarayonlari shakllana borishi bilan bog'liq bo'lib, tobora u takomillashib borishini ko'plab qadimiy manba'lar, kitoblarda uchratish mumkin. Bu haqda “Avesto”da aholining barcha qatlamlari, qavmlari va guruhlari uchun umumiy turmush tarzi qoidalari, normalari, odatiy tartiblari tasnif etiladi. Bu holatlar hamma uchun “umumiy” bo'lib, uni “xusus”lar tashkil etadi. Undan tashqari bunday “umumiy”lik Antik dunyo qonunshunoslari tomonidan, jumladan, Salon tomonidan yaratilgan ilk qonun-qoidalari majmuida ham bu haqda fikr yuritilib, turli xil ijtimoiy guruhlar o'rtasida “xusus”ni inobatga olib “umum” tartib qoidalar asosida totuvlik va murosa-madora meyorlaridan o'rinli foydalanish qat'iy qilib qo'yilgan.

Jamiyatda insonlarning o'z-o'zini anglash jarayonlarining muhimligini va unda “xusus” bilan “umum”ning mutanosibligi zaruriyatini o'rta asrlik bir qator mutafakkirlar, shu jumladan Rene Dekart katta e'tibor bergan. U mohiyatga har bir individ o'z maqsadiga muvofiq alohida-alohida intiladi va har kim har xil sharoitda unga erishishga harakat qiladi va erishadi ham deb hisoblaydi³⁶. Haqiqat garchi “umumiy” bo'lsada, unga yangi intilishlar orqali kutilgan natijani olish va uni yalpi anglash imkoni yo'qligini ta'kidlaydi.

Har kim, har xil guruh (strata) haqiqat mohiyatiga turlicha darajada yaqinlashadi. Dekartning alohida o'qtirishiga ko'ra “haqiqatni butun xalqdan ko'ra alohida insonlar tezroq erishadi va o'zlashtiradi” va bu anglangan haqiqatni boshqalarga etkazadilar, shaxslarning jamoadan farqlari ham ana shunda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy taraqqiyot tabiiy ravishda bir tomondan shaxsning individuallashuv jarayonlarini o'zlikka uyg'unlashuv holatlarini kuchaytirib shaxslarning yakka tarzda alohida faoliyat bilan mashg'ullik darajalarini oshirsa, ikkinchi jihatdan jamiyat a'zolarining mulk, kasb, irq, millat, jins, xudud, mayl, maqsadlar, didlar asosida tabaqalanish jarayonlariga kuchli turtki berishi bilan xarakterlanadi, Shu boisdan ham stratalar ko'pligi jamiyatning o'z-o'zini ichki boshqaruvi maxsuli va sivilizatsion jarayonlarning tabiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

³⁶ Рене Декарт. Избр. произв. М., 1950, с. 27.

Insoniyat tarixi taraqqiyotining qariyb besh ming yillik (insonlarda tabaqalanish, sinflarga ajralish) davri va o'tmishi qanchadan qancha xavf-xatarlarni boshidan kechirgan va insonlar ana shu xavf xatarlarda yakka-yakka emas, umumiy jamoa-jamoa bo'lib, umumiy tarzda birlashib, bu xavf-xatarlardan umumiy tarzda birlashib qutilganlar, shu sababli bu davr umum birlashib harakat qilib, umum maqsad yo'lida kurashib harakat qilgan davrlar tarixi hisoblanadi.

Shu sababli keng xalq ommasiga qanchalik umumiy xavflar ko'paysa, shunchalik birlashuv ijtimoiy tus olib xavfqa qarshi kuchaya-kengaya borgan.

Qanchalik umumiy xavf pasaya borgan bo'lsa, keng xalq ommasi birlashuvi tobora susaya borgan, alohidalik kuchaya borgan.

Undan tashqari ijtimoiy stratalar xalq ommasining madaniy takomillashganlik belgilari sifatida xam ushbu birlashish va alohidalik tendensiyasi umumiy, xususiy tarzda baholanib kelingan. Jumladan, aholining kasb-hunar, kasabachilik harakati bunga misol bo'laoladi. Ya'ni, zargarlik, misgarlik, chilangarlik, duppido'zlar, gilamdo'zlar, temirchilardir. Ular har qaysi alohida-alohida kasb-hunar, hunarmandchilik, yoki kasanachilik holatida yakka-yakka holidan namoyon bo'lgan bo'lsa, ular jamoasi ko'pchilik holatda umumiy bir xil ixtisoslik kasanachiligiga birlashuvi oqibatida do'ppido'z – do'ppido'zlar, etikchi – etikdo'zlarga, maxsi tikuvchi – maxsi do'zlarga va h.k.larga aylanib, umumiylikni, ijtimoiy kasb-hunar stratalarni tashkil etganlar, yoki bog'bonlar, xattotlar, me'morlar, quruvchilar va h.k.lar ham shular jumlasidan iborat bo'lib, mehnat faoliyati orqali mehnat taqsimotini shakllantirib, nafaqat o'ziga (yakka) xos iqtisodiy-ijtimoiy hayot yo'lini amalga oshirganlar, ixtisoslashish jarayonini vujudga keltirganlar, o'z ajdodi, qavmi va avlodi siru-asrorlarini, hunari, ustachilik kasbini, o'z galar mulkiga aylanib ketmasligiga erishganlar, hatto komil insonlik hislablari, ulug'lik holatlari, aslzodalik, “yuqori” tabaqalikni saqlab qolish, uni avloddan-avlodga, ajdoddan-ajdodga o'tkazib, saqlab qolishga harakat qilish ham ana shu tarzda ijtimoiy jamiyatda namoyon bo'lganlar. Bunga aniq misol keng xalq ommasi o'rtasida asrlar osha saqlanib kelayotgan “Sayid”, “Eshon”, “Xo'ja” kabi aholi qatlami, yoki “lo'li”, “mo'ltani”, “qora”, “sariq”, “oq-qora” va h.k. kabi atamalar (ijtimoiy belgilar) jamiyatda o'ziga xos stratalar guruhini tashkil etganlar va hozirgi davrda ham ana shunday munosabat va qarashlar mavjuddir.

Shu sababli hurmatli Prezidentimiz iborasi bilan aytilsa ota-bobolar o'giti, ota namunasi, ona suti bilan insonga, insonlarga singdirilib kelingan. Ana shundan taraqqiyotni Turoni-Zamin, shu jumladan o'zbek xalqi o'z boshidan kechirib ijtimoiy taraqqiyot tarixini yaratganlar, ana shunday taraqqiyot tendensiyasi qisman bo'lsada hozir ham davom etmoqda ehtimol kelajakda ham davom etsa ajab emas. Shu sababli bo'lsa ajab emas o'zbek xalqi yaxlit butunligini tashkil etadigan (hamma xalq va millatlardagidek) ayol va erkakka bo'lingan stratalari – o'zaro aloqa va munosabatlarda odob-axloq normalariga qat'iy rioya qilishi, ayollarda ibo, sharm, hayo, noziklik xislatlarining ustunligi, erkak-ayolda o'zaro izzat-hurmat, farosat, sadoqatlilik, ahloq-odob normalari, estetik qarashlar mavjudligi yuqoridagi fikrlar natijasi bo'lsa ajab emas. Shuning

uchun ham jamiyat tarkibida sotsial stratalar (ijtimoiy guruhlar)ning naqadar xilma-xilligi va ko'pligi bir tomondan jamiyatni ijtimoiy boshqarishni qiyinlashtirsa, ikkinchi tomondan esa sotsial stratalar mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari chuqur ilmiy taxlil qilinib o'rganilsa ijtimoiy va siyosiy, asosan ichki boshqarishni osonlashtiradi. Bu holatlarni chuqur atroflicha stratifikasion o'rganishda ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayonlariga va ularning sotsial turlariga alohida e'tibor berish va unga amal qilishni taqazo etadi. Ular asosan quyidagilardan iborat:

1. Reproduktiv – ijtimoiy jarayonlarni turli xil uslubda o'rganish.
2. Statusli – xizmat pillapoyalaridan yuksalib borish, turmush hayoti jarayonlarining farovonlashuvi.
3. Hududiy – qishloqdan shaharga, davlatdan davlatga ko'chish holati.
4. Ma'naviy qadriyatlar, fikrlar, tushunchalar, g'oyalar, his-tuyg'ularning o'zgarishi.
5. Jamiyatning siyosiy-ijtimoiy idora etishligi, boshqarilishiga ko'ra o'zgarishlar.
6. Ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar. Ustuvor taraqqiyot mezoni sifatida yuksak texnologiyalar informasion boshqaruv sohalarining tobora mustahkamroq o'rin egallay boshlashi.

O'zbekistonimiz jamiyati ijtimoiy jarayonlarning tarkibi va ijtimoiy tizim mohiyatini xarakterlovchi omillardan hozirgi kun sotsiologlari, o'n ikkita stratifikasion tizimlar tipini alohida ajratib ko'rsatib, o'rganmoqdalar. Ular quyidagi stratifikatsion tiplardan iborat:

1. Ijtimoiy-kasbiy tasnifga ko'ra tiplar;
2. Qavm-sulolaviy asoslarga muvofiq tiplar;
3. Madaniy-estetik darajalarga ko'ra tiplar;
4. Yoshiga ko'ra – yosh davrlariga ko'ra tiplar;
5. Jinsiy tasniflariga ko'ra tiplar;
6. Etnik-xududiy holatlariga ko'ra tiplar;
7. Diniy e'tiqod, diniy konfessiyalariga ko'ra tiplar;
8. Partiyaviy e'tiqodlariga ko'ra tiplar;
9. Urug'-qabilaviy-etnik ajdodiga ko'ra tiplar;
10. Muayyan manfaatlar doirasida uyushgan korporativ tiplar;
11. Huquqbuzarlik, jinoyatchilikka moyilikka ko'ra tiplar;
12. Madaniy-ramziy intilishlarga qiziqishlariga ko'ra tiplar kabilardan iborat stratifikatsion tiplardir.

Shu bilan birga jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish jarayonini va tabaqalanishni o'rganishda rioya qilinadigan tamoyillar ham bo'lib, ular asosan quyidagilardan iboratdir.

1. Empirik tadqiqotlar davomida ijtimoiy stratalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularning ijtimoiy-tarkibiy tuzilishiga, ijtimoiy tuzumdagi o'rni va mavqeiga nisbatan hurmat qilish.
2. Ijtimoiy stratalarning ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholashda tizimiy va yaxlit yondoshish talab etiladi.

3. O'zbekistondagi ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, regional xududiy xususiyatlarini alohida e'tiborga olish, urf-odatlariga ham yaxshi munosabatda bo'lish.

4. Ijtimoiy stratalar tarkib topishiga sezilarli ravishda ta'sir etuvchi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy-madaniy va diniy konfessional, mafkuraviy va g'oyaviy omillarini atroflicha o'rganish, ob'yektiv xulosa chiqarish.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda ob'yektiv holda yondashib qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish talab etiladi.

Eng muhimi jamiyatda ijtimoiy stratalar mohiyati o'rni mavqeini ob'yektiv o'rganilib, ijtimoiy stratifikasion tahlil qilib, empirik tadqiqotlar asosida to'g'ri taxlil qilib, nazariy xulosalar chiqarilar ekan, dastavval stratalarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy-madaniy darajasiga siyosiy boshqaruv mohiyatiga har bir strataning (asosan soysial guruh, tabaqa, qavm, el-elat va h.k.) o'troqligiga, milliyliigi, diniy e'tiqodlariga, demografik-hududiy yaxlitligiga, ma'naviy-madaniy mentalitetiga, ilmu-fan yutug'iga, o'tmish taraqqiyotiga, jahon sivilizatsiyasidagi o'rniga va hozirgi zamon taraqqiyoti kabi sohalarga jiddiy e'tibor berib, ob'yektiv stratifikatsion nazariy xulosa chiqarishni taqqzo etadi.

Ijtimoiy tabaqalashuv turlari. Jamiyatning iqtisodiy tuzilishi va ijtimoiy tarkibi o'zaro yaqindan bog'liqdir. Iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi ijtimoiy tartib o'zgarishsiz sodir bo'la olmaydi. Iqtisodiy munosabatlarni ayri ravishda o'zgartirishga urinishlar aholi qarshiligiga sabab bo'lmasa ham, sustligiga duch kelishi mumkin. Jamiyatning ijtimoiy qatlamlashuvi ikki shaklda namoyon bo'ladi: 1. Insonlarning professional-ta'lim saviyasiga asoslangan professional malakali shakl. 2. Daromad darajasiga qarab taqsimlanishiga asoslangan iqtisodiy shakl.

Professional- malakali ijtimoiy tabaqalashuv esa ishchi bajarayotgan shu faoliyatning murakkabligi, aqliy salohiyati, jamiyat uchun muhimligi va ahamiyatini e'tiborga olishga asoslanadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalashuvi inson mulk maqomini baholashga hamda jamiyat va ma'naviy qulayliklarga erishuvlarida uning real imkoniyatlarini e'tiborga olishga asoslanadi.

Har bir mamlakatda shakllangan tabaqalar va qatlamlar tamomila turlicha bo'lishi mumkin. Ularning soni tabiiy manbalar va o'lkaning iqtisodiy tarixi, mehnat taqsimoti va iqtisoslashuv jarayonida erishilgan daraja, davlat sektori bajaruvchi vazifalarning nisbiy miqyosi va ro'yxati, mulkchilik, shu jumladan o'tmishdan meros mulkchilik harakteriga ham bog'liq bo'ladi.

Professional ta'lim va iqtisodiy tabaqalashuv har doim ham mos kelavermaydi. Professional malakali va iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalashuv orasida mobillikka erishish mamlakat aholisining mehnat faoliyatini yuksaltirishda hal etuvchi omillar.

«O'zbekistonda, – deb ta'kidlaydi Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov, uning eri, tabiatiga, bu erda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi

hisoblanadi». Respublikamiz jamiyatining ijtimoiy tarkibi nazariyasi hozircha ishlab chiqilgani yo'q. Mustaqil O'zbekiston jamiyatining ertangi kun ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga bugun asos solindi desa adashmaymiz. Shuning uchun ham jamiyat ijtimoiy tarkibini o'rganish real hayotimizni, kundalik turmushni yanada to'laroq bilishga xizmat qiladi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibida ijtimoiy-sinfy munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. O'tgan davirda asosan, ikki sinf - ishchilar va dehqonlar sinfi va intelligensiya qatlami mavjud deb ko'rsatilib, jamiyat ijtimoiy tarkibidagi boshqa guruhlarining ahamiyati mutlaqo tilga olinmas edi.

Ijtimoiy tarkibda hududiy yo'nalish ham mavjud bo'lib, u mintaqaviy, viloyat, shahar, qishloq, mahalla kabi hududiy birikmalarni o'z ichiga oladi. Bu tarkibiy birlikda ayrim olingan hudud doirasida sosiologik tadqiqot olib borish talab qilinadi. So'ngi yillarda bu masalaga jiddiy qaralmoqda. Ayniqsa, shahar, qishloq, mahallaga oid muammolarni o'rganish zaruriyati ortmoqda.

6.3. Sotsial mobillik deb individ yoki guruh tomonidan jamiyat stratifikasion tizimida egallagan sotsial maqomini, statusini o'zgarishi, ya'ni insonlarning sotsial ko'chishiga aytiladi. Mobillik inglizcha mobilite-«ko'chish», «safarbarlik» ma'nosini anglatadi. «Sotsial mobillik» termini sosiologiyaga P.Sorokin tomonidan 1927 yilda kiritilgan. Sorokinga ko'ra, sotsial mobillikning 2 turi mavjud: vertikal va gorizontal sotsial mobillik.

Vertikal mobillik o'z o'rnida yuqoriga va pastga yo'naltirilgan bo'ladi. Yuqoriga yo'naltirilgan sotsial ko'tarilish, yuqoriga harakatni, pastga yo'naltirilgan-sotsial tushish, pastga harakatni anglatadi.

Gorizontal sotsial mobillik individning bir sosial qatlamdan shu darajada joylashgan boshqa qatlamga o'tishini anglatadi. Mobillikning bu turi yashash joyi(migrasiya)ni, boshqa diniy guruhga(dinini o'zgartirishi va h.k.) bildiradi. Vertikal sotsial mobillik bir stratadan boshqasiga o'tishni nazarda tutadi. Vertikal sotsial mobillik hayot davomida insonning yuqori statusni quyiga, quyi statusni yuqori darajadagisiga almashishidir. M-n, vodoprovod ta'mirlovchisining korporatsiya prezidenti darajasiga ko'tarilishi yoki teskari jarayon.

Sotsial mobillik boshqa mezonlarga ko'ra klassifikatsiya qilinishi mumkin. Masalan, individual va guruhiy mobillik.

Individual mobillik-individning gorizontal yoki vertikal chiziq bo'yicha yuqoriga va pastga ko'chishi boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'ladi.

Guruhiy mobillikda ko'chishlar guruhiy, kollektiv holda sodir bo'ladi, u yoki bu strataning sotsial mavqei o'zgaradi. Bularga ilm-fan revolyutsiyalari, fuqarolar urushlari, to'ntarishlar, islohatlarni misol qilib olish mumkin. Individual mobillik omillariga kasbiy-professional zinapoyada ko'tarilish(malaka oshirish natijasida), ta'lim darajasi, ma'muriyatda egallagan o'rnini, ya'ni kasbiy karera bilan bog'liq bo'lgan omillar kiradi. Individual mobillik siyosiy va tadbirkorlik faoliyati, armiyada, va boshqa davlat institutlaridagi faoliyati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Individual sosial mobillik omillari-oilaning ijtimoiy maqomi, millat, ta'lim darajasi, jismoniy va aqliy xususiyatlar, tashqi ko'rinish, tarbiya,

yashash joyi va h.k. Individual sotsial mobillikning yuqoriga yo'naltirilgan turining eng samarali usuli-manfaatli nikohdir.

Sotsiologiyada yana avlodlararo va avlodlar ichidagi sotsial mobillik ham farqlanadi. Avlodlararo mobillikda farzandlar o'z ota-onalaridan ko'ra yuqoriroq sotsial pozitsiyani egallashadi yoki ularga nisbatan quyi pog'onaga tushib qoladi. Avlodlar ichidagi mobillik individning uning ota-onasining pozitsiyasiga solishtirmasdan turib o'zining sotsial statusini o'zgartirishini anglatadi. Individ sotsial maqomini o'zgartirganda o'zi uchun yangi statusni o'zlashtirishi va bunga bog'liq bo'lgan o'zaro harakat va munosabatga, muloqatga kirish muammosi yuzaga keladi. Madaniy to'siq va munosabat, muloqot to'siqlarini buzib o'tish uchun individ oldingi hayot tarzini o'zgartirishi, o'zi uchun yangi statusning hatti-xarakatlari namunalarini shakllantirishi, ijtimoiy muhitini o'zgartirishi lozim. Ammo hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, barcha individlar ham bunday sosiomadaniy nazoratdan muvoffaqiyatli o'tib yangi stratada qulay joylasha olmaydi. Barcha ob'yektiv mezonlarga ko'ra yuqoriroq pog'onaga ko'tarilgan individ sosiomadaniy shart-sharoitlarga ko'ra yangi strataga kiruvchi eshik ortida qoladi, lekin u eski stratani tark etgan bo'ladi. Uning yangi holati, yangicha tarzdagi hayot kechirishga intilishi va h.k. uni bu erda «begona»ga aylantiradi. Individ 2 strata, 2 madaniyat orasida «osilib» qoladi. O'xshash holat pastga yo'naltirilgan vertikal mobillikda ham sodir bo'lishi mumkin. Jamiyatning yuqori qatlamlarida bo'lish imkoniyatini yo'qotgan, sotsial ierarxiyaning quyi pog'onasiga tushib qolgan inson yangi holatiga, yangi hayot tarziga moslashishga qiynaladi. Individ yoki sotsial guruhning sotsial ko'chish oqibatida 2 sotsial birlik, 2 madaniyat orasida bo'lish fenomeni marginallik deb ataladi. Individlar marginallashuvi ko'pincha gorizontal mobillik natijasida (avvalo, migratsiya, emigratsiya, shahardan qishloqqa, qishloqdan shaharga) sodir bo'ladi.

Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin tutadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy yo'lning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo, sobiq Ittifoq falsafiy – sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yoqlama talqin qilinganligi bo'lsa, ikkinchisi esa, ilg'or g'arb ijtimoiy adabiyotlarining, bu sohasi bo'yicha to'liq tadqiqot ma'lumotlarining bizda yo'qligidir.

6.4. Jamiyat o'zining tarkibiy tuzilishi jihatidan o'zaro chambarchas bo'lgan tomonlar tabaqalar va migratsion jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ularning xar biri o'z taraqqiyoti davomida bir-biriga muayan salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Respublikamiz jamiyati ijtimoiy tarkibini sotsiologiya doirasida o'rganish eng avvalo nazariy metodologik jihatidan asoslashni talab etadi. Hozirgi davr sotsiologi jamiyat hayotani 'organishda undagi ijtimoiy tarkibning va migratsiyaning sotsiologik nazariyasi bo'lishini talab qiladi. Ingliz sotsiologlaridan Redkliff Braun jamiyatni qo'yidagi tarkibiy tuzilishini boshlang'ich asos sifatida qaraydi.

Migratsiya jarayoni qo'yidagilarni o'z ichiga oladi va jamiyat ijtimoiy tarkibiy tuzilishini ijtimoiy demografik va migratsion jarayonlari munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Bu munosabatlar aholining jinsiy tuzilishi yoshi va oilaviy genetik jihatlarini o'z ichiga oladi. Migratsiya (lot. "migratio"-ko'chib o'tish) individlar yoki ijtimoiy guruhlarining doimiy yashash joylarini o'zgartirish jarayoni bo'lib, u boshqa jo'g'rofiy hudud yoki mamlakatga ko'chib o'tishda ifodalanadi. Har qanday davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiga demografik siyosat ham kiradi. Demografik munosabatlarga mamlakat aholisining barcha qatlamlari mansub. Ijtimoiy demografik tartibga statistik jihatdan o'rganiladigan aholi ortasida tug'ilish, o'lim, nikoh, oilaviy qo'yidagilar, shahar va qishloq aholisining migratsiyasi, hududiy migratsiya kabilari kiradi.

O'zbekiston ijtimoiy-demografik jihatdan nihoyatda murakkab tuzilishga ega. 51 foizi xotin-qizlar, 9,6 million aholi 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlardan iboratdir. Far'ona vodiysi aholisining zichligi juda katta. Andijonda har bir kvadrat km. maydonga 485 ta odam to'g'ri keladi. Bunday demografik holat jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarida ham turli muammolarni keltirib chiqaradi.

Aholining soni, moddiy turmush darajasi, daromadi, oilaviy munosabatlarni va shu kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Oilani oziq-ovqat va iste'mol mollari bilan ta'minlash muammolarini davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadini ifoda etadi. Oilaviy tarkibni sotsiologik maxsus sohasi mikrosotsiologiyada ham chuqur tadqiq etish maqsadga muvofiq. Unda iqtisodiy psixologik jihatlarni e'tiborda tutish zarur. Nikoh munosabatlari, yolg'iz yashovchilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Sotsiologiyadan aholining genetik tarkibini o'rganish borgan sari moddiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Unga aholining tabiiy va migratsion harakati kiradi. O'zbek millati boshqa millatlarga nisbatan o'z to'g'ilib o'sgan joyiga ko'proq bog'langan bo'ladi. Ayniqsa Fargona vodiysi aholisida bunday xususiyat kuchli.

Nikoh munosabatlari, yolg'iz yashovchilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Sotsiologiyadan aholining genetik tarkibini o'rganish borgan sari moddiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Unga aholining tabiiy va migratsion harakat kiradi.

Yangi asrda shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'payib ketdi. Bunday omillar turkumiga mehnat migratsiyasi ham kiradi.

Migratsiya, bir tomondan, aholining tarkibi va joylashuviga yangicha tus beradi, ikkinchi tomondan, resurslar taqsimotini tubdan o'zgartirib yuboradi, uchinchi tomondan esa, tug'ilish, o'lish, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Migratsiyaning qator tiplari mavjud. Jumladan, tashqi migratsiya aholining mamlakat hududidan tashqariga harakatlanishini nazarda tutsa, ichki migratsiya ma'lum mamlakatdagi bir hududdan ikkinchi hududga ko'chishni ifodalaydi. Shuningdek, migratsiya o'zining davomiyligi bilan ham tafovutlanadi. Doimiy migratsiya deganda fuqaroning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga, bir mintaqadan boshqa mintaqaga yoki qishloqdan shaharga umrbod ko'chib ketishi

tushuniladi. Vaqtinchalik migratsiya fuqaroning ishlash uchun ma'lum muddatga boshqa mamlakat yoki mintaqaga borishi bilan bog'liq. Mavsumiy migratsiya fuqarolarning ishlash, hordiq chiqarish va hokazolar uchun bir mavsumda boshqa hududlarga tashrif buyurishini ifodalaydi. Davriy migratsiya fuqaroning ma'lum davr mobaynida bir hududga, shaharga, mamlakatga muttasil tashrif buyurib turishini o'z ichiga oladi..

Aholi migratsiyasi turli omillar oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Aksariyat hollarda ijtimoiy-iqtisodiy omillar aholining mexanik harakatlanishiga olib keladi. Masalan, fuqarolar turmush sharoitini o'zgartirish, o'z hohishlariga mos bo'lgan ish topish, moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida o'zga hududlarga ko'chib o'tadilar.

XX asr oxiri XXI asr boshida migratsiyaning misli ko'rilmagan oqimi vujudga keldi. Ishchi kuchi yetarli bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning fuqarolari yoshlari kam va keksalari ko'p bo'lgan, shu bois ishchi kuchiga ehtiyoji oshib borayotgan rivojlangan mamlakatlarga oqib kela boshladilar. Migratsiya bo'yicha Xalqaro Tashkilotning ma'lumotlariga qaraganda, 2008 yilda o'z mamlakatidan tashqarida yashayotgan va ishlayotgan xalqaro migrantlar soni 200 milliondan oshib ketdi. Jahon mamlakatlarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan mamlakatimizda ham mehnat migratsiyasi ko'lami ortib bormoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hukumati yangi ish o'rinlari yaratish masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqda. Biroq mehnatga layoqatli aholi soni yiliga bir necha yuz ming kishiga ko'payib borayotgani vaziyatni keskinlashtiryapti. Natijada, mehnatga yaroqli aholi orasida o'zga mamlakatlardan ish izlash tendentsiyasi, ya'ni mehnat migratsiyasi yuzaga kelyapti. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, mehnat migratsiyasi mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 7-8 foizini qamrab olmoqda. Mazkur oqim asosan Rossiya Federatsiyasining turli mintaqalariga va Qozog'iston Respublikasining janubiy viloyatlariga yo'nalgan. Mutaxassislar Rossiyada 400-450 mingga yaqin hamyurtlarimizning mehnat qilayotganini qayd qiladilar.

Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati katta, albatta. Jumladan, u ishsizlik darajasining pasayishiga, mehnat bozoridagi keskinlikning kamayishiga, tadbirkorlikning rivojlanishiga, kadrlar raqobatbardoshligining oshishiga, oila byudjetining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bunda nafaqat masalaning moliyaviy jihatlari nazarda tutilmoqda. Fuqaroning xorijda ma'lum muddat ishlashi o'zga millatning madaniy-ma'naviy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini, turmush tarzi bilan tanishish imkonini bermoqda. Buning natijasida, xorijda ishlab kelgan fuqaroning, uning oila a'zolarining umumbashariy qadriyatlar, norma va prinsiplaridan xabardorligi darajasi ortmoqda. Xorijda ishlashning iqtisodiy samarasi ham bor. Aytaylik, malakali mutaxassis mehnat davomida zamonaviy iqtisodiy ishlab chiqarish texnologiyalari, yangi texnika vositalari va shu kabilar bilan tanishadi. Keyinchalik ushbu malakani mamlakat iqtisodiyotida qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Mehnat migratsiyasi mamlakat iqtisodiyotiga ham birmuncha foyda keltiradi. Manbalarda mehnat migrantlari o'z Vatanlariga har yili 500 million AQSh dollariga qadar mablag' jo'natayotgani ko'rsatiladi..

Ayni paytda mehnat migratsiyasining haddan ziyod kengayib ketishi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Birinchidan, norasmiy mehnat migratsiyasi (ma'lumotlarga qaraganda, migratsiyaning bu ko'rinishi 52-65 foizni tashkil qiladi) fuqarolarimizning odam savdosi bilan shug'ullanuvchi guruhlar, terroristik oqimlar ta'siri ostiga tushib qolishi xavfini kuchaytiradi. Shu boisdan O'zbekistonda keyingi yillarda odam savdosiga qarshi kurash jiddiy tus olmoqda. Ikkinchidan, mehnat migrantlarining aksariyat qismi o'zga mamlakatlarda o'z mutaxassisliklari bo'yicha mehnat qilmasdan, tasodifiy mehnat turlari bilan band bo'ladilar. Bu esa mutaxassislarning zaruriy kasbiy ko'nikma va malakalarining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, mehnat migratsiyasi sanoat korxonalaridagi malakali mutaxassislar sonining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Malakali kadrlar potensialining pasayishi esa mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarining sekinlashishiga zamin hozirlaydi.

Mehnat migratsiyasining salbiy ijtimoiy-ma'naviy oqibatlari ham tashvishlantirmay qo'ymaydi. Migratsiya davri migrant ma'naviy qiyofasining deformatsiyasiga olib kelishi mumkin. Bir yoki bir necha oila a'zolarining uzoq muddatga ishga ketishi oiladagi munosabatlar o'zgarishiga, farzandlar tarbiyasida ommaviy madaniyat ta'sirining ildiz otishiga olib keladi.

Biroq yuqorida tilga olingan hollar iqtisodiy salohiyati katta bo'lgan korxonalarda ishlayotgan malakali mutaxassislar va ularning oila a'zolarigagina taalluqli. Odatda bunday mutaxassislar yoki O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi tomonidan, yoki xususiy bitimga asosan ishga jo'natiladilar. Shu asnoda ishga jo'natilganlar esa sanoqli kishini tashkil qiladi. Masalan, 2006 yilda Mehnat Vazirligi tomonidan atigi 985 kishi, xususiy bitimlarga asosan esa bor-yo'g'i 68 kishi, jami 1053 kishi AQSH, Janubiy Koreya, Malayziya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Xitoy, Turkiya kabi mamlakatlarga ishga yuborilgan.

Vaqtinchalik migrantlarning qolgan qismi xorijga mustaqil ish izlab ketganlardan iborat. Ular, asosan, qurilish, transport va qishloq xo'jaligida ikkinchi darajali yumushlar bilan mashg'ul bo'ladilar. Bu hol migrantlarning ijtimoiy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, migrantlar ijtimoiy qiyofasidan milliylik yo'qolib bormoqda. Ular o'zlari bilan birga o'zga turmush tarziga xos bo'lgan zamonaviy ommaviy madaniyat xususiyatlarni olib kelmoqdalarki, bu xususiyatlar hamma vaqt ham ijobiy xarakter kasb etmayapti. Aytaylik, aksariyat migrantlar Vatanlariga nigilizm, individualizm, molparastlik, axloqsizlik kabi illatlarni yuqtirib qaytadilar. Ikkinchidan, mavsumiy ishga ketgan kishilar oilasi a'zolarining ijtimoiy qiyofasida ham o'zgarishlar yuz bermoqda. Bunday oilada voyaga yetayotgan farzandlarning uzoq muddat ota yoki ona nazoratidan chetda qolishi ularning tarbiyasiga putur yetkazmoqda. Bunday oilalarda kamolga yetayotgan farzandlarning dunyoqarashi, qadriyatlar sistemasining o'zgarishiga ham olib kelmoqda. Bularidan ko'rinib turibdiki, ommaviy madaniyat salbiy elementlarining shaxsga ta'sirini kamaytirish borasida yangi chora tadbirlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda ommaviy madaniyat tarqalishiga sabab bo'luvchi mehnat migratsiyasi oqibatida kelib chiqayotgan ijtimoiy muammolarni ham yetarlicha tahlil etish lozim.

Ijtimoiy demografik munosabatlarning aniqlashda mamlakat miqyosida o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish muhim ahamiyatga ega. Aholini ro'yxatga olinishi ayniqsa hozirda, bozor munosabatlariga o'tish davrida yuzaga kelayotgan ko'plab ijtimoiy iqtisodiy, maishiy turmush sohalaridagi muammolarni hal etishda juda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, shahar muammolarini hal etishdagi ahamiyati katta.

Qishloq aholisining ijtimoiy tarkibiy jamiyat ijtimoiy tarkibining muayyan bo'lagi hisoblanadi. Qishloq aholisining ijtimoiy munosabatlarining muhim belgilari: yagona mehnat, yer, mulkiy boshqaruv munosabatlarini o'z ichiga oladi. Hozirda qishloq aholisining tarkibida ham tabaqalashuv jarayoni ko'chaymoqda. Ayniqsa, qishloqqa sanoatning kirib kelishi, savdo-sotiqning rivojlanishi va boshqa omillar oqibatida qishloq aholisi turli guruhlardan iborat bo'lgan ijtimoiy birlik sifatida rivojlanmoqda. Shahar sotsiologiyasi - sotsiologiya fanining maxsus sohasi bo'lib, unda shaharlarning umumiy, xususiy o'ziga xos rivojlanish va funksional qonunlari, xususiyatlari va muammolari o'rganiladi. Shahar sotsiologiyasi muammolariga qo'yidagilar kiradi: bozor munosabatlari sharoitida shahar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, shahar aholisining ijtimoiy tarkibi, turmush tarzi, madaniyat darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, aholi o'sishi va u bilan bog'liq ijtimoiy muammolar, ish bilan ta'minlanganligi, bandligi, ilmiy-madaniy hayot, xizmat ko'rsatish darajasi va turlari uning sifati, ekologik vaziyat, shaharni ijtimoiy rivojlanishidagi boshqaruv usulini o'rganish, jinoyatchilik darajasi va boshqalar.

Qishloq sotsiologiyasi-XX asrning 20-30 yillarda shakllandi. G'arb sotsiologiyasida P. Sorokin, K. Simmerman va K. Gelpinlar dastlabgi tadqiqotlar olib borganlar. Shahardan farq qilib, qishloq ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam taraqqiy qilganligi aholi turmush darajasining nisbatan pastligi, mehnat faoliyati turlarining kamligi, madaniy-maishiy va ilmiy darajasining nisbatan kam taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, - «Oddiy kommunal qulayliklardan mahrum bulgan qishloqlar va bo'linmalar hali ham kam emas. Bu adolatsizlikni g'oyat qisqa muddatda bartaraf etish kerak».

Qisqacha xulosalar:

Hozirda ijtimoiy munosabatlarda jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan asoslar yaratilmoqda. Xususiy mulkchilikka asoslangan ko'p ukladli, dunyo sari ochiq yuz tutgan iqtisodiyot paydo bo'layapti. Shuning uchun ham yangi iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sotsiologiyasini ishlab chiqish sosiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Respublikaning asta-sekin bozor munosabatlariga o'tib borish davrida Prezident I.A.Karimov tomonidan belgilangan besh tamoyilga asoslangan tarzda siyosat yurgizilmoqda. Stratifikatsiya sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy guruhlari va ularni tabaqalanishi belgilari tizimini o'zida aks ettiradi. Hozirgi zamon stratifikatsion yondashuvining nazariyotchilari ijtimoiy guruhlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, jamiyatning

asosan mulkka bo'lgan munosabat asosida tabaqalashuvi xususidagi marksistik yondashuvini inkor etib jamiyat, ma'lumot, ruhiyat, maishiy shart sharoitlar, bandlik darajasi, daromad ko'lamlari va boshqa belgilarga ko'ra tabaqalanishini asoslab beradilar. Ular yuqoridagi belgilarga ko'ra ajraluvchi ijtimoiy guruhlardan tashqari, yuqori tabaqa, o'rta tabaqa va quyi tabaqa doimiy amal etishini ta'kidlaydilar.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish (siyosati) munosabati bilan, O'zbekistonda mulkchilik turli shakllarining joriy qilinishi va ularning davlat himoyasiga olinishi taqsimot munosabatlarida tubdan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Strata nima?
2. Olamiy uyg'unlik nazariyasining mazmuni qanday?
3. Stratifikatsiya tushunchasini izohlang.
4. Konsensus nima?
5. Millatlar va etnik guruhlarga ta'rif bering.
6. Sotsial - etnik tarkib tushunchasini izohlang.
7. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida yangidan shakllanayotgan sotsial - etnik tarkibni aytib bering.
8. Sotsial tabaqalashuvga sabab bo'ladigan omillarni sanab ko'rsating.
9. Ijtimoiy tabaqalashuvning qanday turlari mavjud?
10. Jamiyatning ijtimoiy tarkibiga ta'sir o'tkazuvchi eng muhim ko'rsatkichlarni izohlang.
11. Sotsial mobillik tushunchasi.
12. Gorizontaal sotsial mobillik nima
13. Individual mobillikni tushuntiring.

7– MAVZU: SOTSIAL MUNOSABATLAR

REJA:

7.1.Sotsial munosabatlar.

7.2.Sotsial munosabatlarning turlari.

7.3.Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlari.

7.4.Milliy mafkura - ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi.

Mavzu bo'yicha tayanch atamalar:

Ijtimoiy hamkorlik, sotsial munosabatlar, iqtisodiy, mexanik birdamlik, organik birdamlik, tanazzul, begonalashuv, ijtimoiy birdamlik, milliy mafkura, milliy g'oya va tafakkur.

7.1. Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin kasb etadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta

dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy yo'lning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo sobiq Ittifoq falsafiy – sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yoqlama talqin qilinganligi bo'lsa, ikkinchisi esa ilg'or g'arb ijtimoiy adabiyotlarining, bu sohasi bo'yicha to'liq tadqiqot ma'lumotlarining bizda yo'qligidir.

Sotsial munosabatlar tushunchasining o'zi hali sotsiologiya fanida aniq va bir ilmiy ta'rifi hozircha o'z ifodasini topgani yo'q. Avvalambor, shuni ta'kidlash zarurki, sotsial munosabatlar ko'pincha ijtimoiy munosabatlar tushunchasi bilan tenglashtiriladi yoki sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asoslar borligini bilsa bo'ladi.

Sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng va tor ma'noda talqin qilingan. Keng ma'noda tushunish – sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir.

Tor ma'noda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretasiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan.

Sotsial munosabatlar - bu tabiat hodisalaridan o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.

O.Kont o'zining pozitivistik ta'limotida sotsial munosabatlar muammolarini xuddi biologik hodisalar metodi bilan o'rganish prinsiplarini keng targ'ib qiladi. Pozitivistik-naturalistik yo'nalishning ashaddiy raqibi bo'lgan fenomenologik sotsiologiya sotsial hayot va sotsial munosabatlarni bunday usulda talqin qilganligi uchun O. Kont va uning izdoshlarini keskin tanqid qiladi. Naturalizmning va jiddiy kamchilik va xatoliklarini bartaraf etish uchun fenomenologik sotsiologiya inson ongining faolligi bu muammolar echimining asosiy omilidir deb isbotlashga intiladi. Bu yo'nalish vakillarining fikricha faqatgina inson va uning tafakkuri tufayli sosial voqelikni hamda sotsial munosabatlarni konstruksiyalash (yaratish) mumkin bo'ladi. Chunki sotsial reallik va sotsial munosabatlar insonning interpretasion faoliyati orqaligina vujudga keladi. Fenomenologik sotsiologiyaning taniqli vakillaridan biri D. Silverman yuqoridagi g'oyalarni asoslash uchun pozitivistik sotsiologiya nazariyasini tanqid qiladi.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jug'rofiy-siyosiy maqomlar paydo bo'ldi. Eng muhimi esa totalitar tuzum barham topib, yangi davlatlar vujudga keldi, yangi jamiyatda bir partiyaviylik hukmronligi emirildi va mustaqil suveren davlatlar barpo bo'ldilar. Endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik prinsip orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu tamoyil orqali, sotsial munosabatlarning muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida respublikamizda sotsial munosabat muammolari

jahon ilmiy tafakkurining har-xil yo'nalish natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joizdir. Chunki sotsiologiya nafaqat bu muammonigina emas, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarni keng qamrovda kompleks harakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiqot qiladi.

7.2. Sotsial munosabatlar turlari. Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik - bu ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sosiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko'rinishidir. Avvalom bor shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, sotsiologiya faniga bu termin sotsial jipslashuvni bildiradigan tushuncha sifatida birinchi bo'lib O.Kont tomonidan kiritilgan edi. Bu muammoga ko'gina mutafakkilar o'zlarining keng etiborlarini qaratganlar. Ayniqsa E.Dyurkgeym, G.Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar, lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yo'nalishlarda olib borganlar. E.Dyurkgeymning fikricha, sotsial birdamlik, bu axloqiy prinsip va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir a'zosi tomonidan tan olinadi. O.Kont va G.Spenserlarning tadqiqotlarida sotsial birdamlikning asosini iqtisodiy mafaatlar tashkil qilish markaziy o'rinni egallaydi. G.Spenser o'zining birdamlik ta'limotida majburiy va ko'ngilli birdamlikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, kishilik jamiyati o'z rivojlanish yo'lida ikkita harbiy va sanoat davrlariga bo'linadi. Butun hayot bu erda intizomga asoslangan. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi. Muammoning xuddi ikkita jihatga ajratib tahlil qilinishni D.Dyurkgeymning ham ilmiy faoliyatida ko'rish mumkin. U o'z ta'limotini mexanik va organik birdamlikka ajratadi. Rivojlanmagan va eski jamiyatlarda hukmronlik qiladigan birdamlikni Dyurkgeym mexanik birdamlik deb ataydi.

Mexanik birdamlik - bu «jamoat turidagi» birdamlik bo'lib, u bu jamoadagi individlarning o'xshashliklari bilan belgilanadi va ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi. Jamiyatda ijtimoiy mehnatning taqsimlashishi tufayli individlar maxsus vazifalarini bajaradilar va bu xislatlar sababli jamiyat jonli organizmni eslatadi. Shu jamiyatda vujudga kelgan yangi turdagi birdamlikni Dyurkgeym organik birdamlik deb ataydi. Mehnatning taqsimlanishi individlarda o'zlariga xos qobiliyatlarning rivojlanishiga omil bo'ladi. Endi har bir individlarning o'zi esa bir-birlariga bog'liq bo'ladilar va ular sotsial munosabatlarning yagona tizimi orqali birdamlik tuyg'ulariga erishadilar.

Ko'pgina g'arb olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning ser mahsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha, butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalarini guruhlar mulki qilib berish kerak. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo'lsa, «ma'muriyat» xalqdan ajralib qoladi va shu sabab tufayli byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. O'z-o'zidan tabiiyki, bu jarayonlar natijasida ishchilar o'z mehnatlaridan mafaatdorlikni his qilmaydilar.

Mazkur taxminlarning aksariyati o'z isbotlarini topdilar. Ayniqsa, yarim mustamlakachilik davrida, bizning diyorda soxta birdamlik asosidagi kooperasiyalashtirish ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperasiya niqobi ostida bizning hudud xom-ashyo etishtiradigan respublikaga aylandi. Jamiyatimizda tub ma'nodagi birlashma jarayoni faoliyat ko'rsatmadi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlab ko'rsatganlaridek, "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda... Eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin. Hech bir korxonada, hech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi».

Iqtisodiy va taqsimot munosabatlari. Jamiyat ijtimoiy tarkibida har bir shaxs qaysi ijtimoiy guruhga va undagi hududiy, tarmoq (soha) va ijtimoiy mavqe yo'nalishiga mansubligi bilan karakterlanadi. Bulardan tashqari yana, shaxs jinsi, yosh jihati, ommaviy ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishi, milliy mansubligi, ma'lumoti, ilmiy darajasi kabi parametrlar bilan ham o'rganiladi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklari ijtimoiy guruh va ayrim shaxslar qanchalik moddiy imkoniyatga egaligi, jamg'arma mablag'i miqdori kabi tomonlarni o'rganishni ham talab etadi.

Hozirda ijtimoiy munosabatlarda jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan asoslar yaratilmoqda. Xususiy mulkchilikka asoslangan ko'p ukladli, dunyo sari ochiq yuz tutgan iqtisodiyot paydo bo'layotir. Shuning uchun ham yangi iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sosiologiyasini ishlab chiqish sosiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirda mehnatning mazmunini chuqur va har jihatdan o'zgartirmay turib, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida sifat o'zgarishiga erishib bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, mehnatga yangicha munosabatni tarkib toptirish, yangi texnologiyani yaratish, fanni yanada taraqqiy ettirish, munosib malakali kadrlar tayyorlash, maorifni tubdan yangilash kabi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar amalga oshirilmog'i lozim.

Iqtisodiyot sotsiologiyasi ishlab chiqarish va mehnat jarayonini, taqsimot munosabatlari, moddiy ta'minot, aholining moddiy turmush darajasi va shu kabi jamiyatning iqtisodiy rivojlanish sohasidagi qonuniyatlarni o'rganadi. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, eng avvalo, uning iqtisodiy asoslari bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy hayotdagi boshqa sohalarining rivojlanish darajasi ham shunga mos ravishda taraqqiy qilib boradi. Masalan, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va aholining turmush darajasi madaniyati, xizmat ko'rsatish sohalarining taraqqiyotini belgilab beradi.

Iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda asosiy e'tibor: mehnatning ijtimoiy muammolari, mehnat faoliyati va taqsimot munosabatlariga qaratiladi.

Jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar ular o'rtasida qanday tarzda va qay miqdorda taqsimlanishidagi farq ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farqni keltirib chiqaradi. Xususiy mulkning qonuniy deb e'lon qilinishi bilan jamiyatimiz ijtimoiy tarkibidagi tekislik asta-sekin o'z o'rnini ijtimoiy mavqeji jihatidan va

etishtirilayotgan moddiy ne'matlarning taqsimoti jihatidan farq qiluvchi ijtimoiy guruh va tabaqalarga bo'linishi ortib bormoqda.

Respublikaning asta-sekin bozor munosabatlariga o'tib borish davrida Prezident I.A.Karimov tomonidan belgilangan besh tamoyilga asoslangan tarzda siyosat yurgizilmoqda. Bularning birinchisi – iqtisodiyotning siyosatdan ustun bo'lishi, uni har qanday mafkuraviy tazyiqlardan ozod qilish lozimligi. Ikkinchisi – iqtisodiyotni boshqarishda, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida, yangi tuzum barpo etilayotganda davlat boshqaruv tizimini qo'ldan chiqarmasligi, ya'ni davlat asosiy islohotchi bo'lmog'i lozimligidir. Uchinchisi – qonunlarga barcha baravar rioya etishini ta'minlash, ya'ni qonun ustivorligi. To'rtinchisi – kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Beshinchisi – bozor iqtisodiyotida shoshqaloqlikka yo'l qo'ymay bosqichma-bosqich o'tish zarurligi.

Taqsimot munosabatlari sotsiologiya predmetiga taalluqli bo'lib, uning tarkibiga ishlab chiqarish qurollari taqsimoti, jamiyat a'zolarining ishlab chiqarishning turli tarmoqlari bo'yicha joylashuvi va jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish qurollari va iste'mol mollari kiradi. Mohiyat e'tibori bilan taqsimot munosabatlari mavjud ishlab chiqarish munosabatlari harakteriga mos keladi. Alohida kishilar va ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatining mohiyati taqsimot munosabatlari harakteri bilan belgilanadi. Ijtimoiy guruhlar, tabaqalar va alohida olingan kishilarning real daromadlari darajasi, bu daromadlarning o'zgarishi va rivojlanishi istiqbollari ularning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalarini belgilaydi.

Sobiq sovet tuzumi davrida ijtimoiy guruhlarning moddiy daromadlarini tenglashtirish siyosati yurgizilgan. Natijada kishilarning mehnatga munosabati susayib, ijodiylik, omilkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, moddiy manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim stimullari yo'qola borgan. Demak, taqsimot munosabatlari jamiyat hayotini, ayniqsa, uning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan, O'zbekistonda mulkchilik turli shakllarining joriy qilinishi va ularning davlat himoyasiga olinishi taqsimot munosabatlarida tubdan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston o'z milliy puliga ega bo'lishi munosabati bilan iqtisodiy va taqsimot munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. O'zbekiston ichki bozorini to'ldirish — davlat siyosati darajasida olib borilmoqda. Ammo hozirda hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy integrasiyaning vaqtincha buzilganligi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy taqchilik, ayniqsa, xalq iste'moli mollarining tanqisligi iqtisodiy va taqsimot munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning oqibatida kishilarning turmush darajasi ancha pastladi.

O'zbekiston davlatining bu sohadagi siyosati “milliy boylikning ko'payishini, respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishdan iborat buyuk maqsadni ko'zlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot va taqsimot munosabatlari sotsiologiya fani doirasida tadqiqot ob'yekti sifatida muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy – sinfiy munosabatlar. Jamiyatning ijtimoiy tarkibida ijtimoiy-sinfiy munosabatlar ham alohida o'rin egallaydi. Sobiq Sovet sotsiologiyasida sinfiy munosabatlar, sinfiy kurash masalalariga juda keng o'rin berilib, bu munosabatlar ijtimoiy tarkibdagi boshqa barcha elementlar, munosabatlar ichida eng muhim va belgilovchi hisoblangan. Buning sababi, unda jamiyatning iqtisodiy tarkibi boshqa ijtimoiy guruhlardagiga nisbatan to'laroq va aniqroq aks etadi, - deb ko'rsatilgan. Haqiqatdan ham, davlat sotsializmi davrida mavjud ishchilar va dehqonlar sinfi jamiyatning eng kam ta'minlangan, quyi darajadagi sinflarni tashkil qildi. Intelligentsiya ijtimoiy qatlami esa moddiy ta'minlanganlik jihatidan ulardan unchalik farq qilmagan.

Ishchilar sinfi ko'p qirrali ijtimoiy birlik hisoblanadi. Uning ichki tarkibi demografik (jinsi va yoshi bilan), professional — tayyorgarligi bilan (mehnatning mazmuni va karakteri bilan) hududiy (ijtimoiy-hududiy birlik bilan), etnik (milliy farqi) va madaniy-ma'lumoti bilan farq qiluvchi tarkibiy tuzilishga ega.

Hozirda O'zbekiston davlati miqyosida milliy ishchilar sinfining tarkib topishi uchun shart-sharoit yaratilmoqda. Jahon talablariga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun moddiy zamin tayyorlanmoqda. Chet el firmalari bilan qo'shma korxonalar yaratilmoqda. Endilikda, yuqori texnologiyaga asoslangan sanoat ishlab chiqarishining malakali ishchi - injenerlar guruhi shakllana boshladi.

Ishchilar sinfi rivojlanish istiqbollariga erishish uchun ularni miqdoriy jihatdan ko'paytirish bilangina erishib bo'lmaydi. Avvalo mehnatning intellektual mazmunini boyitish, zamonaviy avtomat-texnologiya bilan jihozlangan iqtisodiy shart-sharoitlarni barpo qilish zarur. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan bunday tadbirlar bevosita qishloq xo'jaligi dehqonlari hamda intelligentsiya qatlami uchun ham taalluqlidir.

Iqtisodiyotni intensiv ravishda rivojlantirish ijtimoiy-tarkibiy aloqalarga ta'siri kuchli ta'sir etadi. Shuningdek, ijtimoiy tarkibdagi iqtisodiy va taqsimot munosabatlarining ijobiy rivojlanishi mamlakat tabiiy resurslari, hududiy o'ziga xos xususiyatlar, siyosiy barqarorlik, millatlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Mamlakat qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lgan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirayotgan dehqonlar ham ijtimoiy tarkibda sinf sifatida o'rin tutadi. O'zbekistonda aholining 60 foizi qishloq joylarida yashaydi. Milliy daromadning 44 foizidan ko'prog'i bugungi kunda qishloq xo'jaligidan olinadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz bo'yicha mehnatga yaroqli kishilarning 39,3 foizi chorvachilik va qishloq xo'jaligida mehnat qiladi. Ba'zi rayonlarda bu ko'rsatkich 80-90 foizni tashkil etdi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida dehqonlar sinfining o'rne kattadir. Hozirda mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston hukumati dehqonlar mavqeini ko'tarishga alohida e'tibor bermoqda. Ularning turmush darajasini oshirishda katta ishlar olib borilayapti. Uy-joy qurish uchun bepul yer ajratildi. Moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Ekinzor yerlar ijaraga berilmoqda. Fermerlarning

soni ortmoqda. Yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shaharga olib kelib sotish uchun imkoniyatlar yaratildi. Ularning oladigan yillik daromadlari bir necha bor ortdi.

Dehqonlar sinfi ichida ham tabaqalanish jarayoni tez sur'atlar bilan bormoqda. Ularning tarkibida ishbilarmon, tadbirkor fermer xo'jaliklari paydo bo'ldi. Ijarachilar guruhi ham borgan sari qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi iqtisodiy munosabatlarning tarkib topishi bilan qishloq ishchilar sinfi shakllanishiga moddiy zamin tayyorlanmoqda. Boshqacha aytganda, qishloqqa sanoat kirib kelmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida mavjud ortiqcha ish kuchini ish bilan ta'minlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirmoqda.

Ziyolilar tarkibini yana shahar va qishloq, ijtimoiy bandlik sohalari bo'yicha (ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida) mehnatning ijodiy harakteri darajasi bilan, malaka va boshqa jihatlari bilan farqlash mumkin.

Sobiq sovet davrida ziyolilar son jihatidan ortdi-yu, ammo uning sifat darajasi ancha past bo'lib qolaverdi. Chunki ziyolilar qatlami, avvalam bor, mehnat harakteri bilan belgilanadi, O'tgan davrda oliy ma'lumot olgan qanchadan-qancha kishilar hozirda ishchi bo'lib, yoki tijorat va boshqa sohalarda ishlamoqdalar. Ular ziyolilar tarkibiga kirmaydi.

Sotsiologiyada milliy munosabatlar iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy munosabatlardagi o'zaro uzviy aloqadorlik nazarda tutilgan holda konkret etnik muhit doirasida, ijtimoiy jamoalardagi, oiladagi, hududiy tartibdagi munosabatlar doirasida olib qarab o'rganiladi. Shuningdek, millatlararo munosabatlarning jamiyat ijtimoiy hayotiga ta'siri va ularning ijtimoiy oqibatlari tadqiq etilmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida muayyan iqtisodiy-siyosiy va ideologik rejim asosida ushlab turilgan, boshqarilgan milliy munosabatlar endilikda asta-sekin tiklanmoqda. Shu jihatdan, O'zbekistonning ko'p millatli davlat bo'lganligini e'tiborda tutgan holda, unda istiqomat qilayotgan millatlar va xalqlarning ijtimoiy turmushi, o'zaro aloqasi va shu kabi munosabatlarni sotsiologik tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Yaqin o'tmishimizda sodir bo'lgan Farg'ona, Andijon, O'zgan voqealari qayta takrorlanmasligi uchun, O'zbekistonda bundan keyin ham millatlararo hamdo'stlikni rivojlantirish, o'zaro ahil, bir oila bo'lib yashash talab etiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston hukumatining asosiy maqsadi ham Markaziy Osiyo hududida har qanday milliy nizolarning oldini olishdan iborat.

Sotsiologiya doirasida ham ijtimoiy-etnik munosabatlar ilmiy tahlilga muhtoj bo'ladi. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik jihatlarni tadqiq qilish muhimdir. Shuning uchun ham bu masalalar sotsiologiya, etnopsixologiya va boshqa ijtimoiy, gumanitar fan sohaslarida keng o'rganilishi shart.

Ijtimoiy – demografik munosabatlar.Sosiologiyada jamiyat ijtimoiy tarkibiy tuzilishining ijtimoiy-demografik munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Bu munosabatlar, asosan, aholining jinsiy tuzilishi, yoshi, oilaviy va genetik jihatlarni o'z ichiga oladi. Har qanday davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiga demografik

siyosat ham kiradi. Demografik munosabatlarga mamlakat aholisining barcha qatlamlari mansub.

Ijtimoiy-demografik tarkibga statistik jihatdan o'rganiladigan aholi o'rtasida tug'ilish, o'lim, nikoh, oilaviy qo'ydi-chiqdilar, shahar va qishloq aholisining migratsiyasi, hududiy migratsiya kabilar kiradi.

O'zbekiston ijtimoiy-demografik jihatdan nihoyatda murakkab tuzilishga egadir. Tub aholining 51 foizi xotin-qizlar, 9,6 mln. aholi 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlardan iborat. Farg'ona vodiysi aholisining zichligi juda katta. Andijonda har bir kvadrat kilometr maydonga 485 nafar odam tug'ri keladi. Bunday demografik holat jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarida ham turli muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Aholining yosh jihatdan tarkibiy tuzilishini o'rganish mamlakatning nafahat mehnat va ishlab chiqarish potentsialini aniqlashga, balki uning rivojlanish dinamikasini ham aniqlashga xizmat qiladi. Bu jihatdan O'zbekistonda ba'zi Yevropa va Yaponiya mamlakatlariga nisbatan «yosh» mamlakat hisoblanadi.

Aholi tarkibining jinsiy tuzilishini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Bu, mamlakat ishlab chiqarishini tashkil etish, ayollar uchun qulay mehnat turlarini tashkil qilish va ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar ijtimoiy ahvolining o'ziga xos xususiyatlari ularning mehnat bilan bandligi, mehnat turi, oilaviy, turmush sharoiti va, shu kabilarda ko'rinadi. Ularni og'ir jismoniy mehnatdan xalos etish masalasi hozirda eng muhim masalalardandir. Sobiq sovet davrida o'zbek xotin-qizlari qishloq xo'jaligida ayovsiz ekspluatatsiya qilindi. Natijada ularning salomatligi keskin yomonlashdi. Kasalmand, nimjon onalardan hech qachon sog'lom farzand dunyoga kelmaydi. O'zbek yoshlarining har uchtadan bittasi, hatto harbiy xizmatga qodir bo'lmay qolgan edi. Prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan ilgari surilayotgan «Sog'lom avlod davlat dasturi» va «Sog'lom bola» davlat dasturlari millat kelajagini ta'minlashning eng muhim masalasidir.

Aholi oilaviy tarkibining soni, moddiy turmush darajasi, daromadi, oilaviy munosabatlarni va shu kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Oilani oziq-ovqat va iste'mol mollari bilan ta'minlash muammolari davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadini ifoda etadi. Oila tarkibi sotsiologiyaning maxsus sohasi – mikrosotsiologiyada ham chuqur tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Unda uning iqtisodiy, psixologik jihatlarini e'tiborda tutish zarur. Nikoh munosabatlari, yolg'iz yashovchilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish jamiyat ijtimoiy tarkibi hayotini ijobiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Oddiy bir misol: diniy munosabatlarda ilgari nikoh muqaddas sanalar edi. Sobiq sovet tuzumi davrida dinning ijtimoiy hayotdagi mavqeiga putur etkazilishi va dahriylikning kuchayishi oqibatida nikoh munosabatlari muqaddas deb qaralmay qo'yildi. Nikoh shunchaki, rasmiy ro'yxatga olishdan iborat bo'lib qoldi. Natijada oila muqaddasligi yo'qolib, qo'ydi-chiqdilar ko'paydi. Bu esa jamiyatning nafaqat iqtisodiyotiga, balki ma'naviy-axloqiy, psixologik munosabatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Noaxloqiy tendensiyalarning kuchayishiga olib keldi. yosh avlod tarbiyasiga zarar etkazildi. Jamiyatda tirik etimlar soni ko'paydi. Davlat etimxonalarining soni ortdi. Moddiy va boshqa jihatdan etarlicha

ta'minlanganligiga qaramay ularda tarbiya topgan bolalar oilada, o'z ota-onalari bag'rida voyaga etgan bolalardan farq qila boshladi.

Sotsiologiyada aholining genetik tarkibini o'rganish borgan sari moddiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Unga aholining tabiiy va migrasiya harakati kiradi. O'zbek millati boshqa millatlarga nisbatan o'z tug'ilib o'sgan joyiga ko'proq bog'langan bo'ladi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi aholisida bunday xususiyat kuchli. Shuning uchun ham vodiya aholi zichligi boshqa hududlarga nisbatan ortiq.

O'zbekistonda genetik tarkibni o'rganishga hozircha etarli e'tibor berilmagan. Uning ijtimoiy-demografik munosabatlardagi ahamiyati katta.

7.3. Begonalashuv va tanazzul hamda ijtimoiy oqibatlar. Biz sotsiologiya fanining muhim masalalaridan yana biri begonalashuv muammosiga to'xtalib o'tamiz. **Begonalashuv** – odamlar, ijtimoiy guruhlarning bir-biri bilan yonma-yon yashashlriga qaramay, ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon.

Bu masala ham ijtimoiy birdamlik singari jamiyat rivojlanishiga o'zini ta'sirini ko'rsatadi. Jamiyat hayotida biz begonalashuvning qo'yidagi turlarini ko'rishimiz mumkin Hozirgi jamiyat hayotida quyidagi begonalashuv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Iqtisodiy.
2. Siyosiy.
3. Madaniy.
4. Ijtimoiy.
5. Ruhiy.

Bu begonalashuv turlari o'zlarining ma'lum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega: 1. Faoliyatda begonalashuv. 2. Faoliyat boshqaruvidan begonalashish. 3. Faoliyat natijalaridan begonalashish. Siyosiy begonalashish siyosiy hokimiyatdan begonalashishdan; madaniy begonalashish muloqotdan, insonlarning bir-biridan; psixologik begonalashuv o'z-o'zidan begonalashishdan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birlariga bog'liq hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib, narxlar tez sur'atlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan deb fikr yuritishimiz mumkin.

Bu chuqur tanazzul insonlarning kuchli begonalashuv olamiga salbiy ta'sir qilishi, ba'zi tartiblar kirgizishi aniq. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa tanazzul ham shunchalik, chuqurlashib boraveradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bu esa taraqqiyot uchun qo'yilgan ulkan qadamdir. Lekin shu bilan birga ijtimoiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning shunday bir turi - ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan o'z mehnati natijasida

begonalashib boradi. Endi bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yo'q.

Siyosiy jabhada ham siyosiy hokimiyatdan jamiyatning ko'pgina a'zolari begonalashtirildilar. Ya'ni, siyosiy hokimiyat xalq hokimiyati umumxalq, hokimiyati deb e'lon qilingan bo'lsada, aslida u ma'lum bir guruhning - elitaning xususiy mulkiga aylandi. Buning asosida esa butun bir xalq davlat siyosiy hokimiyatidan begonalashdi va bu begonalashgan omma bilan nomenklatura orasida ulkan jarlik paydo bo'ldi. O'z navbatida bu jarayonlar siyosiy tanazzulga olib keldi va bu tanazzul tufayli tashqi dushman yenga olmagan totalitar davlat o'z-o'zidan parchalanib ketdi.

Madaniy sohadagi begonalashuv ham anchagina chuqur salbiy oqibatlariga olib keladigan ma'naviy tanazzulni keltirib chiqardi. Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda ma'naviyat va madaniyatning o'rni o'zgacha. Chunki, ular individlarning barkamol bo'lib shakllanishlariga katta ta'sir ko'rsatadilar. Agar jamiyat a'zolari o'z ma'naviyatlari boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular endi o'zlarining kelib chiqishlaridan tortib, to o'z millatlarining ham milliy urf-odatlarini, an'analarini ham inkor qila boshlaydilar. Agarda yaqin o'tmishimizga, uning tarixiga murojaat etsak ushbu satrlarimizning yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy madaniy merosimizdan begonalashuvimiz bizlarni atoqli adib Chingiz Aytmatovning ta'biricha, manqurtlarga aylantiray dedi, ya'ni biz o'z xalqimiz tarixi, milliy ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari, dinimiz va o'zligimizdan uzoqlashib qoldik. Davlatimiz mustaqilligiga erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik. Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan ijtimoiy begonalashish insonlarni muloqotdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy xususiyatga egadir. O'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyojlar asosida doim insonlar bir-birlari bilan munosabatlarda muloqotlarda bo'ladilar. Muloqotning ijtimoiy ma'nosi shundaki, u madaniyat shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib ximat qiladi. Lekin iqtisodiy tanazzul ko'pgina insonlarni qiyin iqtisodiy ahvolga solib qo'yadi. Natijada jamiyat a'zolarining aksariyati bozor iqtisodi munosabalariga ko'nikishlari qiyin kechadi. Oqibatda inflyatsiyadagi ehtiyojlar tizimining cheklanishi va normallashtirish insonlarda agressivlik kayfiyati, johillashish fuqarolarda an'ana va urf-odatlar, ma'naviy qadryatlarni yo'qotishga olib keladi. Shu kabi salbiy omillar insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlarini kuchaytiradi va hamma o'z holicha degan norasmiy qonun paydo bo'ladi.

Ruhiy begonalashuv - bu insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishdir. Ushbu muammoni nemis mutaffakkiri Erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqan. Uning fikricha, inson mohiyati doim o'ziga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan sotsial tuzilma ta'siri ostidagi inson o'z-o'zidan begonalashuvining har bir darajasiga ma'lum bir sotsial harakter - dunyoparaslik, ekspluatatorlik, reseptiv (andozalik, qolip), bozorga oidlik xosdir.

Zamonaviy jamiyatni E.Fromm inson mohiyatini «mashinalashtirish», «kompyuterlashtirish» va «robotlashtirish» jarayonlari yordamida begonalashuv uning darajasining bir mahsuli deb ta'riflaydi. Bozorga yo'naltirilgan sotsial harakat

paydo bo'lib, unda iste'molga intilish, ikkilanishlar hissiyoti, yakkalanib qolishlik va boshqa salbiy holat, hissiyotlar markaziy ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shu yerda psixologik va sotsial begonalashish bir-birlari bilan juda uyg'unlashib ketishlarini ko'rish mumkin. Insonlar bir-birlaridan munosabatda, muloqotda begonalashsalar, o'z-o'zlaridan begonalashish ham yuz beradi, chunki insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlari oqibatida, ular yakkalanish, zerikish va hayotga qiziqishlari so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida inson o'z kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yo'qolib, u o'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi turli xil begonalashuv jarayonlari tezroq ilmiylik va uyg'unlik asosida bartaraf qilinsagina jamiyat sog'lom sharoitda taraqqiy etadi va salbiy ijtimoiy hodisalarning o'z vaqtida oldi olinadi. Masalan, mehnatdan begonalashishlikni bartaraf etish uchun birinchi galda insonlarning o'z mehnatlari natijalaridan manfaatdor bo'lishlari va uning oqibatida esa ularning mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirib, qiziqish va kuch-g'ayratlari bilan ishlashlarini tashkil etish darkor.

Ishlab chiqarishni boshqarishdan begonalashish muammosini bartaraf etish ham juda muhim ma'no kasb etadi. Buning uchun ishlab chiqarish munosabatlarini chuqur demokratiyalashtirish, korxonalar, tashkilot va muassasalardagi mavjud boshqaruv tizimlarini demokratik yo'llar bilan takomillashtirish va ishchi, xizmatchilarga xo'jalik egasining aniq vazifasi, huquqi va mas'uliyatliklarini bilishlari kerak.

Madaniyatdan begonalashuvni bartaraf etish uchun madaniy merosga munosabatni takomillashtirib borish, jamiyatning har bir a'zosi ma'naviy qadriyatlardan yaxshi xabardor bo'lish va madaniy qurilishga etarli mablag' ajratilishini ta'minlash zarur.

Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf qilish uchun insonlarning bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarni haqiqiy birdamlik va hamkorlik asosida qurish kerakki, shunda har bir inson o'zini boshqalar uchun ham kerak ekanligini chin yurakdan sezsin.

Ruhiy begonalashuvni bartaraf etish choralari sotsial begonalashuvni bartaraf etishning uzviy davomidir. Inson o'zini kimgadir kerakligini ruhan his qila olsagina u hech qachon tushkunlikka tushmaydi. Yakkalanish, iztirobga tushish havfidan xalos bo'ladi, oqibatda uning o'z-o'zidan, o'z mohiyatidan begonalashuviga hech qanday sabab qolmaydi.

Biz qurayotgan bugungi yangi jamiyat o'z oldiga bu begonalashuv jarayonlarini tezroq bartaraf etib, haqiqiy rivojlanishga, erkinlikka, ozodlikka erishish uchun hozirgi qiyinchiliklarni sobitqadamlik bilan engib bormoqda. Yaqin yillar ichida bu harakatlarning natijalarida, albatta yuzaga chiqadi, deb umid qilishga hamma asoslar mavjuddir. Shu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimov 2-chaqiriq Oliy Majlis 1-sessiyasida ta'kidlanganidek, «Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish, uning izchilligi va samarasini ta'minlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning mazkur bosqichida oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir»

7.4. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur qamrab olib, davlatimizni rivojlangan mamlakatlar safidan tezroq o'z munosib o'rnini egallashiga hizmat qilmoqda. Albatta, ushbu ijtimoiy jarayonning bir tekisda kechishi muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Mazkur qiyinchiliklar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo'lgan milliy mafkurani yaratish harakatlarida ko'proq namoyon bo'layotgani biz jamiyatshunoslarni ko'proq tashvishga solmoqda. Chunki, milliy mafkura mustaqil davlatning asosiy ma'naviy poydevorlaridan hisoblanadi. U siz hech bir davlat barqaror rivojlanish xususiyatiga ega bo'la olmaydi.

Milliy mafkuramiz esa biror bir siyosiy partiya, yohud ijtimoiy harakatlarning emas, balki umumxalq manfaatlarini ifodalashi juda muhimdir. Ushbu mafkuraning mazmun va mohiyati millatimizning o'ziga xos bo'lgan tafakkur tarziga mos kelishi uni real hayotdan ajralmasligini ta'minlaydi.

«Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'priklarni bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»³⁷. Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan fikrlardan ma'lumki, milliy mafkurani shakllanishiga millatning o'ziga xos xususiyatlari: milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar va udumlar negizida shakllanadigan hamda rivojlanadigan tafakkur tarzi bevosita asos bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, milliy g'oya va tafakkur o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir. Shuning uchun ularni bir-birlaridan sira ajratib olishimiz mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, qaysi bir jamiyatda ushbu masalaga to'g'ri munosabatda bo'lib, uning negizida milliy mafkura shakllansa, o'sha jamiyatdan taraqqiyot, erkinlik va ozodlik qaror topadi.

O'rta asrlarda yashab o'tgan avlod-ajdodlarimiz hayot yo'llarini tahlil qilib ko'rsak, shunga amin bo'lamizki, al Forobiy, al Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab yuksak tafakkur egalari bo'lgan bobokalonlarimiz yashagan ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan tafakkur tarzi va milliy g'oyalar naqadar teran va ilmiy asosga qurilganligini ko'ramiz³⁸. Demak, ajdodlarimiz yashagan o'sha davrlarda ushbu masalalarga katta e'tibor qaratilgan. Shuning oqibati o'laroq, Turon eli yuksak rivojlangan ilm-fan va madaniyat o'chog'i bo'lgan.

Lekin baxtga qarshi, Yevropadagi mashhur Renesans davridan ancha ilgari yaratilgan bu taraqqiyot yo'lini biz asta-sekinlik bilan unuta boshladik. Milliy g'oya, milliy mafkuraning asoslaridan bo'lgan ma'naviy boyliklarimizga qanchalik e'tiborimizni kamroq qaratsak, taraqqiyot yo'lidan shunchalik chetga chiqib keta berdik va milliy g'oya o'rnini «mahalliychilik» g'oyasi egalladi. Buning natijasida esa markazlashgan ulkan davlatimiz parchalanib, millatimiz tarqoq va qoloqlik darajasiga tushib qoldi. Yagona milliy g'oyamizni mahalliychilik g'oyasiga aylantirishimiz, buning natijasida esa tarqoqlilik va kuchsizlik darajasiga

³⁷ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, 16-bet

³⁸ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, 22-bet.

tushishimiz sababli avval chorizm mustamlakasiga, keyinchalik esa sobiq sovet imperiyasining arzon hom ashyo etishtirib boradigan «viloyati»ga aylandik.

Mana endi biz 130 yildan ortiq davom etgan mustamlachilikdan qutulib, yana markazlashgan va mustaqil davlatchiligimizga erishdik. Shu o'rinda aytishimiz joizki, bizdan oldin o'tgan avlodlarimiz yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni aslo qaytarmasligimiz zarur. Buning uchun esa o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalash kerak. Jamiyat hayotini sotsiologik tahlil qilish shuni ko'rsatayaptiki, vatandoshlarimiz ushbu milliy mafkura mohiyatini borgan sari chuqurroq tushunib borayotganlarini qayd qilish mumkin.

Sotsiologiya va boshqa ijtmoyiy-gumanitar fanlar doimiy ravishda o'zlarining ham nazariy, ham amaliy tadqiqotlari bilan milliy istiqloq mafkurasi g'oyalarini hayotga tadbiiq etishning samarali usullarini chuqurroq tadqiq etishga mavjud barcha imkoniyatlarini amalga oshirishlari kerak.

Qisqacha xulosalar:

Respublikamizda sotsial munosabatlar muammolari jahon ilmiy tafakkurining har xil yo'nalishlari natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini alohida ta'kidlash joizdir. Bu muammolarni yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joiz. Chunki sotsiologiya nafaqat bu muammoni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarini keng qamrovda, kompleks harakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiqot qiladi.

Sotsiologiya va boshqa ijtmoyiy-gumanitar fanlar doimiy ravishda o'zlarining ham nazariy, ham amaliy tadqiqotlari bilan milliy istiqloq mafkurasi g'oyalarini hayotga tadbiiq etishning samarali usullarini chuqurroq tadqiq etishga mavjud barcha imkoniyatlarini amalga oshirishlari kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Sotsial munosabatlar tushunchasini yoritib bering.
2. Sotsial munosabatlarning qanday turlari mavjud?
3. Sotsial birdamlik va uning ahamiyatini yoritib.
4. Iqtisodiy va taqsimot munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Ijtimoiy-demografik munosabatlar o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?
6. Begonalashuv turlarini yoritib.
7. Milliy mafkura - ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi ekanligini isbotlang.

8 - MAVZU. EMPIRIK SOTSIOLOGIK TADQIQOT VA UNING METODLARI

REJA:

- 8.1. Sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy asoslari.**
- 8.2. Sotsiologik tadqiqot usullari.**

8.3. Anketa, intervyu, eksperiment usullarini qo'llanish texnikasi

8.4. Kuzatish, panelli tadqiqot

8.5. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash usullari.

8.6. Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish.

Tayanch atamalar:

Dastur, sotsiologik tadqiqot, hujjat, panel, ijtimoiy muammo, uslub, Kogorta, pilotaj-tajriba o'tkazish, faktlar, intervyu, respondent, suhbat, anketa, so'rov, ekspert, statistika, tanlov, empirik, gipoteza, kuzatish usuli, matematik modellashtirish, prognoz.

8.1. Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarining ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi.

Dastur hayot haqiqatidan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatidan puxta ishlangan bo'lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi ana shu omillarga bevosita bog'liqdir. Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z o'ziga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarni xarakterlab berish, ishning, ilmiy tahlinini belgilash, usullarini aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish sxemasini chizib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi³⁹.

Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhimdir. Birinchidan ishlab chiqilgan nazariy umumlashmalardan real tadqiqot jarayonlariga o'ta bilish va ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yig'ilgan empirik materiallardan nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish ko'nikmalariga ega bo'lish ana shu talablar mazmunidir.

Dastur asosan ikki katta bilim, ya'ni nazariy-metodologik va amaliy uslubiy bo'limlardan iborat. Nazariy-metodologik bo'lim mavzu tanlash, tadqiqot ob'yektini xarakterlash, maqsad va vazifalar, faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni o'z o'ziga olsa, amaliy uslubiy bo'lim ma'lumotlarni to'plash usullarini bayon etish yig'ilgan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va tavsiyalar tayyorlash singari amaliy faoliyatlarni mujassamlashtiradi.

Dastur mazmunida turli tavsirlar oqibatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy muammo vaziyatlari aniq va yorqin ifoda etilmog'i lozim. Ilmiy muammoning qo'yilishi muayyan soha amal qilayotgan bilimlar hamda amaliy andozalar doirasidan qoniqmaslik, bu bilimlar chegarasini kengaytirish demakdir. Zero, muayyan tadqiqotlar boshlangunga qadar ma'qul bo'lgan bilimlar doirasida hamisha ham ijtimoiy muammoli vaziyat hal etilavermaydi. Odatda ijtimoiy muammo amaliy vositalar bilan hal etilmagan holatda ilmga, tadqiqot o'tkazishga murojaat qilinadi. Bu murojaat ilmda ijtimoiy buyurtma deb ataladi. Shu tariqa sotsiologning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin.

³⁹ B.R. Ubaydullayeva, O. Otamirzayev, M. Bekmurodov, O'. Qayumov. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. "Ijtimoiy fikr" Markazi. T. 2001.

Ammo sotsiologning shaxsiy tashabbusi ham real hayot muammolari asosida paydo bo'lmog'i lozim.

Empirik sotsiologik tadqiqot nima?

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Empirik"- so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, "tajriba" ma'nosini anglatadi⁴⁰. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlar to'g'risida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt deganda, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jamiyatda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida va unga rejali prognoz berish bilan uni ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Ushbu bo'limda amaliy sotsiologik tadqiqot ishlari olib borishning metodologiyasi, uslubiyati, asosiy usul va vositalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Germaniyalik sotsiologlar amaliy sotsiologik tadqiqotlarni 3 bosqichdan iborat deb ko'rsatadilar.

1. Asosiy bosqich: amaliy tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish bosqichi. Bu bosqichda 4 ta vazifa bajariladi:

- 1.1. Empirik tadqiqot maqsadini aniqlash va belgilash.
- 1.2. Empirik tadqiqot g'oyasini ishlab chiqish.
- 1.3. Empirik tadqiqot jarayonini tashkil etish.
- 1.4. Analitik muolaja tayyorlash.

Ikkinchi bosqich: Asosiy bosqich: empirik tadqiqot va eksperiment o'tkazish.

Uchinchi bosqich: Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Bu bosqichda 3 ta vazifa bajariladi:

- 3.1. Olingan empirik tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash.
- 3.2. Nazariy jihatdan qayta ishlash.
- 3.3. Olingan natijalarni amaliyotda qo'llash.

Har qanday tadqiqot biron-bir muammoning qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o'zining ilmiy echimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilishning asosiy

⁴⁰ Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya. Lug'at-T. Ibn Sino.,1999.

shakllari: davlat buyurtmasi asosida, xo'jalik shartnomasi asosida, jamoatchilik va aralash tartibda bo'lishi mumkin.

Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tarkibiy tuzilishi

Empirik sotsiologik tadqiqot ob'yekti bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tahlillar asosida mavjud muammoni tahlil qilish dasturi ishlab chiqiladi. Ilmiy dastur har qanday amaliy, nazariy sotsiologik tadqiqotning dastlabki zarur hujjati hisoblanadi. Dastur sotsiologik tadqiqot ob'yekti bo'yicha ishchi farazni tekshirishga qaratilgan, shuningdek tadqiqot bo'yicha ilmiy faraz, bajariladigan asosiy vazifalari va sosiologik tadqiqotning metodologik asosi bayonlaridan iborat. Dastur mazmuni haqida qisqacha ma'lumot berilishi annotasiya deb ataladi.

Har qanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; ishchi farazni ishlab chiqish; dasturni ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jihatidan quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Nazariy - metodologik qism.

1.1. Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.

1.2. Tadqiqot ob'yekti va predmetini belgilash.

1.3. Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.

1.4. Tadqiqot predmetining dastlabki taxminiy tahlili.

1.5. Ishchi farazni ishlab chiqish.

2. Amaliy sotsiologik tadqiqotni ish jarayoni qismi:

2.1. Tadqiqotning umumiy rejasi.

2.2. Asosiy amaliy ish jarayonlari.

2.3. Tanlov ishlari.

2.4. Dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi.

2.5. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish nazarda tutilgan yo'nalishlar.

3. Xulosa qismi.

3.1. Tadqiqot natijalarining mazmunan tasnifi.

3.2. Buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari (asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlardan iborat).

Tadqiqotning maqsad va vazifasi. Dasturning ushbu qismida sotsiologik tadqiqot buyurtmachi va bajaruvchilar o'rtasidagi munosabat o'zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan harajatlar: moliyaviy mehnat resurslari hisoblab chiqiladi.

Sotsiologik tadqiqot maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korxonasi mehnat unumdorligini ko'tarish muammosini sotsiologik tadqiqot qilish zarur bo'lsa, bunda asosiy maqsad mehnat

unumdorligi pastligining asosiy sabablarini aniqlash, mavjud yashirin iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va mavjud shart-sharoitni o'zgartirishdan iborat.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti.

Tadqiqot predmeti mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot oby'ekti bo'yicha tadqiqot predmeti bo'ladigan bir necha yo'nalishlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti shakllanganda, mavjud muammoni yechish yo'llari bo'yicha ilmiy faraz tuziladi, shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot o'tkazish usullari va shakllariga ta'rif beriladi.

Sotsiologik tadqiqot ob'yekti deganda, sotsiologik yo'naltirilgan ijtimoiy hodisa, jarayon va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot ob'yekti tizimli xususiyatiga, asosan vaqt, makoniy imkoniyat va miqdoriy o'lchov chegarasiga ega bo'ladi. Empirik sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy-uslubiy darajasida tadqiqot ob'yektini tanlash muhim ahamiyatga ega. Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo xarakteri, uning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifasi tadqiqot ob'yektining qanday bo'lishligini belgilaydi. Agar tadqiqot ob'yekting unchalik katta bo'lmasa, sotsiologik jihatdan uni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lsa, bir butun holda tadqiqot ob'yekti qilib olinishi mumkin. Ba'zan esa murakkab sotsiologik tadqiqot olib borish yoki tadqiqot ob'yektini to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun bunday vaziyatda tadqiqot ob'yektining nisbatan aniq chegarasi belgilab olinishi shart.

Ilmiy muammo ob'yektini sistemali tahlil etish tadqiqotchi uchun 3 faoliyat yo'nalishini ochib beradi. Ular:

- 1) Tadqiqot predmetini aniqlab olish.
- 2) Asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish.
- 3) Tadqiqot uchun ish gepotezasini yaratishdir.

Dasturda aniq ko'rsatilishi zarur

1) Empirik tadqiqot ob'yekti. 2) Sotsiologik tadqiqot ob'yektini to'laligicha qamraydimi yoki uning ayrim jihatlarini tanlab oladimi. 3) Tanlov asosida olib boriladigan sotsiologik tadqiqot asosi (ro'yxat tuzish, kartoteka, sotsiologik xarita kabilar).

Sotsiologik tadqiqot farazi:

Mavjud muammo bo'yicha ilmiy faraz ishlab chiqish empirik sotsiologik tadqiqotni nazariy jihatdan tayyorlashning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tadqiqot farazi o'rganilayotgan ijtimoiy hodisa tarkibi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik harakteri to'g'risidagi ilmiy asoslangan farazdan iborat bo'ladi. Ilmiy faraz tadqiq etilayotgan ob'yekt to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi.

Faraz, bu tadqiqot uchun boshlang'ich nuqta bo'lib, keyingi olib boriladigan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ilgari suriladigan farazga bog'liq bo'ladi. Shuni

ta'kidlash lozimki, farazni ishlab chiqish-empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdagi mantiqiy asosni ishlab chiqish demakdir⁴¹.

Agar tadqiqotchi tomonidan ilmiy faraz ishlab chiqilgan bo'lsa, empirik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari shu ishchi farazi to'g'ri ekanligini tekshirishga, uni tasdiqlashga yoki bekor qilishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqot farazi bo'lmasa, unda sotsiologik tadqiqotning ilmiy darajasi past bo'ladi.

Empirik (aniq) tadqiqot usullari

Ilmiy bilishning metodlarini falsafa va sotsiologiyada 3 turga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilmiy bilishning eng umumiy-ilmiy metodi (ongli amaliy va nazariy faoliyat).

2. Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.

3. Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.

Dastur tarkibi uslubiy qismining muhim jihati – empirik tadqiqot uslubiyati, texnika jarayoni va usullarini asoslashdan iborat.

8.2. Sotsiologik tadqiqot uslubiyati – xususiy sotsiologik usullar majmui bo'lib, undan empirik materiallarni to'plash va tizimlashtirish maqsadida foydalaniladi. Metod tushunchasi keng ma'noda bilimlar tizimini yuzaga keltirish va asoslash uchun vositachi demakdir. Sotsiologiyaning usul sifatidagi umumsotsiologik prinsiplari: ijtimoiy voqelikdagi jarayonlar, hodisalarni bilishdagi xususiy prinsiplar va konkret usullar – matematik-statistik usullar, sotsiologik axborotni yig'ish usullari: kuzatish, so'rov, eksperiment va boshqalardan iboratdir.

Sotsiologik tadqiqot texnikasi – maxsus usullarning birligini anglatib, u yoki bu usuldan unumli va o'z o'rnida foydalanishni ifoda qiladi.

Sotsiologik tadqiqot jarayoni tadqiqotni tashkil etish usuli, vositasi, barcha bilish va tashkiliy faoliyatning batartib borish jarayonini anglatadi.

Amaliy sotsiologik tadqiqot olib borish jarayonida konkret tadqiqot usullarining ahamiyati ham katta. Ular yordamida dastlabki empirik ma'lumotlar yig'ib boriladi. Quyida shular xususida to'xtalib o'tamiz.

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng keng tarqalgani **so'rov usulidir**. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin. Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng ko'p tarqalgani **so'rov usulidir**. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin. So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko'lamini kengaytirishda so'rov usulining

⁴¹ B.R.Ubaydullayeva, O. Otamirzayev, M. Bekmurodov, O'. Qayumov. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti."Ijtimoiy fikr" Markazi.T. 2001.

imkoniyatlari juda katta. Bu usul qo'llanilganda katta korxonalar va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin. Kuzatish usuli faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma'lumot bersa, so'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatidan ko'zlagan niyatlari, o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallagan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakat motivlari to'g'risida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda, bu usul qo'l keladi, chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

So'rov usulining mohiyati shundan iboratki, tadqiqot olib boruvchi savol beradi va respondent o'zining dunyoqarashi, ma'lumoti, bilimi va hohishidan kelib chiqib, savollarga javob beradi. Tadqiqotchi respondentga savol berishdan avval o'zi bir necha savollarga javob topishi kerak. Va savollar quyidagilar:

1. Savolni kimga yoki kimlarga bermoqchi?
2. Respondent savollarga javob berishni hohlaydimi yoki yo'qmi?
3. Respondent qo'yilgan savollarga javob bera oladimi, yo'qmi?
4. Respondent haqqoniy javob berishi uchun savollarni qanday tarzda, shaklda berish kerak?

Mana shu savollarga javob topa olgan sotsiolog tadqiqotning muvaffaqiyatli chiqishini ko'p jihatdan ta'minlagan bo'ladi.

To'planning kerak bo'lgan ma'lumot xarakteri va uni to'plash usuliga qarab so'rovlar ikki turga bo'linadi:

1. Anketa so'rovi.
2. Intervyu.

Savol berilishi mumkin bo'lgan odamlar yoki potensial respondentlarni qay darajada qamrab olishiga qarab so'rovlar yana ikki turga bo'linadi:

Yalpi so'rovlar.

Tanlab o'tkaziladigan so'rovlar.

Bulardan tashqari, ochiq va yopiq so'rovlar, yuzma-yuz va sirtidan so'rov singari turlari ham mavjud.

So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko'lamini kengaytirishda so'rov usulining imkoniyatlari juda katta.

Bu usul qo'llanilganda katta korxonalar va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin.

Kuzatish usuli faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma'lumot bersa, so'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan ko'zlagan niyatlari o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallangan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakat motivlari to'g'risida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda, bu usul qo'l keladi. Chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

Lekin, so'rov usuli faqat afzallik va qulayliklardan iborat ekan, deb xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lur edi. Bu usulning ham bir qator kamchiliklari mavjud.

Masalan, bu usul yordamida olingan ma'lumotlarning haqiqatga qanchalik mos kelishini sinchiklab tekshirish kerak. Chunki, bu usul qo'llanganda ma'lumot manbai faqat respondent bo'ladi. Respondentlar esa o'z xarakteri, dunyoqarashi, xulqi, ma'lumoti bo'yicha turli kishilar bo'lib, ular har doim ham haqiqatni gapiravermaydilar.

Respondentning javoblariga qay darajada ishonish mumkinligi masalasi juda murakkabdir. Respondent javoblarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tekshirishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan qanchalik ustalik bilan foydalana olishi sotsiologning mahoratini ko'rsatadi. Bu usullar anketa savollarining qay darajada o'ylab va puxta tuzilgani, ularning paydarpayligi, savollarda respondent ruhiyati hisobga olinganligi bilan bo'liq.

Bulardan tashqari, ochiq va yopiq so'rovlar, yuzma-yuz va sirtidan so'rov singari turlar ham mavjud.

Test usuli. Test-inglizcha so'z bo'lib, tajriba, sinov, o'rganish ma'nolarini ifodalaydi. Test sotsiologiya fanida chuqur ildiz otayotgan ilmiy tadqiqot usuli bo'lib, oddiy kuzatish yoki so'rash orqali qo'lga kiritish mushkul voqea va hodisalarni, shaxslarning ichki ruhiy jarayonlari va fazilatlarini xususida yetarlicha ma'lumot olish imkonini beradi. Test usuli psixologiyada chuqur tadqiq etilgan bo'lib, asosiy vazifasi kishilar qobiliyati, aql-idrok doirasi, mehnat faoliyatiga layoqatlilik darajalarini belgilab berishdan iborat.

Test orqali sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazishda respondentga bir xil talab qo'yilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ular qo'yidagilardan iborat:

1. Respondentlar ayni bir muqobil javoblar yig'indisidan iborat savollarga bir vaqtning o'zida javob beradilar.
2. Savollarga javob berish tartibi odatda yozma shaklda har bir respondent e'tiboriga bir xil tarzda havola etiladi.
3. Testga javob berishlayotgan vaqtda sotsiolog murakkab savollarga qo'shimcha maslahatlar yoki izohlar berishdan tiyilmog'i kerak.

Testning bosh vazifalaridan biri tafakkur, xotira, diqqat, e'tibor, bilish va qiziqish jarayonidagi va umuman aqliy intellektual faoliyatining turli jihatlaridagi o'zgarishlarni o'rganishdan iboratdir. Testlar ko'magida hayotiy tajribalar tasavvurlar, fikr va qarashlar, axloqiy-estetik nuqtai nazarlar muayan hatti-harakatlarning kelib chiqish sabablari xususida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin.

XX asr boshlarida test savollarini tuzishda mashhur olimlar va yozuvchilar jalb etilib, o'ziga xos yengil testlar namunalari ommalasha bordi. Test usuli bugungi kunda tarbiyaviy ishlar samaradorligi aniqlash, jamoatchilik fikri holatini real belgilash, ijtimoiy ongning ayrim jihatlarini to'g'ri tushunishda ahamiyat kasb etadi.

Hujjat usuli tarixiy adabiyotlarda keng qo'llanilgan. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida ko'pdan-ko'p yozma manbalardan keng foydalaniladi. Hujjat - moddiy material manba hisoblanib, voqea va faktlar xususidagi ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi.

Hujjatda inson yoki jamoa fikri yozma va boshqa belgilarda namoyon etilgan bo'ladi. Hujjat sifatida turli formulalar, chizgilar, grafiklar, ramziy

belgilar bo'lishi ham mumkin. Bunday shartli belgilar muayyan ma'lumotga ega kishilar tomonidan o'qiladi.

Hujjatlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagi tasnifni e'tiboringizga havola etamiz:

Sotsiologik tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega holat, fakt avvalo inson tomonidan (yoki mahsus moslamalar ko'magida) qayd etiladi, so'ngra hujjat shaklida ifodalanadi. Demak, hujjat inson ongida avval paydo bo'lib so'ng og'zaki, yozma manbalarda ifoda etiladi, qayd qilinadi, saqlanadi va tarqatiladi.

Har qanday holatlarda ham muayyan fakt va holatlarning muhim jihatlari xususidagi informasiyaga ega bo'ladi (tekst, ovoz yozish moslamalari, nurli ifodalarda yoki chizma belgilarda aks ettiriladi).

Ayrim hujjatlar mazmuni faqat muayyan maxsus bilimlarga ega bo'lgan kishilargagina tushunarli bo'ladi. Masalan, murakkab texnologiya loyihalari, qurilish smetalarini, elektron-hisoblash mashinalari beradigan ma'lumotlarni mahsus bilimlarsiz anglab olish qiyin. Ammo bunday hujjatlar mazmuni mahsus bilimlarga ega bo'lgan har xil kishilar uchun bir xil ma'no berishi kerak.

Hujjat, uning saqlanishi va yagona mazmun berishi xususiyatlari tayin bo'lsa, istalgan manbada bayon etilishi va istalgan usulda ifodalanishi mumkin.

Tashkilot, muassasa va mansabdor shaxs tomonidan beriladigan hujjatlar umumiy qabul qilingan muayyan guvohlik mazmunini ifodalovchi rasmiy rekvizitlarga ega bo'ladi. Ularni taxminan shunday xarakterlash mumkin:

-hujjatlarda muhr, shtamp, bosmaxona blanki belgilari bo'lib, ular muayyan muassasa, tashkilotga tegishli ekanligidan dalolat berib turadi.

-hujjat ma'lum mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo'lib, uning ismi-sharifi va unvoni aks etadi.

-hujjatda, u tuzilgan joy, vaqt, qabul etish va muayyan adresga jo'natish belgilari qayd etilgan bo'ladi.

Albatta, sotsiologiya fani uchun hujjatda aks ettirilgan mazmun birinchi darajali ahamiyatga ega, ammo mazkur hujjatning nechog'lik haqqoniyliги va realligi uning tuzilish shakliga ham boq'liqdir.

Hujjatlarning bir qancha xillari bor:

a) qayd etish usuliga ko'ra farqlanadigan hujjatlar (qo'lyozma, bosma yozuv, kino va magnit tasmasidagi yozuvlar, fotosuratlar);

b) muayyan maqsad qo'yib olinadigan hujjatlar (tadqiqot dasturiga ko'ra sotsiolog tomonidan maxsus tuziladigan hujjatlar);

v) shaxsga doir (shaxsiy hujjatlar, xatlar, kundaliklar) va shaxsga bevosita aloqasi kam hujjatlar (statistik materiallar, matbuot ma'lumotlari, majlis protokollari);

g) rasmiy darajasiga ko'ra farqlanuvchi hujjatlar (davlat statistika idoralari tomonidan rasmiy hujjatlarga ilova qilinadigan ma'lumotlar, qarorlar, farmonlar, ko'rsatmalar, shuningdek norasmiy hujjatlar-alohida shaxs tomonidan tuziladigan arizalar, shikoyatlar, taqrizlar, guvohlik ko'rsatmalari va boshqalar);

d) hujjatlar informasiya manbaiga ko'ra ham farqlanadi (birlamchi informasiyalar bevosita kuzatish yoki so'rash usuli orqali olinadi, ikkilamchi

informasiya esa birlamchi ma'lumotni umumlashtirish, qayta ishlash hamda qayta tekshirish natijasida olinadigan ma'lumotlar tufayli qo'lga kiritiladi.

Statistik usul. Statistika lotincha so'z bo'lib, "status" holat atamasidan kelib chiqqan. Dastlab bu so'z Italiyada "davlatshunoslik" ma'nosida qo'llanilib, siyosiy holat, muayyan shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy o'rni mazmunini anglatib kelgan. Statistika Ketle tomonidan asoslab berilgan.

Statistik usullar amaliy matematikaga suyanuvchi tadqiqot usullari sifatida sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil etish, modellashtirish va turli xil tadqiqotlarni natijalarini taqqoslash maqsadida keng qo'llaniladi. Statistik usullarni odatda 2 ta katta guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq:

1-guruh, usullarga tanlama usul, voqea-hodisalar o'rtasida aloqadorlik va bog'liqlikni tahlilini statistik xulosalar baho, o'lcham nazariyasini eksperimental ishlarni rejalashtirish usullarini kiritish mumkin;

2-guruh, voqelikdagi tadrijiy o'zgarishlarni muayyan uzluksiz o'sish ko'rsatkichlarini shkala asosida organish miqdor va sifat o'rganish aloqalarini tahlil qilish.

8.3. Anketa usuli. Savollarning samarali tizimini yaratish uchun sotsiolog tadqiqot muammosidan tashqari, o'rganilayotgan ob'yekt strukturasi, shu jamoadagi axloqiy-ma'naviy muhit, umumiy va ijtimoiy psixologiyani yaxshi bilishi talab qilinadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, agar anketa savollari uzundan-uzun bo'lsa, ixcham va serjilo bo'lmasa, savol jumalari uslubiy jihatdan puxta bo'lmasa, anketaga nisbatan respondentning salbiy munosabatini uyg'otadi⁴². Javoblardagi noaniqliklarga, ba'zan esa javob berishga istakning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham anketa tuzishga juda jiddiy e'tibor talab qilinadi. Anketaga kiritiladigan yoki intervyu jarayonida beriladigan savollar o'z xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi. Ular quyidagi uch belgiga qarab tasnif qilinadi:

I. Mazmuniga ko'ra.

II. Shakliga ko'ra.

III. Funksiyasiga ko'ra.

I. Mazmuniga ko'ra savollar ikki guruhga bo'linadi:

II. Voqelikdagi narsa-hodisalar, ularning xususiyatlari haqidagi savollar. o'tgan zamonda, hozirgi davrda va kelajakda bo'ladigan hodisalar haqidagi savollar ham shu guruhga kiradi.

Kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, niyat va motivlari to'g'risidagi savollar. Deyarli barcha turdagi anketalarda uchraydigan savollar, ya'ni respondentning yoshiga, jinsiga, millati, kasbi, ma'lumoti va boshqalarga oid savollar ham birinchi guruhdagi savollar toifasiga kiradi. Bunday savollar odatda anketaning alohida bir qismiga jamlanadi va bu qism sotsiologiyaga oid adabiyotlarda demografiya qismi yoki pasport qismi nomlari bilan yuritiladi.

Anketaning pasport qismidagi savollar aniq va konkret javoblarni talab qiladi va, odatda, bu qismdagi savollarga berilgan javoblarning haqqoniylik darajasi juda yuqori bo'ladi. Boshqa mamlakatlarda ham o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, anketada qo'yilgan savollar respondentni

⁴² Yunusov K. Sotsiologiya. Metodik o'quv qo'llanmasi. -Andijon, 1997.

oz bo'lsa-da xavotirga solsa, uning javoblari samimiy bo'lmaydi. Respondent anketadagi savollarga samimiy javob bersa, o'ziga hech qanday zarar etmasligiga ishonch hosil qilgan taqdirdagina, ularga to'g'ri javob beradi. o'zini xavotirga soladigan savollarga to'g'ri javob bergan taqdirda, respondent anketaning pasport qismidagi savollarga noto'g'ri javob beradi. Shu yo'l bilan u go'yo o'zining xavfsizligini ta'minlamoqchi bo'ladi.

Ikkinchi guruh savollar, his-tuyg'u, kechinma va motivlarni aniqlashga qaratilgani uchun, ularga berilgan javoblarning ham birinchi guruhdagiga nisbatan haqqoniyliги kamroq. Buning sababi respondentlarning ataylab noto'g'ri javob berganidagina emas, balki his-tuyg'u, kechinmalarni baholashdagi murakkabliklarda hamdir. Sub'yektiv kechinmalarni baholashda sub'yektivlik kuchli bo'ladi. Shuning uchun bu toifadagi savollar bir-birini to'ldiradigan, biriga berilgan javobdagi noaniqlikni ikkinchisi aniqlashga yordam beradigan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, respondentning javob topishini engillatish uchun anketaga javob variantlari kiritilishi ma'quldir. Javoblarda turli holatlar hisobga olingan bo'lib, ulardan yaxlit javob o'rniga o'sha javobning qismlari aks etishi javobning haqqoniy bo'lishiga xizmat qiladi. Chunki shunday holda respondent javob variantlaridan birini yoki o'zida sodir bo'lgan kechinma, his-tuyg'ularga mos ravishda bir nechtasini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, korxonada qabul qilingan qarorga ishchining munosabatini bilish maqsadida anketaga quyidagicha savol kiritildi: Korxonada ma'muriyatining qaroriga munosabatingiz?

Men korxonada ma'muriyati qabul qilgan ushbu qarorni:

- a) Ma'qullayman.
- b) Ma'qullamayman.
- v) Unchalik ma'qullamayman.
- g) Qisman ma'qullayman.
- d) To'la qo'llab-quvvatlayman.
- e) Mutlaqo ma'qullamayman.

Mana shu keltirilgan variantlarda respondentning faqat ha yoki yo'q qabilidagi javoblari emas, balki shu qarorga emotsional munosabati turlari ham qamrab olingan. Anketa usuli yordamida boshqa usullarga nisbatan ko'proq ma'lumot to'plash mumkin. Ayniqsa, katta miqdordagi respondentlar bilan tadqiqot olib borish zarurati tug'ilganda so'rov usulining afzalliklari yaqqol namoyon bo'ladi.

Anketalarning ma'lumot to'plashdagi samaradorligini oshirish uchun bir necha holatlarni nazarda tutish kerak:

I. Respondentga murojaat, savollarning qo'yilish tarzi, qiziqish uyqotishi va qo'yilgan savollarga javob berish maylini vujudga keltirishi kerak. Agar mana shu shart bajarilmasa, anketalarning tadqiqotchiga qaytarilish darajasi pasayishi, javoblar nosamimiy bo'lishi mumkin.

II. Anketaga kiritilgan savollar sodda va aniq tuzilgan bo'lib, xilma-xil talqin qilinishi mumkin bo'lgan savollardan ehtiyot bo'lish kerak. Masalan, anketaga, «Xamsa»ni o'qiganmisiz? Degan savol kiritilsa, uni bir necha xil tushunish mumkin:

- a) Navoiy «Xamsa»sini o'qiganlik;
- b) Ganjaviy «Xamsa»sini o'qiganlik;
- v) Dehlaviy «Xamsa»sini o'qiganlik;
- g) «Xamsa»ning dostonlaridan birini o'qiganlik;
- d) «Xamsa» dostonlaridan bir nechtasini o'qiganlik;
- e) «Xamsa» dostonlarining hammasini o'qiganlik;

Sinchiklabroq tekshirilsa, sanab o'tilganlardan boshqa ham ma'nolar chiqishi mumkin.

3. Anketaga kiritilgan savollar mavzuidan respondentlarning xabardor yoki xabardor emasliklarini, agar xabardor bo'lsalar, xabardorlik darajasini hisobga olish kerak. Masalan, kasaba uyushmasi faollari bilishi zarur bo'lgan narsalarni korxonaning oddiy ishchi-xodimlaridan so'rash mantiqqa zid bo'lish bilan birga, tadqiqotni ham boshi berk ko'chaga olib kiradi.

Har qanday so'rov jarayonini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin:

- I. Ko'nikish.
- II. Asosiy davr.
- III. Yakun yasash.

Ko'nikish davri sotsiologik adabiyotda adaptatsiya davri, deb ham yuritiladi, har qanday so'rov ana shu ko'nikish bosqichidan boshlanadi. Bu bosqich o'z mohiyatiga ko'ra juda muhim bo'lib, so'rovning natijalari ko'p jihatdan uning qanday o'tishiga boqliq. Bu bosqichda bir nechta muhim vazifalar amalga oshiriladi. Ulardan birinchisi respondentni so'rovga tayyorlash. Respondentdan kerakli ma'lumotni olish uchun unga so'rovning sababi va maqsadini tushuntirib, uni savollarning mazmuni bilan tanishtirish kerak. Agar so'rov anketa yordamida o'tkazilayotgan bo'lsa, uni qanday to'liqlashni ham tushuntirish lozim. So'rov mavzui haqida ma'lumot berish respondentni asosiy savollarga javob berish uchun tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Bevosita savollarni berish va anketa to'ldirishga o'tishdan avval respondentni shu mavzuga qiziqtirish zarur. Chunki, unda qiziqish paydo bo'lmasa, bu savolga ortiqcha bosh oqrig'i, deb harashi mumkin. Masalan, bozor munosabatiga o'tilayotgan hozirgi bosqichda, aytaylik, iqtisodiy mavzudagi so'rovlarni o'tkazishdan oldin respondentlarga so'rovning maqsadini bildirib, mavzuning shu korxonaga, jamoaga, mintaqaga va mamlakat uchun ahamiyati tushuntirilsa, so'rovga jiddiy munosabat vujudga keladi.

Shuni ham nazarda tutish lozimki, har bir respondentning o'z qiziqishlari, ehtiyojlari, manfaatlari mavjud bo'lib, so'rovga qiziqish hosil qilishda shularni nazarda tutish kerak.

Ko'nikish davrida respondentga bevosita murojaat qilinadi. Bu murojaat oqzaki va yozma tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ana shu murojaatda tadqiqot maqsadlari va ahamiyati ta'kidlanadi. Murojaatda respondentga chuqur va samimiy hurmat izhor qilinmasa uning bu tadqiqotga qiziqishi susayishi yoki mutlaqo yo'qolishi mumkin. Shuning uchun murojaatda respondentning ruhiy holati hisobga olingan bo'lishi kerak.

O'tkazilgan so'rovga respondentda qiziqish uyg'otish, hech bo'lmaganda moyillik paydo qilish natijalarning haqqoniyligini ta'minlovchi muhim omillardan biri. Bu qiziqish va moyillikni uyg'otish uchun esa adaptatsiya bosqichi juda ehtiyotkorlik va mohirlik bilan o'tkazilishi lozim. Buning uchun murojaatda ikki holat aks etishi shart:

I. Respondentga chuqur hurmat. Tadqiqotchida respondentga hurmat mavjudligining o'zi kamlik qiladi. Ana shu hurmat mavjudligini unga sezdirish kerak. Hurmat sezdirish uchun esa anketaga, biz Sizni juda hurmat qilamiz, deb yozib qo'yish kifoya qilmaydi. Hurmat murojaatdagi har bir so'zdan va to'la matndan sezilib turishi kerak.

Respondentga savol mavzui bo'lgan masala bo'yicha mutaxassis sifatida murojaat qilish lozim. o'zining fikri tadqiqot uchun zarur ekanini respondent har bir so'z va jumladan sezib turishi zarur. Mana shu ikki holat ta'minlanganda, so'rovga qiziqish paydo bo'lishi yoki bor qiziqish kuchayishi mumkin.

Ko'nikish bosqichidan keyin asosiy bosqich boshlanadi va tadqiqotning taqdiri shu bosqichda hal bo'ladi. Anketadagi asosiy mavzuga bag'ishlangan savollarning me'yordan ko'p bo'lishi respondent diqqatining asta-sekin pasayishiga, uning zerikishiga olib kelishi mumkin. Shularni nazarda tutib savollar miqdorini imkoniyat doirasida kamaytirish, shunda ham savollar mo'ljaldan ko'proq bo'lsa, charchoqni yozish va diqqatni tiklash maqsadida mavzuga boq'liq bo'lmasa ham ko'pchilikni qiziqtiradigan san'atga, sportga oid bir-ikki savol kiritish kerak.

Yakuniy bosqichda esa respondentning yuragida ayta olmay qolgan fikrlari bo'lsa ularni aniqlash uchun tuzilgan savollarni ham kiritish maqsadga muvofiq. Masalan, quyidagi punkt ana shu maqsadga xizmat qilishi mumkin.

Bizga ko'rsatgan yordamingiz uchun samimiy minnatdorlik bildiramiz. Mabodo yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha va takliflaringiz bo'lsa mana shu o'rinda bayon qilishingizni so'raymiz.

Sotsiologiyada berilgan javoblarni tekshirish uchun nazorat savollari, deb ham yuritiladi. Bunday savollarni anketaga kiritish yoki intervyuda qo'llashdan maqsad bir nechta:

I. Respondentning qo'yilgan savollarga berayotgan javobi samimiymi, yo'qmi ekanini aniqlash.

II. Respondentning savolnoma yoki intervyuga munosabatini aniqlash.

III. Respondentning savolnoma yoki intervyudagi ba'zi savollarga munosabatini aniqlash.

Nazorat savollaridan foydalanishning muhimligi shundaki, agar o'tkazilayotgan respondentlarning ko'pchiligi savollarga samimiy javob bermaganligi aniqlansa, bu tadqiqot natijalari bekor qilinishi kerak.

Nazorat savollari yordamida tashqi ta'sir tufayli respondentning javoblari nosamimiy bo'layotganini ham aniqlab olish mumkin yoki bo'lmasa savolnomaning anonim ekaniga shubha paydo bo'lganda ham javoblar samimiy bo'lmaydi.

Oliy o'quv yurtlaridan birida o'tkazilgan tadqiqotning maqsadi talabalarning bo'sh vaqtni qanday o'tkazishlarini aniqlash edi. Anketaga quyidagicha nazorat savoli ham kiritildi:

Siz Alisher Navoiyning «Yusuf va Zulayho» dostonini o'qiganmisiz? Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning bir qanchasi bu dostonni o'qigan ekan. Holbuki, Alisher Navoiy bunday doston yozmagan.

Har qancha yaxshi tuzilgan savolnoma va yaxshi o'tkazilgan intervyuda ham respondentlarning hammasi bir xil samimiy javob bermaydi. Bu odamlarning xarakteri, dunyoqarashi, xulqi va boshqa jihatlari bilan ham bog'liq. Nazorat savollarini kiritishdan maqsad esa ana o'shanday nosamimiy javoblarning ulushi qancha ekanini aniqlashdir.

Javob variantlari taklif qilinganiga qarab, savollar ochiq va yopiq turlarga bo'linadi. Yopiq savollarga javob variantlari ko'rsatilmaydi. Respondentning o'zi javobni anketaga yozib chiqadi.

Masalan: MDHga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy aloqalari to'g'risida qanday fikrdasiz? _____

Bu savolga respondent o'z dunyoqarashi, ma'lumoti intilishlaridan kelib chiqib javob yozadi. Yopiq savollarga haraganda ochiq savollarni umumlashtirish murakkabroqdir. Chunki, yopiq savollarga berilishi mumkin bo'lgan javob variantlari tayyor bo'ladi va ularni kodlashtirish va kompyuterga kiritish mumkin. Demak, ularni mashinalar - EHM yordamida umumlashtirish ham mumkin. Ochiq savollarga beriladigan javoblarni sinchiklab o'rganib chiqqandan keyingina umumlashtirish mumkin. Ochiq savol qo'yilganda aqliy mehnatning bir qismi respondent elkasiga yuklanadi.

Yopiq savollar esa tayyor javoblar bilan anketaga kiritiladi. Respondent esa o'sha tayyor javob variantlaridan birini tanlab olib ostiga chizishi yoki boshqa yo'sinda belgilashi kerak. Yopiq savol kiritiladigan bo'lsa, sotsiolog savol ustida ham va respondent berishi mumkin bo'lgan javob variantlari ustida ham bosh qotiradi. Yopiq savollarni qo'llashning murakkabligi shundan ham ko'rinadiki, ko'pincha javobning tayyor variantlari berilganda, javoblar umumiy xarakterning ijobiy tomoniga siljishi ko'zga tashlanadi. Masalan, anketaga quyidagicha savollar kiritiladi: «Bo'sh vaqtda siz badiiy adabiyot o'qiysizmi?»

Javoblarning variantlari quyidagicha:

- I. o'qiyman.
- II. ko'p o'qiyman.
- III. kam o'qiyman.
- IV. o'qimayman.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday hollarda deyarli hech kim yoki juda ozchilik «o'qimayman», degan variantni belgilaydi. Mana shu savolning o'zini boshqacharoq yo'sinda berilsa, natijalar boshqacharoq chiqadi. Aytaylik, savol quyidagicha qo'yildi: «Bo'sh vaqtda ba'zilar sport bilan shug'ullanadi, ba'zilar badiiy adabiyot o'qiydi, ba'zilar sayohatga chiqadi, ba'zilar esa televizor oldida o'tiradi. Siz nima bilan shug'ullanasiz?»

Javob variantlari:

-Sport bilan shug'ullanaman.

-Badiiy adabiyot o'qiyman.

-Sayohatga chihaman.

-Televizor ko'raman.

Respondentlarga javobning faqat bitta emas, balki bir nechtasini belgilash ham mumkinligini aytiladi. Savol shunday qo'yilganda ayni bir guruhning o'zida ham badiiy adabiyot o'qiydiganlarning soni ancha kam ekani ma'lum bo'ladi. Haqiqiy holatni bilish uchun faqatgina javob variantlarinigina emas, savoldagi narsa-hodisaning ham muqobillarini nazarda tutish va savolnomaga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Yopiq savollar berilishi mumkin bo'lgan javoblarning xususiyatlariga qarab ikki turga bo'linadi: 1. Darajali savollarga beriladigan javoblar. Ular «ha-yo'q» tarzida bo'ladi. 2. Muqobilli savolning muhim belgisi yana shundaki, unga beriladigan javoblar muqobil variantlardan iborat bo'lib qolmay, savolning tuzilishi ham muqobil holat va hodisalardan iborat bo'ladi. Masalan: «Siz sport bilan shug'ullanasizmi?», - degan savolga respondentlar «ha» yoki «yo'q» qabilida javob berishadi. Bu erda savol muqobilli emas, balki javob muqobillidir. «Bo'sh vaqtda ba'zilar esa kitob o'qiydilar yoki sayohatga chiqadilar. Sizchi?» tarzida qo'yilgan savol muqobillidir. Tadqiqotchilik tajribasi muqobilli savollar haqiqatga yaqin javob olishga ko'proq yordam berishini ko'rsatadi. Darajali savollar ham aslida muqobilli savolning bir turi. Lekin ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning javobi sub'yektiv his-tuyg'u yoki yuz berayotgan voqealarga munosabat darajasini ifodalovchi javoblarni ko'zlaydi. Masalan: «Ilmiy-fantastik adabiyotga munosabatingiz qanday?» savoli quyidagi javoblardan birini tanlashni taqozo qiladi:

Juda yoqtiraman.

Yoqtiraman.

Unchalik yoqtirmayman.

Befarqman.

Yoqtirmayman.

Demak, yuqoridagi savol munosabatlarning turli darajasini nazarda tutgani va javob variantlarida ana shu munosabat darajalari ifodalangani uchun u darajali savol hisoblanadi.

Intervyu usuli anketa bilan ko'p umumiyliklarga ega. Anketada savollar yozma tarzda berilsa, intervyuda og'zaki savollar beriladi. Intervyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi⁴³. Intervyuni o'tkazuvchi - intervyuer shaxsiyati, o'zini tutishi, ovozi, tashqi ko'rinishi va kiyinishi ham so'rov natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Intervyu o'z mohiyatga ko'ra tadqiqotchi bilan respondentning suhbat, lekin bu suhbatni har kuni choyxonada yoki bekorchilikdan qilinayotgan suhbat bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Choyxonadagi yoki bekorchilikdan o'tkazilayotgan suhbatdan asosiy maqsad vaqt o'tkazish bo'lsa, intervyu muayyan ma'lumot to'plashni nazarda tutadi. Shu bilan birga,

⁴³ Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya. Lug'at-T. Ibn Sino.,1999.

intervyuning oddiy suhbatdan farqi yana shundaki, suhbatdoshlar bir-birlarini qiziqtirgan masalalar to'qrisida gap yuritsa, intervyu jarayonida faqat bir tomon - tadqiqotchi savol va respondent javob beradi.

Intervyu bilan oddiy suhbat o'rtasidagi tafovut yana shunda ko'rinadiki, suhbatdoshlar, odatda tanish odamlar bo'lib bir-birlariga muayyan psixologik munosabatda, aksariyat hollarda ijobiy munosabatda bo'ladilar. Chunki, odamlar o'zlari yoqtirmagan odam bilan suhbatlashishni ham yoqtirmaydilar. Intervyu esa, deyarli ikki notanish odamning suhbat. Shuning uchun, agar tadqiqotchi o'zining muomalasi, kiyinishi, o'zini tutishi bilan respondentda ijobiy, hech bo'lmaganda neytral munosabat uyg'otolmasa, respondent savollarga javob berishni hohlamasligi, mabodo iltimos qilib turib olinsa, yuzaki va chala javoblar berishi mumkin. Yoki bo'lmasa dindor musulmonlardan intervyu olish uchun o'ta zamonaviy, olabayroq kiyimlarda borish, ayniqsa xotin-qizlarning ovro'pacha yoki mini kiyimlarda borishi salbiy munosabat uyg'otadi va bu intervyuning natijasi ko'ngildagiday bo'lmaydi.

Tadqiqotchi faqatgina o'zining kiyimi, ovozi, muomalasi to'g'risidagina o'ylab qolmay, respondentning ham o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Bunday xususiyatlarni aniqlash uchun esa tadqiqotchi o'z imkoniyatlari darajasida respondentning tashqi ko'rinishiga, kiyinishiga, yoshiga, jinsiga va hokazolarga qarab xulosa chiqarishi kerak.

Sotsiologiyada **eksperiment** usuli ham qo'llaniladi. Aslida eksperimentlar tabiiy fanlarda keng qo'llaniladi, lekin sotsiologiyada uni qo'llash doirasi cheklangan. Laboratoriya sharoitida faqatgina kichik guruhni joylashtirish mumkin, lekin ular ham o'z ustilaridan tajriba o'tkazilayotganligidan xabardor bo'ladilar va o'zlarini odatdagidan farqliroq umuman eksperimentni sun'iy yaratilgan sharoitda bir yoki bir necha o'zgaruvchan miqdorning boshqalariga ta'sirini o'rganish deb ta'riflashimiz mumkin.

Filipp Zimbardo o'tkazgan ajoyib tadqiqot bunga misol bo'la oladi. U o'ziga xos «qamoqxona» tashkil etib, unda mahbuslar va qo'riqchilar rolini talabalar o'ynagan. Uning maqsadi turli rollarni ijro etish talabalar xulq-atvorini qay darajada o'zgartirishini aniqlash edi, olingan natijalar tadqiqotchilarni hayratga solgan. «Qo'riqchilar» tez orada avtoritar muomala tarzini o'zlashtirib olib, mahbuslarga nisbatan haqiqiy dushmanlarga munosabatda bo'la boshladilar. Ularning sheriklarida esa aksincha, haqiqiy qamoqxona maxbuslarida kuzatiladigan apatiya va isyonkorlik belgilari paydo bo'la boshlagan. Bu xolat shunday keskin bo'lganki, eksperimentlarni boshidan to'xtatishga to'g'ri kelgan. Tadqiqotchi qamoqxonalarda xulq-atvorni u yerdagilarning shaxsiy xislatlari emas, muhitning o'zi belgilaydi, degan xulosaga kelgan.

Bu tadqiqot natijasidan shunday xulosaga kelib chiqadiki, eksperiment tadqiqotning shunday metodini, uning jarayonida biz shunday sharoitni yaratamiz yoki bo'lmasa izlab topamizki, u yordamida o'zimizni qiziqtiradigan hodisalar aloqasi namoyon bo'ladi.

Eksperiment o'tkazish uchun avvalo ob'yekt tanlanadi, so'ngra esa, eksperiment qilinadigan guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni eksperimental holat vujudga keltiriladi. Eksperimentning asosiy maqsadi avvalo, - bu farazni isbotlash

yoki inkor etishdir. Hozirda turli sohalarda olib borilayotgan sotsial eksperimentlarning asosi ham yuqoridagilarga uzviy bog'liqdir.

8.4. Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish usuli.

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish – dastlabki empirik ma'lumotlarni yig'ish usuli bo'lib, muayyan maqsadga qaratilgan, oldindan puxta o'ylab, muntazam olib boriladigan, hissiy qabulga asoslangan bo'ladi. Bu usuldan foydalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borayotgan ob'yektdan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlarda ob'yektiv, xolis va hayotiy bo'lishi bilan o'zining ilmiy qimmatiga egadir. Shu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ilmiy ma'lumotlarda sub'yektiv jihatlar ham bo'lishi mumkin. Chunki, sotsiologik tadqiqot tadqiqotchining ijtimoiy voqelikka, jarayonga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi va qay yo'sinda tavsiflashi asosida boradi. Kuzatish usulining yana bir o'ziga xos jihati; uning muayyan darajada chegaralanganligi bo'lib, ko'pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmasligidadir. Bu usulning yana bir zaif jihati shundan iboratki, kuzatish orqali tadqiqotchini savolga qiziqtirish, kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish juda qiyin. Barcha hollarda kuzatish hozircha so'z bilan ifodalanadi. Ammo ba'zi xulqiy-ehtirosli munosabatlarni, holatlarni bir tarzda yozish va so'z orqali ifodalash qiyin bo'ladi. Kuzatish jarayonining harakteriga qarab uni quyidagi tiplarga ajratib ko'rsatish mumkin: nazoratsiz, to'la qamrovli va qamramaydigan, dala va laboratoriya sharoitida muntazam va tasodifiy kuzatishdir. Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish usuli o'rganilayotgan ob'yektga nisbatan chetdan yoki ichkaridan qo'llanilishi mumkin. Tadqiq etilayotgan ob'yekt chetdan kuzatilganda tadqiqotchi ob'yektga nisbatan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi kuzatayotgan ob'yektga ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va bo'ysunadi. Sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Chunki, kuzatish usuli orqali olingan natijalar o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Bu usuldan ko'pgina sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, ob'yekt to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun yoki sotsiologik tadqiqotlarning boshqa usullari yordamida olingan ma'lumotlarni, statistik hujjatlarni qo'shimcha ravishda tekshirish maqsadida foydalaniladi.

Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilar:

1. Kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak. Bu shart sotsiologik tadqiqotlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, natijalarning ob'yektivligini ta'minlashga qaratilgan. Kuzatish olib borilganda shunday holatlar vujudga keladiki, ularni texnika vositalarida tasvirga tushirilmasa yoki ovozlari yozib olinmasa, bu holatlarni tabiiy holda qaytarish mumkin emas. Shuning uchun kuzatishni texnik jihatdan ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kuzatishning muntazamliligi. Bu shart ham tadqiqot natijalarining ob'yektivligini ta'minlashga qaratilgan. Kuzatish muntazam olib borilmay, o'lda-jo'lda va ahyon-ahyonda olib borilsa, tadqiqot ob'yekti uchun xarakterli

holatlar kuzatilmay qolishi va oqibatda kuzatish natijalari ob'yektiv bo'lmay qolishi mumkin.

3. Kuzatuvchining xolisligi. Bu shart ta'minlanmasa, tadqiqot jarayonida kuzatuvchi o'zi o'rganayotgan jarayonlarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi va buning oqibatida voqealarni sub'yektiv talqin qilishi mumkin.

4. Kuzatilayotgan ob'yekt to'g'risida mumkin qadar ko'proq, ma'lumot to'plash. Ob'yekt qanchalik batafsil kuzatilsa, chiqarilgan xulosalarning haqiqatda shunchalik yaqin bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi. Xulosalar yetarli bo'lmagan ma'lumot asosida chiqarilsa, ob'yektning ma'lum xususiyatlari kuzatuvchi e'tiboriga tushmay qolgan bo'lishi mumkin. Bu esa xulosalarning noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

5. Kuzatishning borishini va natijalarini batafsil qayd qilib borish. Agar shunday qilinmasa, xulosa chiqarish paytida kuzatishning muayyan natijalari e'tibordan chetda qolishi mumkin. Bu esa xulosaning chala yoki noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Yuqorida aytilganidek, kuzatish jarayonini qayd qilib borishda texnika vositalari katta yordam berishi mumkin.

Sotsiologik kuzatishlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

1. Chetdan kuzatish.
2. Ichkaridan kuzatish.

Ob'yekt chetdan kuzatilganda undagi jarayonlarning ishtirokchilari o'zlari kuzatuv ob'yekti ekanliklaridan mutlaqo bexabar bo'ladilar. Masalan, xaridorlar xulqini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi sotish zalida yoki peshtaxta ortida turib, xaridorlarni ko'proq qaysi buyum qiziqtirayotgani, ularning belgilangan narxlarga munosabati va boshqalarni kuzatishi mumkin. Bunda xaridorlar o'zlarining kuzatish ob'yekti bo'lganliklarini bilmaydilar. Agar ular o'zlari sotsiologik kuzatish ob'yekti bo'lganliklarini bilib qolsalar, ularning xulqida ma'lum o'zgarishlar yuz berishi, demak, bu xulq tabiiy bo'lmay qolishi mumkin.

Chetdan turib kuzatayotgan tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'yektga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va uni tabiiy holda o'rganadi. Ichkaridan kuzatilganda tadqiqotchi ikki xil usuldan foydalanishi mumkin:

Ochiq kuzatish.

Yashirin yoki xufya kuzatish.

Ilmiy bilishning boshqa usullari singari kuzatish usulining ham afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Bu usulning eng asosiy afzalliklaridan biri shuki, u tadqiq qilinayotgan ob'yektdagi jarayonlarning kechishiga ta'sir o'tkazmay yoki juda kam ta'sir o'tkazgan holda o'rganish imkonini beradi. Sotsiologik kuzatish ilmiy empirik bilish usuli sifatida va mohiyat e'tibori bilan murakkab jarayon bo'lgani uchun reja asosida olib boriladi. Kuzatish rejasi usulning xususiyatlari va asosiy bosqichlarini nazarda tutgan holda tuziladi.

8.5. Dala ishlari o'tkazilib, kerakli ma'lumotlar so'rovnomada aks ettirilgan holda to'plangach, ular ustida hisob-kitob ishlarini olib borish bosqichi boshlanadi. So'rovnomaning hajmi kichik (10-15 savol) va soni 150-300 tadan ko'p bo'lmasa, u holda hisob-kitob ishlari qo'lda bajarilgani ma'qul. Lekin so'rovnomaning soni 300 tadan oshib ketsa, hisob-kitob ishlarining zamonaviy

EHMlarda bajarilishi yaxshi samara beradi⁴⁴. “Ijtimoiy fikr” Markazida oʻtkazilayotgan tadqiqotlarda savollar soni 100-150 tagacha, soʻrovnomalar soni esa 1000 tadan 2500 tagacha yetadigan respondentlar orqali toʻldiriladi. Masalan biz namuna sifatida olgan “Oʻzbekiston – umumiy uyimiz” sotsiologik tadqiqotlarda 1141 ta respondent soʻrovnomanini toʻldirishda qatnashdi. Sotsiolog uchun asosiy qiyinchiliklar hisob-kitoblarning natijalari olingandan soʻng boshlanadi, ayrim natijalar ayrim natijalarda koʻrsatkichlar oʻzaro mos kelmay qoladi. Bunday xatoliklarga yoʻl qoʻyilishiga sabab, matematiklar bilan yetarli darajada hamkorlik qilinmaganligidir. Sotsiolog bilan matematikning hamkorligi dala ishlaridan keyin emas, balki dastlabki pogʻonada – giposhakllantirish shakllantirishda reja va dastur tuzishda soʻrovnomaning savollarini joylashtirish vaqtida birlamchi va ikkilamchi axborotlar ustida hisob-kitob ishlari bajarilishidan oldin oʻrnatilishi lozim.

Matematik toʻplangan maʼlumotlarni oʻzida saqlovchi soʻrovnomalar toʻplamini statistik ishlovni amalga oshirishi kerak. Matematik uchun EHM bu ishini bajaruvchi texnik vosita boʻlib xizmat qiladi.

Oʻtkazilgan har bir sotsiologik tadqiqot tahlil etilib, umumlashtiriladi. Soʻrov natijalarini qayta ishlash va statistik taxlil qilish qulay, ammo bu usulga qarshi kishilarning aytishlaricha, qayta ishlagan natijalar toʻgʻridek tuyuladi, lekin bu javoblarning aksariyati oʻta yuzakilikni hisobga olganda, natijalar aniqligi shubha oʻygotadi. Bundan tashqari, javob berishdan bosh tortirish hollari koʻp uchraydi, ayniqsa, anketalar pochta orqali yuborilganda. Soʻrov oʻtkazish sharoitlari va natijalarini izohlashda qoʻllaniladigan til koʻpincha javob berayotgan real tirik shaxslardan juda uzoqdir. Savollar pochta orqali yuborilganda soʻraluvchi kishini tasavvur ham etish mushkul.

Umuman olganda, tadqiqotchilar va respondentlar oʻrtasida aloqa qanchalik toʻgʻri va bevosita boʻlsa, xulosalar shunchalik informativ va asosli boʻladi. Soʻrov natijalari imkon qadar chuqurlashtirilgan materiallar bilan toʻldirilishi kerak.

Yigʻilgan material tahlil qilinib, tadqiqotga toʻrtki boʻlgan muammoga muvofiq lashtirilishi kerak. Olingan maʼlumotni qayta ishlash va tadqiqot mavzusiga moslashtirish oson kechmaydi. Hatto, barcha savollarga aniq javob olish imkoniyati boʻlganda ham koʻplab tadqiqotlar toʻgʻallanmay qolib ketadi. Tadqiqot natijalari tahlil qilingandan soʻng, hisobot tayyorlanishi shart. Odatda jurnal maqolasi yoki kitob shaklida chop etiladigan hisobot tadqiqot tabiatining izohi va qilingan xulosalarni asoslashdan iborat boʻladi. Bu oxirgi bosqich hisoblanadi. Koʻplab hisobotlardan javobsiz qolgan savollar kelib chiqadi va qoʻshimcha tadqiqotlar oʻtkazish talab etiladi. Har qanday individual tadqiqot faoliyati ijtimoiy ham jamiyat doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqot jarayonining bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasida tadqiqot bilan bogʻliq muammolarni oʻrganishda vujudga keladigan eng muhim muammolardan biri – sabab va oqibatlar taxlilidir. Ikki hodisa yoki xolatning sababli bogʻlanishi – bu shunday bogʻlanishki, unda bir hodisa yoki xolat boshqa birini keltirib chiqaradi. Misol uchun togʻ yon bagʻrida

⁴⁴ Aliqoriyev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya.-T. Universitet.1999. 127-132 betlar.

turgan avtomobilning qo'l tormozi qo'yib yuborilishi ko'rsatilgan oqibatni keltirib chiqaradi. Xuddi tabiiy fanlar kabi, sotsiologiya ham barcha hodisalar o'z sabablariga ega, degan taxmindan kelib chiqadi. Sotsiologik tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sabab va oqibatlarni aniqlashdan iborat.

Ma'lumotlarni taxlil qilish bu farazni tekshirish, olingan bilimlarni o'rini aniqlash, axborotni ishlab chiqish, EHM ga taxlil uchun beriluvchi ma'lumotlarni tayyorlash.

Informasiyalarni ishlab chiqish, guruhlash. Sotsiologiyada taxlil uchun matematik metodlarni o'rni ham ahamiyatlidir. Bu matematik metodni qo'llashdagi asosiy muammo matematik apparatni tuzib chiqishdir. Matematik usullar sotsiologik tadqiqotlarda qo'yidagi vazifalarni hal etadi:

1. Taxlil.
2. Tanlash.
3. Modellashtirish.
4. O'lchash.

Hulosa qiladigan bo'lsak, sotsiologik tadqiqotlarda matematikani qo'llanishining muhim jihati – sotsial hodisalarni modellashtirishdir.

8.6. Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish.

Sotsiologik tadqiqotlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil etish tadqiqotlar jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichning maqsadi natijalarning ma'nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdan iborat. Sotsiologik tadqiqotlarning natijalarini to'g'ri izohlab beruvchi qator ilmiy uslubiy yechimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi (sotsiologlar, respondentlar, ma'muriyat) ishtirokida amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va gipotezalarning hayotiyliigi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli gipotezani sinash jarayonida tadqiqotchi ko'proq real hodisalarga tayanishi, xilma-xil ma'lumotlarni birlashtirishi, empirik materiallardan o'rganilayotgan ob'yektning zaruriy jihat va xossalarni ajratib berishga intilishi kerak. Sotsiologik tahlilning natijalari tizimlashgan va guruhlariga ajratilgan ko'rinishda ilmiy hisobotda namoyon bo'ladi. Hisobotning ilovasi sifatida jadvallar, grafiklar, so'rovnomalar, blanklar, testlar va boshqalar keltiriladi.

Amaliy sotsiologik tadqiqotning asosiy maqsadi amaliyot tomonidan ilgari surilgan masalalarning echimidir. Shuning uchun bunday tadqiqot hisobotida gipotezalar, tadqiqot vazifalari, o'rtacha ko'rsatkichlar tizimi, axborotlar, boshlang'ich axborotlarni yig'ish bo'yicha tadqiqot uslublari tarkibi tavsiflab beriladi.

Hisobotga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

- hisobotda tadqiqotning predmetiga mos mantiqan barcha o'zaro bog'langan muammolar guruhlari iloji boricha chuqur va to'la aks ettirilgan bo'lishi kerak;

- bajariladigan ishlarning turkumining mantiqiy ketma-ketligi ta'minlangan bo'lishi kerak;

- hisobotning har bo'limida tadrijiy bir-birini to'ldiruvchi ikki qismining o'zaro mutanosibligini ta'minlash zarur;

- so'rovnomaning barcha savollari va ularga mos natijalar ilmiy mantiq talablariga binoan tahlil etilishi kerak;

- hisobot texnik jihatdan yuqori saviyada rasmiylashtirilishi va to'g'ri tuzilishi kerak.

Sotsiologik tadqiqotni tashkil qilishga va o'tkazilishiga katta sarf-xarajatlar ketishi tufayli o'rganilayotgan muammoni iloji boricha to'laroq qamrab oladigan bir nechta gipoteza ilgari suriladi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va gipotezalarning hayotiyliigi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli gipotezani sinash jarayonida tadqiqotchi ko'proq real hodisalarga tayanishi, xilma-xil ma'lumotlarni birlashtirishi, empirik materiallardan o'rganilayotgan ob'yektning zaruriy, muhim jihat va xossalari ajratib berishga intilishi kerak.

Gipotezalarni empirik sinashning eng yaxshi usullaridan biri *sotsiologik eksperimentdir*. U gipotezalarni sinash usullaridan eng ishonchlisi bo'lsada, o'rganilayotgan sub'yektlar orasidagi bog'lanishlar murakkab va ko'p qirrali bo'lganligi sababli hozirgi paytda kam ishlatiladi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri statistik usuldir. Gipotezalarning ishonchliligini aniqlashning tipik usuli sifatida miqdorlarning o'rtacha qiymatlarini hisoblash, o'zaro bog'liq koeffitsiyentlarni aniqlash va h.k. ni ko'rsatib o'tish mumkin.

Ilmiy hisobotni tuzish. Sotsiologik tahlilning natijalari tizimlashgan va guruhlariga ajratilgan ko'rinishda ilmiy hisobotda namoyon bo'ladi. Hisobotni tayyorlashda shuni esda tutish kerakki, u keyinchalik nazariy ishlarni davom ettirishga asos bo'lishi va ijtimoiy boshqaruv amaliyotida sotsiologik tadqiqotlar natijalarini aks ettiruvchi mohiyat va shaklga ega bo'lishi kerak. Hisobotga izohlovchi xat kiritilishi ilmiy taomilga kirgan bo'lib, unda qisqacha asosiy xulosalar va natijalar keltiriladi.

Hisobotning ilovasi sifatida jadvallar, grafiklar, so'rovnomalar, blanklar, test va boshqalar keltiriladi.

Hisobotning bo'limlari. Hisobotning tarkibi tadqiqotning turiga, nazariy yoki amaliy ekanligiga bog'liqdir.

Dastavval hisobot tuzilayotganda muammoning qo'yilishi, tadqiq etiluvchi masalalarning ta'rifi, asosiy tushunchalarning nazariy interpretatsiyasi, muammoning qay darajada o'rganilganligi va uning yechimiga e'tibor beriladi. Alohida e'tiborni tadqiqotning uslublar tasnifiga, tanlovning tuzilishini, axborotlarni yig'ish tartiblariga ajratish kerak. Oxirida alohida bo'lim orqali o'tkazilgan tadqiqot natijalarining har tomonlama tahlili va qo'yilgan masalalarning yechim darajasi tasniflanadi. Bu bo'limning oxirida tadqiqotning mavjud bo'lgan amaliy natijalari ko'rsatiladi va aniq xulosalar shakllanadi, yangi axborotni olish zarurligi aniqlanadi va uni hosil qilish uchun texnikaviy uslubiy tavsiyalar beriladi.

Ikkinchidan, hisobotning har bir bo'limida tadrijiy bir-birini to'ldiruvchi ikki qismning o'zaro mutanosibligini ta'minlash zarur. Birinchi qismda

muammolar va natijalarni, ikkinchi qismda esa xulosalarni chuqur ilmiy asoslab berishi shart. Bu esa, tadqiqotchini hozirgi ahvolni sharhlash va umumlashtirishdan tashqari, uni tahlil va prognoz qilishga undaydi.

Uchinchidan, hisobot so'rovnomadagi savollar ketma-ketligidan mustasno, respondentlarning sotsial-ruhiy portreti, intellektual imkoniyatlari, voqelikka munosabati umumiy manzarasining ifodasidan iborat bo'lishi kerak. Hisobotda so'rovnomaning barcha savollari va ularga mos natijalari ilmiy mantiq talablariga binoan tahlil etib beriladi.

To'rtinchidan, hisobotning texnik jihatdan yuqori saviyada rasmiylashtirilishi va to'g'ri tuzilishi katta ahamiyatga ega. Ko'pi bilan hisobot (ilovasiz) 50-60 betdan iborat bo'lganligi ma'qul. Hisobotga doir tushuntirish xati 10 betgacha bo'lishi mumkin. Hisobotda tadqiqot ishlariga jalb etilgan barcha tashkilotlar, o'tkazilish muddati va joylari, tadqiqot uslubiyoti bo'yicha ko'rsatma beruvchilarni tayyorlashning tartibi va tarkibi, ma'lumotlar yig'ishning takomillashtirilishi, axborotlarni kodlashtirish uchun ishlatilgan tizim va matematik ishlov berishda qo'llanilgan usullar ko'rsatilishi lozim. Jadvallar keragidan ortiqcha raqamlarga ega bo'lmasligi kerak.

Bundan tashqari, hisobot yozish jarayonida buyurtmachiga tadqiqotning eng muhim natijalari bo'yicha tezkor axborotlarni topshirish maqsadga muvofiqdir.

Qisqacha xulosalar:

Amaliy (empirik) sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali talabalar, mutasaddi mutaxassislar hamda keng jamoatchilik ommasi sotsiologik axborotlar tizimini yaratishda katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. Sotsiologik tadqiqotlar jamiyatning turli sohalari faoliyatini mo'tadil rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida jamiyatning turli sohasini bir-biriga muvofiqlashtirish lozim bo'ladi. Buni amalga oshirishda sosiologiya fanining imkoniyatlaridan to'la foydalanish maqsadga muvofiqdir. Empirik tadqiqotlar tajribasidan har xil sohadagi va kasbdagi xodimlar ham o'z ishlarida keng foydalanishlari mumkin. Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy izlanish muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda bo'lishini ko'rsatuvchi mo'ljal vazifasini o'taydi. Sotsiologik tadqiqotlar dasturida ilmiy izlanishga sabab bo'lgan ijtimoiy ziddiyatli muammolar va ularni asosiy atama va tushunchalari atroflicha izohlab beriladi. Ayni vaqtda ba'zi ilmiy tushunchalarni empirik tarzda izohlash va tushunchalar dialektikasini real ko'rinishda kuzatish imkoniyatlari ilmiy so'zlar, faktlar va ijtimoiy ko'rsatkichlar tarzida batafsil bayon etiladi. Masalan, bilim olish samaradorligini ta'minlashning prolong (uzaytirish) usuli haqida fikr yuritiladigan bo'lsa, ana shu usul zarur fanlarni yoki zarur ko'nikma va hunarlarni o'zlashtirishning boshqa fanlar mazmuniga uyg'unlashtirish natijasida qay usulda o'zlashtirish mumkinligi aniq-oydin bayon etilishi lozim. Intervyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Bu muloqotni qog'oz yoki magnit tasmasiga qayd etish mumkin. Intervyu (inglizcha-uchrashuv) usulidan sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, etnografiya, statistika, pedagogika kabi sohalarda foydalaniladi.

Intervyu o'tkazilish tajribasiga ko'ra erkin standart va yarim standart ko'rinishiga ega bo'ladi. Erkin standart ilgaridan tayyorlangan savollar asosida emas, balki suhbat mazmunidan kelib chiquvchi savollar asosida qurilib, dastur yo'nalishida bir necha soat davom etish va tadqiqot muammosini aniqlash, razvedka vazifasini bajarish maqsadida foydalanishi ko'zda tutadi.

Nazorat savollari:

1. Sotsiologik tadqiqotlar deganda nimani tushunasiz?
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi qanday tuziladi?
3. Panel tadqiqotlar nima?
4. Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy faraz qanday o'rin tutadi?
5. So'rov usul qanday usul?
6. Anketa so'zining ma'nosi qanday?
7. Intervyu bilan oddiy suhbatning farqi qanday?
8. Intervyu oluvchi nimalarga e'tibor berishi kerak?
9. Kuzatish usulining afzalliklari qanday?
10. Test usulining sotsiologik tadqiqotlarda tutgan o'rni qanday?

MAVZU YUZASIDAN IZOHLI LUGAT

Adaptatsiya	biologik organizmning muayyan sharoitda yashashga moslashish qobiliyati.
Axborotni kodlashtirish	empirik ma'lumotlarni zarur tartiblar asosida qayta ishlash va taxlil qilishga tayorlash bo'yicha chora tadbirlar.
Anketa	(fr. enquete)- o'z mazmun va shakliga ko'ra tartiblangan savollar va mulohazalar bayon qilingan so'rov varaqasi
Bashorat	ma'lum bir dalillarga asoslangan holda biron bir jarayon rivojlanishi yo'nalishlarini oldindan ilmiy tarzda ko'ra bilish
Bandlik	aholining ijtimoiy ishlab ciqarishga jalb etilganligini ifodalovchi ijtimoiy iqtisodiy kategoriya
Bo'sh vaqt	inson ijtimoiy guruh va umuman jamiyatga zaruriy ravishda sarflanadigan vaqt zahiralaridan ortib qoladigan, ya'ni bo'sh vaqtdan tashqaridagi vaqt qismi
Begonalashuv	odamlar ijtimoiy guruhlarning bir-biri bilan yonma yon yashashlariga qaramasdan ular o'rtasidagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon
Vorislik	muayyan muxitta keng tarqalgan turning boshqa turlar bilan almashtirilishini bildiradi.
Gipoteza	ilmiy taxmin, bashorat
Guruhiy birdamlik	shaxslararo aloqalarning guruh hayotiy faoliyatining vorisiyligini va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustahkamligi
Davlatchilik jamiyati	rasmiy apparatga ega bo'lgan jamiyat
Jamoatchilik fikri	joriy masalalarga jamiyat a'zolarining umumiy qarashlari.
Individ	(lot. individium -takrorlanmas)- odamzodning vakili, o'ziga xos takrorlanmas xususiyatlar egasi hisoblanmish odam
Ijtimoiy toifa	individlarning umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan statistik guruhi.
Ijtimoiylashuv agentlari	ijtimoiylashuvning eng muhim jarayonlari yuz beradigan guruhlar.

Ijtimoiylashuv	shaxsning ijtimoiy me'yorlar va madaniy qadriyat
Ijtimoiy aloqa	larni o'zlashtirish jarayoni. odamlarning ijtimoiy ta'sir orqali amalga oshiriladigan bog'liqligi.
Ijtimoiy munosabatlar	hamkor shaxslarning barqaror o'zaro ta'siri
Ikkilamchi guruh	bir-birlari bilan shaxsan tanish bo'lmagan individlar guruhi.
Makrosotsiologiya	katta ko'lamdagi guruhlar, tashkilotlar yoki ijtimoiy tizimlarni o'rganish.
Mikrosotsiologiya	inson xulq atvorini yuzma-yuz ta'sir kontekstida o'rganish.
Matriarxal oila	erning xotin qarindoshlari bilan birga yashashini taqazo qiladigan oilaviy tizim.
Monogamiya	nikoh shakli bo'lib, unda nikohdagi har bir individga ayni bir paytning o'zida bitta er yoki bitta xotin bilan nikoxlanishga ruxsat etiladi.
Motivatsiya	shaxsiy yoki guruhiy ehtiyojlarni amalga oshirishdagi harakatlantiruvchi istak.
Mentalitet	(lot. mens-aql, tafakkur) – individ yoki ijtimoiy guruh, millatning o'ziga xos tafakkur tarzi, birgalikda harakat qilishga tayyorligi.
Monoteizm	yakkaxudolik.
Noformal iqtisodiyot	pul muomalasining rasmiy doirasidan chetda bajariladigan iqtisodiy operatsiya.
Nuklear oila	ota, ona hamda balog'atga etmagan bolalikdan tashkil topgan oila.
Oligarxiya	tashkilot yoki jamiyatda juda ozchilikning idora qilishi.
Oila sotsiologiyasi	oilani nikoh asosida tashkil topgan va muayyan vazifani bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida o'rganuvchi soha;
Oliy ta'lim	maktabdan keyin kollej yoki universitetlarda davom etadigan ta'lim.
OAV	gazeta, jurnal, radio, televidenie singari auditoriyalarga mo'ljallangan kommunikatsiya turlari.
Plyuralistik jamiyat	bir necha etnik guruhlar bir-biridan aloxida yashovchi jamiyat.
Reproduktiv oila	individ bilan nikohdan o'tganda yoki bola ko'rganda vujudga kelgan oila.
Sanksiya	rag'batlantirish yoki jazolash turlari bo'lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bo'lgan xulq-atvor me'yorlari.

Sinfiy ong	individ tomonidan sinfiy tizimni va mansub bo'lgan sinfnig anglanishi.
Sotsiologik tasavvur	sotsiologik tadqiqot jarayonida o'z tasavvurlarini qo'llash.
Surrogat onalik	bola ko'rmaydigan er-xotinlar uchun boshqa ayolning bola tug'ib berishi.
Tabaqa	individlar guruhlari o'rtasidagi tengsizlik, qonun tomonidan mustahkamlangan tabaqalar.
Tashkilot	muayyan hokimiyat munosabatlari tizimiga jalb etilgan odamlarning katta guruhi.
Ta'lim tizimi	muayyan jamiyat doirasida ta'limni ta'minlovchi tizim.
Terrorizm	nodavlat guruhlarning siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan foydalanish.
Totemizm	muayyan turdagi hayvonlar yoki o'simliklarga ilohiy xususiyatlarni tirkovchi diniy e'tiqod tizimi.
Urbanizatsiya	kichik va katta shaharlarning rivojlanishi.
Fan	ob'yektlar, hodisalar va odamlarni o'rganishda tadqiqotning tizimli usullari.
Faraz	empirik tadqiqotning asosi sifatida Olg'a surilayotgan g'oya yoki taxmin.
Fuqaro	siyosiy hamjamiyatning fuqarolik bilan bog'liq muayyan xuquq va majburiyatlarga ega bo'lgan a'zosi.
Fikrlik huquqi	muayyan davlatning barcha fuqarolari ega
Emperik taqiqotlar	Sotsiologiyaning har bir sohasida o'tkaziladigan amaliy tadqiqotlar.
Qo'yi sinf	sinfiy piramidaning eng qo'yi qismida joylashgan individlar sinfi.
Hujjatli tadqiqot	arxiv materiallari yoki rasmiy statistik ma'lumotlari singari hujjatlarni o'rganishga asoslangan tadqiqot.

Foydalaniladigan manbalar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2011.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T.: «O'zbekiston» 1998.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq», 1997.
- 4.O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. T.: «Mehnat», 1996.
- 5.Karimov I. A. O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1998.
- 6.Karimov I. A. O'zbekiston XXI- asrga intilmoqda. T.: 1998.
- 7.Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-18- jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-2010.
- 8.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 9.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Toshkent, 2010.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent, 2010.
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
13. Abu Nasr Forobiy, Fozil odamlar shahri, T.: 1993.
14. Aliqoriev N.S. va b.Umumiy sotsiologiya. – Toshkent, 1999.
15. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish. –Andijon, 1995.
16. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 1994.
17. Кравченко А.И. Социология. – М.: 2001.
18. Осипов Г. В.Социология. Основой теории.Учебник для вузов. – М.: Норма, 2002.
19. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, 2000.
20. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002.
21. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. “Ijtimoiy fikr” Markazi. – Toshkent, 2001.
22. Shafranov-Kusev G.F. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Tyumen, 2005.
23. Yunusov K. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Andijon, 1997.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abduraxmonov F.R., Saidxodjaev X.B. Sostiologiya. Ma'ruzalar kursi. – Toshkent: O'zRIIVA, 2000.
2. Дюркгейм Э.Метод социологии.СПб., 1998.

3. Дюркгейм Э.О. Развитие общественного труда. Метод социологии. – М., 1990.
4. Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
5. Inson taraqqiyoti to'g'risida hisobot. – Toshkent, 1998.
6. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 1998.
7. Кандауров В,И,Страданшенков А.С. Социология, Курс лекции. – М.: Инфрам, 2001.
8. Mullajanova M.M. va boshq. Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matnlari. – Toshkent: ToshDIU, 2003.
9. Nosirxo'jaev S., Bekmurodov M., Sultonov T., Nosirho'jaeva H. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent: Nizomiy nom. TDPU, 2000.
10. Otamurodov S., Otamurodov Sarvar. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
11. Ubaydullaeva R.T., Haydarov A. Sotsiologiya tarixi. – Toshkent, 1993.
12. Umarova R., Sarkisov B. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004.
13. Хан С., Хан В. Социология. курс лекции – Toshkent: Adolat, 1999.
14. Xarcheva V. Osnov sotsiologii. – М., 1994.
15. Xolbekov A. Sharq va G'arb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti. – Toshkent, 1996.
16. Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya: izohli lug'at-ma'lumotnoma. – Toshkent: Ibn Sino nashr., 1999.
17. Xoshimov T.R. Sotsiologiya. (O'quv - uslub. qo'll.). – Toshkent, 1996.
18. Шикун А,И, Социология. Учебное пособие. – М.: Дикта, 2005.
19. Qurbonov Sh., Majidov I., Qo'chqorov R. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tayyorlash. – Toshkent: Akademiya, 2002.
20. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. – М.: Добросвет, 1998.

Интернет манбалари:

[http: www.lib.socio.msu.ru](http://www.lib.socio.msu.ru)
[http: www.socioline.ru](http://www.socioline.ru)
[http: www.socio.rin.ru](http://www.socio.rin.ru)
[http: www.sociologos.narod.ru](http://www.sociologos.narod.ru)
[http: www.socionet.narod.ru](http://www.socionet.narod.ru)
[http: www.sociograd.](http://www.sociograd.)

